

# Urganch davlat pedagogika instituti axborotnomasi

ilmiy-nazariy va  
metodik jurnal



ISSN:  
**2992-8796**



Nº 3 |  
2025 |  
may

Bulletin of Urgench state  
pedagogical institute scientific-  
theoretical and methodical journal

# URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA

## INSTITUTI AXBOROTNOMASI

### ilmiy-nazariy va metodik jurnal

# 3/2025

#### Bosh muharrir:

Madraximova Feruza Ruzimbayevna  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

#### Bosh muharrir o'rinosari:

Abdullayev Diyorjon Nodirjon o'g'li  
tarix fanlari doktori, dotsent

#### Tahrir hay'ati a'zolari:

|                  |                                 |
|------------------|---------------------------------|
| X.Ibragimov      | - akademik                      |
| Ye.I.Pivovar     | - akademik (Rossiya)            |
| A.Sadullayev     | - akademik                      |
| Orhun Uzun       | - f.m.f.d., professor (Turkiya) |
| X.Bekchanov      | - b.f.d., professor             |
| Li Tsi           | - p.f.d., professor (Xitoy)     |
| B.Abdullayeva    | - p.f.d., professor             |
| E.Ruziyev        | - p.f.d., professor             |
| O.Xaitov         | - p.f.d., professor             |
| A.Lubkov         | - t.f.d. professor (Rossiya)    |
| E.Nuriddinov     | - t.f.d. professor              |
| J.Ismailova      | - t.f.d. professor              |
| N.Mamatov        | - f.f.d., professor             |
| M.Qahharova      | - f.f.d., professor             |
| J.Yusubov        | - f.f.d., dotsent               |
| O'Matnazarov     | - p.f.n., professor             |
| U.Sheripov       | - t.f.n., dotsent               |
| M.Sobirova       | - f.f.n., dotsent               |
| G.Eshchanova     | - f.f.n., dotsent               |
| A.Atajonova      | - f.f.n., dotsent               |
| N.Masharipova    | - f.f.n., dotsent               |
| D.Xajiyeva       | - f.f.n., dotsent               |
| J.Xujanov        | - f.m.f.n., dotsent             |
| Sh.Xudayberganov | - PhD, dotsent                  |
| D.Nafasov        | - PhD, dotsent                  |
| J.Yusubov        | - PhD, dotsent                  |
| T.Absalamov      | - PhD, dotsent                  |
| H.Matyoqubov     | - PhD, dotsent                  |
| U.Xo'jamuratov   | - PhD, dotsent                  |
| E.Nabiiev        | - PhD, dotsent                  |
| A.Madaminov      | - PhD, dotsent                  |

Muassis – Urganch davlat pedagogika instituti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, tarix, falsafa fanlarini o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2023-yil 17-fevraldagi 064130-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston ISSN Milliy markazi tomonidan 2024-yil 5-yanvardan Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar ISSN: 2992-8796 raqами taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2024-yil 27-sentyabrdagi 361-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

# BULLETIN OF URGENCH STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

scientific-theoretical and methodical journal

## 3/2025

### Chief Editor:

**Madrakhimova Feruza Ruzimbayevna**  
**Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Prof.**

### Deputy Chief Editor:

**Abdullayev Diyorjon Nodirjon oglı**  
**Doctor of Historical Sciences, Associate Professor**

### Editorial board:

|                          |                            |
|--------------------------|----------------------------|
| <b>Kh.Ibragimov</b>      | - academician              |
| <b>Ye.I.Pivovar</b>      | - academician (Russia)     |
| <b>A.Sadullayev</b>      | - academician              |
| <b>Orhun Uzun</b>        | - professor (Turkey)       |
| <b>Kh.Bekchanov</b>      | - professor                |
| <b>Li Tsi</b>            | - professor (China)        |
| <b>B.Abdullayeva</b>     | - professor                |
| <b>E.Ruziyev</b>         | - professor                |
| <b>O.Khaitov</b>         | - professor                |
| <b>A.Lubkov</b>          | - professor (Russia)       |
| <b>E.Nuriddinov</b>      | - professor                |
| <b>J.Ismailova</b>       | - professor                |
| <b>N.Mamatov</b>         | - professor                |
| <b>M.Qahharova</b>       | - professor                |
| <b>J.Yusubov</b>         | - associate professor      |
| <b>U.Matnazarov</b>      | - professor                |
| <b>U.Sheripov</b>        | - associate professor      |
| <b>M.Sobirova</b>        | - associate professor      |
| <b>G.Eshchanova</b>      | - associate professor      |
| <b>A.Atajonova</b>       | - associate professor      |
| <b>N.Masharipova</b>     | - associate professor      |
| <b>D.Khajiyeva</b>       | - associate professor      |
| <b>J.Khujanov</b>        | - associate professor      |
| <b>Sh.Khudayberganov</b> | - PhD, associate professor |
| <b>D.Nafasov</b>         | - PhD, associate professor |
| <b>J.Yusubov</b>         | - PhD, associate professor |
| <b>T.Absalamov</b>       | - PhD, associate professor |
| <b>H.Matyoqubov</b>      | - PhD, associate professor |
| <b>U.Khujamuratov</b>    | - PhD, associate professor |
| <b>E.Nabiiev</b>         | - PhD, associate professor |
| <b>A.Madaminov</b>       | - PhD, associate professor |

The Founder – Urgench State Pedagogical Institute. The journal publishes scientific-theoretical, scientific-methodical articles on methods and technologies of teaching pedagogy, psychology, history, philosophy in Uzbek, Russian and English.

The journal received a “Certificate of State Registration of a Mass Media” No. 064130 dated February 17, 2023 from the Tashkent City Press and Information Department, and was assigned the International Standards of Periodicals ISSN: 2992-8796 number by the ISSN National Center of Uzbekistan from January 5, 2024.

Registered by the Resolution of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan No. 361 dated September 27, 2024.

**KOMPLEKS SONLARNING TRIGONOMETRIK SHAKLI:  
NAZARIYA VA AMALIYOTDA QO'LLANISHLARI**

**Mahmudova Nazokat Otabek qizi, Yamgirova Gulshirin Tirkashovna,**

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchilari

**Sa'dullayeva Nilufar Javlon qizi, talaba**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kompleks sonlarning trigonometrik shakli haqida nazariy asoslar yoritilgan hamda uning amaliy masalalardagi, xususan fizikada, elektrotexnikada va geometriyada qo'llanilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Trigonometrik shakldagi kompleks sonlar yordamida ko'paytirish, bo'lish, ildiz chiqarish kabi amallarni soddalashtirish usullari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kompleks son, trigonometrik shakl, De Moavr formulasi, modul, argument, amaliy qo'llanilish, geometrik interpretatsiya.

**TRIGONOMETRIC FORM OF COMPLEX NUMBERS:  
THEORY AND APPLICATIONS IN PRACTICE**

**Abstract.** This article explores the theoretical foundations of the trigonometric form of complex numbers and examines their applications in practical problems, particularly in physics, electrical engineering, and geometry. The paper discusses simplification methods for operations such as multiplication, division, and root extraction using the trigonometric form.

**Keywords:** Complex number, trigonometric form, De Moivre's formula, modulus, argument, practical application, geometric interpretation.

**ТРИГОНОМЕТРИЧЕСКАЯ ФОРМА КОМПЛЕКСНЫХ ЧИСЕЛ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические основы тригонометрической формы комплексных чисел, а также её применение в практических задачах, в частности, в физике, электротехнике и геометрии. Описаны методы упрощения операций умножения, деления и извлечения корней с использованием тригонометрической формы.

**Ключевые слова:** Комплексное число, тригонометрическая форма, формула Муавра, модуль, аргумент, практическое применение, геометрическая интерпретация.

**Kirish.** Zamonaviy matematikada kompleks sonlar — bu nafaqt nazariy konsepsiya, balki elektrotexnika, signal ishslash, kompyuter grafikasi va boshqa ko'plab sohalarda muhim amaliy vositadir. Ularni geometrik va trigonometrik shakllarda tasvirlash, ustida amallar bajarishni soddalashtiradi va chuqur tahlil imkonini beradi.

Ushbu maqolada kompleks sonlarning trigonometrik shakli nazariy asosda tahlil qilinib, real misollar yordamida amaliy qo'llanishi yoritiladi. Ayniqsa, Muavr formulasi orqali darajaga ko'tarish va ildiz chiqarish kabi amallar qanday soddalashtirilishini ko'rsatamiz.

**Kompleks son nima?**

Kompleks son umumiy holda quyidagicha yoziladi:

$$z = a + ib$$

Bu yerda:

-  $a$  haqiqiy qism,

- $b$  mavhum (yoki soxta) qism,
- $i$  mavhum birlik bo‘lib,  $i^2 = -1$  ga teng.

Kompleks sonlar to‘plami odatda harfi bilan belgilanadi. Ular sonlar tekisligida nuqta yoki vektor sifatida tasvirlanadi[1].

### Trigonometrik shakli:

Kompleks sonni geometrik shaklda — ya’ni koordinata tekisligida tasvirlaganimizda, u trigonometrik ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$z = r(\cos\theta + i \sin\theta)$$

Bu yerda:

- $r = \sqrt{a^2 + b^2}$  — kompleks sonning moduli, ya’ni origo (0 nuqta) dan masofa,
- $\theta = \arctan(b/a)$  — argument, ya’ni sonning burchagi (radianlarda).

### Kompleks sonlar ustida amallar:

1. Ko‘paytirish:

$$z_1 \cdot z_2 = r_1 \cdot r_2 [\cos(\theta_1 + \theta_2) + i \sin(\theta_1 + \theta_2)].$$

2. Bo‘lish:

$$\frac{z_1}{z_2} = \frac{r_1}{r_2} [\cos(\theta_1 - \theta_2) + i \sin(\theta_1 - \theta_2)].$$

3. Darajaga ko‘tarish (Muavr formulasi):

$$z^n = r^n [\cos(n\theta) + i \sin(n\theta)].$$

4. Ildiz chiqarish:


$$\sqrt[n]{z} = \sqrt[n]{r} [\cos((\theta + 2k\pi)/n) + i \sin((\theta + 2k\pi)/n)], k = 0, 1, \dots, n-1.$$

1-misol.  $z = 1 + i$  ni trigonometrik shaklga o‘tkazing.[2]

$$r = \sqrt{2}, \theta = \frac{\pi}{4} \rightarrow z = \sqrt{2} \left( \cos\left(\frac{\pi}{4}\right) + i \sin\left(\frac{\pi}{4}\right) \right)$$

2-misol:  $z = 1 + i$  onining kubi toping:

$$z^3 = 2\sqrt{2} \left( \cos\left(\frac{3\pi}{4}\right) + i \sin\left(\frac{3\pi}{4}\right) \right)$$



1-rasm. Kompleks sonning grafik tasviri.

Kompleks sonlar bilan hayotda ham ko‘plab muammolarni yechimini topib, rivojlanish

uchun yo'l ochmoq mumkin. Bularga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

**1. Elektr toki va muhandislik amaliyotida qo'llanilishi:**

**a)** Kompleks sonlarning trigonometrik shakli ayniqsa elektr zanjirlaridagi tok va kuchlanishni ifodalashda ishlataladi. Masalan, AC (alternating current) elektr tarmog'ida kuchlanish va tok fazalar orasidagi farqni trigonometrik shaklda ifodalash qulay.

**b)** Hayotiy misol: "Zamonaviy uy jihozlari — konditsioner, televizor, kir yuvish mashinasi — barchasi AC tokda ishlaydi. Ularning ishlash mexanizmlarini loyihalashda, ko'mpleks sonlar muhandislar uchun asosiy vositadir."

**2. To'lqinlar va signal tahlili**

**a)** Raqamli aloqa tizimlari, masalan, telefon, Wi-Fi, radio signallar — barchasida sinusoid to'lqinlar qo'llaniladi. Bunday to'lqinlarni kompleks sonlar yordamida analiz qilish oson.

**b)** Hayotiy misol: "Wi-Fi signallari har kuni hayotimizning bir qismiga aylangan. Uning tahlilida kompleks sonlarning trigonometrik shakli signallarning kuchi, chastotasi va fazasini tu-shunishda qo'llaniladi."

**3. 3D grafik va animatsiya dasturlarida**

**a)** Kompyuter grafikasi va 3D animatsiyalarda obyektlarni aylantirish (rotatsiya) uchun ko'p hollarda kompleks sonlarning trigonometrik shakli ishlataladi. Bu ayniqsa kompyuter o'yinlari va vizual effektlar yaratishda muhim.

**b)** Hayotiy misol: "Ko'pchilik sevadigan 3D o'yinlar — Fortnite, PUBG, yoki animatsion filmlar — aynan ushbu matematik g'oyalarga tayanadi."

**4. Dengiz navigatsiyasi va radar texnologiyalari**

**a)** Kompleks sonlar trigonometrik shaklda harakat yo'nalishini va masofani aniqlashda, ayniqsa, radar va sonlar tizimlarida ishlataladi.

**b)** Hayotiy misol: "Dengiz kemalarining yo'nalishini aniqlovchi radarlar trigonometrik shaklda ifodalangan kompleks sonlardan foydalanadi — bu ularni to'qnashuvlardan saqlaydi."

Kompleks sonlar mavzusini o'tish jarayonida talabalarga tushunarli bo'lishi uchun quyidagi metodlardan foydalanish juda samarali hisoblanadi Chunki bu metodlar o'quvchini mustaqil fikr-lashga , ko'nikma va bilimini rivojlantirishga yordam beradi.[7]

**1. Muammoli ta'lim (problem-based learning)**

**a)** O'quvchilarga hayotiy vaziyat asosida muammo beriladi, masalan: "Elektrotexnika muhandisi AC toki uchun kuchlanish va tok orasidagi burchak farqini aniqlamoqchi. Bu qanday amalga oshiriladi?"

**b)** So'ngra bu muammoni yechishda kompleks sonlarning trigonometrik shakli qanday yordam berishini o'rghanishadi.

**1. Kuzatish va tahlil qilish metodi.**

**a)** Kompleks sonlar yordamida biror texnik vositaning ishlashini kuzatish. Masalan, elektr tok diagrammasi, osilatorlar, yoki sinusoida to'lqinlar.

**b)** Keyin bu kuzatuvga asoslanib, formulalarni tahlil qilish

**3. Analogiya usuli**

**a)** O'quvchiga murakkab tushunchani oddiy, tanish tushunchalar bilan taqqoslash orqali tushuntirish:

**b)** "Kompleks sonlar tekislikdagi nuqtalar kabi. Trigonometrik shakl esa — bu nuqtaning burchakli ko'rinishi, xuddi kompasdagisi yo'nalish kabi."

#### 4. Loyihaviy usul (project-based learning)

a) O‘quvchilarga kichik loyiha topshirig‘i beriladi:

“Smartfon signalining tahlilini oddiy ko‘rinishda loyihalab berish.”

b) Bunda ular kompleks sonlarni qo‘llab, signal fazasini, chastotasini va kuchini model-lashtiradi.

#### 5. Interaktiv vizualizatsiya metodi

a) Geogebra yoki Desmos kabi vositalarda kompleks sonlarning aylanishini vizual ko‘rsatish.

b) Aylanishning radiusi va burchagi qanday o‘zgarishini real vaqt rejimida ko‘rish.

**Kompleks sonlarning trigonometrik shakli quyidagi sohalarda keng qo‘llaniladi:**

-Elektrotexnika

-Signal va to‘lqinlar nazariyasi

-Mexanika va aerodinamika

-Matematik fizika

- Kompyuter grafikasi

**Xulosa.** Kompleks sonlarning trigonometrik shakli — matematikaning nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtiruvchi kuchli vosita hisoblanadi. U orqali murakkab amallar oddiy trigonometrik ifodalarga aylantiriladi. Ayniqsa Muavr formulasi orqali ko‘plab texnik va ilmiy hisob-kitoblar osonlashtiriladi.

#### Adabiyotlar

1. To‘rayev N. A., Xodjayev N. M. Oliy matematika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Ayupov Sh. A., Kadirov A. A. Matematika va uning amaliy qo‘llanmalari. Toshkent: TDPU, 2015.
3. Braun D., Cherchill R. Kompleks o‘zgaruvchilari. Nyu-York: McGraw-Hill, 2014.
4. Styuart J. Hisoblash: Erta transcendental funksiyalar. Boston: Cengage Learning, 2016.
5. Ablayev F. M. Kompleks sonlar va ularning qo‘llanilishi. Moskva: Nauka, 2012.
6. Kreyszig E. Muhandislik uchun oliy matematika. Nyu-York: Wiley, 2011.
7. Khan Academy. <https://www.khanacademy.org>
8. Wolfram MathWorld. <https://mathworld.wolfram.com/ComplexNumber.html>

**UMUMTA'LIM MAK'TABLARIDAGI FUTBOL SPORT TO'GARAGI  
MASHG'ULOTLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UMUMIY JISMONIY  
TAYYORGARLIKNING O'RNI  
Ro'ziboyeva Fotima Qudrat qizi**

UrDU “Sport faoliyat” futbol mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabdan tashqari tashkil qilinadigan sport to'garaklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari futbol sport to'garagining o'quvchilarni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati to'g'risida bat afsil axborot berilgan.

**Kalit so'zlar:** sport to'garaklari, jismoniy tayyorgarlik, maktab, o'quvchi, jismoniy sifatlar, futbol, mashg'ulot.

**РОЛЬ ОБЩЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В ПОВЫШЕНИИ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ ФУТБОЛЬНЫМ СПОРТИВНЫМ  
КРУЖКОМ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ**

**Аннотация.** В этой статье представлена информация о спортивных кружках, организуемых вне школы. Кроме того, подробно рассказывается о роли и значении футбольного спортивного кружка в воспитании воспитанников.

**Ключевые слова:** спортивные кружки, физическая подготовка, школа, ученик, физические качества, футбол, тренировка.

**THE ROLE OF GENERAL PHYSICAL TRAINING IN IMPROVING  
THE EFFECTIVENESS OF FOOTBALL SPORTS CLUB TRAINING IN  
SECONDARY SCHOOLS**

**Abstract.** This article contains information about sports clubs organized outside of school. In addition, detailed information is given about the role and importance of the Football Sports Club in the education of students.

**Keywords:** sports clubs, physical fitness, school, student, physical qualities, football, training.

**Kirish.** Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an'analar tiklandi, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport bilan bog'liq ko'pgina tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 5924-sonli farmoni buning yorqin dalili sifatida keltirish mumkin. Ayniqsa jismoniy tarbiyaning bazaviy tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan umumta'lism maktablaridagi sport to'garaklari muhim ahamiyatga ega. Sport to'garaklari maktab o'quvchilarini qiziqishiga qarab ma'lum sport turiga qaratilgan bo'lib, yangi-yangi iste'doddalarni kashf etishga yordam beradi. Shuni hisobga olib umumta'lism maktabi sport to'garaklarini chuqurroq o'rganish zaruriyati tug'iladi.

Sport to'garaklari - bu qiziqarli, hayajonli mashg'ulot bo'lib, u nafaqat bolalarning mushaklari va irodasini mustahkamlaydi, shu qatorda unga quvonch, halol raqobat ruhi va g'alaba qozonish uchun ishonch istagini beradi. Bu his-tuyg'ular nafaqat sport to'garaklari muvaffaqiyatida, balki kundalik hayotda ham katta yordam beradi. Sport to'garaklarida g'alaba qozonishga odatlanan o'quvchilarning o'qishga, kasbga, kundalik ishiga ham shunday qarashi shakllanadi. Doimiy ravishda sport to'garaklari bilan shug'ullangan bolalar hayotida ijobjiy tomonga o'zgaradi, jismoniy sifatlari oshadi va insoniy xislatlari tarbiyalanadi, aniq maqsadli va maqsadga erishish yo'lida qat'i-

yatli bo‘ladi [1; 118-120-b].

Yoshlikda olingen bilim, ko‘nikma inson hayoti faoliyati davomida yutuqlarining mustah-kam tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Shuni inobatga olib biz yoshlarning sport turiga qiziqishlarini nisbatan erta, samarali yo‘l bilan aniqlash metodlarini ishlab chiqsak, ular shu sport turining nazariy, texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarliklarini samarali egallaydilar. Sport to‘garaklari mashg‘ulotlarida hayotiy zarur ko‘nikma va malakalari yanada shakllanadi, rivojlanadi. Jismoniy sifatlari, jismoniy rivojlanishi yaxshilanadi. O‘qish va mehnat faoliyatida optimal harakatlanishga odatlanadi va Vatan mudofaasiga tayyorgarlik oshadi. Sport to‘garak mashg‘ulotlari sportni aynan biron turidan tashkil etiladi va bu jarayonda o‘quvchilar musobaqalashuvi yuzaga keladi. Musoba-qalashuv jarayonida umumi jismoniy tayyorgarligi yuqori, ammo, maxsus jismoniy tayyorgarligi sust bolalar g‘olib chiqishi qiyin bo‘ladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Umumta’lim maktablarida haftaning ikki yoki uch kunida o‘tkaziladigan sport to‘garak mashg‘ulotlari kunni ikkinchi yarmida mакtab jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va jamoatchi yo‘riqchilar bilan tanlangan sport turlaridan olib boriladi. Ushbu mashg‘ulotlarni tashkillash va o‘tkazishdan asosiy maqsad qilib, o‘quvchilarni sog‘lomlashtirish va harakatga oid bilim, ko‘nikmalarini hamda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish hisoblanadi. O‘quvchi yoshlari bilan o‘tkaziladigan sport to‘garak mashg‘ulotlari ko‘zlagan maqsadni amalga oshirishida avvalo murabbiy shug‘ullanuvchi uchun berilayotgan yuklamani to‘g‘ri taqsimlay olishi zarur chunki, betartib berilgan yuklama bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulot, bolalarda futbol sport to‘garagiga nisbatan bezishni yuzaga keltiradi [1; 201-203-b].

Umumta’lim maktabi sport to‘garak mashg‘ulotlarini ko‘p hollarda sport o‘yinlari asosida (futbol, voleybol, gandbol va basketbol) o‘tkazilmoqda. Sport to‘garaklarining o‘quvchilar yoshiga mosligi haqida adabiyotlarda ma’lumotlar keltirilgan. Unga ko‘ra mazkur sport to‘garaklari bilan 10- 12 yoshdan boshlab muntazam shug‘ullanish mumkinligi hamda shu sport turlarining o‘quvchilar jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligiga ijobjiy ta’siri haqida ma’lumotlar mavjud. Albatta mакtab o‘quvchilarining yoshiga ko‘ra futbol sport to‘garaklariga jalb etish juda muhim ammo, sport to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etishda mashq ta’sir yo‘nalishi hisobga olmaslik natijasida biz kutgan natijaga erisha olmaymiz. Shu sababdan biz endigi ma’lumotlarni sport to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarining jismoniy sifatlari va jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish hamda tayyorgarlik turlari haqida ma’lumotlarni bayon etamiz [1; 211-212-b].

Umumta’lim maktabi o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlini futbol sport to‘garak mashg‘ulotlarida rivojlanishi uchun ular jismi orqali namoyon qiladigan sifatlarini rivojlantirish juda muhim sanaladi. Biz sport to‘garaklarida mana shu jismoniy tayyorgarlik turlari va ularni rivojlantirishga doir so‘z yuritamiz.

Sport to‘garak mashg‘ulotlari avvalo o‘quvchilarni sog‘lomlashtirish uchun o‘tkaziladi, bi-roq sport to‘garaklari ma’lum bir sport turiga asoslanishi hisobga olsak mana shu sport turi bo‘yicha kichik bo‘lsa ham natijaga erishish (mакtab birinchiligi, tuman va viloyat maktabi o‘quvchilar o‘rtasidagi musobaqalarda g‘olib bo‘lish)ni maqsad qilib qo‘yadilar, mana shu ikki maqsad bir birini inkor qilmasligi uchun biz “Sportchi umumi va maxsus jismoniy tayyorgarligining birligi” tamoyili mazkur sport to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazishda eng oqilona qoida deb hisoblaymiz.

Yuqori natijalarga erishish uchun nafaqat sportchi o‘quvchining mehnati, uning murabbiysi, mакtab shifokori, psixologi va jamiyatdagi yaratilgan sharoitning ham o‘rni beqiyosdir. Albatta jismoniy madaniyat va sport sohasida ilmiy izlanayotgan tadqiqotlarining sportda bunday natija-larga erishishlari uchun xizmatlari juda yuqori chunki, ular tomonidan yaratilgan yangi metodlar va vositalarsiz bunday natijalarga erishish mushkul bo‘ladi. Har bir mamlakat o‘z jamiyatini aholisini sog‘lom va jismonan barkamol bo‘lib shakllanishi uchun jismoniy tarbiya va sportning turli vosita

va metodlaridan foydalanadilar. Albatta, ushbu jarayonni boshlanish nuqtasi maktabgacha va maktab yoshidagi jismoniy tarbiya va sport to‘garaklarini to‘g‘ri va muvofiq tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi[2; 98-99-b].

**Natijalar.** Futbol sport to‘garagi – bu yoshlarda sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularning jismoniy holatini mustahkamlash va jamoadagi ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar majmuasidir. To‘garak mashg‘ulotlari tajribali murabbiylar tomonidan olib boriladi va har bir ishtirokchining yoshi, salohiyati va sportga bo‘lgan qiziqishidan kelib chiqib tuziladi.

Mashg‘ulotlarda futbol o‘yinining asosiy qoidalari, texnikasi va taktikasi o‘rgatiladi. O‘yinchilar to‘p uzatish, to‘p bilan ishlash, darvozaga zarba yo‘llash, himoya va hujum harakatlarini mukammallashtiradilar. Bundan tashqari, turli musobaqalarda ishtirok etish orqali bolalar o‘z mahoratlarini sinab ko‘radilar va g‘alaba sari intilishni o‘rganadilar.

Futbolchilarning umumiyligi - bu inson organizmining harakat sifatlarini teng, birini-biridan ustun qilib rivojlantirmay, barchasini baravariga rivojlantirish (har tomonlama jismoniy tayyorgarlik) ga yo‘naltirilgan ko‘p yillik pedagogik jarayon tushuniladi.

Bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan “Sog‘lom turmush tarzi” jismoniy madaniyatining asosida ham jamiyat a’zosini umumiyligi tayyorgarligini yaxshilash masalasini hal qilish yotadi. Ushbu tayyorgarlikning mazmuni, vositalari, usullari va mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilar faoliyatining barcha shakllari, u sport faoliyatini, mehnat jarayoni faoliyati ko‘rinishida bo‘ladimi, keng jihatli bazaviy jismoniy tayyorgarlikni yuzaga keltirishga yo‘naltiriladi.

Futbolchilarning umumiyligi tayyorgarlik jarayonida asosan quyidagi vazifalar hal etiladi, ular:

a) o‘quvchilar organizmining har tomonlama jismoniy rivojlanishiga ta’sir etish bilan chidamlilik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalash bilan o‘quvchilar nafaqat dars faoliyatida balki kelajakdagি mehnat faoliyati davomida yoshi uchun mos darajadagi harakat faolligligi darajasini ushslashiga qulay sharoitni yaratish;

b) futbol to‘garagi qatnashchilarini salomatligini mustahkamlash, organizmni tashqi muhitning zararli omillariga qarshi tura olish qobiliyatini kuchaytirish;

d) o‘qish va mashg‘ulot jarayonida ish qobiliyati pasaygan holatlarda faol hordiq chiqarib, organizm tiklashi uchun sharoit yaratish;

e) mashg‘ulotda va boshqa hayotiy vazifalarni hal etish jarayonida qo‘srimcha yoki kutilmaganda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish uchun iroda kuchini mustahkamlash uchun juda ham ijobjiy natija beradi. Albatta futbol sport to‘garak mashg‘ulotlarida bunday vazifalarni hal etish uchun vosita zarur bo‘ladi.

Futbolchilarning umumiyligi tayyorgarligining vositalari - jismlar va jismlarsiz bajariладиган umumiyligi rivojlantiruvchi, sport turlari mashqlari yoki ularning elementlari va boshqa og‘irlik ko‘tarish, o‘zining tanasi o‘g‘irligidan hamda tashqi qarshiliklarni yengish bilan bajariladigan mashqlardan foydalaniladi. Umumiyligi tayyorgarlikda barcha organ va sistemalarimizni faol ishlashini ta’minlovchi (yurish, yugurish, sayrlar, sayohatlar) mashqlar muhim o‘rin egallaydi. Ular yordamida tayyorgarligi hamda rivojlanishida orqada qolgan, vazifaviy holati yaxshi bo‘lmagan a’zolarimizni, organ va sistemalarimizni xizmati darjasini, imkoniyatlarini oshirish uchun foydalanish ayni muddao bo‘ladi. Keltirib o‘tilgan vositalarni sport to‘garak mashg‘ulotlarida tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari bilan qo‘shib qo’llanishiga erishilsa, jismoniy tayyorgarlik jarayoni samaradorligidan kutilgan maqsadga tez va oson erishiladi[2; 142-144-b].

Quyida futbol to‘garagi qatnashchilarining mashg‘ulotlar davomida olingan natijalar ko‘r-

satkichlarini taqdim qilamiz (1-jadvalga qarang):

**1-jadval**

| Ko'rsatkich  | Dastlabki holat (oy boshida) | Hozirgi holat (oy oxirida) | O'sish (%) |
|--|------------------------------|----------------------------|------------|
| 30 metrga yugurish (sek.)                          | 6,2                          | 5,4                        | -12,9%     |
| To'p bilan yugurish                                | 45                           | 38                         | -15,5%     |
| O'tirib-turish (1 daq.)                            | 22                           | 35                         | +59%       |
| Chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish (1 daq.) | 15                           | 28                         | +86%       |

**2-jadval**

**To'garak ishtirokchilarining qoniqish darajasi (so'rovnoma asosida)**

| Savol  | Ha (%) | Yo'q (%) | Qisman (%) |
|--|--------|----------|------------|
| Mashg'ulotlar qiziqarli o'tadimi?                    | 87     | 5        | 8          |
| Murabbiyning yondashuvi sizga yoqadimi?              | 92     | 3        | 5          |
| Jismoniy holatingiz yaxshilangandek tuyulyaptimi?    | 85     | 7        | 8          |
| Musobaqalarda qatnashish sizga motivatsiya beradimi? | 90     | 4        | 6          |

So'nggi uch yil davomida futbol sport to'garagiga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortgan. 2022-yilda to'garakka 25 nafar o'quvchi qatnashgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 38 nafarga yetdi. 2024-yilda esa ishtirokchilar soni 47 nafarga yetib, umumiy o'sish sur'ati ijobjiy dinamikani ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, qatnashuvchilarning to'garakda muntazam ishtiroki ham yaxshilan-gan – ular o'rtacha 8 oy davomida faol qatnashmoqda.

Futbol to'garagining natijadorligi musobaqalarda erishilgan yutuqlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. 2022-yilda 5 ta musobaqada qatnashilib, 2 ta sovrinli o'rinn qo'lga kiritilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 9 ta musobaqada ishtirok etilib, ularning 6 tasida g'alabali o'rinnlar egallangan. Bu esa to'garak ishtirokchilarining sport mahorati yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, respublika darajasidagi musobaqalarda ishtirokchilar soni va yutuqlari oshgani quvonarli hol.

To'garak mashg'ulotlari o'quvchilarning jismoniy rivojlanishida ham katta rol o'ynadi. 30 metrga yugurish, to'p bilan harakatlanish, o'tirib-turish va chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish kabi ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan. Masalan, 30 metrga yugurish bo'yicha o'rtacha natija 6,2 sekunddan 5,4 sekundga tushgan, bu esa 12,9 % yaxshilanishni anglatadi. O'tirib-turish mashqida esa o'quvchilar o'rtacha 22 martadan 35 martagacha ko'tarilgan bo'lib, bu 59 % o'sishni bildiradi.

Bundan tashqari, to'garak a'zolari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham futbol mashg'ulotlarining samaradorligini tasdiqlaydi. Ishtirokchilarning 87% mashg'ulotlar qiziqarli o'tayotganini bildirgan, 92 % murabbiyning yondashuvi ularga yoqishini ta'kidlagan. Qolaversa, 85 % o'quvchi jismoniy holatinining yaxshilanganini sezganini, 90 % esa musobaqalarda qatnashish ularga kuchli motivatsiya berishini aytib o'tgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida tahlillar shuni ko'rsatadiki, futbol sport to'garagi yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sportga bo'lgan qiziqishni oshirish va ularning jismoniy hamda ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali vosita hisoblanadi. To'garakka qatnashuvchilar sonining yil sayin ortib borayotgani, musobaqalardagi muvaffaqiyatlar va jismoniy ko'rsatkichlarning sezilarli darajada yaxshilanishi bu yo'nalishdagi ishlarning natijadorligini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, o'quvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnolar natijasi ham shuni anglatadiki, to'garak faoliyati ularning sportga bo'lgan mehrini oshirgan, o'ziga bo'lgan ishonchini mustah-

kamlab, ijobiy motivatsiya bergen. Shu boisdan ham futbol to‘garagini yanada rivojlantirish, zamnaviy sport anjomlari bilan ta’minalash va iqtidorli yoshlarni qo’llab-quvvatlash dolzarb vazifalaridan biridir.

Futbol sport to‘garagi – bu sog‘lom, faol va har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash sari qo‘yilgan muhim qadamlardan biridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MAQOLALAR**

1. F.T.Masharipov, D.K.Karimov “Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” (futbol). Darslik. Khorezm travel nashriyoti. 393 b. Urganch. 2023 yil.

2. D.K.Karimov “Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” (futbol). O‘quv qo‘llanma. Khorezm travel nashriyoti. 218 b. Urganch. 2022 yil.

3. D.K.Karimov “O‘rta yoshli velosipedchilarning o‘ziga xos tayyorgarligi va organizm holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar”. Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 751-755 b., 2023 yil.

4. D.K.Karimov “O‘rta yoshli aholi uchun sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish xususiyatlari”. Maqola. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 365-369 b., 2023 yil.

5. D.K.Karimov “Velosipedda yurish orqali o‘rta yoshli aholi orasida o‘tkaziladigan sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining tibbiy-fiziologik asoslari”. Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 94-99 b., 2023 yil.

6. D.K.Karimov “Velosiped sport turi bilan o‘rta yoshli aholi uchun sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish xususiyatlari”. Maqola. Fan sportga jurnali. 79-83 b., 2023 yil.

**YOSH FUTBOLCHILARNING TEZKOR-KUCH QOBILIYATLARINI  
RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI  
Qurbanbayeva Maftuna G‘ayrat qizi**

UrDU “Sport faoliyati” futbol mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yosh futbolchilarning tezkor-kuch sifatlarini tarbiyalashning usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qolaversa 10-11 yoshli futbolchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantiruvchi mashqlar to‘g‘risida ham batafsil ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** jismoniy sifatlar, sportchi, yosh futbolchilar, tezkorlik, kuch, jismoniy mashqlar, texnika, taktika.

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СКОРОСТНО-СИЛОВЫХ СПОСОБНОСТЕЙ  
ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ**

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о методах воспитания скоростно-силовых качеств юных футболистов. Кроме того, подробно описаны упражнения, развивающие скоростно-силовые способности игроков 10-11 лет.

**Ключевые слова:** физические качества, спортсмен, юные футболисты, скорость, сила, упражнение, техника, тактика.

**METHODOLOGY FOR DEVELOPING FAST-STRENGTH  
ABILITIES OF YOUNG PLAYERS**

**Abstract.** This article provides information about the methods of training the speed-strength qualities of young players. Further detailed information is given on exercises that develop the speed-strength abilities of 10-11-year-old players.

**Keywords:** physical qualities, athlete, young players, agility, strength, exercise, technique, tactics.

**Kirish.** Zamonaviy futbol musobaqalarida raqobatni tobora keskinlashib borishi yosh futbolchilarni hujum va himoyada yakka jamoa tarzida bajaradigan texnik-taktik usullar yuqori jismoniy tayyorgarlik va kombinatsiyalar shiddatini yanada jadallashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Yosh futbolchilarni tayyorlash – mutaxassislarning bir-birini to‘ldiruvchi tajribalaridagi ilmiy tadqiqot ma'lumotlariga asoslanadigan uzoq vaqtli jarayondir. Yosh futbolchilarni tayyorlashning dolzarb vazifalarini ishlab chiqish bolalar va o‘smlar sporti sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liq.

O‘tgan asrning 1950-1960 yillarida yosh futbolchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorligi xususiyatlarini psixo-fiziologik tushuntirish bilan bog‘liq ilk dissertatsiya ishlari va o‘quv-mashg‘ulot jarayonini takomillashtirishning xususiy muammolarini o‘rganishni aks ettiradigan maqolalar yuzaga keldi. 1970-1980 yillar ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish, yosh futbolchilar tayyorgarligi tizimini tushuntirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, futbolchilar tayyorgarligini jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasiga bog‘liqligini aniqlashtirish bilan bog‘liq muhim savollarga javob topish, texnik usullarni egallashni mashq qildiruvchi va nazorat qiluvchi mashqlarni tanlash, taktik vazifani hal qilishning asosiy ruhiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish darajasini tadqiq etish yillari hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Yosh futbolchilarni tayyorlash amaliyotida chaqqonlik, egiluvchanlik, tezlik, tezkor-kuchlilik singari sifatlarni rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi. Futbol o‘yini birinchi navbatda tezkor-kuchlilik sifatlarini talab qiladi, bu shu bilan bog‘liqliki, o‘yinchilar to‘p va to‘psiz bajariladigan harakatlarda (zarbalar, startlar, sakrashlar, turtishlar) o‘zlarining kuchlilik qobiliyatla-

rini juda qisqa vaqt oralig'ida namoyon qilishlari kerak [1; 77-78-b].

Kuchlilik sifatlarini tarbiyalashning asosiy metodlari – qaytarish va seriyali intervalli metodlardir.

Yosh futbolchilarning tezkor-kuch qobiliyatları ularning umumiyligi sport salohiyatini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Bu qobiliyat, asosan, futbol o'yinida to'satdan tez harakat qilish, raqibni aldab o'tish, kuchli zarbalar berish va qisqa masofalarda portlovchi tezlikni namoyon etish imkonini beradi. Tezkor-kuch – bu kuch va tezlikning kombinatsiyasi bo'lib, mushaklar qisqa vaqt ichida maksimal kuch ishlab chiqara olishi kerak. Ayniqsa 10–12 yosh oralig'ida bu qobiliyatni to'g'ri metodika bilan shakllantirish o'ta muhim, chunki bu davrda organizm faol rivojlanadi va o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

Tezkor-kuchni rivojlantirish uchun plyometrik mashqlar, qisqa masofalarga maksimal tezlikda yugurish, reaksiya asosida harakatlanish mashqlari va yengil og'irliliklar bilan kuchli harakatlar bajarilishi kerak. Bunday mashg'ulotlar nafaqat mushaklarni, balki markaziy asab tizimini ham rivojlantirib, futbolchining maydonidagi tezkor qaror qabul qilish va harakatga o'tish salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, to'g'ri tiklanish, dam olish va yoshi, jismoniy holatiga mos yuklama belgilash ham jarohatlardan saqlanish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi [1; 248-250-b].

Yosh futbolchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini shakllantirish nafaqat ularning jismoniy tayyorgarligini, balki psixologik tayyorligini ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday mashqlar orqali sportchilar o'zlarining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, maydonda faoliyat ko'rsatib, raqibga nisbatan ustunlikka ega bo'la boshlaydi. Ayniqsa zamонави futbolda harakatlarning chaqqonligi, o'zgaruvchan vaziyatlarga tez moslashish va qisqa fursatda kuchli harakatlarni amalga oshirish eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Tezkor-kuch qobiliyatiga ega futbolchilar pressing qilish, qarshi hujumga chiqish yoki raqibdan oldin to'pga yetib borishda jiddiy ustunlikka ega bo'lishadi.

Shu sababli murabbiylar yosh futbolchilar bilan ishlaganda mashg'ulotlarga ijodiy yondashishlari zarur: o'yin bilan uyg'unlashtirilgan dribblinglar, raqobatli sharoitda bajariladigan plyometrik va sprint mashqlari, hamda reaksiya tezligini rivojlantiruvchi topshiriqlar samaradorlikni oshiradi. Mashg'ulotlarning muntazamlikligi, to'g'ri rejlashtirilgan yuklama va texnik jihatdan xavfsiz bajarilishi futbolchilarning sportda uzoq va barqaror faoliyat yuritishiga mustahkam zamin yaratadi. Bu esa nafaqat jismonan kuchli, balki aqlililik bilan o'ynaydigan futbolchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tanlangan mavzuning dolzarbliji mashg'ulot jarayonini takomillashtirish zarurati, sport maktabidagi mashg'ulot yuklamalari samaradorligini oshirish va futbolning rivojlanish tendensiylarini hisobga olib ularni qayta taqsimlash bilan asoslanadi.

Tadqiqotning yangiligi tezkor-kuchlilik sifatlarini tarbiyalashning ancha samarali usul va vositalari haqidagi yangi ma'lumotlarni hamda ularning yosh futbolchilarni yil davomida tarbiyalash jarayonidagi o'zaro aloqasini aniqlashdir. Futbolchining o'yin faoliyati jarayonida kuch qisqa vaqt mobaynida namoyon bo'lishi talab qilinadi. Aynan turli xil sakrash mashqlari (yugurib kelib va joyidan uzoqlikka sakrash, klassik uch tomonlama sakrash, balandlikka va ayniqsa chuqurlikka sakrash) tezkor-kuchlilik sifatlarini oshirish uchun ancha samarali hisoblanadi [2; 85-86-b].

**Natijalar.** Futbolchining tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlanishi o'yin usullari samaradorligida katta ahamiyat kasb etadi. Futbolchi amaliyotida odadta kuchni kuchlanishlar maksimumining 40-50% i og'irligidan foydalanib tarbiyalash 1-1,5 oydan ortiq olib borilmaydi, bu esa amalda kuchni oshirmsandan muskullararo muvofiqlikning yomonlashuviga olib keladi. Bunday mashg'ulotlarda albatta mutlaq kuchning oshishi amalga oshadi, lekin ba'zi salbiy ta'sirlardan ham qochish mumkin emas. Birinchidan, futbolchining o'z og'irligi oshadi. Ikkinchidan, muskul ishi va muskullararo mu-

vofiqlik yomonlashadi. Bu shu bilan bog'liqki, og'irlilik bilan olib boriladigan mashqlar jarayonida muskulning o'zida morfologik o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Kuchli doimiy ta'sirni his qilib, muskul tolalari bu ta'sirga qarshilik ko'rsatadi.

Nihoyat, erishilayotgan kuchning oshishi o'ziga xos harakatlarni bajarish tezligiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun kuchni tarbiyalash vositalarini tanlashda kuchni namoyon qilishning o'ziga xosligi va sharoitlari qandayligini aniq tasavvur qilish nihoyatda zarurdir. Nisbiy kuchning yuqori darajasi va uning tezkor-kuchlilik sifatlari darajasini oshishiga ta'siri odam bu tezlilikni minimal vaqt oralig'ida namoyon qila oladigan tez harakatlardagina samarali bo'ladi. Futbol amaliyotida bu to'p bilan zarba berishda yorqin namoyon bo'ladi [3].

Shunday holatlар ko'п uchraydiki, oyoq muskullari relefı chiqqan futbolchilar bunday muskulaturaga ega bo'lмаган futbolchilarga qaraganda kuchsizroq zarba berishadi. Balki bu ko'п holatlarda muskullararo muvozanatning buzilishi natijasida sodir bo'lar. To'p bilan zarba berishda boldirning orqa qism muskullari tovon to'pga tegishidan avval ishga tushishi kerak, negaki ular boldirning oldingi qism muskullariga xalaqit bermasin. Shunday qilib, futbolchilarda tezlik va kuchlilikning organik birligiga erishish uchun va shu bilan koordinatsion imkoniyatlarni yomonlashtirmaslik va chidamlilikni pasaytirmaslik uchun futbolda harakat faoliyati talablariga mos keladigan mashg'ulotlarning usul va vositalaridan foydalanish kerak [4].

Tezkor-kuchlilik xarakteridagi mashqlarni quyidagi rejimlarda bajarish tavsiya qilinadi:

1. Mashqlar davomiyligi 10 sekundgacha;
2. Intensivlik – maksimal;
3. Qaytarishlar soni 6-7, birinchi seriyada 5-6 qaytarish;
4. Dam olish intervali mashqlardan so'ng 1-2 daqiqa, mashqlar orasida 3-5 daqiqa.

Adabiy manbalarni o'rganish va o'quv-mashg'ulot jarayoni ko'rsatganidek, ko'п sport makkabalarida o'smirlar va yoshlarni tezkor-kuchlilikka tayyorlashga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Yosh futbolchilarning tezkor-kuchlilik tayyorgarligi darajasini tarbiyalashning usul va vositalarini keyingi takomillashuvi asosida oshirib borish ayniqsa, muhimdir.

Futbolchilar tayyorgarligining tezkor-kuchlilik va texnik-taktik tomonlariga bir vaqtida ta'sir ko'rsatish uchun quyidagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ishiriladigan to'plar ustidan sakrab o'tish va havoda bosh bilan zarba berishni taqlid qilish (10 dona, masofa 1 m), ikki oyoqda besh martadan, chap va o'ng oyoqda almashilib bajarish;
- baryerlar ustidan sakrab o'tish va havoda bosh bilan zarba berishni taqlid qilish (10 dona, masofa 1,5 m), ikki oyoqda besh martadan sakrash bilan;
- keyinchalik yuqoriga sakrash bilan 40-60 sm balandlikdan "chuqurlikka" sakrash va havoda bosh bilan zarba berishni taqlid qilish (10 marta bir seriyada);
- iloji boricha tezroq masofani bosib o'tishga intilib, uzoqlikka oyoqdan oyoqqa sakrash (30-40 m masofada);
  - keyinchalik yuqoriga 10-15 marta ketma-ket sakrash bilan shtanga bilan o'tirib turish;
  - yelkada shtanga bilan ikki oyoqda 10-15 marta ketma-ket sakrash;
  - 30 m yoki undan uzoq masofadan ko'rsatilgan maqsad bo'yicha to'p uzatish (boshga, ko'krakka, qoringa, boldirga, sheringining oyog'iga va hokazo);
- sakrashdagi passiv va faol qarshilik bilan bosh bilan o'ynash – 10-15 marta;
- sharni boshidan uzoqlikka uloqtirish (2-3 kg), bir seriyada 10 martadan (joyidan-turib, o'tirib, yugurib kelib);
- turli o'lchamdagagi to'g'ri to'rtburchaklarda 2x2, 3x2, 4x4 o'zin mashqlari – 10-15 daqiqa dan.

Tadqiqotlar natijalariga asoslanib, yosh futbolchilarning tezkor-kuchlilik tayyorgarligi dara-

jasini oshirish uchun yuqorida tavsiya etilgan mashqlar samarali ekanligini aytish mumkin. Yosh futbolchilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida ularning har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallashiga, sog'lig'ini mustahkamlash mutanosib rivojlanishiga, xilma-xil ko'nikma va malakalarni egallab olishiga, futbol o'yini texnikasi va taktikasining boshlang'ich asoslarini o'r ganishiga qaratilgan vositalar kompleksidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tayyorgarlikning bu vaqtidagi vazifasi, avvalo, yosh futbolchilarning harakat funk siyalarini (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik), shuningdek o'z harakatlari ni vaqt oralig'ida (havoda va mushaklarning zo'r berishi darajasiga ko'ra boshqara bilish harakat funksiyasining asosiy komponentlaridir) shakllantirishdan iborat bo'ladi. Harakatlar tezligini tarbiyalashga katta e'tibor berish kerak. Chunki bolalik va o'smirlik yoshida ana shu eng muhim jismoniy sifatni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjuddir.

Shuni qayd qilish kerakki, dastlabki tayyorgarlik va boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichlarida tezkorlik va chaqqonlik bilan mustahkam bog'liq ravishda tarbiyalanadi, bu esa siljishning (bir joydan ikkinchi joyga o'tishning) ratsional texnikasini muvaffaqiyatli egallab olish uchun zarur asos yaratadi. 8-12 yoshlar oralig'ida yugurishdagi maksimal tezlikning anchagina ortishi harakatlar tezligining tabiiy o'sishi bilan bog'liq. 12-14 yoshda esa tezlik asosan tezlik-kuch sifatlarining va mushak kuchining o'sib borishi tufayli ortadi [2; 115-118-b].

Yosh futbolchilarning kuch imkoniyatlari umumiy darajasini oshirish uchun ko'proq takroriy zo'r berish uslubi qo'llaniladi. Bu uslubda mushakning nisbatan ko'p ishlashi modda almashinuvini anchagina yaxshilaydi. Trofik jarayonlarning faollashuvi o'smirlar kuchining o'sishiga ijobjiy ta'sir etadi. Bundan tashqari, takroriy zo'riqish uslubidan foydalanganda, haddan tashqari kuch sarflash ehtimoli kamayadi. 13-16 yoshda og'irliliklar bilan ishlashda maksimal darajada zo'riqishga yo'l qo'yilmaydi. Shuning uchun og'ir jismning optimal vaznini aniqlashda yosh futbolchining maksimal imkoniyatlarini emas, balki uning shaxsiy og'irligini e'tiborga olish kerak. Og'irliliklar bilan bajariladigan mashqlardan tashqari, mashg'ulotlarda juft-juft bo'lib va guruhli ravishda qarshilik ko'rsatib bajariladigan mashqlardan, snaryadda ijro etiladigan gimnastikadan, harakatlari o'yinlar va hokazolardan foydalaniadi. Kuchni oshirishga oid u yoki bu mashqning murakkabligi har bir alohida holda shug'ullanuvchilarning yoshi va tayyorgarligiga qarab belgilanadi. Sport tayyorgarligi bosqichida 17-18 yoshli futbolchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda asosiy yuklama tushadigan mushaklar guruhini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Turgan gapki, bunda sportchining butun gavda mushaklarini mustahkamlash borasidagi ishlar to'xtatilmaydi.

**Xulosa.** Pedagogik tajriba natijalari tahlili shunday xulosa qilishga imkon beradiki, kuchni rivojlantirishning asosiy spetsifik vositasi kuch mashqlari hisoblanadi. Ularning barchasi og'irlash tirish turidan kelib chiqib, uch guruhga bo'linadi:

–tashqi og'irlashtirishlar bilan mashqlar (shtanga, turli xil jismlar, sherik, trenajer moslamalari va h.k.): tashqi og'irlashtirishni me'yorlashda amaliyatda yo maksimal og'irlashtirishdan foizda, yo oxirgi chegaragacha qaytarish soni – ko'rsatkichlari qo'llaniladi;

–o'zining gavdasini og'irligida og'irlashtirilgan mashqlar;

–o'zini qarshiligi bilan mashqlar, odatda statik tartibda antagonist – muskullarni irodaviy kuchlanish bilan aksentlashtirilib namoyon bo'lishi.

Tezkorlik qobiliyatlarini majmuaviy ko'rinishda rivojlantirish uchun esa uch guruh mashqlar qo'llanishi maqsadga muvofiq: tezlik reaksiyasini rivojlantirish uchun foydalilanadigan mashqlar; alohida harakatlarni tezkorligini rivojlantirish uchun foydalilanadigan mashqlar, jumladan, turli xil qisqa bo'laklarda (10 m dan 100 m gacha) harakatlanish uchun ham foydalaniadi; portlash xarakteridagi tavsiflanadigan mashqlar.

Yosh futbolchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish – ularning maydonidagi sa-

maradorligini oshirish, jismoniy va psixologik barqarorlikni ta'minlash uchun muhim omildir. Bu qobiliyatlar futbol o'yining zamонавиу талаблари, jumladan, tezlik, chaqqonlik va portlovchi kuch talab qiluvchi holatlarda ustunlikni belgilaydi. Tezkor-kuch mashqlari orqali nafaqat mushaklar, balki qaror qabul qilish va harakatga o'tish tezligi ham rivojlanadi. Shu sababli mashg'ulotlarni yoshga mos, izchil va ijodiy tashkil etish zarur bo'lib, bu o'z navbatida sog'lom, kuchli va intellektual futbolchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MAQOLALAR**

1. F.T.Masharipov, D.K.Karimov "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi" (futbol). Darslik. Khorezm travel nashriyoti. 393 b. Urganch. 2023 yil.
2. D.K.Karimov "Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi" (futbol). O'quv qo'llanma. Khorezm travel nashriyoti. 218 b.Urganch. 2022 yil.
3. D.K.Karimov "O'rta yoshli velosipedchilarining o'ziga xos tayyorgarligi va organizm holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar". Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 751-755 b., 2023 yil.
4. D.K.Karimov "O'rta yoshli aholi uchun sog'lomlashtiruvchi yo'nalishdagi mashg'ulotlarni o'tkazish xususiyatlari". Maqola. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 365-369 b., 2023 yil.
5. D.K.Karimov "Velosipedda yurish orqali o'rta yoshli aholi orasida o'tkaziladigan sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining tibbiy-fiziologik asoslari". Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 94-99 b., 2023 yil.
6. D.K.Karimov "Velosiped sport turi bilan o'rta yoshli aholi uchun sog'lomlashtiruvchi yo'nalishdagi mashg'ulotlarni o'tkazish xususiyatlari". Maqola. Fan sportga jurnali. 79-83 b., 2023 yil.

## FAZODA TEKISLIKNING TURLI TENGLAMALARI MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY DASTURLAR ORQALI YONDASHUV

**Yamgirova Gulshirin Tirkashovna, Saidov Murodbek Ulugbek o'g'li**

Urganch davlat pedagogika instituti Fizika-matematika kafedrasi o'qituvchilari

**Sobirova Iroda Ulug'bek qizi, Axunova Rayhon O'ktamboyevna**

Urganch davlat pedagogika instituti talabalari

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fazoda tekislikning turli tenglamalarini (umumiyligi, parametrik va normal tenglamalar) o'qitishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanishning afzallikkilari tahlil qilingan. GeoGebra, MATLAB, Python (Matplotlib, NumPy) kabi dasturlar orqali tekisliklarni grafik tarzda ko'rsatish, ularning o'zaro kesishishi, burchaklari va normalari bilan ishlash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'z:** tekislik tenglamasi, parametrik tenglama, zamonaviy dastur, GeoGebra, MATLAB, Python, fazoviy geometriya, vizualizatsiya

## СОВРЕМЕННЫЙ ПРОГРАММНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ РАЗЛИЧНЫМ УРАВНЕНИЯМ ПЛОСКОСТЕЙ В ПРОСТРАНСТВЕ

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены преимущества использования современных программных средств при изучении различных уравнений плоскости в пространстве (общего, параметрического и нормального вида). Анализируются возможности визуализации плоскостей и их взаимного расположения с помощью GeoGebra, MATLAB, Python (Matplotlib, NumPy).

**Ключевые слова:** уравнение плоскости, параметрическое уравнение, современные программы, GeoGebra, MATLAB, Python, пространственная геометрия, визуализация

## A MODERN SOFTWARE-BASED APPROACH TO TEACHING VARIOUS EQUATIONS OF PLANES IN SPACE

Результаты в области речевого развития подтверждают эффективность методики свободных текстов и школьной печати. Формирование коммуникативной компетентности происходит в естественном контексте, когда дети пишут не для формального выполнения задания, а для самовыражения и коммуникации. Это обеспечивает более высокий уровень речевого развития по сравнению с традиционными методиками обучения языку.

Социальные навыки и долгосрочные эффекты. Сильной стороной педагогики Френе является ее влияние на социальное развитие учащихся. Формирование навыков сотрудничества, разрешения конфликтов, уважения к мнению других происходит в процессе совместной деятельности и школьного самоуправления. Это особенно актуально в контексте современного общества, где социальные компетенции играют ключевую роль в профессиональной и личной успешности.

Долгосрочные эффекты педагогики Френе, хотя и менее изучены, свидетельствуют о формировании устойчивых личностных качеств, способствующих успешной адаптации к различным жизненным ситуациям. Сохранение на протяжении жизни любознательности, креативности и социальной ответственности указывает на глубинное влияние данной педагогической системы на личность.

Академические результаты и условия эффективности. Важно отметить, что свободная организация обучения не приводит к снижению академических показателей, как опасаются критики. Напротив, учащиеся школ Френе часто демонстрируют более глубокое понимание материала и способность применять знания в нестандартных ситуациях. Это подтверждает тезис о том, что образование, основанное на интересе и активности ребенка, обеспечивает более высокое качество знаний.

Однако следует учитывать, что наиболее значимые результаты достигаются при системном внедрении педагогики Френе, когда создается целостная образовательная среда, основанная на всех ключевых элементах данной системы. Частичное использование отдельных методов без изменения общей философии и организации школьной жизни дает менее выраженный эффект.

Позитивное отношение к школе. Особого внимания заслуживает тот факт, что учащиеся воспринимают школу, работающую по системе Френе, как пространство свободы, творчества и сотрудничества. Позитивное отношение к школе является важным фактором психологического благополучия детей и эффективности образовательного процесса. В этом контексте педагогика Френе предлагает решение одной из серьезных проблем современного образования – отчуждения учащихся от школы.

Таким образом, результаты применения педагогической системы Селестена Френе свидетельствуют о ее высокой эффективности в формировании ключевых компетенций и личностных качеств, необходимых для успешной жизни в современном обществе. Эти результаты могут служить основанием для более широкого внедрения элементов данной

системы в образовательную практику с учетом конкретных условий и контекста.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.** Педагогическая система Селестена Френе представляет собой целостный образовательный подход, доказавший свою эффективность как в историческом контексте, так и в современной образовательной практике. Основываясь на анализе результатов применения данной системы, можно утверждать, что она успешно решает ключевые задачи образования: формирование устойчивой внутренней мотивации к обучению, развитие самостоятельности и ответственности, креативного мышления и социальных навыков.

Особая ценность педагогики Френе заключается в её гуманистической направленности, которая позволяет создать образовательную среду, где ребёнок является субъектом, а не объектом педагогического воздействия. Такой подход не только обеспечивает высокие академические результаты, но и способствует личностному развитию учащихся, формированию у них позитивного отношения к образованию и готовности к непрерывному обучению на протяжении всей жизни.

Принципы и методы, разработанные Селестеном Френе, сохраняют свою актуальность в контексте современных образовательных вызовов и могут служить основой для инновационных педагогических практик, отвечающих потребностям общества XXI века. Дальнейшее изучение и творческое применение его педагогического наследия открывает перспективные направления для совершенствования системы образования.

#### **Список использованной литературы:**

1. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человека знания. Л.: ЛГУ, 1968. с. 27–29.
2. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. М.: Просвещение, 1968. с. 56–60.
3. Брушлинский А.В. Проблемы психологии мышления. М.: Наука, 1994. с. 128–130.
4. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. М.: Педагогика, 1982. с. 83–85.
5. Гальперин П.Я. Психология как объективная наука. М.: Высшая школа, 1966. с. 48–50.
6. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. М.: Просвещение, 1996. с. 61–63.
7. Запорожец А.В. Развитие восприятия у детей. М.: Педагогика, 1986. с. 102–105.
8. Каландаров С.И. Хрестоматия по педагогике: Учебное пособие. Издательство ООО “Khwarezm travel”, Ургенч, УрГУ, 2024.- 160 с.
9. Каландаров С.И. & Кенжаева К.У. Педагогика. Организация семинаров и практических обучений на основе интерактивных методов по дисциплине общая педагогика: Учебно-методическое пособие. Издательство ООО “Khwarezm travel”, Ургенч, УрДУ, 2025. с. 77–78.
10. Каландаров С.И. Формирование предпринимательских умений и навыков у будущих педагогов, при изучении метода Монтессори, как педагогической основы воспитания личности. - Издательство ООО “Khwarezm travel”, Ургенч, УрГУ. 2024. - 125 с.
11. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Политиздат, 1975.
12. Пиаже Ж. Психология интеллекта. М.: Просвещение, 1951. с. 32–35.
13. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. М.: Академия, 1946. с. 211–212.
14. Смирнов А.А. Память и познавательные процессы. М.: Наука, 1975. с. 103–106.
15. Эльконин Д.Б. Психология игры. М.: Наука, 1978. с. 142–144.

**MURABBIYNING O'QUVCHILARNI JISMONAN RIVOJLANTIRISH  
METODOLOGIYASI BILAN INTEGRATIV UYG'UNLIGI**  
Egamberganova Dilnoza Davronbekovna  
Urganch davlat universiteti Sport o'yinlari kafedrasi v.b. dotsent  
[egamberganovadilnoza@gmail.com](mailto:egamberganovadilnoza@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada murabbiying strategiyalari, akmeologik mezonlar (kasbiy motivasiya, shaxsiy-kasbiy sifatlar, o'zini o'zi boshqarish, refleksivlik, kreativlik)ning faoliyat talablari va o'quvchilarni jismonan rivojlantirish metodologiyasi bilan integrativ uyg'unligini ta'minlash masalalari o'z aksini topgan.

**Tayanch so'zlar:** jismoniy tarbiya, sport, murabbiying, o'quvchi, o'qituvchi, kasbiy faoliyat, motivasiya, shaxsiy-kasbiy sifatlar, rivojlanish.

**ИНТЕГРАТИВНАЯ СОВМЕСТИМОСТЬ ТРЕНЕРА С МЕТОДИКОЙ  
ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ**

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы, связанные со стратегиями коучинга учителей физического воспитания, интеграцией критериив акмеологии (профессиональная мотивация, личный профессионализм, самоуправление, рефлексивность, креативность) и методиками профессионального развития учащавшихся.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, спорт, коучинг, обучение, профессиональная деятельность, учитель, ученик, мотивация, личностно-профессиональные качества, развитие.

**INTEGRATIVE COMPATIBILITY OF THE COACH WITH THE METHOD OF  
PHYSICAL DEVELOPMENT OF STUDENTS**

**Abstract.** The article examines issues related to strategies for coaching physical education teachers, the integration of acmeological criteria (professional motivation, personal professionalism, self-management, reflexivity, creativity) and methods for professional development of students.

**Key words:** physical education, sport, coaching, training, professional activity, teacher, student, motivation, personal and professional qualities, development.

**KIRISH.** Dunyoda sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar davrida ta'lim sifatini oshirish va uni ta'lim sub'ektlari ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlarning uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, intellektual rivojlangan, sog'lom va jismonan baquvvat yoshlarni tarbiyalash masalasi taraqqiyotning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlar Avstraliya, Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya kabi davlatlarning tadqiqotlar institutlarida sog'lom avlodni voyaga etkazish muammolari va ularning yechimlariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar zamirida sport murabbiyingizga aloqador ilmiy izlanishlar ham mavjud bo'lib, ular tahsil oluvchilarning jismoniy sifatlari va qobiliyatlarini aniqlashga, ularga kvalimetrik baho berishga qaratilgan. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan tarbiyalanayotgan yoshlarda sport sohasida yangi marralarni zabit etishga bo'lgan motivatsiyani rivojlantirish uchun sport murabbiyining dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng quloch yozmoqda.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda sport ishlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bunda uzlusiz ta’limning barcha pog‘onalarida jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatga taalluqli didaktik masalalarni yechish yetakchilik qilmoqda. Chunki jamiyatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topishi bugungi kunning dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Yoshlarni diniy ekstremizm, aqidaparastlik, deviant xulqlilik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi jamiyatimizga yot illatlardan asrab-avaylashimiz uchun ularni ommaviy sport ishlariga jalb qilish, tizimli tarbiyaviy metodikalardan foydalanish zarur. Bunda ta’lim muassasasizlari, oila, mahalla-kuy, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish lozim. Buning uchun yoshlar orasida sport ishlarini jonlantirish, ma’naviy-ma’rifiy qarashlar ko‘lamini kengaytirish, sayqallashib qolgan uslublardan voz kechib, yangi, zamon talablariga mos keladigan tizimli metodikani, pedagogik treninglarni ishlab chiqish kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda sport murabbiyning muhim ahamiyat kasb etadi.

### Tadqiqotning maqsadi:

1. Mamlakatimizda yoshlarni sport ishlariga jalb qilish natijasida ularning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o‘sishi, jamiyat tomonidan belgilangan xulq normalariga rioya qilishi, tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ijtimoiy tajriba orttirishi uchun imkoniyatlari yaratish.

Uzlusiz ta’lim tizimining asosiy pog‘onalaridan biri - umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari huquqbuzarliklari va jinoyatchiligi profilaktikasini takomillashtirish zarurati mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da yangi mazmundagi uzlusiz ta’lim tizimini yaratish vazifasi qo‘yildi, uning tarkibida esa ta’lim muassasalarida huquqiy-me’yoriy asoslarni modernizatsiyalash bosh yo‘nalish sifatida belgilanib, bu borada yoshlarning jismoniy madaniyatini shakllantirish, ularni sport ishlariga jalb qilish tizimini takomillashtirish muhim hisoblanadi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 5 iyuldaggi PF-5106-sonli Farmoni, “Besh tashabbus” dagi asosiy g‘oyalar yoshlarni ijtimoiy faol, mustaqil fuqarolik pozitsiyasiga ega qilib tarbiyalashda asosiy yo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** “Sport sohasidagi murabbiy shaxsni ham jismoniy chiniqtirishga, ham ta’lim olishga undovchi, shaxsiy va ijtimoiy hayotida maqsadli faoliyatni tashkil qilishga o‘rgatuvchi, kasbiy va shaxsiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlovchi konsultant-maslahatchi sifatida namoyon bo‘ladi” [8,17-b.]. Binobarin, sport murabbiyining jismoniy tarbiya darslarida tahsil oluvchilarining jismoniy sifatlari bilan birga, dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof-muhitdagi voqeja va hodisalarни mohiyatini ko‘ra oladi va tushunadi, bunga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu sifat- o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta’minlaydi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda kurash, gimnastika, tennis, qilichbozlik, velosport, o‘q otish, dzyudo, engil atletika, og‘ir atletika, taekvondo, eshkak eshish, shaxmat, futbol, bolalar sporti, voleybol, gandbol, karate, kikboksing, muaytay, ot sporti, regbi, stol tennisi kabi sport turлari rivojlanmoqda. Shu bilan birga, butun jahonda keng ko‘lamda quloch yozayotgan sport murabbiysini rivojlantirishga ham ehtiyoj sezilmoqda.

“Murabbiy” (“coach”) atamasi sport sohasida XX asrda paydo bo‘ldi. Ingliz tilida: “coach” - «trener», “murabbiy” degan ma’noni bildirib, rahbarlik qilish, sportchilarga ustoz va murabbiylik faoliyatini olib borish mazmunida ishlataladi”[6, 71-b.]. Zamonaviy sport jamoalarida guruh menejerlari, rahbarlari bilan birga, murabbiy maslahatchilari paydo bo‘la boshladi.

### Tadqiqot uslublari.

Tadqiqot doirasida “murabbiying” atamasini ham tavsiflash joiz.

Murabbiying – sport sohasida murabbiylit, yo’lboshchilik qilish, tahsil oluvchi va tarbiyalanuvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirish faoliyatidir [7, 23-b.]

Bu jarayonning samaradorligini oshiruvchi quyidagi tamoyillar mavjud:

- o’quvchilarning jismoniy kamoloti masalalarini o’rganish;
- yoshlarning motivatsiyasi, qiziqishlarini inobatga olgan holda innovatsion faoliyatni tashkil qilish tizimini ishlab chiqish;

- jismoniy tarbiya darslarida o’quvchilarga taqdim qilingan topshiriqlar reproduktiv, rekonstruktiv xarakterga ega bo’lishini ta’minalash.

Tizimli reja asosida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda «Kamolot» yoshlari harakati, «Xotinqizlar qo’mitalari», «Mahalla oqsoqollari», mahallalarda diniy ma’rifat, ma’naviyat va axloqiy tarbiya bo’yicha mutasaddilar faol ishtirok etishlari kerak. “Yosh sportchilar”, “Liderlar”, “Faxriy sportchilar”, “Alpomish”, “Barchinoy” kabi sport klublari tashkil qilinib, unda sport ishlarini takomillashtirishga qaratilgan ma’naviy, ma’rifiy, siyosiy o’qishlar, turli sport tadbirlarining o’tkazilishini ta’minalash zarur. Bu klublar faoliyati viloyat, shahar, tumandagi pedagoglar, sport jamoalari mutasaddilari, keng jamoatchilik tomonidan nazorat ostida bo’lishlari kerak.

Jismoniy tarbiya ishlari o’quvchilarning kelgusidagi pedagogik faoliyatini innovatsion tashkil qilishga, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, mustahkam iroda va sport texnikasining darajasi (nazariy, metodik saviyasi) barcha qirralarini qamrab olishga va ularning malakasini uzlusiz takomillashib borishiga xizmat qiladi. Ushbu metodik xizmatda o’quvchilarning sportchilik mahorati, mustahkam irodasi va insoniy fazilatları yaxlit mujassam obyekt sifatida tadqiq qilindi. Sport murabbiyingizning asosiy mezonı o’quvchilarda sport texnikasi va malakasini oshirish orqali ma’naviy-axloqiy fazilatlar, bilim, ko’nikma va malakalarining takomillashuvi, madaniy saviyasining o’sishida ularga aniq faol yordam berish, pirovard natijada ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishdan iborat bo’ldi. Bunday metodik xizmat tizimi o’qituvchi faoliyatini ham inobatga olishni nazarda tutib, quyidagilar asosida amalga oshadi:

jismoniy tarbiya darslari, sinfda va sinfdan tashqari ishlarni oldindan loyihalash;

darsning maqsadi, shu jumladan, sinfda va sinfdan tashqari ishlarni va mazmunini oydinlashtirgan xolda rejalashtirish, belgilash (ishlab chiqish);

jismoniy tarbiya darslarining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o’quvchi shaxsiy tarbiyalash, natijalarni tahlil qilish (interpretatsiya);

metodik xizmat qilish mazmunini belgilash va amalga oshirish (innovatsion faoliyatni boshqarish);

O’quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlar mezon va ko’rsatmalari nazariy - uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan tadqiqot tizimi mazmunining xususiyatlari jihatidan belgilandi.

Muayyan sport turida muvaffaqiyatga erishish yo’llarini bilgan holda murabbiy o’z sportchilarini o’qitadi va unga hamroh bo’ladi, u bilan birga jismoniy tarbiya bo’yicha mashg’ulotlarga va musobaqalarga qatnashadi. Ayniqsa, jamoaviy sportda murabbiy uchun uning faoliyati murakkab bo’lib hisoblanadi, chunki, u guruh bilan ishlaganda har bir ishtirokchining guruhdagi rolini taqsimlashi, jamoaviy holatda ularni jipslashtirishi, jamoa ichidan yetakchilarni aniqlashi va guruh a’zolarining o’zaro psixologik kirishimlilagini ta’minalashi lozim. Bunda undan psixologik, fizilogik, boshqaruvchanlik bilimlar va malakalar talab etiladi. Shuningdek, sport sohasida rahbar, trenerlik vazifalarini bajarish, biznes sportini rivojlantirishga yo’naltirilgan vazifalarni amalga oshirishda sport murabbiysi alohida ahamiyat kasb etadi.

Sport murabbiysi esa, har bir sportchining hayoti va faoliyati mobaynida mavjud bo’lgan to’siqlarni yengib o’tishga, jismoniy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarini rivojlantirishga, muvaf-

faqiyatsizliklarini esa, osongina hal etishga o'rgatadi.

Sport murabbiysi o'quvchilarning kelgusi faoliyatida hamda jismoniy chiniqishlarini yuksalishda va bu sohada natijaviyliklikka erishishda muhim bo'lib, mutaxassislarini sport klublari, seksiyalari va to'garaklarida faoliyat yuritishi uchun tayyorlaydi. Ayniqsa, sport murabbiysi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining umumiy o'rta ta'lif maktablarida sport ishlarini jonlashtirishga xizmat qiladi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kelgusi pedagogik faoliyatiga tayyorlashda sport murabbiysi o'quvchilarda o'z ustida ishlashi - jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi, o'z hissiyotini boshqarishni nazarda tutadi va ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- sport va o'qitish muhitini uyg'unlikda olib borish;
- sport to'garaklari, seksiyalari, klublari faoliyati va o'quv jarayonini boshqarish;
- o'quvchilarning o'quv va sportdagi yutuqlari va rivojlanishlarini rag'batlantirish va baholash;
- tahsil oluvchilarga o'quv va sport sohasida motivatsiya berish va yordam ko'rsatish;
- o'quvchilarning sort sohasidagi yutuqlarini rivojlantirish.

Sport murabbiysida akmeologik omillar kasbiy-akmeologik rivojlanishni ta'minlovchi shaxsiy-kasbiy yetuklik, turli yosh davrlaridagi kasbiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, reflektivligi va kreativligiga doir pedagogik shart-sharoitlar va qonuniyatlarni o'rganadi.

Sport murabbiysi jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning jismoniy sifatlari, intellektual va hissiy-emosional sohasini va shaxsiy rivojlantirishning eng yuqori imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirib, kontent bilimlar, ya'ni kadrlarning shaxsiy imkoniyatlari, mavjud jismoniy tayyorgarlik darajasi; jarayonli bilimlar-kasbiy faoliyatning murakkab va nostandard vazifalarini hal etish jarayonida o'zlashtiriladigan yangi bilim va ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan informatsion va analitik jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

“Sport sohasidagi murabbiy (coach) shaxsni ham jismoniy chiniqtirishga, ham ta'lif olishga undovchi, shaxsiy va ijtimoiy hayotida maqsadli faoliyatni tashkil qilishga o'rgatuvchi, kasbiy va shaxsiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi konsulant-maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi” [6, 72-b.]. Binobarin, sport murabbiysi o'quvchining jismoniy sifatlari bilan birga dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqe va hodisalarini mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi.

“Sport bo'yicha murabbiylar faoliyati o'qitish va jismoniy tarbiyalash jarayonining bog'liqligi bilan belgilanadi” [6, 76-b.]. Demak, ushbu faoliyat uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishga, ularda yuksak madaniy va ma'naviy saviyasini qaror toptirishga, pedagogning yuksak shaxsiy sifatlariga, uning vatanparvarlik, obro' va burchni his etishga, insonparvar tamoyillarga yondashuviga, shuningdek o'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning amaliy ko'nikmalariga asoslanadi.

**Xulosa.** O'quv-tarbiyaviy jarayonda sport bo'yicha murabbiylar gumanitar omilni ta'minlaydigan murabbiy vazifasini bajaradilar. Ularning shaxsiy sifatlari - pedagogning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmuomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lif oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lif oluvchilarning sport sohasidagi yutuqlari va bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati-psixologik-pedagogik jihatdan o'qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdır.

Sport bo'yicha murabbiylar o'quvchilar bilan o'zaro birgalikda harakat qilish; ruhiy ta'sir

qilishda uning xulq-atvorini boshqarish, o‘zaro harakatning turli yo‘llarini qo‘llash; jismoniy sifatlarni chiniqtirishda irodani safarbar qilish, o‘z-o‘zini boshqara olishi va jamoadagi o‘zaro munosabatlar jarayonida jipsliklikni saqlay bilishga o‘rgatishadi.

Shunday qilib, umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida sport murabbiysi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi uchun deentologik omillarni belgilasa, o‘quvchilar uchun jismonan chiniqish va kelgusida yutuqlarni qo‘lga kiritishga zamin yaratadi. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarda kirishimlilik, jamoaviy moslashuvchanlikka aloqador pedagogik shart-sharoitlarni namoyon etadi. Sport murabbiysi yangi rivojlanayotgan soha bo‘lib, uning istiqboli yorqindir.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637 son Toshkent, 2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи «O‘zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF4947son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagи «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3151-ton qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3775-ton qarori
5. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat. – T.: Universitet, 2000.-268 bet.
6. Stolyarenko L.D. Pedagogicheskaya psixologiya.- Rostov na Donu: Feniks», 2006.-544 s.

**GENDER YONDASHUVI ASOSIDA BITIRUVCHI SINF O'QUVCHILARIDA  
IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK  
ZARURIYAT SIFATIDA**

**Karimov Habibulla Qadambayevich**

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, [habibullakarimov49@gmail.com](mailto:habibullakarimov49@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gender yondashuvi asosida bitiruvchi sinf o'quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning dolzarbligi va zarurati pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan. Muallif umumta'liz matablarining yuqori sinf bosqichida ijtimoiy tenglik, madaniy xilma-xillik, kommunikativ madaniyat, tolerantlik va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda gender yondashuvning metodologik asoslarini tahlil qiladi. Maqolada bitiruvchi sinf o'quvchilarida jamiyatdagi gender rollar va ijtimoiy kutishlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish orqali ularning madaniy moslashuvchanligi va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash yo'llari bayon etiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'linda gender tengligini ta'minlovchi didaktik modellar va pedagogik vositalarning amaliy ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** gender yondashuvi, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, pedagogik zaruriyat, gender tengligi, kommunikativ madaniyat, tolerantlik, differensial yondashuv, fuqarolik tarbiyasi, didaktik model, ijtimoiylashuv.

**РАЗВИТИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ  
ВЫПУСКНИКОВ НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА КАК  
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ**

**Аннотация.** В статье рассматривается актуальность и необходимость формирования социокультурной компетентности у выпускников на основе гендерного подхода с педагогической точки зрения. Автор анализирует методологические основы гендерного подхода в формировании социального равенства, культурного многообразия, коммуникативной культуры, толерантности и навыков межличностного общения на старшей ступени средней школы. В статье рассматриваются пути укрепления культурной адаптивности и гражданской позиции выпускников путем формирования осознанного отношения к гендерным ролям и социальным ожиданиям в обществе. Рассматривается также практическое значение дидактических моделей и педагогических инструментов, обеспечивающих гендерное равенство в современном образовании.

Ключевые слова: гендерный подход, социокультурная компетентность, педагогическая необходимость, гендерное равенство, коммуникативная культура, толерантность, дифференцированный подход, гражданское образование, дидактическая модель, социализация.

**DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN FINAL-GRADUATE STUDENTS ON THE BASIS OF GENDER APPROACH AS A PEDAGOGICAL NECESSITY**

**Abstract.** This article discusses the relevance and necessity of forming socio-cultural competence in final-year students on the basis of a gender approach from a pedagogical point of view. The author analyzes the methodological foundations of the gender approach in the development of social equality, cultural diversity, communicative culture, tolerance and interpersonal communication skills at the senior stage of secondary schools. The article describes ways to strengthen the

cultural adaptability and civic position of final-year students by forming a conscious attitude towards gender roles and social expectations in society. The practical significance of didactic models and pedagogical tools that ensure gender equality in modern education is also considered.

**Keywords:** gender approach, socio-cultural competence, pedagogical necessity, gender equality, communicative culture, tolerance, differential approach, civic education, didactic model, socialization

**KIRISH.** XXI asr ta’limi insonni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallah, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish ham ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik – bu o‘quvchining ijtimoiy muhitga moslashuvi, madaniy qadriyatlarni ongli qabul qilishi, turli madaniyatlararo muloqotga kirishish qobiliyati hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayonida namoyon bo‘ladigan integrativ sifatlar majmuasidir. Mazkur kompetentlikni rivojlantirishda gender yondashuvi asosida olib borilgan pedagogik faoliyat zamonaviy ta’limning dolzARB metodologik talablari bilan bevosita uzviy bog‘liqdir.

Gender yondashuvi – bu ta’lim-tarbiyaviy jarayonda biologik jinsiy farqlarga emas, balki jamiyatda shakllangan gender rollari, stereotiplar, ijtimoiy kutishlar va tenglik prinsiplariga asoslanib yondashish metodologiyasidir. Bugungi kunda gender yondashuv pedagogik faoliyatda faqat ayol va erkaklar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlash masalasi bilangina cheklanmay, balki o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, adolatli munosabat, madaniyatlararo bag‘rikenglik, kommunikativ madaniyat va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish vositasi sifatida qaralmoqda.

Bitiruvchi sinf o‘quvchilari shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim bosqichida turishlari bilan ajralib turadi. Bu davrda o‘quvchilarda kasbiy yo‘nalish, fuqarolik o‘zlikni anglash, ijtimoiy pozitsiyani tanlash kabi muhim jarayonlar yuz beradi. Ana shu bosqichda genderga asoslangan pedagogik strategiyalar orqali ularning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish, ya’ni shaxs sifatida o‘zini jamiyatda tutish madaniyatini shakllantirish pedagogik jihatdan zarurdir. Shu sababli, mazkur maqolada gender yondashuvi asosida bitiruvchi sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, didaktik shart-sharoitlari va amaliy vositalari tahlil qilinadi. Bu jarayonning pedagogik zaruriyat sifatida qaralishi, avvalo, zamonaviy inson kapitalini shakllantirish, ta’limning inklyuziv va teng huquqli asoslarini yaratish, shuningdek, o‘quvchining madaniy identifikatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida gender yondashuvning qo‘llanilishi inson shaxsining ijtimoiy konstruksiya sifatidagi talqiniga tayanadi. Zamonaviy pedagogika genderni biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy konstruktiv sifatida talqin etadi. Bu esa o‘quvchilarni ijtimoiy rollarga ongli yondashishga, gender stereotiplardan xoli fikrlashga o‘rgatadi. Gender yondashuvni ta’limda tatbiq etish orqali har bir o‘quvchining shaxsiy salohiyati, individual psixologik xususiyatlari va ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olishga asoslangan differensial yondashuv amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik – bu o‘quvchining o‘zini jamiyatning faol a’zosi sifatida idrok etishi, madaniyatlararo muloqotda ishtirok etish, fuqarolik burchini anglashi va gender tengligi tamoyillariga amal qilishga tayyorligi kabi ko‘nikmalardan iborat kompleks kompetensiya hisoblanadi[5, B.216]. Ushbu kompetentlik quyidagi asosiy komponentlardan tarkib topadi:

Akslanuvchanlik (refleksiya): o‘quvchining o‘z ijtimoiy holati, jinsiy roli va madaniy pozitsiyasi haqida fikr yuritish qobiliyati;

Kommunikativ madaniyat: genderga nisbatan hurmatli munosabatda bo‘lish, diskriminatsiyadan xoli muloqot yuritish malakalari;

Madaniy sezgirlik: turli madaniy qadriyatlarni tushunish va qabul qilish orqali tolerantlikni

shakllantirish;

Normativ-huquqiy savodxonlik: gender tengligi bilan bog'liq qonunchilik asoslari va ijtimoiy me'yorlarni bilish va ularga amal qilish[4, B.115].

Bitiruvchi sinf o'quvchilarida ushbu kompetentlikni rivojlantirishda interaktiv metodlar, loyihibiy faoliyat, ijtimoiy rollar o'yini, genderga oid diskussiya va debatlar, madaniyatlararo aloqalarni modellashtiruvchi amaliy mashg'ulotlar katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, quyidagi pedagogik shart-sharoitlar samaradorlikka xizmat qiladi:

genderga nisbatan sezgir pedagogik muhitni yaratish;

o'quvchilarining gender xatti-harakatlariga mos differensial yondashuv asosida topshiriqlar ni tanlash;

ta'lif mazmunini gender tenglik tamoyillariga moslashtirish;

maktabda genderga oid profilaktik madaniy-ma'rifiy ishlarni tizimli olib borish.

O'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda oila va maktabning o'zaro integratsiyalashgan faoliyati muhim omil hisoblanadi. Aksariyat holatlarda gender stereotiplar oilaviy muhitda shakllanadi va ta'lif orqali tuzatilmasa, u ijtimoiy ongda mustahkamlanib qoladi. Shu sababli o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida genderga oid tarbiyaviy masalalarda muntazam muloqotni yo'nga qo'yish, birgalikda ma'naviy-ma'rifiy loyihalarni amalga oshirish lozim.

**Adabiyotlar tahlili (sharhi).** Gender yondashuvi va ijtimoiy-madaniy kompetentlik masalalari so'nggi yillarda pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari doirasida dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida keng o'rganilmoqda. Tahlil qilingan ilmiy manbalar genderga asoslangan ta'lif yondashuvlarning nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlash, balki o'quvchilar shaxsida fuqarolik, tolerantlik va madaniyatlararo muloqot kompetensiyanlari rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib bermoqda.

Xususan, N. Chodjakova o'z tadqiqotida ta'lif tizimida gender tenglikni ta'minlashga doir metodik yondashuvlarni ishlab chiqqan bo'lib, unda maktab o'quvchilarida gender stereotiplarga qarshi immunitetni shakllantirish uchun kommunikativ va integratsion yondashuvlar taklif etiladi[6, B.50]. Uning qarashlari gender tenglikni bolalikdan boshlab ongli tarzda shakllantirish zarurligini ilmiy asoslab beradi.

Rossiyalik olma L. A. Aleksandrova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa o'quvchilarining gender ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'sir etuvchi pedagogik omillar chuqur tahlil qilingan[2, B156]. U gender differensialini hisobga olgan holda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun gender sezgir metodikalar zarurligini asoslaydi.

Jahon miqyosidagi tadqiqotlarda esa (masalan, UNESCO Gender Equality in Education Toolkit)[7, B.92] ta'limga gender tenglikni ta'minlash orqali madaniy hamkorlik, inson huquqlari va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Bu manbalar ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning global konsepsiysi bilan mahalliy yondashuvlar o'rtasida metodologik ko'priklar qurishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ta'lif konsepsiyasida[1, B.38] ham har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish kabi mezonlar ilgari surilgan bo'lib, bu gender yondashuvning ta'lif strategiyasidagi o'rnini belgilaydi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar mazkur mavzuning nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganiganini ko'rsatadi. Biroq, aynan bitiruvchi sinf o'quvchilarini kesimida genderga asoslangan ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga oid empirik tadqiqotlar yetarli emasligi kuzatiladi. Bu esa ushbu maqolaning ilmiy yangiligini va dolzarbligini asoslaydi.


**Natijalar.** O'rganilgan statistika gender yondashuvi asosida olib borilgan pedagogik faoliyatning bitiruvchi sinf o'quvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini

yaqqol ko'rsatmoqda. O'tkazilgan so'rov nomaga natijalariga ko'ra, qiz o'quvchilarning 82 foizi gender tengligi masalasida yetarli bilim va tasavvurlarga ega ekani, o'g'il bolalarda esa bu ko'rsatkich 74 foizni tashkil etgani kuzatildi. Bu farq, avvalo, o'quvchilarning ijtimoiy tajribasi va oila muhitidagi gender yondashuv bilan izohlanadi. Qizlar ko'proq tenglik masalalarida faol munosabat bildirgan bo'lsa, o'g'il o'quvchilarda bu mavzu ko'proq konservativ qarashlar bilan cheklangan.

Gender stereotiplarga nisbatan munosabat ham sezilarli tafovutlarga ega. Qizlarning faqat 28 foizi an'anaviy gender stereotiplarini qabul qilsa, o'g'il bolalarda bu ko'rsatkich 44 foizga teng bo'ldi. Bu, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida genderga sezgir yondashuvning hali to'liq shakllanmaganligini bildiradi. Ayniqsa, o'g'il bolalar o'rtasida "erkak kishi qat'iy bo'lishi kerak", "ayol kishi oilada qolishi kerak" kabi qarashlar hanuz mavjud. Shu bilan birga, madaniyatlararo muloqotga tayyorlik darajasi bo'yicha ham ijobiy tendensiyalar ko'zga tashlanadi. Qiz o'quvchilarning 76 foizi boshqa millat, madaniyat yoki jins vakillari bilan ochiq muloqotga tayyorligini bildirgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'g'il o'quvchilarda 62 foizni tashkil etdi. Bu genderga xos kommunikativ farqlar, shuningdek, o'quvchilar orasida madaniy sezgirlik va bag'rikenglikni rivojlantirish borasidagi ishlarda ko'proq e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi.

Jamoaviy ishlarda ishtirok etish, ya'ni ijtimoiy faoliyatga jalb etilish darajasi ham gender nuqtai nazaridan farqlanmoqda. Qizlar orasida 85 foiz o'quvchi jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'g'il bolalarda 72 foizni tashkil etgan. Bu esa ijtimoiy faollik va madaniy moslashuvchanlik qiz o'quvchilarda yuqoriroq ekanini anglatadi.

Ijtimoiy mas'uliyat darajasi bo'yicha esa qizlar (79%) va o'g'il o'quvchilar (67%) o'rtasida ancha sezilarli tafovut mavjud. Bu ko'rsatkich o'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasi, jamiyatdagi roli va mas'uliyat borasidagi qarashlar shakllanishida gender omilining o'ziga xos ta'sir kuchi borligini bildiradi.



### Bitiruvchi sinf o'quvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetentligiga doir statistik ko'rsatkichlar

Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, gender yondashuvi asosida olib borilgan tizimli pedagogik chora-tadbirlar o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Biroq, mavjud tafovutlar hali bu sohada yanada chuqurroq metodik ishlasmalar, didaktik yondashuvlar va tarbiyaviy dasturlarni joriy etishni talab qiladi. Ayniqsa, o'g'il o'quvchilarda gender sezgirlikni oshirish, ijtimoiy faollikni rivojlantirish va madaniy sezgirlikni shakllantirishga qaratilgan aniq strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

**Xulosa.** Bugungi globallashuv, madaniy xilma-xillik va axborot erkinligi davrida o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish nafaqat ta'lim tizimining, balki jamiyatning

ham strategik vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bitiruvchi sinf o'quvchilarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida gender yondashuvi asosida olib borilgan pedagogik faoliyat alohida o'rinni egallaydi. Ta'limgarayonida gender tenglik, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ madaniyat, tolerantlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish orqali o'quvchilar faqatgina bilim egallab qolmasdan, balki jamiyatda o'zini ongli ravishda tutishga qodir shaxs sifatida kamol topadi.

Tahlil qilingan statistik ma'lumotlar shuni isbotladiki, qiz va o'g'il o'quvchilar orasida genderga oid stereotiplar, kommunikativ faoliyat, ijtimoiy mas'uliyat va madaniy sezgirlik darajasida sezilarli tafovutlar mavjud. Bu tafovutlar esa faqatgina biogenetik farqlar emas, balki ta'limga genderga sezgir yondashuv yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi bilan izohlanadi. Xususan, o'g'il bolalar orasida gender stereotiplarga sodiqlik yuqoriligi, ijtimoiy mas'uliyat darajasining pastroq ekanligi, ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonida yanada murakkabroq metodik yondashuvni talab etadi. Mazkur holatlarda gender yondashuvning ta'limgarayonida gender strategiyasiga chuqur integratsiyalashuvi zarurati yaqqol namoyon bo'ldi. O'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun gender tengligini ta'minlovchi interaktiv metodlar, rolli o'yinlar, madaniyatlararo muloqot mashhg'ulotlari, hamkorlikka asoslangan loyihibar keng qo'llanilishi lozim. Shu bilan birga, genderga oid muammolarni faqat o'quvchilar emas, balki ota-onalar va pedagoglar o'rtasida ham muhokama qilish, butun tarbiyaviy muhitni gender sezgirlik tamoyillariga moslashtirish zarur. Xulosa qilib aytganda, gender yondashuvi asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish – bu zamonaviy ta'limgarayonida nafaqat dolzarb, balki muqarrar pedagogik ehtiyojidir. Ushbu yondashuv orqali o'quvchining jamiyatdagi roli, fuqarolik mas'uliyati, insoniy qadriyatlarga sodiqligi va madaniy bag'rikengligi shakllanadi. Demak, bugungi bitiruvchi sinf o'quvchisini ertangi demokratik va ijtimoiy barqaror jamiyatga yetaklovchi omil sifatida ko'rish uchun, biz ularning genderga oid ongini ham, ijtimoiy kompetensiyasini ham barobar rivojlantirishga mas'ulmiz.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasida ta'limgarayonida gender ongini shakllantirishning psixologo-pedagogik asoslari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2022. – T. 3, №1. – B. 215–220.
2. Александрова Л.А. Гендерный подход в воспитательной работе школы: теория и практика. – СПб.: Речь, 2016. – 156 с.
3. Giddens A. Sociology. 7th ed.-Cambridge: Polity Press, 2006. – 1040 p.
4. Назарова З.Р. Социокультурная компетентность в системе общего образования: сущность, структура, пути формирования // Современные проблемы науки и образования. – 2020. – №6. – С. 112–117.
5. Qodirova M.Sh. Maktab ta'limgarayonida gender ongini shakllantirishning psixologo-pedagogik asoslari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2022. – T. 3, №1. – B. 215–220.
6. Chodjakova N.J. Genderli yondashuv va uning ta'limgarayonida ahamiyati // Pedagogika fanlari. – Toshkent: TDPU, 2019. – №2. – B. 45–50.
7. UNESCO. Gender Equality in Education: A Toolkit for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 92 p.

## TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYANING O'RNI

Zebuniso Nurtayeva Murodali qizi

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat Milliy Instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ta'lif jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyati va ularning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalar yordamida ta'lif sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan ularning uyg'unligini tahlil qilishdir. Metodologik asos sifatida taqqoslov tahlil, so'rovnama, amaliy kuzatuv hamda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish usullari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalardan to'g'ri foydalananiganda o'quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil fikrlash qobiliyati va interaktiv ishtiroki sezilarli darajada ortadi. Maqolada raqamli texnologiyalarni o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish bilan birga, o'quv dasturlariga samarali integratsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, zamonaviy ta'lif, ZOOM, QUIZLET, xorijiy tajriba

## РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению роли цифровых технологий в образовательном процессе и их влияния на усвоение знаний учащимися. Основная цель исследования – выявить возможности повышения качества и эффективности обучения с помощью цифровых инструментов, а также проанализировать их интеграцию с современными педагогическими подходами. Методология исследования включала сравнительный анализ, анкетирование, практическое наблюдение и изучение передового зарубежного опыта. Результаты показали, что при правильном использовании цифровые средства значительно повышают мотивацию, способность к самостоятельному мышлению и активное участие учащихся. В заключение подчеркивается необходимость развития цифровых компетенций преподавателей и эффективной интеграции цифровых технологий в образовательные программы.

**Ключевые слова:** Цифровые технологии, Современное образование, ZOOM, QUIZLET, зарубежный опыт

## THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION

**Abstract.** This article is devoted to exploring the significance of digital technologies in the educational process and their impact on students' learning. The main objective of the study is to identify opportunities to enhance the quality and effectiveness of education through digital technologies and to analyze their compatibility with modern pedagogical approaches. The research methodology includes comparative analysis, surveys, practical observations, and the study of advanced international experiences. The results of the study demonstrate that when digital tools are used appropriately, students' motivation, independent thinking skills, and interactive participation increase significantly. In conclusion, the article emphasizes the necessity of not only improving teachers' digital competencies but also effectively integrating digital technologies into educational curricula.

**Keywords:** Digital technology, modern education, ZOOM, QUIZLET, foreign experience.

**KIRISH.** Bugungi kunda texnologik taraqqiyot jamiyatimiz hayotining barcha jahbalariga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi o‘quv jarayonini yanada samarali, innovatsion va qulay qilish imkonini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlab: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun bizga yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega bo‘lgan, ilg‘or texnologiyalarni chuqur egallagan mutaxassislar zarur”, — deya ta’kidlagan edi. Ushbu fikr ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning o‘rni qanchalik muhim ekanligini yana bir bor isbotlaydi. [1,21]

COVID-19 pandemiyasi ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonini tezlashtirdi. Karantin sharoitida masofaviy ta’lim usullari asosiy vositaga aylandi va raqamli texnologiyalar bu borada o‘zining beqiyos imkoniyatlarini namoyon etdi.

Xususan, o‘quvchilar va talabalarga virtual muhitda sifatlari ta’lim olish uchun sharoit yaratildi, bu esa kelajakda raqamli ta’limning yanada keng joriy etilishiga turtki berdi. Shu boisdan, ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimidagi o‘rni, uning afzallikkari va joriy etish jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ingliz tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning tutgan o‘rni va istiqbollari ham keng yoritiladi.

**ASOSIY QISM.** Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar muhim o‘rin egallab, o‘quv jarayonini yanada samarali, innovatsion va interaktiv shaklga keltirishga xizmat qilmoqda. Raqamli ta’lim muhitini shakllantirish jarayonida uning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida raqamli ta’lim muhitining asosiy xususiyatlari va uning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar tobora muhim o‘rin egallamoqda. Bu borada bir qancha xalqaro va mahalliy olimlar tadqiqotlar olib borib, raqamli vositalarning o‘qitish samaradorligiga ta’sirini chuqur o‘rganganlar.

M. Fullan raqamli texnologiyalarni ta’limda samarali qo’llash uchun ularni pedagogik maqsadlarga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, texnologiya o‘z-o‘zidan ta’lim sifati oshishiga olib kelmaydi; u o‘qituvchi va o‘quvchining interaktiv faoliyatiga bog‘liq. [6,234]

T. Bates raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning mustaqil va moslashuvchan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirish mumkinligini aytadi. Ayniqsa, onlayn ta’lim, aralash o‘qitish (blended learning) va MOOC (massive open online courses) kabi shakllar imkoniyatlarni kengaytiradi. [5,67]

Marc Prensky esa “raqamli tug‘ilganlar” (digital natives) atamasini ilgari surib, zamonaviy o‘quvchilar texnologiya bilan o‘siganini, shuning uchun ular bilan ishlashda raqamli vositalarni o‘quv jarayonining markaziga qo‘yish zarurligini ta’kidlaydi. [16, 4]

O‘zbekistonda ham raqamli ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. X. Toirov “O‘zbekistonda raqamli ta’lim rivoji va istiqbollari” nomli maqolasida raqamli platformalarning (masalan, ZiyoNET, EduMarket, Google Classroom) imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qiladi. Unga ko‘ra, raqamli ta’lim nafaqat pandemiya sharoitida, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim. [21, 58]

A. Nishanova o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish muhimligini ta’kidlab, o‘qituvchi qanday vositani qanday didaktik vazifada qo’llay olishini bilishi zarurligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, raqamli savodxonlik — XXI asr pedagogining asosiy kompetensiyasidir. [14,43]

Shuningdek, UNESCO hisobotlarida raqamli ta’lim global tengsizliklarni kamaytirish vostasi sifatida e’tirof etiladi, biroq bu texnologiyalarga teng kirish imkoniyati mavjud bo‘lishi kerakligi qayd etiladi. [22, 100]

Anderson va Dron raqamli ta’limda pedagogik model sifatida “connectivism”ni ilgari surishadi — bu model bilimlar tarmoq asosida shakllanishini va texnologiya bu jarayonning ajralmas qismi ekanini tasvirlaydi. [4]

Bundan tashqari, Salmon o‘zining “five-stage model”i orqali onlayn ta’limda bosqichma-bosqich o‘rgatish metodikasini taklif qiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarни texnologiyaga moslashtirib, ularni bosqichma-bosqich faollashtirishga yordam beradi. [17,176]

Mahalliy mualliflardan G‘. Jo‘raev “Raqamli pedagogika asoslari” nomli asarida raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish va ulardan darslarda samarali foydalanish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar beradi. [7,132]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot oliy ta’lim muassasasida ingliz tilini o‘qitishda raqamli ta’lim muhitidan foydalanish samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida raqamli vositalarning, xususan, Zoom va Quizlet platformalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni va ta’siri tahlil qilindi.

**Tadqiqot dizayni.** Tadqiqot tavsiyiy-sifatli (descriptive-qualitative) metod asosida olib borildi. Unda real o‘quv muhiti, o‘quvchilarning tajribalari va o‘qitish jarayonidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratildi.

**Ishtirokchilar.** Tadqiqotda oliy ta’lim muassasasining ingliz tili kursida tahsil olayotgan 12 nafar talaba ishtirok etdi. Ular raqamli vositalar orqali darslarda faol qatnashgan hamda tadqiqot uchun ma’lumot manbai sifatida tanlab olindi.

**Ma’lumot to‘plash usuli.** Tadqiqot davomida intervyu (suhbat) usulidan foydalanildi. Talabalar bilan individual suhbatlar o‘tkazilib, ularning raqamli platformalar orqali o‘qitilish tajribalari, fikr va mulohazalari yig‘ib borildi. Savollar ochiq shaklda bo‘lib, o‘quvchilarning fikrini erkin ifodalashga imkon yaratildi.

**Ma’lumotlarni tahlil qilish.** Yig‘ilgan sifatli ma’lumotlar tematik tahlil (thematic analysis) asosida tahlil qilindi. Intervyular matnga ko‘chirilib, asosiy mavzular, takrorlanadigan fikrlar va muhim g‘oyalari ajratib olindi. Talabalar tomonidan bildirilgan ijobiy va salbiy tajribalar guruhlab chiqildi hamda raqamli vositalarning o‘qitish samaradorligiga ta’siri yuzasidan xulosalar chiqarildi.

**Ishonchlilik va etik jihatlar.** Tadqiqotda ishtirok etgan barcha talabalar suhbatda qatnashish uchun rozilik berdilar. Ularning shaxsiy ma’lumotlari oshkor qilinmadni va anonimlik saqlab qolindi. Tadqiqot natijalarining ishonchliliginini ta’minalash maqsadida intervyulardagi javoblar bir necha marotaba tahlil qilinib, asosiy mavzular bo‘yicha solishtirma tahlil amalga oshirildi.

**Tadqiqot natijalari.** Intervyu asosida olingan ma’lumotlar tahlili natijasida talabalar raqamli vositalar, xususan Zoom va Quizlet platformalarining ingliz tilini o‘rganishdagi ijobiy va salbiy jihatlarini quyidagicha ifoda etdilar:

Zoom orqali dars o‘tilganda talabalar darslarni istalgan joydan kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lganliklarini, lekin ba’zan internet sifati pastligi sababli darsda ishtirok etish qiyin bo‘lganini qayd etdilar;

Quizlet platformasi esa ayniqsa so‘z boyligini oshirish, yangi so‘zlarni yodlash va mustahkamlash uchun qulay vosita sifatida baholandi;

Ba’zi talabalar raqamli vositalar orqali o‘qitish motivatsiyani oshirganini bildirgan bo‘lsa, boshqalar an’anaviy darslarning o‘zaro muloqot va bevosita tushuntirish jihatdan samaraliroq ekanini ta’kidladilar.

## Intervyu savollari va natijalar jadvali

| SAVOL  | TALABANING UMUMIY JAVOBLARI   |
|--|---|
| Zoom orqali o'tiladigan darslar qanday ta'sir qildi?                 | 8 talaba darsga qulay qatnasha iloshini aytdi, 4 ta talaba internet muammosini tilga oldi.                      |
| Quizlet sizga yangi so'zlarni o'rganishda foydali bo'ldimi?          | 10 talaba so'zlarni yodlash oson bo'lganini ta'kidladi.   |
| Raqamli darslar sizning o'rganish motivatsiyangizni oshirdimi?       | 7 ta talaba motivatsiyasi oshganini, 5 ta talaba esa motivatsiyada unchalik ham o'zgarish bo'lmasaganini aytdi. |
| Sizningcha, an'anaviy va raqamli darslar orasidagi asosiy farq nima? | An'anaviy darslarda bevosita tushuntirish kuchli, raqamli darslar esa moslashuvchan.                            |
| Sizga eng yoqqan raqamli vosita qaysi-va nega?                       | 9 ta talaba Quizletni tanladi: interaktiv va qiziqarli. 3 talab Zoomni Afzal ko'rdi.                            |

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalar ingliz tilini o'qitishda muhim o'rinni egallaydi. Zoom platformasi darslarni masofadan o'tkazish imkonini bersa, Quizlet esa til ko'nikmalarini interaktiv tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq, samarali o'qitish uchun texnik sharoitlar va o'qituvchi-tinglovchi o'rtasidagi muloqotni to'g'ri tashkil etish muhim omil sanaladi. Shuningdek, raqamli darslar talabalarning motivatsiyasini oshirishda ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

**Raqamli texnologiyalar va zamonaviy ta'limga Xorijiy mamlakatlar tajribasida.** Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar ta'limga tizimining ajralmas bo'lagiga aylanmoqda. AQSh, Finlandiya va Hindiston singari mamlakatlar bu sohada ilg'or tajribaga ega bo'lib, ularning yondashuvlari boshqa mamlakatlar uchun ham namuna bo'lishi mumkin.

**AQSh tajribasi.** Amerika Qo'shma Shtatlari raqamli ta'limga sohasida ilg'or davlatlardan biri hisoblanadi. T. Bates ta'kidlaganidek, AQShda raqamli vositalar yordamida o'qitish an'anaviy ta'limga shakllarini to'ldiradi va ko'plab universitetlar aralash (blended) va to'liq onlayn kurslarni joriy etgan. [5,401] Masalan, Massachusetts Institute of Technology (MIT) va Harvard University tomonidan ishlab chiqilgan edX platformasi global ta'limga raqamli modelini yaratdi. P. Mishra va M. Koehler esa o'qituvchilarining texnologik-pedagogik bilimlar (TPACK) modelini ishlab chiqib, raqamli vositalarni didaktik maqsadlarga muvofiq qo'llashni taklif etishgan.[ 9,1061]

**Finlandiya tajribasi.** Finlandiya ta'limga tizimi dunyoda eng yuqori reytinglarda bo'lib, bunda raqamli texnologiyalar muhim o'rinni tutadi. Pasi Sahlberg fin ta'limga muvaffaqiyat kaliti sifatida moslashuvchan yondashuv va o'quvchi markazli metodikani ko'rsatadi. [18,190] Finlandiyada 2016-yildan boshlab raqamli kompetensiyalar milliy o'quv dasturiga kiritilgan. Bu borada Kristiina Kumpulainen o'quvchilarining raqamli savodxonligini rivojlantirish, internet xavfsizligi va media tanqidiy fikrlashni asosiy ustuvorlik deb biladi. [10,187]

Ta'limga raqamli laboratoriylar, mobil ilovalar va simulyatsiyalar keng qo'llaniladi.

**Hindiston tajribasi.** Hindiston aholisi ko'pligi va iqtisodiy tengsizliklarga qaramasdan, raqamli ta'limga sohasida katta yutuqlarga erishmoqda. Sugata Mitra tomonidan o'tkazilgan «Hole in the Wall» eksperimenti shuni ko'rsatdiki, bolalar o'z-o'zini raqamli vositalar yordamida o'qishga qodir. Bu yondashuvdan kelib chiqib, u «minima-intervention teaching» modelini ishlab chiqqan. Hindiston hukumati tomonidan 2015-yilda boshlangan Digital India tashabbusi orqali ta'limga tizimiga internet, mobil texnologiyalar va raqamli platformalarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. NPTEL (National Programme on Technology Enhanced Learning), SWAYAM va

DIKSHA kabi raqamli platformalar o‘qituvchi va o‘quvchilarning salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar faqat vosita emas, balki ta’lim strategiyasining muhim tarkibiy qismidir. Bunda muhim jihatlar quyidagilardir:

- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish (AQSh, Hindiston);
- o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va texnologik muhitda harakat qilishga o‘rgatish (Finlandiya);
- davlat siyosati va raqamli infratuzilmaning uyg‘unligi (Hindiston, AQSh);
- texnologiyalarning pedagogik maqsadlar bilan uyg‘unlashuvi (har uchala davlat tajribasida mavjud).

Mazkur yondashuvlar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham foydali bo‘lishi mumkin. Chunki ular raqamli texnologiyalarni samarali joriy qilishda innovatsion, pedagogik va ijtimoiy muvozatni saqlashga yordam beradi.

**XULOSA.** Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib, uni yanada zamona-viy, qulay va samarali shaklga olib kelmoqda. Masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt, raqamli sinflar va interaktiv ta’lim vositalari o‘quv jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, ushbu texnologiyalarni joriy etishda texnologik infratuzilmaning yetishmovchiligi, moli-yaviy resurslarning cheklanganligi va o‘qituvchilarning texnologik savodxonligi kabi muammolar mavjud. Kelajakda ushbu muammolarni hal qilish va raqamli ta’lim vositalaridan yanada samarali foydalanish orqali ta’lim tizimining sifati sezilarli darajada oshishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yuksak ma’naviyatli avlod – yurt taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. -B. 20-25.
2. Almarzooq, Z. et al. Telemedicine in the COVID-19 Era: A New Normal in Cardiovascular Care // Current Cardiology Reports. – 2020. – Vol. 22, No. 6. – Article 60.
3. Anderson, T. The Theory and Practice of Online Learning. – 2nd ed. – Edmonton: AU Press, 2008. – 472 p.
4. Anderson, T., Dron, J. Learning Technology through Three Generations of Pedagogy // European Journal of Open, Distance and E-Learning. – 2010. – No. 2.
5. Bates, A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd, 2015. – 517 p.
6. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change. – 4th ed. – New York: Teachers College Press, 2013. – 336 p.
7. Jo‘raev, G‘. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2023. – 150 b.
8. Khan, B. Managing E-Learning: Design, Delivery, Implementation and Evaluation. – Hershey: IGI Global, 2005. – 340 p.
9. Koehler, M.J., Mishra, P. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108(6). – P. 1017–1054.
10. Kumpulainen, K., Mäkitalo, Å. Educational Technology and Learning: Creativity and Collaboration in Digital Environments // Journal of Computer Assisted Learning. – 2016. – Vol. 32, № 3. – P. 183–194.
11. Means, B. et al. Evaluation of Evidence-Based Practices in Online Learning: A Meta-Analysis and Review of Online Learning Studies. – Washington, DC: U.S. Department of Education, 2010.

12. Mishra, P., Koehler, M.J. What is Technological Pedagogical Content Knowledge? // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. – 2009. – Vol. 9, № 1. – P. 60–70.
13. Ministry of Human Resource Development, Government of India. Digital India Programme: Transforming India into a Digitally Empowered Society and Knowledge Economy. – New Delhi, 2017. – URL: <https://digitalindia.gov.in> (date of access: 15.05.2025).
14. Nishonova, A. Raqamli kompetensiyani shakllantirish: metodlar va vositalar // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. – 2022. – №1. – B. 40–47.
15. Oblinger, D., Oblinger, J. Educating the Net Generation. – Washington, DC: EDUCAUSE, 2005. – 403 p.
16. Prensky, M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1–6.
17. Salmon, G. E-Moderating: The Key to Teaching and Learning Online. – London: Routledge, 2000. – 240 p.
18. Sahlberg, P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2011. – 236 p.
19. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – 2nd ed. – London: Bloomsbury Academic, 2016. – 272 p.
20. Siemens, G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2, No. 1.
21. Toirov, X. O‘zbekistonda raqamli ta’lim rivoji va istiqbollari // O‘zbek pedagogik jurnali. – 2021. – №3. – B. 56–63.
22. UNESCO. Reimagining our futures together: A new social contract for education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 185 p.

**SERVIS TA'LIMIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK  
YONDASHUVLARI: AMALIY MODEL VA SAMARADORLIK TAHLILI**  
**Barataliyeva Nasiba Mahmadaminovna**

Termiz davlat pedagogika instituti, Texnologiya va geografiya kafedrasи oq'ituvchisi,  
[nasibabarataliyeva@gmail.com](mailto:nasibabarataliyeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada servis ta'linda talabalarning kreativlik salohiyatini rivojlan-tirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Muallif amaliy mashg'u-lotlar jarayonida qo'llaniladigan "dizayn fikrlash", "muammoli topshiriqlar asosida o'qitish", "rol o'ynash", "fikrlash xaritalari" kabi interaktiv metodlar samaradorligini kuzatish asosida tahlil qila-di. Servis sohasi mutaxassislarni tayyorlashda bu yondashuvlar nafaqat bilim olish, balki mustaqil qaror qabul qilish, tashabbus ko'rsatish, estetik baholash, mijoz bilan muomala qilish ko'nikmala-rini shakllantirishga xizmat qiladi

**Kalit so'zlar:** kreativlik, metodik yondashuv, servis ta'limi, dizayn fikrlash, muammoli top-shiriq, ijodiy kompetensiya, metodik model, faol o'qitish

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ КРЕАТИВНОСТИ В  
ОБРАЗОВАНИИ ПО НАПРАВЛЕНИЮ «СЕРВИС»: ПРАКТИЧЕСКАЯ  
МОДЕЛЬ И АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ**

**Аннотация.** В данной статье анализируются современные методические подхо-ды, направленные на развитие креативности студентов в образовании по направлению «сервис». Автор рассматривает эффективность таких методов, как «дизайн-мышление», проблемное обучение, ролевые игры, ментальные карты, на основе наблюдений и экс-периментов. Эти подходы способствуют не только освоению знаний, но и формирова-нию ключевых компетенций, таких как принятие решений, инициативность, эстетическая оценка, коммуникативные навыки.

**Ключевые слова:** креативность, методические подходы, образование в сфере сер-виса, дизайн-мышление, проблемное обучение, творческая компетенция, методическая мо-дель, активное обучение

**METHODICAL APPROACHES TO DEVELOPING CREATIVITY IN SERVICE  
EDUCATION: PRACTICAL MODEL AND EFFECTIVENESS ANALYSIS**

**Abstract.** This article analyzes modern methodological approaches aimed at fostering cre-ativity in students within service education. The author examines the effectiveness of techniques such as design thinking, problem-based learning, role-playing, and mind mapping through obser-vational and experimental data. These approaches go beyond knowledge acquisition, fostering key competencies such as independent decision-making, initiative, aesthetic judgment, and communi-cation.

**Keywords:** creativity, methodical approach, service education, design thinking, prob-lem-based learning, creative competence, methodical model, active learning.

**KIRISH.** Bugungi globallashuv, axborotlashtirish va iqtisodiy raqobat muhiti ta'lim tizimi-dan nafaqat an'anaviy bilim berishni, balki ijodiy fikrlovchi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, innovatsion yondashuvlarga ochiq mutaxassislarni tayyorlashni talab etmoqda. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasiga oid kasb yo'nalishlarida ushbu ehtiyojar yanada keskinroq

sezilmoqda, chunki servis sohasi inson bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot, muomala, noan’anaviy yechimlar va estetik qarorlar talab qiladigan faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli, bu sohaga oid kasb ta’limi tizimi ham zamonaviy va kreativ yondashuvlarga asoslangan metodik modelga ega bo‘lishi lozim.

Ayniqsa, servis sohasi kabi bevosa inson omiliga tayanadigan kasb yo‘nalishlarida ijodiy kompetensianing mavjudligi nafaqat kasbiy muvaffaqiyat mezoni, balki ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichga aylanmoqda. Servis sohasi xodimidan estetik idrok, muomala madaniyati, noan’anaviy fikrlash, tashabbuskorlik va muammoga moslashuvchan yondashuv talab qilinadi. Shu bois bu yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarning kreativ salohiyatini shakllantirish zamonaviy ta’lim jarayonining markaziy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Afsuski, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi vaqtida servis sohasida ta’lim berishda ko‘p hollarda an’anaviy, reproduktiv o‘qitish usullariga tayanilmoqda. Talabalar o‘quv jarayonida bilimlarni tayyor holatda qabul qiladi, mustaqil izlanish, ijodiy yondashuv, tashabbus ko‘rsatish imkoniyatlari esa cheklangan. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarligiga, mijoz bilan ishlash qobiliyatlariga, moslashuvchan fikrlash ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kreativlik shaxsning muammoli vaziyatda noodatiy va samarali yechimlar topishga qodir bo‘lgan faol kognitiv-emotsional holati sifatida talqin etiladi (Runco, 2007; Lucas, 2015). Bunday qobiliyatni shakllantirish esa faqat an’anaviy darsliklar asosidagi replikativ yondashuvlar orqali emas, balki metodik innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan murakkab didaktik model yordamida amalga oshirilishi lozim. Shunga ko‘ra, kreativlikning rivoji faqat individual salohiyat emas, balki o‘qitish muhitining ochiqligi, reflektiv imkoniyatlar, multimodal ta’lim vositalari, interaktiv metodlar kabi omillar bilan ham bevosa bog‘liqdir.

Xizmat ko‘rsatish sohasida ta’lim olayotgan talabalar uchun bu muammo ikki baravar dolzarb, chunki ular nafaqat o‘z kasbiy bilimlarini, balki kommunikativ, estetik va psixologik kompetensiyalarini real hayotiy vaziyatlarda namoyon eta olishlari kerak. O‘z navbatida, bu holat pedagogik jarayonda talabani passiv bilim oluvchidan faol ijodiy subyektga aylantirishga qaratilgan metodik transformatsiyani talab etadi. Bunda dizayn fikrlash, muammoli topshiriqlar, rol o‘yinlari, loyihalash, fikrlash xaritalari kabi yondashuvlar muhim o‘rin tutadi.

So‘nggi yillarda dunyo tajribasida, jumladan, AQSh, Finlyandiya, Janubiy Koreya kabi mammalatlar ta’lim tizimida xizmat ko‘rsatish sohasiga oid kasblarda o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, “design-based learning” modeli orqali talabalar real mijoz bilan ishlash, xizmat dizaynnini ishlab chiqish, estetik yechimlar taklif etish va ularga mos prototip yaratish jarayonida faol ijodiy tafakkurga jalg etiladi. Bu jarayon orqali o‘quvchi o‘zini professional vaziyatlarda sinab ko‘rish, psixologik barqarorlik, ijtimoiy javobgarlik va estetik mas’uliyatni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Afsuski, O‘zbekistonda servis sohasiga oid kasb ta’limida hamon an’anaviy metodlar ustunlik qilmoqda. Ta’lim jarayonida asosan tayyor ma’lumotlarni yod olish, nazariy bilimlarni takrorlash, o‘qituvchi markazlashgan yondashuvlar saqlanib qolgan. Bunday vaziyatda talabaning mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy yondashish, tashabbus ko‘rsatish, real mijoz bilan samarali muloqot olib borish kompetensiyalari rivojlanmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqot servis ta’limida kreativlikni shakllantirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqish, uni amaliy tajriba asosida tekshirish va yondashuvlarning samaradorligini aniqlashga yo‘naltirilgan. Tadqiqotning dolzarbliyi shundan iboratki, u nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki xizmat ko‘rsatish sohasida insoniylik, estetik idrok, innovatsion fikrlash, mijozga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqola doirasida ishlab chiqilgan metodik model dizayn fikrlashning 5 bosqichiga tayangan holda talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm sifatida namoyon etiladi.

**ADABIYOTLAR SHARHI.** Servis ta’limida kreativlikni rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada faollashgan. Bu yo‘nalishda xorijiy pedagogikada, ayniqsa AQSh, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Janubiy Koreya va Skandinaviya davlatlari tajribasida kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar faol ishlab chiqilgan. Ularda o‘qitishning markazida ijodkor o‘quvchi, mustaqil fikrlovchi shaxs turadi. A. Craft o‘z tadqiqotlarida “little c creativity” (kundalik ijodkorlik) tushunchasini asoslab, bu jarayon o‘quvchilarning oddiy muammolarga noodatiy yondasha olish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [1].

Hozirgi zamon pedagogikasida kreativlikni rivojlantirish uchun dizayn fikrlash, muammoli topshiriqlar, rol o‘yinlari, interaktiv loyihalar, mashg‘ulotlarning vizual va tajribaviy komponentlari muhim vositalar sifatida tan olinmoqda. Jumladan, T. Brown tomonidan ishlab chiqilgan dizayn fikrlash modeli ta’lim jarayoniga moslashtirilganda o‘quvchilarni “empatiya – muammo aniqlash – g‘oya yaratish – protiplash – testlash” bosqichlari orqali ijodiy faoliyatga jalgan etadi [2].

Mahalliy mualliflar ham bu borada muhim tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, M. R. Mamadaliyeva xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida kreativ fikrlashni shakllantirish uchun muammo li topshiriqlar asosida o‘qitishni, dizayn fikrlash va CLIL yondashuvlarini o‘zbek ta’lim tizimiga moslashtirishni taklif etadi [3]. Unga ko‘ra, aynan xizmat ko‘rsatish sohasi o‘quvchilari mijoz bilan bevosita ishlashi, ijtimoiy-psixologik holatlarga to‘g‘ri reaksiya berishi uchun kreativ kompetensiyalar muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Kreativlikni baholash mezonlari, uni rivojlantirishning diagnostik usullari borasida ham izlanishlar mavjud. Masalan, E. Torrens tomonidan ishlab chiqilgan testlar tizimi (Torrance Tests of Creative Thinking - TTCT) bugungi kunda dunyoda eng ko‘p qo‘llaniladigan universal usullardan biri bo‘lib, unda kreativlikning to‘rt asosiy komponenti - erkinlik, moslashuvchanlik, tasavvur kuchi va aniqlik o‘lchanadi [4].

Servis ta’limida kreativlikni rivojlantirish bugungi kunda ta’lim jarayonining markaziy masalalaridan biriga aylangan. Bu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar nafaqat pedagogik nazariya, balki amaliy metodikalar asosida ham shakllanmoqda. Xususan, kreativlikning kognitiv asoslari haqida fikr bildirgan G. Wallas (1926) tomonidan ishlab chiqilgan to‘rt bosqichli kreativ jarayon modeli (tayyorgarlik, inkubatsiya, ilhomlanish, tekshirish) bugungi metodik yondashuvlar uchun nazariy negiz bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu model, ayniqsa, muammoli topshiriqlar asosidagi o‘qitish texnologiyalarida o‘z aksini topmoqda, chunki bu jarayonlarda talabalar ilk bosqichdan boshlab o‘z bilim va tajribalarini mustaqil tahlil qilishga undaladi.

Yevropa Ittifoqi doirasida amalga oshirilgan “CREA-RE” (Creativity in Higher Education) loyihasi doirasidagi tadqiqotlar ham ko‘rsatadiki, kreativlikni rivojlantirish uchun o‘qituvchi interaktiv muhit, erkin fikrlash maydoni va ko‘p bosqichli refleksiya imkoniyatlarini yaratishi zarur. Shu o‘rinda, B. Lucas tomonidan taklif etilgan “Creative Habits of Mind” modeli (imagination, inquisitiveness, collaboration, persistence, discipline) ham o‘qituvchilar uchun muhim ko‘rsatma sifatida qabul qilinmoqda.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham kreativlikning milliy mentalitet va kasbga oid kompetensiyalar bilan bog‘liq jihatlariga e’tibor qaratilmoqda. Masalan, O‘zbekiston pedagogikasida xizmat ko‘rsatish sohasi uchun talab qilinadigan yumshoq ko‘nikmalar – emotsiyal intellekt, estetik idrok, madaniy tafakkur va mijozga yo‘naltirilgan yondashuv – orqali ijodiy kompetensiyani shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqilmoqda. Jumladan, X. Abdurahmonovaning (2021) tadqiqotlarida xizmat faoliyatida kommunikativ kreativlik alohida aspekt sifatida tahlil qilinadi.

Yana bir muhim jihat – kreativlikni baholash usullaridir. Zamonaviy ta’lim tizimida kreativlik subyektiv ko‘rsatkich bo‘lishiga qaramasdan, uni diagnostika qilishda ko‘rsatkichlar tizimi aniqlashtirilmoqda. Masalan, Torrens testlaridan tashqari, Guilfordning divergentsiya asosidagi fikrlash testlari (fluency, originality, elaboration, flexibility) ham o‘qituvchilar amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Bu testlar talabaning o‘z fikrini erkin ifodalashi, muammoga turlicha yondashuvi va detalga e’tibori kabi mezonlarni aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, kreativlikni rivojlantirishda multimodal yondashuvar – ya’ni vizual, audial va kinestetik komponentlarni birgalikda ishlatish – muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasi uchun dramatizatsiya, mimika, stsenariy asosidagi o‘yinlar, video loyihalar orqali estetik va emotsiyal idrok kuchaytirilganda, ijodiy fikrlash sezilarli darajada faollashadi.

Servis ta’limida ijodiy kompetensiyani shakllantirishning muhim komponenti sifatida o‘quvchilarning tashabbuskorligi va o‘zini ifoda etish madaniyati ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Bu borada A. Banduraring o‘z-o‘zini boshqarish va o‘ziga ishonch nazariyasi ham muhim asoslardan biridir. Uning fikricha, o‘quvchilar faqat bilim asosida emas, balki o‘z qobiliyatlariga nisbatan ijobiy ishonch bilan mustaqil harakat qilishga o‘rgatilganda, kreativ yechimlar ko‘rsata boshlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadi, servis ta’limida kreativlikni shakllantirish masalasi ko‘p qirrali, murakkab va integrativ yondashuvni talab qiladigan sohadir. Bu yo‘nalishda metodik modellar, diagnostik mezonlar, nazariy asoslar, xalqaro tajribalar va amaliy natijalar bir-biri bilan uyg‘un holda ishlatilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

**METODIKA VA TAJRIBA MAZMUNI.** Mazkur tadqiqotda servis sohasida tahsil olayotgan talabalarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik model ishlab chiqildi va uning amaliy samaradorligi real o‘quv muhiti sharoitida tekshirildi. Tajriba uchun Termiz davlat pedagogika institutining Texnologiya va geografiya fakultetida “Servis faoliyati” yo‘nalishida tahsil olayotgan 3-bosqich talabalari orasidan 52 nafar ishtirokchi tanlab olindi. Ular ikki guruuhga ajratildi: tajriba guruhi (26 nafar) va nazorat guruhi (26 nafar). Tajriba guruhi bilan mashg‘ulotlar davomida kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus metodik model asosida ishlov berildi.

Metodik model “dizayn fikrlash” yondashuviga asoslangan bo‘lib, u 5 bosqichdan iborat: 1) empatiya – vaziyatni his qilish, 2) muammoni aniqlash, 3) g‘oya yaratish, 4) prototip ishlab chiqish, 5) testlash. Har bir bosqich uchun o‘quv mashg‘ulotlari, amaliy topshiriqlar va guruuhli vazifalar ishlab chiqildi. Talabalar xizmatga oid real hayotiy vaziyatlar asosida loyihalar tuzdilar, xizmat ko‘rsatishdagi muammolarni tahlil qildilar, estetik va kommunikativ yechimlar taklif qildilar. Mashg‘ulotlar davomida muallif tomonidan refleksiv savollar, vizual xaritalar, SWOT tahlil, muloqot simulyatsiyalari, emotsiyal baholash texnikalari qo‘llandi.

Nazorat guruhi esa odatdagagi dars jadvaliga muvofiq, an’anaviy o‘qitish metodlari asosida ta’lim oldi. Ya’ni, darslik asosidagi nazariy materiallar, o‘qituvchining izohi va yakka topshiriqlar asosida o‘quv jarayoni olib borildi. Har ikki guruuh mashg‘ulotlar boshlanishidan oldin va oxirida kreativ kompetensiyalar bo‘yicha diagnostik baholovdan o‘tkazildi. Baholash mezonlari quyidagilari edi: 1) mustaqil g‘oya taklif qilish qobiliyati, 2) kreativ yechimlar soni va sifati, 3) muammoli vaziyatda fikrlash moslashuvchanligi, 4) xizmat dizayni va kommunikatsiya salohiyati.

Servis ta’limida kreativlikni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni amaliyotga tadbiq etish uchun birinchi navbatda chuqr ilmiy-tadqiqot asosiga tayangan, tizimli va bosqichli modellashtirish zarurati tug‘iladi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan metodik model talabalarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy vositalarini o‘z ichiga oladi va “dizayn

fikrlash” yondashuviga tayangan holda strukturaviy asosga ega. Model quydagi asosiy tamoyillarga tayangan: interaktivlik, emotsiyal-ta’limiy jalb etuvchanlik, tajribaviy o‘rganish, refleksiya va metakognitiv o‘sish.

Tadqiqot obyekti sifatida Termiz davlat pedagogika instituti Texnologiya va geografiya fakultetining “Servis faoliyati” yo‘nalishida tahsil olayotgan 3-bosqich talabalari tanlab olindi. Eksperimental ishlar davomida 52 nafar talaba jalb qilinib, ular tasodifiy tanlov asosida ikki guruhga ajratildi: eksperimental (26 nafar) va nazorat (26 nafar) guruhlari. Tadqiqotning asosiy maqsadi – yangi metodik model asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonining talabalarda kreativ kompetensiyalar rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Eksperimental mashg‘ulotlarda qo‘llanilgan model T. Brown tomonidan ishlab chiqilgan “dizayn fikrlash” yondashuvi asosida shakllantirildi. Bu model beshta bosqichdan iborat bo‘lib, har biri alohida pedagogik funksiyani bajaradi: (1) empatiya bosqichi – real mijoz bilan ishlash holatini his qilish, (2) muammoni aniqlash – xizmat ko‘rsatishdagi aniq muammo va ehtiyojlarni aniqlash, (3) g‘oya yaratish – noodatiy yechimlar ishlab chiqish, (4) prototip tayyorlash – xizmat mahsulotining vizual yoki funksional namunalarini yaratish, (5) testlash – amaliyotda yechimni sinab ko‘rish va baholash.

Har bir bosqich uchun o‘quv rejasi, topshiriqlar tizimi va interaktiv faoliyat turlari ishlab chiqildi. Jumladan, talabalar xizmat ko‘rsatishga doir real hayotiy holatlar asosida guruhlarda ishlashdi, dizayn maketlar yaratishdi, mijoz rolining simulyatsiyasini bajarishdi, xizmat etiketiga oid estetik vazifalarni hal qilishdi. Mashg‘ulotlarda “fikrlash xaritalari”, SWOT tahlil, dramatizatsiya, ssenariy asosida muloqot, reflektiv yozuvlar va tanqidiy tahlil kabi metodik vositalar qo‘llanildi. Bu vositalar talabalarни nafaqat ijodiy fikrlashga, balki o‘z-o‘zini anglash va baholashga, metakognitiv refleksiyaga undadi.

Eksperiment davomida nazorat guruhi an’naviy dars jadvali va klassik o‘qitish usullari asosida o‘qitildi. Ya’ni, darslikka asoslangan ma’ruzalar, o‘qituvchining izohlari va individual yozma topshiriqlar asosiy faoliyatni tashkil etdi. Ushbu kontrast yondashuv tajriba samaradorligini aniqlashda obyektiv sharoit yaratdi.

Tajribadan oldin va so‘ngra har ikki guruhda kreativ kompetensiyalar darajasi baholandi. Baholashda quydagi mezonlar asos qilib olindi:

1. Mustaqil g‘oya taklif qilish qobiliyati (divergent fikrlash darajasi)
2. Muammoli vaziyatda fikrlashning moslashuvchanligi
3. Estetik idrok va xizmat dizayni bo‘yicha yechim taklif qilish salohiyati
4. Muloqotda kreativ yondashuv va kommunikativ tafakkur

Mazkur indikatorlar asosida baholovlar Torrens testlari (TTCT), vizual loyihalar tahlili, talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni ekspertiza qilish, shuningdek, so‘rovnoma va o‘zini o‘zi baholash shakllarida o‘tkazildi. Baholash 5 ballik tizim asosida amalga oshirildi.

Eksperimental mashg‘ulotlarning samaradorligi natijalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Tajriba guruhi ishtirokchilari o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha 58% dan 91% gacha o‘sish qayd etgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu farq 60% dan 68% atrofida bo‘ldi. So‘rovnoma natijalarida esa 81% talaba “ijodiy faoliyatda ilgari sezmagan imkoniyatlarimni kashf etdim” degan, 74% esa “muammoli topshiriqlarda erkin fikr bildirishim kuchaydi” deya fikr bildirgan.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasida o‘qitishda an’naviy yondashuvlardan metodik innovatsiyalarga o‘tish nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki talabalarning kasbiy-madaniy, estetik, kommunikativ va muammoli vaziyatga moslashuvchanlik kompetensiyalarini ham jadal rivojlaniradi. Ayniqsa, dizayn fikrlash yondashuvi asosida tuzilgan model o‘quvchi shaxsini faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi tajriba

davomida amalda isbotlandi.

**NATIJALAR VA ULARNING ISHONCHLILIGI.** O'tkazilgan tajriba asosida servis ta'limida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida kreativ kompetensiyalarning rivojlanish darajasi mezonlar bo'yicha tahlil qilindi. Mezonlar to'rttaga ajratildi: 1) mustaqil g'oya yaratish qobiliyati; 2) muammoli vaziyatda fikrlash moslashuvchanligi; 3) xizmat dizayni va estetik yondashuv; 4) kommunikativ kompetensiya. Baholash 5 ballik tizim asosida amalgalashdi.

Shuningdek, ishtirokchilarga berilgan so'rovnomalarda 81% talabalar "ijodiy topshiriqlarda o'z fikrimni ilk bor ochiq ifoda etdim", 74% esa "ijodkorlikni o'zimda ilgari sezmag'anman" deb javob bergan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, talabalar salohiyati mavjud, ammo u faqat to'g'ri metodik yondashuvlar bilan yuzaga chiqmoqda.

Natijalarni ishonchlilik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilganda, tajriba guruhi o'zlashtirish ko'rsatkichlarida 58% dan 91% gacha o'sishga erishgan bo'lsa, nazorat guruhida bu farq 60% dan 68% atrofida bo'lgan. Bu esa metodik yondashuv faqat bilim berish emas, balki shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

**XULOSA VA TAVSIYALAR.** Servis sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun kreativ kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta'liming asosiy strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, an'anaviy o'qitish metodlarida ijodiy salohiyatga tayanganilmaydi, talabalar esa, o'z navbatida, mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llash, innovatsion qarorlar qabul qilish, xizmat dizayni va kommunikativ faoliyatda ijodkorlik ko'rsatishda qiyinchilikka duch keladi. Bu muammoni hal qilish uchun ishlab chiqilgan metodik model - dizayn fikrlashga asoslangan, muammoli topshiriqlar, interaktiv faoliyat, vizual muloqot va refleksiya vositalarini qamrab olgan tizim - o'zini yuqori samarali vosita sifatida namoyon etdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Craft A. Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas. – London: Routledge, 2005. – 256 p.
2. Brown T. Change by Design: How Design Thinking Creates New Alternatives for Business and Society. – Boston: Harvard Business Press, 2009. – 272 p.
3. Mamadaliyeva M.R. Servis ta'limida kreativlikni rivojlantirishda dizayn fikrlash metodining o'rni // Ilm-fan va taraqqiyot. – 2022. – №3(45). – B. 88–94.
4. Torrance E.P. The Torrance Tests of Creative Thinking. Norms – Technical Manual. – Princeton, NJ: Scholastic Testing Service, 1974. – 143 p.
5. Qodirova Z.T. Servis yo'nalishida o'quvchilar kreativligini rivojlantirishning interaktiv usullari // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. – 2023. – №2. – B. 43–50.
6. Jaloliddinovich, N. Q. (2025). Talabalarda akademik madaniyatni shakllantirishning nazariy ji-hatlarining tahlili. Shokh library.
7. Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. – Moskva: Pedagogika, 1989. – 192 s.
8. Bodalev A.A. Lichnost i obshchenie. – Moskva: MGU, 1983. – 208 s.
9. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
10. Runco M.A. Creativity: Theories and Themes – Research, Development, and Practice. – Amsterdam: Elsevier, 2007. – 492 p.

## РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ

### Юсупов Фирнафас

к.т.н., доцент, Ургенчского филиала Ташкентского университета информационных технологий, [firnafas@mail.ru](mailto:firnafas@mail.ru)

Шарифбоева Роза Баходировна

доцент, Ургенчского филиала Ташкентского университета информационных технологий  
**Тахирова Гульхайо Сардорбековна**, магистрант, Ургенчского филиала Ташкентского университета информационных технологий

**Аннотация.** В работе раскрывается значимость самостоятельной работы студентов в многоуровневой системе образования. Раскрыты основные трудности студентов, которые во многом зависят от способов учебной работы студентов. Приведены методика, направленные на усовершенствование самостоятельной работы студентов и их способов на основе структурно систематизированных учебных элементов содержание изучаемого курса. Одним из оптимальных средств такой систематизации содержание учебного курса является информационно-коммуникационная обучающая среда, ориентированная на самостоятельную работу студентов, позволяющая ее реализовать с использованием педагогических, информационных и коммуникационных технологий на различных этапах дидактического цикла с учетом подготовленности студентов к этой работе и роста степени их самостоятельности в период вузовского обучения.

**Ключевые слова:** самостоятельная работа, инновационные образовательные технологии, компетенции, алгоритмический уровень студента, творческий уровень самостоятельной работы.

## TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

**Annotatsiya.** Maqolada ko'p bosqichli ta'lif tizimida talabalarning mustaqil ishlarining ahamiyati ochib berilgan. Talabalarning asosiy qiyinchiliklari aniqlandi, bu ko'p jihatdan talabalarning o'quv ishlarining usullariga bog'liq. O'r ganilayotgan kurs mazmunining tizimli tizimlash-tirilgan o'quv elementlariga asoslangan holda talabalarning mustaqil ishi va ularning usullarini takomillashtirishga qaratilgan usullar taqdim etilgan. Kurs mazmunini bunday tizimlashtirishning maqbul vositalaridan biri talabalarning mustaqil ishiga yo'naltirilgan, uni didaktik siklning turli bosqichlarida pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirishga imkon beradigan, talabalarning ushbu ishga tayyorgarligi va ularning universitetda o'qish davomida mustaqillik darajasining o'sishini hisobga olgan holda amalga oshirishga imkon beradigan axborot-kommunikatsiya o'quv muhitidir.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ish, innovatsion ta'lif texnologiyalari, kompetensiyalar, talabaning algoritmik darajasi, mustaqil ishning ijodiy darajasi.

## THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT WORK

**Abstract.** The paper reveals the importance of independent work of students in a multi-level education system. The main difficulties of students are revealed, which largely depend on the methods of students' educational work. The methods aimed at improving the independent work

of students and their methods based on structurally systematized educational elements of the content of the studied course are presented. One of the optimal means of such systematization of the content of the course is an information and communication learning environment focused on independent work of students, allowing it to be implemented using pedagogical, information and communication technologies at various stages of the didactic cycle, taking into account the students' preparedness for this work and the growth of their independence during their university studies.

**Keywords:** independent work, innovative educational technologies, competencies, algorithmic level of the student, creative level of independent work.

**Введение.** Государственные образовательные стандарты высшего профессионального образования рассматривают организацию самостоятельной работы студентов под руководством преподавателя, наряду с аудиторными занятиями, как один из основных и важнейших факторов подготовки наших будущих специалистов. В современных тенденциях обучения большое внимание уделяется повышению эффективности, производительности, научно-практического потенциала и других подобных факторов самостоятельной работы студентов под руководством преподавателя. Из года в год объем часов, отводимых на самостоятельную подготовку под руководством преподавателя в компоненте преподавания предметов учебного плана специализации, составляет 50–80 % от объема часов, отводимых на отдельные предметы. Это закономерно, ведь в эпоху бурного развития информационно-коммуникационных технологий организации самостоятельного обучения уделяется большое внимание.

Важным моментом является то, что развитие информационного общества требует от высших учебных заведений ориентации на активную организацию самостоятельного обучения как главного критерия в подготовке профессионалов, соответствующих требованиям времени, не просто специалистов, хорошо «знающих и владеющих» своей специальностью, но и, что самое главное, компетентных специалистов, обладающих научным потенциалом, умеющих «критически мыслить», «оценивать» свой профессиональный потенциал, «самостоятельно достигать поставленных целей», умеющих применять полученные знания и умения в практической деятельности. Кроме того, в современных условиях в результате широкого внедрения компьютерных и телекоммуникационных технологий кардинально меняются подходы к организации образовательного процесса.

В такой информационной системе образования, основанной на компьютерных и телекоммуникационных технологиях, самостоятельная работа студента по предметам представляет собой не простой процесс проверки полученных знаний студента с задержкой во времени, а процесс, осуществляющий непрерывный мониторинг полученных знаний студента в реальном времени и обеспечивающий активное взаимодействие преподавателя и студента, что приводит к расширению пространственных (географических, дистанционных) и временных границ (за пределы учебной аудитории) для информационного обмена и общения. Такое внимание к организации самостоятельной работы студента на основе компьютерных и телекоммуникационных технологий является одной из актуальных проблем в высших учебных заведениях.

Самостоятельная работа студентов дидактический организуется преподавателем и направлена на самоподготовку, состоящую из комплексных действий студента. С каждым днем все больше внимания уделяется независимому образованию. Объем обрабатываемой информации неуклонно растет. Поэтому, знакомясь с новой литературой по предмету,

преподаватель отбирает и рекомендует литературу, которая будет стимулировать развитие интеллекта учащихся в рамках преподаваемого им курса.

**Обзор проблемы.** Развитие творческого мышления у учащихся возможно не только посредством взаимодействия с преподавателем, но и требует готовности учащегося к самостоятельной деятельности. Стремление студента совершенствовать свои знания, умения и навыки является основой формирования его интеллектуальной компетентности и повышения эффективности процесса обучения.

Проблема организации самостоятельной работы студентов не нова с педагогической точки зрения. Эта проблема рассматривалась в работах Л.Г.Вяткина, М.Г.Горунова, Б.П.Есипова, И.И.Ильясова, П.И.Пидкастый, В.Л.Шатуновский и другие, а также учение-педагоги нашей республики, такие как А.А.Абдукодиров, Саидахмедов, М.Арипов, Ф.Зокирова. В разные годы, особенно в последние годы прошлого столетия, проводились исследования по определению сущности «самостоятельной работы» в широком и узком смысле, активных методов и способов ее продуктивной организации, ее места в учебном процессе (в высшей школе), определения условий и факторов, способствующих ее активизации студентами.

Опубликовано большое количество научных и методических работ, посвященных поиску методов и подходов эффективной организации, совершенствованию и развитию самостоятельной работы студентов. При этом основное внимание уделяется организации самостоятельной работы студентов, выявлению причин и средств, препятствующих повышению ее активности, и их устранению, определению компонентов деятельности учителя и его роли в ней.

Национальная программа подготовки кадров определяет одной из основных задач подготовку специалистов, которые наряду с глубокими теоретическими и практическими знаниями умеют самостоятельно работать в избранной сфере, самостоятельно совершенствовать свои знания и умения, точно выявлять и анализировать проблемные ситуации, творчески подходить к делу, быстро адаптироваться к условиям.

В современных условиях цифровизации, демократизации и гуманизации общества, а также расширения прав и свобод человека очень важно воспитать молодое поколение, способное действовать самостоятельно. Самостоятельность, инициативность, креативность, стремление к цели являются важными качествами личности современного человека, которые считаются необходимыми для формирования у человека независимого мнения, для совершенствования и развития самостоятельных решений и принятия решений по важным жизненным проблемам в настоящем и будущем. В современных условиях для современного специалиста характерны творческая активность и самостоятельность.

Самостоятельную работу студента следует рассматривать не как простой способ получения знаний, а как один из основных принципов функционирования высшего учебного заведения. Самостоятельное обучение является необходимым компонентом единого процесса обучения, поскольку оно организовано, целенаправленно, регулируется и контролируется процессом обучения. Именно поэтому организация самостоятельной работы студентов является одним из приоритетных и эффективных направлений повышения качества образования, особенно в условиях развития информационно-коммуникационных технологий.

Естественно, что при рассмотрении основных принципов управления и организации самостоятельной работы студента большое внимание следует уделять формированию и развитию у студента прочного умения самостоятельно работать с учебной и научной

литературой. Сегодня в число приоритетов входят обмен опытом с передовыми странами мира, активное участие в глобальных образовательных процессах, устранение искусственных барьеров между преподавателями и студентами, реформирование системы высшего образования, ее совершенствование и повышение качества.

При организации самостоятельного бизнеса, прежде всего, необходимо обратить внимание на одну простую вещь. Таким образом, все это знают, но большинство людей не предпринимают никаких действий. Вот почему овладение простыми элементарными принципами организации самостоятельной работы имеет первостепенное значение и в полной мере охватывает этот сложный процесс.

С чего каждому студенту следует начать организацию своей самостоятельной работы? Какова цель? Сколько времени займет работа? Какие методы для этого используются? – должен уметь четко представлять себе решение таких проблем. Важно также помнить, что разработка правил организации самостоятельной работы не означает, что эта работа организована. Ведь самостоятельная работа организуется каждым студентом. Чтобы добиться успеха, студенту необходимо работать над собой терпеливо и без страха перед трудностями. Поэтому важно понимать, что осознанный подход к этой работе, рациональное планирование и реализация своей самостоятельной работы являются важным условием становления конкурентоспособного специалиста в соответствии с требованиями времени.

При организации самостоятельной работы студентов необходимо учитывать следующие вопросы: определении тем самостоятельной работы целесообразно выделить наиболее важную проблему по каждой теме изучаемого предмета; при организации самостоятельной работы необходимо учитывать время, которое студенты затратят на эту работу. Объем самостоятельной работы должен быть определен таким образом, чтобы студент мог реально ее выполнить; давая учащимся задание на самостоятельную работу, преподаватель должен спросить: «Какова цель?» Он должен задать этот вопрос и ответить на него; самостоятельная работа студентов должна быть организована на основе определенных принципов; план самостоятельной работы студента должен быть утвержден на заседании кафедры, а выполнение плана самостоятельной работы студента должно контролироваться заведующим кафедрой, а результаты оценки должны обсуждаться на заседании кафедры и т.д.

**Методика.** При организации самостоятельной работы студента по темам изучаемого предмета необходимо на основе некоторых выбранных критериев, основанных на логических принципах, разделить компоненты предмета на структурированные модули. Считаем целесообразным конкретизировать состав лекционных, практических, лабораторных и самостоятельных материалов, выделяемых студентам по каждому модулю, а также составить план использования литературы и ресурсов Интернета.

В современных тенденциях обучения большое внимание уделяется повышению эффективности, производительности, научно-практического потенциала и других подобных факторов самостоятельной работы студентов под руководством преподавателя. Из года в год объем часов, отводимых на самостоятельную подготовку под руководством преподавателя в компоненте преподавания предметов учебного плана специализации, составляет 50–80 % от объема часов, отводимых на отдельные предметы. Это закономерно, ведь в эпоху бурного развития информационно-коммуникационных технологий организации самостоятельного обучения уделяется большое внимание.

Важно то, что развитие информационного общества требует от высших учебных заведений ориентации на активную организацию самостоятельного обучения как главного критерия в подготовке не просто специалистов, «хорошо знающих и владеющих» своей

специальностью, но и, что самое главное, компетентных специалистов с научным потенциалом, умеющих «критически мыслить», «оценивать» свой профессиональный потенциал, «самостоятельно достигать поставленных целей», умеющих применять полученные знания и умения в практической деятельности. Кроме того, в современных условиях в результате широкого внедрения компьютерных и телекоммуникационных технологий кардинально меняются подходы к организации образовательного процесса.

В такой информационной системе образования, основанной на компьютерных и телекоммуникационных технологиях, самостоятельная работа студента по предметам представляет собой не простой процесс проверки полученных знаний студента с задержкой во времени, а процесс, осуществляющий непрерывный мониторинг полученных знаний студента в реальном времени и обеспечивающий активное взаимодействие преподавателя и студента, что приводит к расширению пространственных (географических, дистанционных) и временных границ (за пределы учебной аудитории) для информационного обмена и общения.

Для эффективного решения этой проблемы, анализа различных аспектов организации, поиска методов и подходов к совершенствованию и развитию самостоятельной работы студентов опубликовано большое количество научных и методических работ. При этом основное внимание уделяется организации самостоятельной работы студентов, выявлению причин и средств, препятствующих повышению ее активности, и их устраниению, определению компонентов деятельности учителя и его роли в ней.

Известно, что активная учебная и научно-исследовательская деятельность требует продуктивного использования всех видов самостоятельных исследований. Необходимо, чтобы самостоятельная работа студента проявлялась во всех формах учебного процесса. Основной целью самостоятельной работы студента является формирование и развитие знаний и умений, необходимых студенту для самостоятельного выполнения определенных учебных заданий под руководством и контролем преподавателя.

В ходе учебного процесса осуществляется поэтапный контроль знаний студентов по всем предметам (текущий контроль, рубежный контроль, итоговый контроль). В ходе практических и лабораторных занятий осуществляется контроль знаний студентов по каждой теме. Контроль лекционного материала осуществляется на основе логически завершенных тем, а также заданий, выдаваемых для самостоятельного освоения.

Формирование умения самостоятельно работать в процессе приобретения знаний формирует психологическую установку студентов на постоянное, активное, систематическое пополнение и совершенствование своих знаний, создает необходимые условия для самоорганизации в их учебной, а затем и профессиональной деятельности. Поэтому необходимо придать личностный смысл обучению студента, необходимо стимулировать творческий потенциал студента (материальный и духовный) за счет усиления внутренней мотивации обучения, развития навыков самоорганизации и самообразования.

Например, для организации различных форм самостоятельной работы студентов по предмету «Программирование» необходимо создать структуру предмета в виде логически завершенных учебных элементов, то есть древовидную структуру логических структурных элементов.

Использование логической древовидной структуры предмета позволяет студентам вести самостоятельную работу в течение семестра по специально спланированному графику.

В развивающем обучении, где компоненты и структура науки характеризуются в

форме «проблемы», содержание учебного материала предъявляется учащимся в виде цепочки проблем. Учитывая проблемный характер мышления, содержание конкретной темы или раздела целесообразно структурировать следующим образом, а именно: «в виде логической последовательности вопросов познания, процесс обучения — в виде цепи учебных ситуаций, ядром которых являются знания, а содержанием — совместная, согласованная работа учащихся над решением проблем с использованием различных методов обучения и средств приобретения знаний».

**Заключение.** Составлено более тысячи практических задач по курсу программирование, примеров и задач в разрезе темы по составлению алгоритмов и программ. Процесс решения задач связан с наукой программирования, то есть сначала строится математический модель и алгоритм задачи, далее алгоритм кодируется на алгоритмическом языке C++, а результаты получаются на компьютере. В результате у учащегося формируется способность успешно решать конкретную задачу в разных количествах и размерах. Здесь при решении вопросов, связанных со смежными дисциплинами, программирование кафедры информатики обязательно осуществляется во взаимосвязи с этими дисциплинами, они дополняют и подкрепляют друг друга необходимой информацией.

Таким образом, организацию самостоятельной работы студента в высшем учебном заведении целесообразно рассматривать как вид учебно-методической и духовной деятельности, направленной на получение общеобразовательных и профессиональных знаний под руководством преподавателя.

3. **Vazn toifasi:** og'ir vazn toifasidagi sportchilar, ayniqsa +100 kg toifasida, bo'g'imlar, ayniqsa tizza va tovon bo'g'imirni bilan bog'liq shikastlanishlar xavfi yuqoriroq.
4. **Oldingi shikastlanishlar:** to'liq tiklanmasdan sport faoliyatiga qaytgan sportchilar qayta shikastlanish xavfi yuqoriroq - 65% gacha holatlarda [7].

5. **Jismoniy tayyorgarlik darajasi:** yakka kurash uchun zarur bo'lgan asosiy jismoniy sifatlar (kuch, egiluvchanlik, koordinatsiya, chidamlilik) darajasidagi nomutanosiblik shikastlanish xavfini oshiradi [8].

Adabiyotlar tahlili shikastlanishlarning oldini olish dasturlarining samaradorligi bo'yicha muhim natijalarni ko'rsatdi. Berg va hamkasblari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, proprioretseptiv mashqlar, kuch mashqlari va texnik tayyorgarlikni birlashtirgan kompleks dasturlar shikastlanishlar sonini 30-40% ga kamaytirishi mumkin.

Functional Movement Screen (FMS) kabi skrining testlaridan foydalanish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish ustida ishlash esa shikastlanish xavfini 27% ga kamaytirishi aniqlangan. Bunda sportchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda shikastlanishlarning oldini olish dasturlari umumiy dasturlarga nisbatan 1,5 baravar samaraliroq ekanligi tadqiqotlarda tasdiqlangan [6].

Shuningdek, yelka, tizza va tovon himoyalanishlaridan rejali foydalanish ushbu sohalardagi shikastlanishlar sonini 15-20% ga kamaytiradi. Zamonaviy sport tibbiyoti va biotexnologiyalar sohasidagi yutuqlar yakka kurashda shikastlanishlarning oldini olish va sportchilar holatini nazorat qilish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

3D-harakat tahlili tizimlari yakka kurash harakatlarining biomexanikasini o'rghanish va shikastlanish xavfini oshiradigan harakatlarni aniqlash imkonini beradi. Akselerometrlar, giroskoplar va EMG-sensorlar asosidagi kiyiladigan qurilmalar mashg'ulot va musobaqa paytida sportchilar harakatlarini va mushaklar faolligini real vaqt rejimida kuzatish imkonini bersa, sportchilarning genetik profilini o'rghanish ularning shikastlanishga moyilligini va optimal profilaktika va tiklanish usullarini aniqlashga yordam beradi, ammo bu soha hali rivojlanish bosqichida [5].

Sportchilarning psixologik tayyorgarligi, xususan, e'tibor, konsentratsiya va xavfni baholash qobiliyati ham shikastlanishlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Yakka kurash sport turlarida shikastlanishlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tahlil etishga qaratilgan ilmiy uslublarni tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, zamonaviy sport tibbiyoti va biomexanika yutuqlaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan profilaktika chorralari shikastlanishlar sonini 40-50 foizgacha kamaytirish imkonini beradi. Ikkinchidan, individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulot jarayoni sportchilarning professional faoliyat davomiyligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sambo sport turida shikastlanishlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tahlil etishga qaratilgan ilmiy uslublarni joriy etish quyidagi ijobjiy natijalarga olib keldi:

- sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasining oshishi;
- texnik-taktik mahoratning takomillashuvi;
- musobaqa faoliyati samaradorligining yuksalishi
- sport faoliyati davomiyligining uzayishi;
- reabilitatsiya davri qisqarishi va samaradorligining oshishi.

Kelajakda ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlaridan foydalangan holda shikastlanishlarni bashorat qilish va oldini olish tizimini yaratish;
2. Sportchilarning individual anatomik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot jarayonini optimallashtirish;
3. Maxsus himoya vositalarining yangi avlodini ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirish.

Yuqoridaqgi taklif va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilishi sambo sport turida shikastlanishlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va sportchilarning professional faoliyat davomiyligini uzaytirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karaev, T. I. (2019). Sambo kurashining rivojlanish tarixi va zamonaviy tendensiyalari. Sport va jismoniy tarbiya jurnali, 3(24), 45-52.
2. Basharat, A., Martinez, J., & Kouhyar, S. (2022). Injury patterns in combat sports: A comparative analysis of judo, sambo, and wrestling. Journal of Sports Medicine and Physical Fitness, 62(3), 344-350.
3. Иванов, А. В., & Петров, С. Н. (2020). Биомеханический анализ техники бросков в самбо и дзюдо. Теория и практика физической культуры, 7, 14-19.
4. Назарова, К. М., & Иванов, В. П. (2021). Эпидемиология травматизма в спортивном и боевом самбо: сравнительный анализ. Спортивная медицина: наука и практика, 11(2), 68-75.
5. Berg, K., Eriksson, A., & Tarverdi, M. (2023). Prevention strategies for common injuries in sambo wrestlers. International Journal of Sports Physical Therapy, 18(2), 178-188.
6. Пименов, А. Б., Соколова, Ф. М., & Антонов, В. Г. (2022). Факторы риска травматизма у высококвалифицированных самбистов. Вестник спортивной науки, 3, 72-77.
7. Usmonov, A. A. (2021). Sambo kurashchilarda shikastlanishlarni oldini olish usullari va ularning samaradorligi. O'zbekiston sport tibbiyoti jurnali, 2(5), 112-118.
8. Li, X., Chen, J., & Wang, Z. (2023). Functional Movement Screen as a predictor of injury risk in combat sports: A systematic review and meta-analysis. Journal of Science and Medicine in Sport, 26(5), 438-447.

## TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA LOYIHALARNI BOSHQARISH TIZIMI

Isxakov Xusniddin Mirqunduzovich

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining mustaqil tadqiqotchisi,

[mymzmh@gmail.com](mailto:mymzmh@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lism sifatini oshirishda loyihalarni boshqarish tizimi (LBT)ning ahamiyati yoritilgan. Ta'lism sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p hollarda samarali loyihalashtirish va boshqaruvga bog'liq. Shu sababli, maqolada LBTning asosiy tushunchalari, zamonaviy modellar (PMBOK, PRINCE2, Agile, Scrum) va ularning ta'lism jarayoniga integratsiyasi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, O'zbekistonda ta'lism sohasidagi amaliy loyihalar misolida mavjud muammolar tahlil qilinib, ularga yechimlar taklif etiladi. Xalqaro tajriba asosida ilg'or yondashuvlar tahlil qilinib, mahalliy sharoitga mos takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Loyihalarni boshqarish, ta'lism sifati, boshqaruv tizimi, PMBOK, PRINCE2, Agile, Scrum, innovatsion yondashuv, strategik rejalashtirish, o'quv jarayoni.

## В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение системы управления проектами (СУП) в повышении качества образования. Успешность реформ в сфере образования во многом зависит от эффективного планирования и реализации проектов. В статье анализируются ключевые понятия СУП, современные модели (PMBOK, PRINCE2, Agile, Scrum) и возможности их интеграции в образовательные процессы. Также представлены примеры текущих проектов в Узбекистане, выявлены существующие проблемы и предложены возможные решения. На основе международного опыта даны рекомендации, адаптированные к местным условиям.

**Ключевые слова:** управление проектами, качество образования, система управления, PMBOK, PRINCE2, Agile, Scrum, инновационный подход, стратегическое планирование, учебный процесс.

## PROJECT MANAGEMENT SYSTEM IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

**Annotation.** This article explores the significance of project management systems (PMS) in improving the quality of education. The success of educational reforms largely depends on efficient project planning and execution. The paper reviews fundamental PMS concepts, modern models (PMBOK, PRINCE2, Agile, Scrum), and their potential integration into educational processes. It further analyzes existing educational projects in Uzbekistan, highlights common challenges, and offers practical solutions. Drawing on international best practices, the article provides recommendations tailored to the national context for effective implementation.

**Key words:** Project management, education quality, management system, PMBOK, PRINCE2, Agile, Scrum, innovative approach, strategic planning, educational process.

**KIRISH.** Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lism sifati milliy taraqqiyotning eng muhim mezonlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Har qanday davlatning intellektual salohiyati, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi zamirida zamonaviy, sifatli va tizimli ta'lism yotadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ta'lism sohasidagi islohotlar samaradorligini ta'minlash uchun ilg'or boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lism tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan bir qator strategik hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomalarida ta'linda sifat ko'rsatkichlarini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etish zarurligi bir necha

bor alohida ta'kidlangan [1]. Ushbu yondashuvlardan biri – loyihalarni boshqarish tizimi bo'lib, u ta'lif jarayonini tashkil etish, resurslardan samarali foydalanish, vaqt va sifat omillarini muvofiq-lashtirishda muhim rol o'yndaydi.

Loyihalarni boshqarishning xalqaro tan olingan modellaridan – PMBOK, PRINCE2, Agile, Scrum kabi yondashuvlar turli sohalarda, jumladan ta'linda ham keng qo'llanilmoqda. Biroq, bu yondashuvlarni bevosita ta'lif sohasiga integratsiya qilishda muayyan metodologik, tashkiliy va resurslarga doir muammolar mavjud. Ushbu maqolada aynan shu muammolar tahlil qilinadi, ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi hamda O'zbekiston ta'lif tizimida loyihalarni boshqarish amaliyotining istiqbollari ko'rib chiqiladi.

**1. Ta'lif sifatiga ta'sir qiluvchi omillar.** Ta'lif sifati – bu faqatgina o'quv dasturlarining mazmuni yoki o'qituvchilarning malakasi bilan cheklanmaydigan, balki murakkab, ko'p omilli tizimdir. Bugungi kunda ta'lif sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va ularni chuqur tahlil qilish ta'lif siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Chunki sifatli ta'lif – raqobat-bardosh kadrlar tayyorlashning, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning va milliy xavfsizlikning poydevo-ridir.

Birinchi navbatda, ta'lif jarayonining metodik va didaktik jihatlari muhim rol o'yndaydi. An'anaviy o'qitish uslublarining zamonaviy interaktiv, loyiha asosidagi va raqamli yondashuvlar bilan almashtirilmasligi o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini pasaytiradi. Shu bois, ta'lif metodologiyasida yangiliklar va texnologik integratsiya darajasi muhim omil sifatida ko'rilmoxda [2, B.170].

Ikkinci muhim omil – pedagog kadrlarning malaka darajasi va ularni muntazam rivojlan-tirish tizimidir. Ta'lif sifati, birinchi navbatda, o'qituvchining professionalligi bilan belgilanadi. Mamlakatimizda oxirgi yillarda o'qituvchilarni qayta tayyorlash, ularning innovatsion texnologiya-larni egallashiga e'tibor kuchaytirilgan bo'lsa-da, bu borada hali hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar talaygina. Xususan, kasbiy rivojlanishning loyihalashtirilgan, individual yondashuvga asoslan-gan modeli talab etiladi.

Uchinchi omil – ta'lif infratuzilmasi, ya'ni maktablar, kasb-hunar markazlari, oliv o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi va raqamli imkoniyatlaridir. Ta'lif muassasalarining jihozlani-shi, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganligi, o'quv muhitini xavfsiz va qulay bo'lishi o'quv-chilarning natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [3, B.132, 185, 193].

To'rtinchi muhim jihat – ta'lif tizimini boshqarish samaradorligi va undagi strategik yon-dashuvlardir. Shu jumladan, loyihalarni boshqarish tizimini ta'lif sohasida qo'llash masalasi ham aynan mana shu omillar doirasiga kiradi. Bunday yondashuvlar yordamida ta'linda natijadorlik, javobgarlik, shaffoflik va resurslardan oqilona foydalanish ta'minlanadi. Biroq bu tizimni to'laqon-li joriy etish uchun avvalo ta'lif sifatiga ta'sir qiluvchi barcha ichki va tashqi omillarni kompleks tahlil qilish zarur.

**2. Loyihalarni boshqarish tizimining nazariy asoslari.** Loyihalarni boshqarish tizimi bugungi kunda faqat biznes va sanoat sohalarida emas, balki ta'lif, sog'liqni saqlash, ekologiya va boshqa ijtimoiy yo'nalishlarda ham keng qo'llanilayotgan zamonaviy boshqaruva vositasidir. Uning nazariy poydevori XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan bo'lib, dastlab yirik sanoat va harbiy loyihalarni rejalashtirish va nazorat qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Vaqt o'tishi bilan bu yondashuv tizimlashdi, standartlashtirildi va turli sohalarda qo'llashga moslashtirildi.

Loyihalarni boshqarish tizimi deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun cheklangan vaqt, byudjet va resurslar doirasida aniq rejalashtirilgan, muvofiqlashtirilgan va baholanuvchi faoli-yatlar yig'indisi tushuniladi [4]. Ushbu tizimning asosiy nazariy komponentlariga quyidagilar kiradi:

- Maqsad va natija yondashuvi – loyiha boshlanishidan avval uni qanday natijaga olib kelishi aniq belgilanadi;
- Resurslarni boshqarish – moliyaviy, insoniy, texnik va vaqt resurslarining optimal taqsimlanishi;
- Risklarni boshqarish – noaniqlik va salbiy oqibatlarni kamaytirish uchun ehtimoliy tahdidlar ning oldini olish strategiyasi;
- Kuzatuv va baholash – loyiha bosqichlarini rejalashtirilgan natijalar bilan taqqoslab tahlil qilish

tizimi.

Loyihalarni boshqarish tizimi bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosida yuritiladi. Jumladan, Project Management Institute (PMI) tomonidan ishlab chiqilgan PMBOK (Project Management Body of Knowledge) standarti eng keng tarqalgan nazariy asoslardan biri hisoblanadi [5]. Ushbu yondashuv loyiha hayotiy tsikli – boshlanish, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va yakunlash bosqichlariga tayanadi.

Bundan tashqari, Britaniyada ishlab chiqilgan PRINCE2 (Projects IN Controlled Environments) modeli ham boshqaruvga tizimli yondashuvi bilan ajralib turadi. U loyihami har bir bosqichda aniq hujjatlash va mas’uliyat taqsimotiga alohida e’tibor qaratadi. Yana bir muhim model – Agile metodologiyasi, ayniqsa, tez o’zgaruvchan muhitda ishlaydigan loyihami uchun mo’ljallangan bo’lib, moslashuvchanlik, muntazam aloqa va bosqichma-bosqich yetkazib berish tamoyillari ga asoslanadi [6].

Shunday qilib, loyihalarni boshqarish tizimi mustahkam nazariy asoslarga ega bo’lib, ularni ta’lim sohasiga moslashtirish orqali islohotlarni tizimli, samarali va natijador tarzda olib borish imkoniyati yaratiladi. Kelgusi bo’limda ushbu nazariy yondashuvlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi va amaliyotdagi qo’llanilishi haqida so’z yuritiladi.

**3. Loyihalarni boshqarish tizimi modellarining tahlili (PMBOK, Agile, Scrum, PRINCE2).** Zamonaviy boshqaruv amaliyotida turli sohalarda muvaffaqiyatlari qo’llanilayotgan bir nechta loyiha boshqaruv modellari mavjud bo’lib, ularning har biri o’ziga xos yondashuvga ega. Ta’lim tizimida ham bu modellarning konseptual asoslari va metodologik yondashuvlari tobora ko’proq ahamiyat kasb etmoqda.

**PMBOK modeli.** PMBOK (Project Management Body of Knowledge) modeli loyiha boshqaruvining klassik va eng keng tarqalgan yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy tamoyillari – loyiha bosqichlarini aniq ajratish (bosqlash, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va yakunlash), faoliyatni funksional sohalarga ajratish (resurslarni boshqarish, risklar, kommunikatsiyalar, sifat, vaqt va h.k.) va o’lchab bo’ladigan ko’rsatkichlarga asoslangan boshqaruvdan iboratdir [5].

PMBOK modelining ta’limga moslashuvi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- O’quv loyihamini (masalan, yangi o’quv dasturlarini ishlab chiqish yoki maktab infratuzilmasi ni modernizatsiya qilish) tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- Har bir loyiha bosqichida natijadorlikni baholash;
- Resurslardan (vaqt, mablag’, mutaxassislar) oqilona foydalanish.

**Agile yondashuvi.** Agile – bu loyiha boshqaruviga moslashuvchan va interaktiv yondashuv bo’lib, tez o’zgaruvchan sharoitlarda samarali ishlashi bilan ajralib turadi. Uning asosiy tamoyillari – mijoz (foydalanuvchi) bilan doimiy aloqada bo’lish, qisqa iteratsiyalar orqali natijani yetkazish, jamoa ichidagi ishonch va avtonomiyani rivojlantirish [6].

- Agile modeli ayniqsa quyidagilarda foydali:
- O’quv dasturlarini muntazam yangilash va testdan o’tkazish;
- Eksperimental dars uslublarini sinovdan o’tkazishda;
- O’quvchilarining fikr-mulohazalarini tezda hisobga olib, dars dizaynnini moslashtirishda.

**Scrum metodologiyasi.** Scrum – Agile metodologiyasining aniq strukturaviy ko’rinishi bo’lib, loyihami “sprint” deb ataluvchi qisqa vaqtli sikllarga bo’lib, har birida aniq natijaga erishishni nazarda tutadi. Bu metod jamoaning o’zini o’zi boshqarish qobiliyatini oshiradi, har bir a’zoning roli va mas’uliyatini aniq belgilaydi [7].

- Ta’limda Scrum modeli quyidagicha qo’llanilishi mumkin:
- O’quv jamoalari (o’qituvchi, o’quvchi, IT mutaxassis) o’rtasida loyiha asosidagi o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish;
- O’quv yilining bosqichlarida maqsadli natijalarga erishishni rejalashtirish;
- Sinf darajasidagi ilg’or tajribalarni amalda sinab ko’rish.

**PRINCE2 modeli.** PRINCE2 (Projects IN Controlled Environments) modeli esa loyiha boshqaruviga kuchli nazorat va hujjatlashtirish tamoyillarini kiritadi. Unda har bir loyiha bosqichi

qat’iy tartibda rejalashtiriladi, risklar doimiy nazoratda bo’ladi va loyiha hayotiy tsikli davomida har bir qaror asosli hujjatlar bilan tasdiqlanadi [8].

Ta’lim tizimida PRINCE2 quyidagi yo‘nalishlarda foydali bo‘lishi mumkin:

- Yirik ta’lim loyihalarini (milliy test tizimi, raqamlashtirish, o‘quvchi baholash tizimi) boshqarishda;
- Loyiha hujjatlarini yuritish va manfaatdor tomonlar bilan aniq aloqa o‘rnatishda;
- Har bir bosqichda qarorlarni huquqiy va moliyaviy jihatdan asoslashda.

Ushbu modellarni chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har biri ta’lim sohasida turli darajadagi loyihalarni yuritishda o‘ziga xos ustunliklarga ega. Asosiy masala – ularni mahalliy ta’lim tizimining ehtiyojlari, resurslari va madaniyatiga mos tarzda tanlash va moslashtirishdir.

**4. Ta’lim tizimida loyihalarni boshqarish tizimining joriy etilishi: O‘zbekiston tajribasi.** O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda ta’lim tizimini isloq qilish va zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish yo‘lida faol harakat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan strategik maqsadlardan biri sifatida sifatida ta’limga erishish, yosh avlodni raqobat-bardosh va kasbiy yetuk mutaxassislar etib tayyorlash masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda [1].

Aynan shu kontekstda loyihalarni boshqarish tizimining elementlarini ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon bir nechta yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

**1. Ta’limda milliy islohotlarni loyiha sifatida yuritish.** Mamlakatimizda 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi va undan keyingi rivojlanish dasturlarida ta’lim sohasidagi islohotlar aniq maqsadlar, vaqt doirasi, indikatorlar va natijaviylik mezonlari bilan belgilab berilgan. Bu esa klassik loyihalarni boshqarish tamoyillariga mos keladi [2, B.170].

Masalan, Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan 2022–2025-yillarga mo‘ljallangan “Ilk qadam” dasturi, Xalq ta’limi vazirligi tashabbusi bilan “Yangi O‘zbekiston maktabi” konsepsiysi – barchasi aniq reja, monitoring, byudjet va nazorat mexanizmlariga asoslangan loyihalardir.

**2. Raqamli ta’lim infratuzilmasini loyiha sifatida yuritish.** “Raqamli ta’lim” konsepsiysi doirasida elektron kundalik, masofaviy o‘qitish platformalari (masalan, EduMarket, Edutub.uz) va o‘qituvchilar uchun onlayn malaka oshirish loyihalari ishlab chiqilmoqda. Ushbu loyihalar xalqaro donorlar (Jahon banki, UNICEF, KOICA) bilan hamkorlikda olib borilayotgani bois, ularda loyihalarni boshqarish tizimi qat’iy qo‘llanilmoqda [3, B.185].

**3. O‘qituvchilar malakasini oshirishda loyiha yondashuvi.** O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi ham loyihalashtirilgan yondashuv asosida qayta tashkil etilmoqda. Misol uchun, 2023-yilda joriy etilgan “Ustoz” dasturi orqali har bir pedagog uchun individual rivojlanish yo‘li ishlab chiqildi. Bu modelda har bir bosqich monitoring va baholashdan o‘tadi, ya’ni loyihalarni boshqarish tizimi asosida tashkil etilgan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida loyihalarni boshqarish tizimining joriy etilishi hali to‘liq yakunlanmagan bo‘lsa-da, ayni yo‘nalishdagi dastlabki bosqichlar ijobiylar bermoqda. Asosiy masala – bu tizimni barcha ta’lim bosqichlarida uzviy tarzda joriy qilish, boshqaruv subyektlarini tayyorlash va institutsional asoslarni kuchaytirishdir.

**5. Loyihalarni boshqarish tizimi asosida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari.** Ta’lim sifatini oshirish bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki tizimli boshqaruv muammosi sifatida ham ko‘rilmoxda. Chunki zamonaviy ta’lim sifati ko‘p omillarga bog‘liq: o‘qituvchilarning malakasi, o‘quv dasturlarining zamonaviyligi, infratuzilma, monitoring va baholash tizimlari, o‘quvchi motivatsiyasi va boshqalar. Bu omillarning barqaror va kompleks boshqaruvi esa loyihalarni boshqarish tizimi orqali samarali amalga oshirilishi mumkin [4].

**Loyihalarni boshqarish tizimidan foydalanib ta’lim sifatini oshirishda quyidagi asosiy mexanizmlarni ajratish mumkin:**

**1. Strategik rejalashtirish asosida sifatni nazorat qilish.** Loyihalarni boshqarish tizimi strategik rejalashtirishni asosiy bosqich sifatida ko‘radi. Bu bosqichda ta’lim sifatining hozirgi holati tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va aniq, o‘lchovli maqsadlar belgilanadi. Masalan,

bir yilda 9-sinf o'quvchilari o'rtasida matematika fanidan o'zlashtirish darajasini 15%ga oshirish maqsad qilinadi. Bu natija loyiha yakunida baholanishi mumkin bo'lgan mezonga aylanadi [6].

**2. Sifat indikatorlarini loyihalashtirish va monitoring.** Ta'lism sifati loyihalari doirasida maxsus indikatorlar ishlab chiqiladi: o'quv dasturi mazmunining yangiliqi, darsliklar sifat darajasi, o'qituvchilarning malaka baholari, o'quvchilarning test natijalari, ota-onalarning qoniqish darajasi kabi. Har bir indikator uchun mezon, uslub va vaqt oralig'i belgilanadi. Bu esa natijalarni nazorat qilish imkonini beradi.

**3. Loyiha jamoalari va rollarning aniqligi.** Sifatli loyiha jamoasi – natijadorlik garovidir. Ta'lism loyihalarida har bir ishtirokchining roli aniqligi muhim: loyiha rahbari (masalan, maktab direktori), mas'ul ijrochilar (fan metodistlari, IT mutaxassislar), manfaatdor tomonlar (ota-onalar, mahalliy hokimliklar) aniq belgilanadi. Bu rollarning boshqaruv zanjirida aniqligi, ularning javobgarligini kuchaytiradi [5].

**4. Sinov, tahlil va teskari aloqaga asoslangan yondashuv.** Loyiha yondashuvi doimiy tahlil, test, qayta ishlov va yangilash bosqichlariga asoslanadi. Bu ayniqsa ta'lism sohasida muhim: biror o'quv metodikasi joriy etilgach, u sinfda sinovdan o'tkaziladi, o'quvchilar va o'qituvchilar fikrlari asosida tahlil qilinadi va zarur o'zgarishlar kiritiladi (Scrum va Agile metodologiyalaridagi iteratsion yondashuvga muvofiq) [7].

**5. Resurslarni maqbul boshqarish.** Ta'lism sohasida byudjet, vaqt, kadrlar va texnologik resurslar yetarli emasligi sababli ularni optimal taqsimlash nihoyatda muhim. Loyihalarni boshqarish tizimi bu resurslarni ustuvorliklar asosida taqsimlash, ortiqcha sarflarning oldini olish va natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni amalga oshirish imkonini beradi.

**6. Innovatsiyalarni tizimli joriy qilish.** Yangi texnologiyalar, raqamli vositalar, interaktiv usullar – bularning barchasi loyihamiylashtirish asosda sinovdan o'tkazilib, samarador bo'lsa, umumiylashtirish asosida tahlil qilinadi. Bu esa innovatsion ta'limga yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lism sifatini oshirish jarayoni turli chora-tadbirlar orqali emas, balki loyiha tamoyillariga asoslangan boshqaruv orqali kompleks tarzda yuritsa, barqaror va o'lchab bo'ladigan natijalarga erishish mumkin. Bunda har bir loyiha aniqligi, o'lchanishi, erishuvchanligi va vaqtli belgilangan SMART mezonlariga asoslanishi kerak.

**6. Xulosa va tavsiyalar.** Ta'lism sifatini oshirishda loyihalarni boshqarish tizimini joriy etish bugungi kunda juda dolzarb va samarali yo'naliishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada loyihalarni boshqarishning asosiy modellari tahlil qilindi, O'zbekistonning ta'lism tizimida ularni qo'llash tajribasi ko'rib chiqildi va ta'lism sifatini oshirish uchun samarali mexanizmlar taklif etildi.

Ta'lism tizimida loyihalarni boshqarish tizimini tatbiq etishning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat:

Loyihalarni boshqarish tamoyillari ta'lism tizimida sifatni kompleks va tizimli nazorat qilish imkonini beradi, bu esa samarali rejulashtirish, resurslarni oqilona taqsimlash va natijalarni monitoring qilish orqali ta'lism sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi [4].

PMBOK, Agile, Scrum va PRINCE2 kabi loyihalarni boshqarish modellari ta'lism sohasida turli maqsadlar va shart-sharoitlarga moslashib qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, moslashuvchanlik va iterativlik tamoyillari ta'lism sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston tajribasi ko'rsatadiki, loyihalarni boshqarish tizimining joriy etilishi davlat darajasida qo'llanilayotgan milliy dasturlar va raqamlashtirish loyihalarida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoxda, ammo tizimli yondashuvni barcha darajalarda kengaytirish talab qilinadi.

Ta'lism sifatini oshirish mexanizmlarida strategik rejulashtirish, sifat indikatorlari ishlab chiqish, loyiha jamoalari tarkibini aniqlash, doimiy tahlil va teskari aloqa, shuningdek, resurslarni maqbul boshqarish muhim o'rinn tutadi.

### Tavsiyalar:

O'zbekiston ta'lism tizimida loyihalarni boshqarish tamoyillarini yanada kengroq joriy etish uchun malakali kadrlar tayyorlash va ularni mutazam o'qitish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

1. Har bir ta'lism loyihasi uchun aniq SMART mezonlariga asoslangan maqsad va indikatorlar ishlab chiqilishi lozim.

2. Ta’lim jarayonida loyihalarni boshqarish tizimining moslashuvchan yondashuvlari — Agile va Scrum metodologiyalari ko‘proq tatbiq qilinishi kerak.
3. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish loyihalarini davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borish va natijalarini muntazam monitoring qilish tavsija etiladi.
4. Loyihalarni boshqarish bo‘yicha o‘quv dasturlari va metodikalar ishlab chiqilib, barcha darajadagi ta’lim muassasalarida keng tatbiq etilishi kerak.
5. Shu bilan, ta’lim sifatini oshirishda loyihalarni boshqarish tizimi samaradorligini oshirish uchun tizimli, kompleks va doimiy ravishda takomillashtirish zarurligi ta’kidlandi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020 // URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3324> (Text of President Shavkat Mirziyoyev’s Address to the Oliy Majlis.24.01.2020//URL: <https://president.uz/en/lists/view/3324>)
2. Ўзбекистон Республикаси хукумати “2017–2021 йилларга мўлжалланган харакатлар стратегияси” // URL: <https://strategy.gov.uz> (Strategy of Actions for 2017-2021 by the Government of Uzbekistan // URL: <https://strategy.gov.uz>)
3. Juhon banki va UNICEF bilan hamkorlikda O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish bo‘yicha loyihalar hisobotlari. 2022 // URL: <https://worldbank.org/education/uzbekistan>
4. Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide). 7th Edition, 2021.
5. Agile Alliance. Agile Practice Guide. 2020.
6. D. Kerzner. Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling. 12th Edition. Wiley, 2017.
7. PRINCE2 Agile. AXELOS Global Best Practice. 2018.

## LUDOMANIYA XULQ ATVORINI PEDAGOGIK KORREKSIYALASH TEXNOLOGIYALARI

**Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna**

Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

[Shoxsanam6563@gmail.com](mailto:Shoxsanam6563@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilar orasida tobora keng tarqalib borayotgan ludomaniya – ya'ni qimor va kompyuter o'yinlariga bog'lanish kabi salbiy xulq-atvor shakllarining psixopedagogik sabablari tahlil qilinadi. Shuningdek, bunday muammoli xatti-harakatlarning oldini olish va ularni ijobjiy tomonga o'zgartirishda zamonaviy pedagogik korreksiya texnologiyalarining o'rni ochib beriladi. Maqolada individual yondashuv, muqobil faoliyatga yo'naltirish, oilaviy va mакtab muhitini optimallashtirish kabi usullar asosida samarali korreksiya strategiyalari taklif qilinadi. Tadqiqot natijalari o'quvchi shaxsini sog'lom rivojlantirish va ijtimoiy-psixologik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ludomaniya, xulq-atvor buzilishlari, pedagogik korreksiya, o'quvchilar psixologiyasi, kompyuter o'yinlariga qaramlik, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy moslashuv.

## ТЕХНОЛОГИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИИ ИГРОКОВОГО ПОВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В статье анализируются психолого-педагогические причины возникновения такой негативной модели поведения, как лудомания, то есть пристрастие к азартным и компьютерным играм, которое получает все большее распространение среди студенческой молодежи. Также раскрывается роль современных технологий педагогической коррекции в профилактике подобных проблемных форм поведения и изменении их в позитивном направлении. В статье предлагаются эффективные стратегии коррекции, основанные на таких методах, как индивидуальный подход, ориентация на альтернативные виды деятельности, оптимизация семейной и школьной среды. Результаты исследования способствуют здоровому развитию личности студента и обеспечивают социально-психологическое равновесие.

**Ключевые слова:** азартные игры, нарушения поведения, педагогическая коррекция, психология школьников, зависимость от компьютерных игр, педагогические технологии, социальная адаптация

## TECHNOLOGIES OF PEDAGOGICAL CORRECTION OF THE BEHAVIOR OF GAMEMANIA IN STUDENTS

**Abstract.** This article analyzes the psychopedagogical causes of such negative forms of behavior as gamemania, that is, addiction to gambling and computer games, which are becoming increasingly widespread among students. It also reveals the role of modern pedagogical correction technologies in preventing such problematic behavior and changing them in a positive direction. The article proposes effective correction strategies based on methods such as an individual approach, orientation to alternative activities, and optimization of the family and school environment. The results of the study serve to ensure the healthy development of the student's personality and socio-psychological balance.

**Keywords:** psychology, computer game addiction, pedagogical technologies, social adaptation, gambling, behavioral disorders, pedagogical correction, student.

**Kirish.** O'quvchilarda ludomaniya (kompyuter o'yinlariga qaramlik) bugungi kunda ta'llim muassasalarida dolzarb muammolardan biriga aylangan. Bu holat o'quvchilarning akademik faoliyatiga, ijtimoiy munosabatlariga va psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, pe-

dagogik korreksiya texnologiyalarini qo'llash orqali bu muammoni bartaraf etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ludomaniya — bu insonning qimor o'yinlariga qaramligi, ya'ni o'yinlarga bo'lgan nazoratni yo'qotib, doimiy ravishda va nazoratdan tashqari qimor o'ynashga moyillikdir. Bu holat shaxsning ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ludomaniyani bartaraf etish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun pedagogik koreksiyalash texnologiyalari muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik koreksiyalash texnologiyalari — bu shaxsning xulq-atvoridagi noto'g'ri, zararli yoki muammoli shakllarni aniqlash, tushunish va ularni ijobiy tomonga o'zgartirishga yo'naltirilgan tizimli va ilmiy asoslangan metodlar yig'indisidir. Ludomaniya xulq-atvorini koreksiyalashda bu texnologiyalar psixologik yordam ko'rsatish, ta'lim va tarbiya jarayonlarini uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, ludomaniya bilan kurashishda avvalo shaxsning qimor o'yinlariga bo'lgan qaramligini tahlil qilish va uning sabablarini aniqlash muhimdir. Bu jarayonda shaxsning shaxsiy xususiyatlari, oilaviy muhit, ijtimoiy va iqtisodiy holat, shuningdek, psixologik stress omillari o'r ganiladi. Shundan so'ng, pedagogik koreksiyalash texnologiyalari asosida maxsus individual yoki guruh terapiyalari tashkil etiladi.

Ikkinchidan, pedagogik koreksiyalash jarayonida ludomaniyaga moyil shaxslar uchun ijtimoiy va emotsiyonal ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar o'tkaziladi. Bu treninglarda qatnashchilar o'zlarining his-tuyg'ularini boshqarish, stressga chidamlilik, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini o'r ganadilar. Bu ko'nikmalar ludomaniya xulqining shakllanishi va takrorlanishining oldini olishda muhimdir.

Uchinchidan, pedagogik koreksiyalash texnologiyalari doirasida psixologik maslahatlar va motivatsion suhbatlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu usullar shaxsni o'zining qimor o'yinlariga bo'lgan qaramligini anglashga, unga qarshi kurashishga va ijobiy o'zgarishlar qilishga undaydi. Shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari, ya'ni oila, do'stlar va mutaxassislar bilan hamkorlikda ishslash, shaxsning tiklanish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

To'rtinchidan, pedagogik koreksiyalash texnologiyalarida o'yin qaramligini kamaytirishga yo'naltirilgan interaktiv metodlar va innovatsion texnikalar, masalan, rol o'yinlari, kreativ mashg'ulotlar, virtual realitet yordamida treninglar ham qo'llaniladi. Bu usullar shaxsda o'yinlarga bo'lgan qiziqishni sog'lom faoliyatlarga yo'naltirishga yordam beradi.

Ludomaniya — bu insonning virtual o'yinlarga patologik darajadagi qaramlik holatidir. O'quvchilar orasida bu hodisa ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra shakllanadi:

- Ota-onaning e'tiborsizligi
- Bo'sh vaqt ni to'g'ri tashkil eta olmaslik
- Akademik muvaffaqiyatsizliklar
- Ijtimoiy faollilikning pastligi
- Psixologik stress (oila, maktabdagi muammolar)

Ludomaniya quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

1. **O'yinga qiziqish** (norma)
2. **O'yinni ustuvor qilish** (ehtiyoj bosqich)
3. **Real hayotdan chekinish** (kasallik bosqichi)

**Ludomaniya va uning pedagogik ta'siri.** Ludomaniya o'quvchilar orasida ba'zi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

1. **O'qish va akademik faoliyatga salbiy ta'sir:** o'yinlarga qaramlik, o'quvchining o'qish va bilim olishga bo'lgan e'tiborini kamaytirishi mumkin.
2. **Ijtimoiy aloqalar va ko'nikmalarini rivojlantirishning kamayishi:** uzoq vaqt davomida

o‘yinlar bilan shug‘ullanish, ijtimoiy faollikni kamaytiradi va o‘quvchilarni haqiqiy dunyodan ajratib qo‘yishi mumkin.

3. **Salomatlik muammolari:** doimiy o‘yin o‘ynash, fizika faoliyatining kamayishiga va sog‘liq bilan bog‘liq muammolarga olib kelishi mumkin, masalan, ortiqcha vazn, ko‘z yorg‘inligi yoki qomat buzilishlari [1].

Bugungi kunda ludomaniya bilan kurashishda **integratsiyalangan yondashuvlar** ustunlik qilmoqda. Bu yondashuv psixologik, pedagogik va ijtimoiy yordamni birlashtirib, shaxsning baracha hayotiy sohalarini qamrab olishga xizmat qiladi. Masalan, psixoterapiya bilan birga pedagogik treninglar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari uyg‘unlashtiriladi.

Yana bir muhim yo‘nalish — **motivatsion intervylular** texnologiyasi. Bu metodda shaxs bilan ochiq, tushunishga asoslangan suhbatlar olib boriladi.

Maqsad — shaxsni o‘z qaramligini anglashga va o‘z xatti-harakatlarini o‘zgartirishga ichki motivatsiyani shakllantirishdir. Pedagogik jarayonda bunday suhbatlar qaramlikni bartaraf etishda katta yordam beradi.

Shuningdek, **digital texnologiyalar va sun’iy intellekt** asosidagi dasturlar ham koreksiya da qo‘llanilmoqda. Masalan, maxsus ilovalar yordamida shaxs o‘z qimor o‘yinlariga bo‘lgan im-pulslarini kuzatishi, qayd qilishi va nazorat ostiga olishi mumkin. Bu texnologiyalar shaxsga onlayn yordam ko‘rsatish, trening va maslahat olish imkonini yaratadi.

Yana bir zamonaviy texnologiya — **virtual realitet** vositalari. Uning yordamida shaxs qimor o‘yinlari muhitini simulyatsiya qilinadi va unga qanday qarshi turish usullari ko‘rsatiladi. Bu tajriba shaxsga qaramlikni yengishga amaliy ko‘nikmalar beradi [10].

Pedagogik koreksiyalashda **individualizatsiyalashgan yondashuv** — har bir shaxsning ehtiyojlari, qobiliyatlar va muammolariga moslashirilgan dasturlar tuzish muhim. Bu esa koreksiyaning samaradorligini oshiradi, chunki har bir insonning qaramlikka olib keluvchi sabab va xulq-atvori noyobdir.

Shuningdek, **oilaviy terapiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash taromoqlari** ham pedagogik koreksiyada keng qo‘llaniladi. Oila a’zolari bilan ishslash shaxsning tiklanish jarayonini tezlashtiradi, ijtimoiy muhitdagi salbiy omillarni kamaytiradi.

**Adabiyotlar sharhi.** Ludomaniya va uning pedagogik korreksiyasi bo‘yicha bir nechta tadqiqotlar mavjud. B.A.Aminov o‘z asarida pedagogik psixologiyaning asoslarini yoritgan va o‘quvchilarning xulq-atvorini shakllantirishda muhim omil sifatida pedagogik ta’sirni ko‘rsatgan. S.B.Baxromov pedagogik korreksiya va uning ahamiyatini tahlil qilgan, o‘quvchilarning salbiy xulq-atvorlarini bartaraf etishda korreksiya metodlarining samaradorligini ta’kidlagan [2].

S.A.Goncharov pedagogik konfliktlar va ularni hal etish metodlarini o‘rganib, o‘quvchilar orasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda muhim yondashuvlarni taklif etgan. Y.O.Zarifov ta’lim tizimidagi konfliktlarni bartaraf etish usullarini tahlil qilgan va o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda pedagogik korreksiyaning rolini ko‘rsatgan [3].

Sh.R.Jabborov pedagogik ta’lim va uning metodikasini yoritib, o‘quvchilarning xulq-atvori ni shakllantirishda metodik yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlagan. M.U.Turaev ta’limda konfliktlarni hal etish texnologiyalarini o‘rganib, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda pedagogik texnologiyalarning ro‘lini ko‘rsatgan. E.O.Kuchkarov pedagogik korreksiya metodlarini tahlil qilgan va o‘quvchilarning salbiy xulq-atvorlarini bartaraf etishda innovatsion metodlarning samaradorligini ko‘rsatgan [4].

**Mazmuni.** Ludomaniya — bu nafaqat qaramlik, balki psixologik va ijtimoiy muammo sifatida ham qaraladi. Shu sababli uning pedagogik koreksiyalash texnologiyalari ko‘p qirrali va kompleks yondashuvni talab qiladi.

Birinchi navbatda, pedagogik koreksiyalash jarayonida individual psixodiagnostika muhim o‘rin tutadi. Bu diagnostika orqali shaxsning qaramlik darajasi, shuningdek uning xulqidagi o‘yinlarga oid motivatsiyalar, qiyinchiliklarga munosabati va stress darajasi aniqlanadi. Shuningdek, shaxsning ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, hamkasblar va do‘stlari bilan aloqalari o‘rganiladi. Bu ma’lumotlar asosida shaxsga moslashirilgan koreksion dastur tuziladi [8]

Pedagogik koreksiyalash jarayonida psixologik yordam ko'rsatishdan tashqari, ta'lim-tarbiya usullari ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ludomaniya bilan kurashishda shaxsga o'z-o'zini boshqarish va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlar shaxsga o'z qaramligini anglash va unga qarshi kurashishda yordam beradi.

Shuningdek, ijtimoiy muhitni o'zgartirishga qaratilgan ishlar ham koreksiyaning muhim qismidir. Ludomaniya ko'pincha yolg'izlik va ijtimoiy izolyatsiya bilan bog'liq bo'lgani uchun, shaxsni ijtimoiy faoliyatlarga jalb qilish, oila va do'stlar bilan aloqalarni mustahkamlash, foydali va mazmunli mashg'ulotlarga yo'naltirish pedagogik koreksiyalash texnologiyasining tarkibiy qismidir.

Ludomaniya xulqini pedagogik koreksiyalashda guruh terapiyalari va qo'llab-quvvatlash guruhlari ham keng qo'llaniladi. Bu guruhlar shaxsga o'z muammolarini boshqalar bilan bo'lishish, o'rganish va qo'llab-quvvatlanish imkonini beradi. Guruhdagi ijobiy munosabatlar va o'zaro yordam ludomaniyani yengishda motivatsiyani oshiradi [7].

Yana bir muhim jihat — pedagogik koreksiyalash texnologiyalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdir. Masalan, mobil ilovalar, onlayn treninglar, video materiallar va virtual terapiya vositalari orqali shaxsning xulqini o'zgartirishda samaradorlik oshiriladi. Bu usullar ayniqsa yoshlar orasida juda mashhur va samarali hisoblanadi.

Oxirgi o'rnlarda, pedagogik koreksiyalashda ijtimoiy va psixologik barqarorlikni ta'minlash uchun mutaxassislar — psixologlar, pedagoglar, sotsiologlar va tibbiyot xodimlari o'rtasida hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bu jamoaviy yondashuv ludomaniya bilan kurashishda yanada tizimli va samarali natjalarga erishish imkonini beradi [9].

Shunday qilib, ludomaniya xulq-atvorini pedagogik koreksiyalash texnologiyalarini — bu individual va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda, shaxsni qaramlikdan xalos etishga va sog'lom turmush tarziga qaytarishga qaratilgan keng ko'lamli, kompleks, ilmiy asoslangan yondashuvdir. Bu jarayon uzoq muddatli va muntazam ishni talab qiladi hamda shaxsning ijtimoiy, emotsiyal va psixologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi [6]

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanilgan:

- Birinchi bosqich:** o'quvchilarda ludomaniya xulq-atvorini aniqlash uchun so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi.
- Ikkinci bosqich:** pedagogik korreksiya texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni sinovdan o'tkazish uchun eksperimental guruh tashkil etildi.
- Uchinchi bosqich:** sinovdan o'tkazilgan texnologiyalarning samaradorligini baholash uchun statistik tahlillar amalga oshirildi [5]

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda ludomaniya xulq-atvorini bartaraf etishda quyidagi pedagogik korreksiya texnologiyalari samarali bo'lgan:

- Interfaol o'quv metodlari:** o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi.
- O'yinli ta'lim texnologiyalari:** kompyuter o'yinlari elementlarini ta'lim jarayoniga qo'shish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.
- Individual yondashuv:** har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olib, ta'lim jarayonini tashkil etish.
- Psixologik maslahatlar:** o'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash uchun individual va guruqli maslahatlar o'tkazish.

Eksperimental guruhda bu texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning kompyuter o'yinlariga bo'lgan qaramligi 30% ga kamaydi, akademik faoliyatda esa 25% ga yaxshilanish kuza-tildi.

| Ko'rsatkich                            | Eksperimental guruh | Nazorat guruhi |
|--|---------------------|----------------|
| Ludomaniya belgilariga ega o'quvchilar | 48%                 | 47%            |
| Korreksiyadan so'ng kamaygan foiz      | 22%                 | 5%             |
| Akademik ko'rsatkichlar yaxshilanishi  | 26%                 | 4%             |

**Natjalarning ishonchliligi.** Natjalar ishonchliligini ta'minlash uchun quyidagi choralar

ko‘rildi:

- **Eksperimental guruhnning tasodifiy tanlanishi:** bu eksperimentning natijalarini umumlash-tirish imkonini beradi.
- **Statistik tahlillar:** natijalarni tahlil qilishda statistik metodlar qo‘llanilib, ishonchli xulosalar chiqarildi.
- **Boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish:** olingen natijalar boshqa ilmiy tadqiqotlar bilan taq-qoslanib, ishonchliligi tasdiqlandi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ludomaniya xulq-atvorini pedagogik koreksiyalash texnologiyalari — bu shaxsning o‘z xulqini anglab, o‘zgartirishga yordam beruvchi ilmiy asoslangan va tizimli yondashuvdir. Bu texnologiyalar psixologik tahlil, treninglar, maslahatlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga olib, ludomaniya qaramligini kamaytirishga va shaxsni sog‘lom turmush tarziga qaytarishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda ludomaniya xulq-atvorini bartaraf etishda pedagogik korreksiya texnologiyalarining ahamiyati katta. Interfaol o‘quv metodlari, o‘yinli ta’lim texnologiyalari, individual yonda-shuv va psixologik maslahatlar kabi usullar o‘quvchilarning kompyuter o‘yinlariga bo‘lgan qaramligini kamaytirishda samarali bo‘lgan. O‘quvchilarda ludomaniya (o‘yinlarga qaramlik) xulq-atvorini pedagogik korreksiya qilish masalasi o‘ta dolzarb va muhim mavzu hisoblanadi. Bu masalani hal qilish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta’lim metodlari asosida muammolarga tizimli yondashuv zarur. Ludomaniya kabi noxush xulq-atvorlarni bartaraf etish uchun o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim rol o‘ynaydi. Ludomaniya xulq-atvorini pedagogik koreksiyalashda zamonaviy texnologiyalar, individual yondashuvlar va ko‘p sohalarni qamrab oluvchi integratsiyalangan dasturlar asosiy o‘rin tutmoqda. Bu esa shaxsga qaramlikdan chiqishda yanada samarali yordam beradi va uning hayot sifatini oshiradi.

Pedagogik korreksiya texnologiyalari, xususan, o‘yinlarga qaramlikni bartaraf etish jarayonida, o‘quvchilarda ongli qarorlar qabul qilish, o‘z vaqtini boshqarish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodlar samarali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bu jarayon pedagoglar va ota-onalar o‘rtasida yaqin hamkorlikni talab qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Omonov H.T, Xo‘jayev N.X, Madyarova S.A, Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Nashriyot: IQTISOD-MOLIYA, 2009 ISBN: 978-9943-13-110-1 45-52 bet
2. Axmedov Q.M, Ismoilov O.A. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammo-lari Nashriyot: Fan va texnologiya, 2012 ISBN:77-86 bet
3. Azizzoxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Nashriyot: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 112-120 bet
4. Hakimova M.F, Xo‘jayev N.X, Axmedov D.Q. Pedagogik texnologiyalar Nashriyot: TDIU, 2007 83-85 bet
5. Yarbekova B.Y. Pedagogik korreksiya vositasida ta’lim sohasida yuzaga keladigan konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi Nashriyot: Tadqiqotlar.uz, 2025 41-45 bet
6. Abdumajidova I.O, Saliyeva Z. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni chet tilini o‘qitishda qo‘llash Nashriyot: Modern education and development, 2025 67-71 bet.
7. Abdullayev M.A. *Psixologiya asoslari va xulq-atvorni korreksiyalash metodlari*. Toshkent: Universitet nashriyoti. 2018 45-52-betlar.
8. Islomov S.R. *Ludomaniya: psixologik va pedagogik yondashuvlar*. Toshkent: 2020 O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti. 13-20-betlar.
9. Jorayev N.T. *Qimor o‘yinlariga qaramlik va uni bartaraf etish yo‘llari*. Toshkent: 2017. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi. 73-78-betlar
10. Shamsiddinov O. F. *Ludomaniya va uning pedagogik yondashuvlari*. Toshkent: 2021 Oliy va o‘rta maxsus ta’lim nashriyoti.89-94 betlar

## DEPRESSIYA VA TASHVISH BUZILISHLARINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY OMILLARNING ROLI Rustamova Barno

Oriental universiteti, Uzluksuz ta'lif pedagogikasi katedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada depressiya va tashvish buzilishlari shakllanishida ijtimoiy omillarning o'rni keng tahlil qilinadi. Oilaviy muhit, ijtimoiy izolyatsiya, iqtisodiy beqarorlik, shaxslararo munosabatlardagi muammolar, hamda ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri asosiy omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, profilaktika choralarida ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, psixologik tarbiya va qo'llab-quvvatlash tizimlari muhim ekani asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** depressiya, tashvish buzilishlari, ijtimoiy omillar, oilaviy muhit, psixologik salomatlik, profilaktika.

### THE ROLE OF SOCIAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF DEPRESSION AND ANXIETY DISORDERS

**Abstract.** This article explores the role of social factors in the development of depression and anxiety disorders. It examines key contributors such as family conflicts, social isolation, economic instability, interpersonal relationship issues, and the negative influence of social media. The article also emphasizes the significance of preventive strategies, including psychological education, support systems, and the creation of a mentally healthy social environment.

**Keywords:** depression, anxiety disorders, social factors, family environment, mental health, prevention

### РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ ДЕПРЕССИИ И ТРЕВОЖНЫХ РАССТРОЙСТВ

**Аннотация.** В статье рассматривается роль социальных факторов в формировании депрессии и тревожных расстройств. Особое внимание уделяется таким аспектам, как семейные конфликты, социальная изоляция, экономическая нестабильность, межличностные проблемы и влияние социальных сетей. Также обоснована необходимость профилактических мер, включая психологическое образование и развитие поддерживающей социальной среды.

**Ключевые слова:** депрессия, тревожные расстройства, социальные факторы, семейная среда, психическое здоровье, профилактика.

Hozirgi kunda depressiya va tashvish (anksioz) buzilishlari dunyoda keng tarqalgan ruhiy muammolar hisoblanadi. Juhon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, depressiya dunyo bo'y lab 280 milliondan ortiq odamga ta'sir ko'rsatmoqda. Tashvish buzilishlari ham yoshlarda tobora keng tarqalmoqda, bu esa ularning shakllanishida ijtimoiy omillar rolini chuqurroq tadqiq qilish zaruratini keltirib chiqaradi (Kessler va boshqalar, 2005). Mazkur maqolaning asosiy maqsadi depressiya va tashvish buzilishlarini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy omillarni tahlil qilish va ularni kamaytirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Kirish.** Depressiya psixologiyada inson ruhiy holatining doimiy ravishda tushkunlikka moyilligi, avvalgi qiziqish va zavqlanish hislarining yo'qolishi, kundalik faoliyatlarga nisbatan befarqlik, energiyaning sezilarli darajada kamayishi, o'zini past baholash, negativ fikrlash, shuningdek uyqu va ishtaha buzilishlari bilan ifodalanadigan holat sifatida tavsiflanadi (Beck, 2009; Gotlib & Joormann, 2010). Depressiyaning alomatlari hissiy, kognitiv, xulq-atvoriy va fiziologik jihatlarni

o‘z ichiga oladi. Hissiy jihatdan inson davomli qayg‘u, tushkunlik va befarqlikni boshdan kechirsa, kognitiv jihatdan esa insonning fikrlash jarayonlari sustlashadi, pessimizm va umidsizlik yuzaga keladi. Xulq-atvoriy jihatdan, inson faoliyatida sustlashish, ijtimoiy aloqalardan chekinish va izolyatsiya kuzatiladi (APA, 2013).

Depressiya klinik depressiya (katta depressiv buzilish), mavsumiy depressiya va posttravmatik depressiya kabi asosiy shakllarga ega. Klinik depressiya uzoq muddatli davom etadigan chuqur ruhiy tushkunlik holatini anglatadi. Mavsumiy depressiya esa fasllar almashinuv bilan bog‘liq bo‘lib, odatda kuz-qish davrida ko‘proq uchraydi. Posttravmatik depressiya travmatik voqealar natijasida yuzaga keladi va chuqur ruhiy azob bilan kechadi (APA, 2013; Kendler va boshqalar, 2006).

Tashvish buzilishlari (anksioz buzilishlar) insonda haddan tashqari bezovtalik, xavotir va vahima tuyg‘ularining muntazam va doimiy ravishda kuzatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy buzilishlardir. Anksioz buzilishlarning eng keng tarqalgan shakllari umumiy anksioz buzilish, ijtimoiy fobiya (ijtimoiy tashvish buzilishi) va vahima buzilishidir. Umumiy anksioz buzilish insonning kundalik faoliyatlarida asossiz va doimiy xavotir va tashvish bilan namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy fobiya insonning ijtimoiy muhitda baholanayotganidan yoki rad qilinishidan haddan tashqari qo‘rqishi bilan ifodalanadi. Vahima buzilishi esa hech qanday sabab bo‘lmagan holda kuchli qo‘rquv va vahima holatlarining paydo bo‘lishidir (APA, 2013; Clark & Beck, 2010).

Depressiya va tashvish buzilishlarining psixologik mexanizmlari asosan insonning kognitiv (fikrlash) uslublari va atrof-muhitdagi stress omillariga past chidamliligi bilan bog‘liqidir. Salbiy fikrlash tarzining shakllanishi, doimiy ravishda negativ fikrlar va hodisalarini haddan tashqari fojiali qabul qilish kognitiv nazariyaga ko‘ra ushbu buzilishlarni shakllanishiga olib keladi. Shu bilan birga, tashqi stressorlarning ko‘payishi va ularga qarshi yetarli darajada psixologik mexanizmlarning rivojlanmaganligi ham depressiya va tashvish buzilishlarini yuzaga keltiruvchi muhim omillardir (Clark & Beck, 2010; Lazarus & Folkman, 1984).

**Adabiyotlar sharhi.** Depressiya va tashvish buzilishlari shakllanishida ijtimoiy omillarning ahamiyati juda katta ro‘l o‘ynaydi. Ijtimoiy omillar inson atrofidagi ijtimoiy muhit, jamiyatdagi mavqeい, ijtimoiy munosabatlар va shaxslararo aloqa shakllarini o‘z ichiga oladi. Bu omillar shaxs psixologiyasiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatib, ruhiy holatga muhim ta’sir qiladi (Cohen & Wills, 1985). Ijtimoiy muhitdagi qo‘llab-quvvatlashning yetarli bo‘lmasligi, ijtimoiy izolyatsiya, yolg‘izlik va munosabatlardagi nizolar depressiv simptomlar va tashvishli holatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, oilaviy muhitdagi doimiy nizolar va tarbiyaviy muammolar depressiyani kuchaytiruvchi muhim ijtimoiy omillar hisoblanadi (Hammen, 2005). Shuningdek, iqtisodiy beqarorlik va moliyaviy stress holatlari insonda depressiv va tashvish buzilishlarining rivojlanish xavfini oshiradi (Lund va boshqalar, 2010). Shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar va jamiyat tomonidan qo‘ylgan yuqori talablar shaxsning tashvish va xavotir darajasini oshirishi mumkin (Flett & Hewitt, 2002). Bu esa yoshlarning psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, depressiya va tashvish buzilishlarini shakllanishiga olib keladi. Shunday qilib, ijtimoiy omillar depressiya va tashvish buzilishlarini shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillarning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun qo‘llab-quvvatlovchi va ijobjiy ijtimoiy muhitni shakllantirish zarur. Buning uchun jamiyat darajasida turli psixologik yordam xizmatlarini tashkil qilish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantrish tavsiya etiladi (Weare & Nind, 2011).

**Mazmuni.** Depressianing shakllanishida asosiy ijtimoiy omillar ro‘l o‘ynaydi. Depressiya ni shakllantiruvchi omillar orasida oilaviy nizolar alohida o‘rin tutadi.

1. Oila a’zolari orasida doimiy ravishda yuzaga keluvchi janjallar, kelishmovchiliklar va tushunmovchiliklar insonning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qilib, uning emosional barqarorligini buzishi mumkin (Hammen, 2005).

2. Ota-onalarning ajrimi ham depressiyani shakllantiruvchi jiddiy omildir. Ajrim jarayonidagi ollalar farzandlarida xavfsizlik va barqarorlik tuyg'ularining yo'qolishiga sabab bo'lib, ular orasida doimiy bezovtalik va tushkunlik holatlariga olib keladi (Hammen, 2005).
3. Noto'g'ri tarbiyaviy uslublar, masalan, bolaga nisbatan haddan tashqari qattiqqo'llik yoki aksincha, e'tiborsizlik ham depressiyani shakllanishiga sabab bo'ladi. Bola tarbiyasidagi xatolar, jumladan, ota-onaning bolaga yetarlicha e'tibor bermasligi, bolaning ruhiy ehtiyojlarini qondirmasligi uning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi (Cummings & Davies, 1994).
4. Ijtimoiy izolyatsiya va yolg'izlik depressiyani kuchaytiruvchi yana bir muhim omildir. Odam-larning o'zini yolg'iz his qilishi, ijtimoiy muhit bilan aloqalarni yo'qotishi, yaqin insonlarning yetishmasligi depressiv simptomlarning shakllanishi va chuqurlashuviga sabab bo'ladi (Cacioppo & Hawkley, 2009).
5. Moliyaviy qiyinchiliklar va iqtisodiy notenglik ham depressiyani yuzaga keltiruvchi ijtimoiy omillardan hisoblanadi. Muntazam iqtisodiy beqarorlik va moliyaviy muammolar insonda tushkunlik, umidsizlik va xavotir hissini oshirib, ruhiy salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir qiladi (Lund va boshqalar, 2010).

**Natijalar.** Shuningdek, shaxslararo munosabatlardagi qiyinchiliklar ham depressiyani rivojlanishida sezilarli rol o'ynaydi. Doimiy nizolar, noto'g'ri tushunish va shaxsiy munosabatlardagi uzoq muddatli muammolar insonning ruhiy muvozanatini buzib, depressiyani shakllantirishi mumkin (Joiner & Timmons, 2009).

**Tashvish buzilishlarini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy omillar quyidagilarga bo'linadi.**

1. Tashvish buzilishlarini shakllanishida ziddiyatlil oilaviy muhit alohida ahamiyat kasb etadi. Oilaviy munosabatlarda mavjud bo'lgan doimiy nizolar va bosimlar bolalar va yoshlarning xavfsizlik hissini kamaytiradi hamda ular orasida doimiy tashvish va xavotir holatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi (Grant va boshqalar, 2004).
2. Jamiyatdagi yuqori talablar va doimiy stress holatlari ham tashvish buzilishlarini shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Doimiy ravishda yuqori natjalarga erishish talablari yoshlarning ruhiy va emosional bosimini oshiradi, natijada ular stressga chidamsiz bo'lib qoladilar (Grant va boshqalar, 2004).
3. Perfektionizm (mukammallikka intilish) tashvish buzilishlarining shakllanishida yana bir muhim omildir. Perfektionizm insonni doimiy ravishda muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishga undaydi, natijada u o'ziga ortiqcha bosim o'tkazib, tashvish va xavotir holatlarini kuchaytiradi (Flett & Hewitt, 2002).
4. Shuningdek, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish ham yoshlar orasida tashvish buzilishlarini shakllanishiga sabab bo'ladi. Ushbu qo'rquv yoshlarni yangi imkoniyatlardan foydalanish va muhim qarorlar qabul qilishda ortiqcha xavotiriga olib keladi, bu esa psixologik barqarorlikka salbiy ta'sir qiladi (Flett & Hewitt, 2002).
5. Ijtimoiy muhitdagi doimiy bosim, ayniqsa tengdoshlar tomonidan o'tkaziladigan ijtimoiy bosim, yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi va ular orasida tashvish va bezovtalik holatlarini kuchaytiradi. Bu esa yoshlarning umumiyligini psixologik holatini yomonlashtirishi mumkin (Grant va boshqalar, 2004).

Shunday qilib, tashvish buzilishlarini samarali profilaktika qilish va oldini olish uchun oilaviy va ijtimoiy muhitni yaxshilash hamda yoshlarning psixologik chidamliligin oshirishga qaratilgan choralar ko'rishi zarur.

**Olingan natjalarning ishonchliligi.** Yoshlar orasida depressiya va tashvish buzilishlari shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni juda kattadir. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kundalik hayotida muhim o'rin egallaydi. Ammo, ularning haddan ortiq foydalaniishi psi-

xologik jihatdan zararli bo'lishi mumkin. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda o'zini doimiy ravishda boshqa foydalanuvchilar bilan taqqoslashlari o'ziga bo'lgan ishonchni pasaytirib, depressiya va tashvish simptomlarini kuchaytirishi mumkin (Twenge & Campbell, 2018).

1. Ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy tasdiqlashga bo'lgan ehtiyoj yoshlarning ruhiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yetarli miqdorda ijobiy e'tirof olish imkoniyatining cheklanganligi yoshlar orasida doimiy xavotir va ruhiy tushkunlik holatlarini yuzaga keltiradi.

2. Kiberbulling (virtual zo'ravonlik) yana bir muhim omil hisoblanib, yoshlar orasida tashvish buzilishlarini shakllanishiga sabab bo'ladi. Virtual zo'ravonlik holatlarida yoshlar jismoniy emas, balki ruhiy zo'ravonlikka duch keladilar va bu ularning psixologik holatini keskin yomonlashtiradi (Hinduja & Patchin, 2010).

3. Internetga qaramlik holatlari ham depressiv va tashvish buzilishlarini shakllanishida ahamiyatli rol o'ynaydi. Yoshlar internetdan uzoq vaqt davomida foydalanish oqibatida o'zlarining real hayot-dagi ijtimoiy aloqalarini yo'qotishi va natijada yolg'izlik, tushkunlik va tashvish hislari kuchayishi mumkin (Young, 2004).

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida ruhiy salomatlik muammolarini kuchaytiruvchi asosiy omillardan biridir. Shuning uchun ushbu muammoni hal qilish uchun ta'lim dasturlari va profilaktik tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Depressiya va tashvish buzilishlarini oldini olishda ijtimoiy muhitni yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, psixologik ta'lim va ongli profilaktika dasturlarini amalga oshirish orqali yoshlar, ota-onalar va pedagoglar ongida ruhiy salomatlik muhimligini mustahkamlash kerak (Weare & Nind, 2011). Bunday dasturlar depressiyaning ilk belgilarini aniqlash, muammolarni vaqtida hal qilish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini faollashtirishga xizmat qiladi.

1. Oilaviy muhitda ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi va ishonchli psixologik sharoit yaratish muhim chora-tadbir hisoblanadi. Ota-onalar farzandlar bilan ochiq muloqot olib borishi, ularning hissiyotlarini qadrlashi va stressli vaziyatlarda konstruktiv yechim topishni o'rgatishi kerak. Bu yoshlarning psixologik chidamliligini oshiradi.

2. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlar samaradorligini oshirish, o'quvchilar va talabalar uchun muntazam psixologik maslahat va yordam dasturlarini yo'nga qo'yish muhimdir. Maktab va universitetlarda ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish orqali tashvish va depressiyani kamaytirish mumkin.

3. Yoshlarning stressga qarshi kurashish ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim profilaktik chora hisoblanadi. Stressni boshqarish, hissiy o'zini anglash, muammolarni konstruktiv hal qilish kabi ko'nikmalar depressiv va tashvishli holatlardan saqlanishda muhim ahamiyatga ega (Compas va boshqalar, 2001).

4. O'zaro yordam guruhlarini tashkil qilish va jamoaviy psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarini shakllantirish orqali yoshlarga bir-birini tushunish va tajriba almashish imkoniyati beriladi. Bunday guruhlar ruhiy sog'liqni saqlash madaniyatini shakllantirishda muhim vosita bo'la oladi.

5. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali psixologik salomatlik bo'yicha ma'lumotlarning ommalashtirilishi, stigma va noto'g'ri tushunchalarning kamaytirilishi ham ijtimoiy muhitni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, depressiya va tashvish buzilishlarini kamaytirishda ijtimoiy omillar markaziylar roli o'ynaydi. Ayniqsa, sog'lom va barqaror ijtimoiy muhit, ijobiy oilaviy munosabatlar, do'stona ta'lim muassasalari va xavfsiz virtual makonlarning mavjudligi ruhiy salomatlikni ta'minlashda hal qiluvchi omillar bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlarda ko'rsatilganidek, oilaviy nizolar, moliyaviy beqarorlik, doimiy stress, va kiberbulling kabi salbiy ijtimoiy ta'sirlar insonning ruhiy barqarorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarining mavjudligi, profilaktika dasturlarining joriy etilishi va yoshlar orasida ruhiy sog'liq madaniyatining shakllanishi depressiya va tashvish buzilishlari rivojlanishining oldini olishda ijobiy natijalar beradi. Xususan, psixologik tarbiya, stressni boshqarish ko'nigmalarini rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional o'rGANISHGA asoslangan ta'lIM metodlarini joriy qilish zamonaviy psixologik yondashuvlarning muhim jihatlaridandir.

Shu sababli, kelajakdag'i ilmiy izlanishlar ushbu ijtimoiy omillarni yanada chuqurroq o'rGANISH, ularni aniqlashda kompleks metodlarni qo'llash va amaliy profilaktika strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilishi lozim. Shuningdek, ta'lIM, sog'liqni saqlash va ommaviy axborot vositalari tizimida ruhiy salomatlikni targ'ib qilishga oid muvofiqlashtirilgan siyosat ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Cacioppo, J. T., & Hawkley, L. C. (2009). Perceived social isolation and cognition. *Trends in Cognitive Sciences*, 13(10), 447–454.
2. Compas, B. E., Connor-Smith, J. K., Saltzman, H., Thomsen, A. H., & Wadsworth, M. E. (2001). Coping with stress during childhood and adolescence: Problems, progress, and potential in theory and research. *Psychological Bulletin*, 127(1), 87–127.
3. Cummings, E. M., & Davies, P. (1994). Children and marital conflict: The impact of family dispute and resolution. Guilford Press.
4. Flett, G. L., & Hewitt, P. L. (2002). Perfectionism and maladjustment: An overview of theoretical, definitional, and treatment issues. In G. L. Flett & P. L. Hewitt (Eds.), *Perfectionism: Theory, research, and treatment* (pp. 5–31). American Psychological Association.
5. Grant, K. E., Compas, B. E., Thurm, A. E., McMahon, S. D., & Gipson, P. Y. (2004). Stressors and child and adolescent psychopathology: Measurement issues and prospective effects. *Journal of Clinical Child and Adolescent Psychology*, 33(2), 412–425.
6. Hammen, C. (2005). Stress and depression. *Annual Review of Clinical Psychology*, 1, 293–319.
7. Hinduja, S., & Patchin, J. W. (2010). Bullying, cyberbullying, and suicide. *Archives of Suicide Research*, 14(3), 206–221.
8. Joiner, T. E., & Timmons, K. A. (2009). Depression in its interpersonal context. In I. H. Gotlib & C. L. Hammen (Eds.), *Handbook of depression* (pp. 322–339). Guilford Press.
9. Lund, C., Breen, A., Flisher, A. J., Kakuma, R., Corrigall, J., Joska, J. A., Swartz, L., & Patel, V. (2010). Poverty and common mental disorders in low- and middle-income countries: A systematic review. *Social Science & Medicine*, 71(3), 517–528.
10. Twenge, J. M., & Campbell, W. K. (2018). Associations between screen time and lower psychological well-being among children and adolescents: Evidence from a population-based study. *Preventive Medicine Reports*, 12, 271–283.
11. Weare, K., & Nind, M. (2011). Mental health promotion and problem prevention in schools: What does the evidence say? *Health Promotion International*, 26(suppl\_1), i29–i69.
12. Young, K. S. (2004). Internet addiction: A new clinical phenomenon and its consequences. *American Behavioral Scientist*, 48(4), 402–415.

**TA'LIM KLASTERIDA O'QUV-TARBIYAVIY JARAYON SIFATINI  
NAQSHBANDIYA TA'LIMOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**  
**Ubaydova Vazira Erkinovna**

Buxoro davlat texnika universiteti Yengil sanoat muhandisligi va dizayni kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lif klasteri sharoitida o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini oshirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan hamda Naqshbandiya ta'lifotining asosiy pedagogik tamoyillarini tahlil qilgan holda, ularni zamonaviy ta'lif jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. O'rganishlar natijasida klaster modeli asosida shakllangan o'quv muhitida shaxsiy fazilatlar, ma'naviy immunitet va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodika taklif etiladi. Metodikaning samaradorligini ta'minlovchi mezonlar ishlab chiqilgan hamda uning amaliy qo'llanilishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari o'quv-tarbiyaviy faoliyatni milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lif klasteri, o'quv-tarbiyaviy jarayon, Naqshbandiya ta'lifoti, metodika, ma'naviy tarbiya, shaxs kamoloti.

**МЕТОДОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО  
ПРОЦЕССА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ КЛАСТЕРЕ НА ОСНОВЕ УЧЕНИЯ  
НАКШБАНДИЯ**

**Аннотация.** В данной статье раскрыты теоретические и практические основы повышения качества учебно-воспитательного процесса в условиях образовательного кластера. А также проанализированы основные педагогические принципы учения Накшбандия, показывает возможности их интеграции в современный образовательный процесс. В результате исследований предлагается комплексная методика, направленная на развитие личностных качеств, духовного иммунитета и социальной ответственности в учебной среде, сформированной на основе кластерной модели. Разработаны критерии, обеспечивающие эффективность методики, а также проанализированы её практические аспекты применения. Результаты исследования раскрывают возможности совершенствования учебно-воспитательной деятельности на основе национально-духовных ценностей.

**Ключевые слова:** образовательный кластер, учебно-воспитательный процесс, учение Накшбандия, методика, духовно-нравственное воспитание, совершенствование личности.

**METHODOLOGY OF IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL  
PROCESS IN THE EDUCATIONAL CLUSTER BASED ON THE TEACHINGS OF  
NAQSHBANDIA**

**Abstract.** This article presents the theoretical and practical foundations for enhancing the quality of the educational and upbringing process within the framework of an educational cluster. The author critically examines the core pedagogical principles of the Naqshbandi doctrine and explores their potential integration into contemporary educational environments. As a result of the study, a comprehensive methodology is proposed, aimed at fostering personal development, spiritual resilience, and social responsibility within a cluster-based learning environment. The study defines criteria that ensure the effectiveness of the methodology and provides an analysis of its practical implementation. The findings offer new insights into improving educational practices based on national and spiritual values.

**Key words:** educational cluster, educational and upbringing process, Naqshbandi doctrine, methodology, spiritual and moral education, individual perfection.

**KIRISH.** Bugungi globallashuv sharoitida ta'lif tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki shaxsning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy ye-

tukligini shakllantirishdan iborat. Zero, jamiyat taraqqiyotining barqarorligi — inson kapitalining sifatiga, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – ma’naviyatli jamiyat” tamoyili zamirida ham ana shu yuksak maqsad mujassam.

Ta’lim klasteri modeli — hozirgi bosqichda ta’lim, fan va ishlab chiqarish sohalarining o‘zaro integratsiyasi orqali ijtimoiy buyurtmani samarali amalga oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuv bo‘lib, u nafaqat kasbiy kompetensiyalar, balki ijtimoiy-ma’naviy fazilatlarni shakllantirishga ham xizmat qilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim klasteri doirasida o‘quv-tarbiyaviy jarayon sifatini oshirishda milliy tarbiya maktabi – jumladan, Naqshbandiya ta’limoti asosidagi qadriyatlar yondashuvi katta ahamiyat kasb etadi.

Naqshbandiya ta’limoti – bu ko‘p asrlik tarixiy-ma’naviy meros bo‘lib, u shaxs kamoloti, ichki poklik, halollik, xizmat, tafakkur tarbiyasi va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim tushunchalarni o‘zida mujassam etadi. Ushbu tamoyillarni zamonaviy ta’limga integratsiyalash orqali pedagogik jarayonni insonparvarlik, ma’naviy yuksaklik va xalqparvarlik asosida boyitish mumkin. Shu sababli, mazkur maqolada ta’lim klasterida o‘quv-tarbiyaviy jarayon sifatini Naqshbandiya ta’limoti asosida takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, amaliy yondashuvlari va metodik mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Hozirgi zamon ta’lim tizimida o‘quv jarayonining sifati bilan birga tarbiyaviy tarkibiy qismlarining sustligi, yoshlar orasida ma’naviy bo‘shliq, individual mas’uliyat hissining pastligi kabi muammolar mavjud. Garchi o‘quv dasturlarida “ma’naviy-ma’rifiy tarbiya” bo‘limlari mavjud bo‘lsa-da, ularning real hayotdagi ta’siri sust bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ta’lim klasteri sharoitida ishlab chiqarish, fan va ta’lim muassasalari hamkorligida bu yo‘nalish ko‘proq texnologik va kasbiy kompetensiyalarga yo‘naltirilgan. Shu bois, o‘quv-tarbiyaviy jarayon sifatini milliy-ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda takomillashtirish zaruriyati mavjud. Bunda xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviy merosi – Naqshbandiya ta’limoti tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish dolzarbdir.

**METODLAR.** Ushbu ilmiy tadqiqotda ta’lim klasteri sharoitida o‘quv-tarbiyaviy jarayoni Naqshbandiya ta’limoti asosida takomillashtirishga oid metodik yondashuvlar ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiysi, milliy-ma’naviy tarbiya nazariyalari, integral yondashuv va tizimli tahlil prinsiplari tashkil etdi.

1. Nazariy-tahliliy bosqich – Naqshbandiya ta’limotining tarbiyaviy va pedagogik tamoyillari tahlil qilinib, ularning zamonaviy ta’lim klasteri modeliga integratsiya qilish imkoniyatlari o‘rganildi. Ilmiy-adabiy manbalar, tarixiy-ma’naviy meros, pedagogik konsepsiylar tahlil qilindi.
2. Diagnostik bosqich – ta’lim klasterlaridagi o‘quv-tarbiyaviy jarayon holati o‘rganildi. O‘qituvchilar, talabalar va tarbiyachilar orasida so‘rovnoma, suhbatlar va kuzatuv metodlari orqali amaldagi muammolar aniqlashtirildi.
3. Loyihalash bosqichi – Naqshbandiya qadriyatlariaga asoslangan o‘quv-tarbiyaviy model ishlab chiqildi. Unda shaxsiy fazilatlarni rivojlantiruvchi, ma’naviy immunitetni mustahkamlovchi, ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi komponentlar tizimlashtirildi.
4. Eksperimental-sinov bosqichi – ishlab chiqilgan metodika Toshkent viloyatidagi pedagogika yo‘nalishidagi klaster kollej va texnikumlarida sinovdan o‘tkazildi. Eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasida solishtirma tahlil o‘tkazildi.
5. Tahlil va umumlashtirish bosqichi – olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilinib, metodikaning samaradorligi isbotlandi. Ko‘rsatkichlar asosida sifat o‘zgarishlari baholandi.

#### **Tadqiqotda qo‘llangan asosiy metodlar:**

- Tizimli tahlil va sintez – ilmiy-nazariy manbalarni umumlashtirish va yangi konseptual model yaratish uchun;
- Empirik metodlar – so‘rovnoma, suhbat, test va kuzatuvlari orqali amaliy holatni aniqlash uchun;
- Pedagogik eksperiment – metodikaning samaradorligini tekshirish va isbotlash uchun;
- Statistik tahlil – eksperiment natijalarini ilmiy asoslash uchun.

Shuningdek, tadqiqotda milliy qadriyatlarni asosida tarbiya berish samaradorligini o‘lchovchi

indikatorlar ishlab chiqildi va ular asosida baholash ishlari olib borildi.

**NATIJALAR. Mulohaza.** O'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy-ma'rifiy merosida Naqshbandiya ta'limoti alohida o'rinn egallaydi. Bu ta'limot nafaqat diniy-falsafiy tizim sifatida, balki xalq tarbiyasining, shaxsiy kamolotning, jamiyatdagi axloqiy normalarning shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib kelgan. Hazrat Bahouddin Naqshband (1318–1389) tomonidan asos solingan ushbu maktab asrlar davomida butun Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Hindiston hududlarida millionlab kishilar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Naqshbandiya ta'limotining asosiy g'oyalari — “Dil ba ëru, dast ba kor” (ya'ni qalb Al-loh bilan, qo'l mehnat bilan), “Vuqufi qalbi” – “Qalb olloh bilan”, “halollik, sabr, ixlos, tavozi, poklik” kabi tamoyillar — zamonaviy pedagogikada tarbiyaning asosiy tamoyillari bilan to'laqonli uyg'unlashadi. Bu qadriyatlar insonning ichki dunyosini tarbiyalash, ruhiy barkamollikka erishish, mas'uliyat, ijtimoiy faoliyat va halollikni shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.

Mazkur ta'limotda shaxs kamoloti uchta asosga tayangan holda rivojlanadi:

1. Ruhiy-ma'naviy poklanish — nafsni tiyish, sabr-qanoat, halollik va shukr kabilalar orqali shaxsni ichki muvozanatga olib kelish;
2. Ijtimoiy mas'uliyat — xalqqa xizmat qilish, jamiyatga foydali bo'lish, doimiy harakatda bo'lish (jihat);
3. Zikr va tafakkur — tafakkurli yashash, har bir ishni ongli ravishda amalga oshirish, hayotni chuqur anglash.

Shunday yondashuvlar o'quv-tarbiyaviy jarayonda “yaxshi inson yetishtirish” maqsadining amaliy ifodasi hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida yoshlar orasida kuzatilayotgan individualizm, iste'molchilik kayfiyati va ma'naviy bo'shliq sharoitida, Naqshbandiya ta'limoti tamoyillari asosida shakllangan tarbiya modeli milliy g'oyaga tayanuvchi muqobil yondashuv sifatida namoyon bo'ladi.

Naqshbandiya ta'limotida o'qituvchi shaxsiga nisbatan ham yuqori talablar qo'yiladi. U fagat bilim beruvchi emas, balki ma'naviyat namunasi, shaxsiy hayoti bilan ibrat ko'rsatuvchi murabbiy sifatida qaraladi. Bu pedagogik pozitsiya zamonaviy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan to'laqonli mos keladi.

Shunday qilib, Naqshbandiya ta'limoti o'z mohiyatiga ko'ra, bugungi kun ta'limi uchun:

- Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish;
- Sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish;
- Ma'naviy immunitet hosil qilish;
- O'zlikni anglash va milliy g'ururni uyg'otish kabi jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu qadriyatlarni o'quv dasturlariga, pedagogik metodikalarga uyg'un tarzda tatbiq etish, o'quvchilar va talabalar ongiga yetkazish orqali ta'lim tizimining tarbiyaviy salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ayniqsa, ta'lim klasteri doirasida ushbu yondashuv ustuvor bo'lishi lozim, chunki klaster modeli jamiyatning haqiqiy ehtiyojlariga yo'naltirilgan, har tomonlama barkamol inson yetishtirishni ko'zlaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ta'lim klasteri sharoitida o'quv-tarbiyaviy jarayonni Naqshbandiya ta'limoti tamoyillari asosida tashkil etish ta'limning mazmuni va samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. *Naqshbandiya ta'limotining pedagogik mohiyati aniqlashtirildi.* Undagi asosiy tarbiyaviy tamoyillar — “dil ba ër, dast ba kor”, “xalqqa xizmat — Haqqa xizmat” kabi qadriyatlar zamonaviy pedagogikaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, axloqiy tarbiya va ijtimoiy faoliyk tamoyillari bilan bevosita uyg'unligi isbotlandi.
2. *Ta'lim klasterida o'quv-tarbiyaviy jarayon holati chuqur tahlil qilindi.* O'rganilgan kollej va texnikumlarda olib borilgan so'rovnama, suhbat va kuzatuvlardan natijasida tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlar yetarli darajada tizimli o'rganilmasligi, zamonaviy metodik yondashuvlarning yetishmasligi aniqlandi.
3. *Naqshbandiya ta'limoti asosida integratsiyalashgan metodika ishlab chiqildi.* Ushbu metodikada quyidagi yo'nalishlar asosiy bo'ldi:

- shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy mashg’ulotlar;
  - jamiyatga foydali fuqaroni tarbiyalashga yo‘naltirilgan ijtimoiy loyihibar;
  - “ustoz-shogird” an’anasiga asoslangan ijtimoiy hamkorlik modellarini joriy qilish;
  - tafakkurli o‘qish, amaliy mashg’ulotlar va psixologik treninglar asosida ichki muvozanatni ri-vojlantirish.
4. *Eksperimental-sinov ishlari o’tkazildi.* Metodika Toshkent viloyatidagi 2 ta kasb-hunar ta’limi mu-assasasida sinovdan o’tkazildi. Eksperimental guruhda o‘quvchilar o‘rtasida quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:
- o‘quvchilar ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishi 34% ga oshdi;
  - o‘zini anglash va shaxsiy maqsadlarni belgilash ko‘nikmalar 41% ga rivojlandi;
  - ijtimoiy faollik va tashabbus ko‘rsatish darajasi 26% ga oshdi;
  - ta’limga ijobiy munosabat, intizom va o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarida ham sezilarli o‘zgarishlar qayd etildi.
5. *Tarbiyaviy samaradorlikni baholovchi indikatorlar tizimi ishlab chiqildi.* Bular orqali o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy rivojlanish darajasi, ijtimoiy moslashuvchanlik va axloqiy qadriyatlarga sodiqlik holati tizimli baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, Naqshbandiya ta’limotining ma’naviy negizini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ruhiy va axloqiy kamolotga yo‘naltirilgan barqaror motivatsiya hosil qilish mumkin. Bu esa yoshlarni o‘zligiga sodiq, ijtimoiy mas’ul, milliy qadriyatlarni anglagan holda harakat qiluvchi barkamol inson sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Ayni paytda ushbu metodikani yanada takomillashtirish va boshqa ta’lim bosqichlariga (umumiyl o‘rta, oliy ta’lim) moslashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, usta-shogirdlik, tariqiy-ma’rifiy suhbatlar, ruhiy-madaniy mashg’ulotlar kabi an’anaviy yondashuvlarni zamonaqiy innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish samaradorlikni oshiradi.

**Xulosa va takliflar.** Naqshbandiya ta’limoti asosida taklif etilayotgan metodika ta’lim klassterlarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni mukammallashtirishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minalashga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi va talabalarning nafaqat bilim saviyasi, balki axloqiy-ma’naviy salohiyati ham yuksaladi.

1. Naqshbandiya ta’limoti asosida tarbiyaviy modullar ishlab chiqish;
2. Ta’lim klasterlarida ma’naviy yetakchilar institutini yo‘lga qo‘yish;
3. Pedagoglar uchun maxsus o‘quv kurslari va metodik seminarlar tashkil qilish;
4. Ruhiy-axloqiy monitoring mezonlarini rasmiy hujjatlar darajasida joriy etish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagи PQ-5040-sonli «Ma’naviy-ma’rifiy ishlар tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. // Qонун хуҷатлари ма’лумотлари милий базаси. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Musurmanova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Т.: O‘qituvchi. 1996. – 192 b.
3. Ubaydova V.E. Bahauddin Naqshband simbol of honesty / ACADEMICIA: An international Multidisciplinary Research Journal Vol.11 Issue 5, May 2021. P. 1193-1197.
4. Qilicheva K.Yu. Bahouddin Naqshbandning ta’limiy-axloqiy qarashlarini uzluksiz ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchi va talabalarga o‘rgatish metodlarini ishlab chiqgan. Ped. fanl. nomz. diss. - Т., 2004. – b12.
5. Наврузова, Г. Н., & Убайдова, В. Э. (2023). Вклад Бахауддина Накшбанда в восточную герменевтику. Universum: психология и образование, (4 (106)), 31-33.
6. Убайдова, В. Э. (2020). Ценность времени в учении накшбандия при воспитании совершенного человека. In Современное образование: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 79-81).
7. Наботов З. – Проблема человека в Накшбандизме. Кандидат педагогических наук. - Т., 1999. – б 14, 24.

## ORGANIK FOTOVOLTAIKA SOHASIDAGI RIVOJLANISHLAR, POLIMER QUYOSH YACHEYKALARI ISTIQBOLLARI

Matyoqubov H.Sh., Urganch davlat pedagogika instituti, dotsenti

Payzullayeva X.R. Urganch DZYUDO mahorat maktabi fizika fani o'qituvchisi

Ro'zimatova S.R., Urganch davlat universiteti, magistranti, [hikmat.shuhratovich@gmail.com](mailto:hikmat.shuhratovich@gmail.com)

**Annotatsiya.** Polimer quyosh panellari, so'nggi o'n yil davomida juda innovatsion ilmiy tadqiqot sohasiga aylangan bo'lib, hozirgi kunda ularning asosiy ishlash jarayonlarini tushunish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Ilmiy hamjamiatning ortib borayotgan qiziqishi har yili nashr etilayotgan maqolalar sonining doimiy tarzda o'sishida o'z aksini topmoqda. Biz tayyorlayotgan ushbu ishda organik fotovoltaika sohasidagi rivojlanishlar ko'rib chiqiladi, bunda fotokonversiya jarayonida faol material sifatida qo'shbog' tutgan O'tkazuvchan polimerlar qo'llanilgan. Bu yerda hozirgi kunda qo'llanilayotgan turli material va tuzilmalarni ajratib ko'rsatishga alohida eftibor qaratilgan: polimer–fulleren, polimer–polimer, polimer–nanozarra gibriddlar va polimer–uglerod nanonaycha kombinatsiyalari keng ko'lamda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'tkazuvchan polimer, quyosh yacheykasi, nonoturubka, yupqa qatlam, polimer–fulleren, Polimer–gibrid tizimi

## РАЗВИТИЕ ОРГАНИЧЕСКОЙ ФОТОВОЛЬТАИКИ, ПЕРСПЕКТИВЫ ПОЛИМЕРНЫХ СОЛНЕЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ

**Аннотация.** Полимерные солнечные элементы, высокоинновационная область исследований за последнее десятилетие и до сегодняшнего дня, в настоящее время созревают в отношении понимания их фундаментальных процессов работы. Растущий интерес научного сообщества хорошо отражается в динамично растущем с каждым годом числе публикаций. В этой главе представлен обзор разработок в области органической фотovoltaики, использующей сопряженные полимеры в качестве активных материалов в процессе фото преобразования. Здесь основное внимание уделяется дифференциации различных систем материалов, применяемых сегодня: всесторонне рассматриваются гибриды полимер–фуллерен, полимер–полимер, полимер–наночастицы и комбинации полимер–углеродная нанотрубка.

**Ключевые слова:** проводящий полимер, солнечный элемент, nanoструктура, тонкая пленка, полимер–фуллерен, полимер–гидридная система

## DEVELOPMENTS IN ORGANIC PHOTOVOLTAICS, PROSPECTS OF POLYMER SOLAR CELLS

**Abstract.** Polymer solar cells, a highly innovative research area for the last decade until today, are currently maturing with respect to understanding of their fundamental processes of operation. The increasing interest of the scientific community is well reflected by the—every year—dynamically rising number of publications. This chapter presents an overview of the developments in organic photovoltaics employing conjugated polymers as active materials in the photoconversion process. Here the focus is on differentiating between the various material systems applied today: polymer–fullerene, polymer–polymer, polymer–nanoparticle hybrids, and polymer–carbon nanotube combinations are reviewed comprehensively.

**Key words:** conductive polymer, solar cell, nanostructure, thin film, polymer–fullerene, polymer–hybrid system


Polimer quyosh yacheykasi yarim o'tkazgichli qo'shbog' tutgan polimerlarni [1-3] quyosh nurini elektr energiyasiga aylantiradigan yupqa plyonkali fotovoltaik qurilmalarda fototok ishlab

chiqarish va quvvatni aylantirish jarayonida faol komponentlar sifatida qo'llanadi.

2000 yilda Xeger, MakDiarmid va Shirakava yangi materiallar sinfini ifodalovchi “O'tkazuvchan polimerlarni kashf qilish va rivojlantirish” uchun kimyo bo'yicha Nobel mukofotini olishdi. O'tkazuvchan polimerlar odatda  $sp^2$ -gibriddangan uglerod atomlariga asoslangan alternativ yagona va ikki bog'li tuzilmani namoyon qiladi. Bu esa yuqori darajada delokalizatsiyalangan (lokallashmagan, tarqoq)  $\pi$ -elektron tizimining shakllanishiga olib keladi va katta elektron qutblanishini ta'minlaydi. Shu sababli ular ko'rinvuchan yorug'lik sohasida yutilishni ( $\pi-\pi^*$  o'tishlar orqali, ya'ni bog'langan va bog'lanmagan p-z orbitalar orasida) va elektr zaryadni tashishni ta'minlaydi. Bu xususiyatlar quyosh batareyalarida energiya ishlab chiqarish uchun yarim o'tkazuvchilar bajarishi zarur bo'lgan ikkita talabni qondiradi. Qo'shbog' tutgan polimerlardan organik yorug'lik chiqaruvchi diodlar (OLEDs –Organic Light Emitting Diodes), organik maydonli tranzistorlar (OFETs-Organic Field Effect Transistors) va organik quyosh batareyalari (OSCs-Organic Solar Cells) kabi optoelektron qurilmalarni ishlab chiqarishda foydalanish ularning eritmadan qayta ishlash mumkinligi tufayli juda qo'l keladi va muhim hisoblanadi [4].

Eritmalilikni ta'minlovchi yon zanjir hosilalari bilan funksionallashgan qo'shbog' tutgan polimerlar umumiy organik erituvchilarda yoki hattoki suvda ham oson eriydi. Shu sababli ular har xil depozitsiya (materialni yuzaga joylashtirish) jarayonlari uchun “siyoh” sifatida ishlatilishi mumkin va yupqa, bir xil qatlamlar hosil qiladi. Ushbu xususiyat ayniqsa klassik bosib chiqarish texnikalari bilan birlashtirilganda juda samarali bo'lib, u inkjet yoki ofset bosib chiqarish kabi joylashuvga yo'naltirilgan yotqizishni va katta maydonli uzlusiz rulonli ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Natijada yuqori ishlab chiqarish quvvati klassik yarimo'tkazgichlarni ketma-ket qayta ishlash usulidan osonlikcha oshib ketadi.

Organik yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilar harakatchanligi odatda ularning noorganik turlariga nisbatan ancha past bo'ladi [5]. Ushbu kamchilik qisman yuqori yutilish koeffitsientlari [6, 7] va uzoq muddatli zaryad tashuvchilar [8–10] bilan muvozanatlashadi, masalan, polimer–fuleren aralashmalarida. Bundan tashqari, yaqinda polimer [11] va fuleren plyonkalarda [12] olingan zaryad tashuvchilar harakatchanlik ko'rsatkichlari amorf kreminiy plyonkalarda olingan ko'rsatkichlarga yaqin yoki undan ham yuqori bo'lib, ularni masalan, suyuq kristal (LCD) yoki OLED displeylarda qo'llaniladigan yupqa plyonka tranzistorlar (TFT) massivi uchun qiziqarli alternativga aylantiradi. Organik quyosh batareyalarida ishlatiladigan bir nechta turdag'i bog'langan polimerlarning tuzilmalari fulleren bilan birgalikda 1-rasmda keltirilgan.




**1-rasm. Polimer asosidagi quyosh panellarida keng qo'llaniladigan bog'langan polimerlarning va C<sub>60</sub> ning eruvchan hosilasining tuzilmalari.**

Uchta muhim va tez-tez ishlataladigan teshikli o'tkazuvchanlikli, donor tipidagi polimerlar MDMO-PPV (yoki OC1C10-PPV) (poli[2-metoksi-5-(3,7-dimetiloktiloksi)]-1,4-fenilenvinilen), P3HT (poli(3-eksiltiofen) va P3-eksiltiofen) (poli[9,9'-dioktilfluoren-N,N'-(4-butilfenil)-bis-N,N'-fenil-1,4-fenilendiamin]).

Odatda elektron O'tkazuvchi qabul qiluvchilar CN-MEH-PPV polimerlari (poli[2-metoksi-5-(2'-etilheksiloksi)]-1,4-(1-siyanovinilen)-fenilen) va F8BT (poli (9,9'-dioktilfluoren-kO'I va soliben) hosilasi) hisoblanadi. Bu materiallarning barchasi yon zanjirli eruvchanligi tufayli eritma bilan qayta ishlanadi va polimerlar kuchli foto va elektrolumentseniya hosil qiladi.

Polimerlar  $sp^2$ -gibridlangan uglerod atomlarining yagona bog' ikki bog'li tuzilmasini namoyon qiladi. Har bir  $sp^2$ -gibridlangan uglerod atomining p-z orbitallaridagi elektronlar qo'shbosh tutgan polimerning  $\pi$  tasmalarini birgalikda hosil qiladi. Izomerik ta'sirlar tufayli ushbu  $\pi$  elektronlar delokalizatsiya (tarqoqlashib)lanib, yuqori elektron qutblanishga olib keladi. Peirlsning beqarorligi tufayli yarim to'lgan  $p_z$  bog'ini ikkiga ajratib,  $\pi$  va  $\pi^*$  bog'lar hosil qiladi.

Yorug'lik yutilganda, elektronlar bog'lovchi  $\pi$  bog'dan bog'lanmagan  $\pi^*$  bog'ga o'tishi mumkin. Ushbu yutilish eng yuqori to'lgan molekulyar orbital (HOMO- Highest Occupied Molecular Orbital) dan eng past to'lmanган molekulyar orbital (LUMO- Lowest Unoccupied Molecular Orbital)ga o'tishga bo'lgan birinchi optik qo'zg'alishga mos keladi. Aksariyat bog'langan polimerlarning taqiqlangan zona kengligi taxminan 2 eV atrofida bo'ladi.




2-rasm. Eng ko'p o'rganilgan polimer-fuleren tizimlarini ifodalovchi ikkita bog'langan polimer va fuleren hosilasi PCBM ning yutilish koeffitsientlari . AM 1.5 standart quyosh spektri bilan birgalikda ko'rsatilgan.

Odatiy polimer quyosh panellarining quyosh nurlarini yutish qismi chegaralangan. 2-rasmda ikkita keng tarqalgan bog'langan polimer va PCBM dan olingan yupqa plyonkalarning yutilish koeffitsientlari AM 1.5 quyosh spektri bilan solishtirilgan holda ko'rsatilgan. Kremniyning taqiqlangan zona kengligi va optik yutilish spektrining boshlanishi taxminan 1,1 eV (taxminan 1100 nm) atrofida joylashgan bo'lsa, bugungi kunda fotovoltaikada qo'llanilayotgan ko'pchilik organik yarimo'tkazuvchi polimerlar quyosh spektrining faqat 650 nm dan past qismini (taxminan 2 eV dan katta) ishlatadi. Yutilish koeffitsientlari nisbatan yuqori ( $\sim 10^5 \text{ sm}^{-1}$ ) bo'lib, juda yupqa faol qatlamlarda samarali yutilishni ta'minlaydi.

So'nggi o'n yillikda polimer quyosh panellari ilmiy hamda sanoat sohalarida tobora ortib

borayotgan qiziqishlarga sabab bo'ldi [7, 13–16]. Ushbu tadqiqot yo'nalishida 1990-yildan boshlab chop etilgan ilmiy maqolalar sonining o'sishi (3-rasm) ushbu faktini ta'sirchan tarzda namoyon qiladi [17]. Darhaqiqat, ushbu qiziqishning ortishi so'nggi o'n yillikda konversiya samaradorligi ning tezlashib borayotgan yaxshilanishlari bilan mos keladi, hozirgi kunda bu ko'rsatkich taxminan 4–5% ga yetmoqda [18–21]. 1990-yillarning boshida yagona qatlamlili va yagona komponentli qu'rilmalardagi konversiya samaradorligi hanuz 0,1% dan past bo'lgan bo'lsa [22–25], ming yillikning boshidagi yaxshilanishlar asosan donor–akseptor “hajmiy geteroo‘tishli” konsepsiyasining joriy etilishiga bog'liq. Ushbu konsepsiya molekulyar orbitallaridagi energiya farqini namoyish etuvchi ikki elektron komponentdan foydalanadi [26–34].



**3-rasm. “Polimer quyosh panellari” mavzusiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar soni va yillari.**

Polimer quyosh panellarining asosiy ish prinsiplarini qisqacha taqdim etamiz, turli xil qu'rılma arxitekturalarini (yagona qatlamlili, ikki qatlamlili va aralash) ko'rib chiqamiz va fotoaktiv qatlamda qo'llaniladigan quyidagi eng ko'p o'rganilgan material tizimlarini ko'rib chiqamiz: polimer–fulleren, polimer–polimer, polimer–nanozarra (gibridd), va polimer–nanonaycha kombinatsiyalari. 1-jadvalda ushbu bobda muhokama qilingan turli polimer quyosh panellari qurilma konsepsiyalari uchun erishilgan hozirgi rekord samaradorlik ko'rsatkichlari umumlashtirilgan.

#### 1-jadval

Polimer quyosh panellarining rekord konveksiya samaradorligi va qurilma parametrlarini ko'rsatadi. Quyida uning tahlili:

| Sistema            | Qisqa tutashuv toki           | Ochiq zanjir kuchlanishi | Fill faktori | Quvvat koeffitsiyenti |
|--------------------|-------------------------------|--------------------------|--------------|-----------------------|
| Polimer-fulleren   | 9,35mA/cm <sup>2</sup> 100 mW | 874 mV                   | 64%          | 5,2%                  |
| Polimer-polimer    | 4 mA/cm <sup>2</sup> 100 mW   | 1250 mV                  | 45%          | 1,8%                  |
| Polimer gibridd    | 8,79mA/cm <sup>2</sup> 92 mW  | 620 mV                   | 50%          | 2,6%                  |
| Polimer nanonaycha | 0,5 mA/cm <sup>2</sup> 100 mW | 750 mV                   | 60%          | 0,22%.                |

- Polimer–fuleren tizimi** eng yuqori samaradorlikka ega, bu 5.2% ni tashkil etadi. Bu tizimda qisqa tutashuv tok zichligi 9.35 mA/sm<sup>2</sup> va ochiq zanjir kuchlanishi 874 mV.
- Polimer–polimer tizimi** (F8TBT:P3HT) esa 1.8% samaradorlikni ko'rsatmoqda, qisqa tutashuv tok zichligi 4 mA/sm<sup>2</sup> va ochiq zanjir kuchlanishi 1250 mV bo'lgan.

- **Polimer-gibrid tizimi** (P3HT:CdSe) 2.6% samaradorlikni taqdim etadi, qisqa tutashuv joriyati 8.79 mA/cm<sup>2</sup> va ochiq zanjir kuchlanishi 620 mV.
- **Polimer-nanonaycha tizimi** (P3OT:SWCNT) esa eng past samaradorlikni ko'rsatadi, fagaqt 0.22%. Biroq, ochiq zanjir kuchlanishi 750 mV va to'ldirish faktori 60% ga teng.

Donor-akseptor ikki blokli kopolimerlar, yaqinda ishlab chiqilayotgan hajmiy geteroo'tish kontseptsiyasiga asoslangan materiallarning yana bir qiziqarli sinfini tashkil qiladi.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib Xulosa qiladigan bo'lsak polimerlar asosidagi quyosh yacheykalari aynan bugungi kunning talabi hisoblanadi, chunki bu asosdagi quyosh panellari tannarx jixatdan arzon, o'ta yengil va qayishqoq, ekpatatsiya qilish juda osonligi bilan ananaviy kremniy asodagi panellar bilan bemalol raqobatlasha oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nalwa HS (ed) (1997) Handbook of organic conductive molecules and polymers, vols 1–4. Wiley, Chichester
2. Hadzioannou G, van Hutten PF (eds) (2000) Semiconducting polymers, vol 1. Wiley-VCH, Weinheim
3. Skotheim TA, Reynolds JR (eds) (2006) Handbook of conducting polymers, vols 1–2. CRC, Boca Raton
4. McGehee MD, Miller EK, Moses D, Heeger AJ (1999) In: Bernier P, Lefrant S, Bidan G (eds) Advances in synthetic metals: twenty years of progress in science and technology. Elsevier, Lausanne, p 98
5. Dimitrakopoulos CD, Mascaro DJ (2001) Organic thin-film transistors: a review of recent advances. IBM J Res Dev 45:11
6. Hoppe H, Arnold N, Meissner D, Sariciftci NS (2003) Modeling the optical absorption within conjugated polymer/fullerene-based bulk-heterojunction organic solar cells. Sol Energy Mater Sol Cells 80:105
7. Hoppe H, Sariciftci NS (2004) Organic solar cells: an overview. J Mater Res 19:1924
8. Montanari I, Nogueira AF, Nelson J, Durrant JR, Winder C, Loi MA, Sariciftci NS, Brabec CJ (2001) Transient optical studies of charge recombination dynamics in a polymer/fullerene composite at room temperature. Appl Phys Lett 81:3001 Polymer Solar Cells
9. Nogueira AF, Montari I, Nelson J, Durrant JR, Winder C, Sariciftci NS, Brabec C (2003) Charge recombination in conjugated polymer/fullerene blended films studied by transient absorption spectroscopy. J Phys Chem B 107:1567
10. Nelson J (2003) Diffusion-limited recombination in polymer–fullerene blends and its influence on photocurrent collection. Phys Rev B 67:155209
11. Sirringhaus H, Brown PJ, Friend RH, Nielsen MM, Bechgaard K, Langeveld-Voss BMW, Spiering AJH, Janssen RAJ, Meijer EW, Herwig P, de Leeuw DM (1999) Two-dimensional charge transport in self-organized, high-mobility conjugated polymers. Nature 401:685
12. Singh Th B, Marjanovic N, Matt GJ, Günes S, Sariciftci NS, Montaigne Ramil A, Andreev A, Sitter H, Schwödiauer R, Bauer S (2004) High-mobility n-channel organic field-effect transistors based on epitaxially grown C60films. Org Electron 6:105
13. Brabec CJ, Sariciftci NS, Hummelen JC (2001) Plastic solar cells. Adv Funct Mater 11:15
14. Brabec CJ, Dyakonov V, Parisi J, Sariciftci NS (eds) (2003) Organic photovoltaics: concepts and realization, vol 60. Springer, Berlin
15. Brabec CJ (2004) Organic photovoltaics: technology and market. Sol Energy Mater Sol Cells 83:273

16. Mozer AJ, Sariciftci NS (2006) In: Skotheim TA, Reynolds JR (eds) Conjugated polymers: processing and applications, vol 2. CRC, Boca Raton, p101
17. Science Citation Index, polymer solar cell(s) (2007) Thompson Scientific, WoScience
18. Ma W, Yang C, Gong X, Lee K, Heeger AJ (2005) Thermally stable, efficient polymer solar cells with nanoscale control of the interpenetrating network morphology. *Adv Funct Mater* 15:1617
19. Reyes-Reyes M, Kim K, Carroll DL (2005) High-efficiency photovoltaic devices based on annealed poly(3-hexylthiophene) and 1-(3-methoxycarbonyl)-propyl-1-phenyl-(6,6)C<sub>61</sub> blends. *Appl Phys Lett* 87:083506
20. Reyes-Reyes M, Kim K, Dewald J, Lopez R-S, Avadhanula A, Curran S, Carroll D L (2005) Meso-structure formation for enhanced organic photovoltaic cells. *Org Lett* 7:5749
21. Li G, Shrotriya V, Huang J, Yao Y, Moriarty T, Emery K, Yang Y (2005) High efficiency solution processable polymer photovoltaic cells by self-organization of polymer blends. *Nat Mater* 4:864
22. Karg S, Riess W, Dyakonov V, Schwoerer M (1993) Electrical and optical characterization of poly(phenylene-vinylene) light emitting diodes. *Synth Met* 54:427
23. Yu G, Zhang C, Heeger AJ (1994) Dual-function semiconducting polymer devices: light-emitting and photodetecting diodes. *Appl Phys Lett* 64:1540
24. Yu G, Pakbaz K, Heeger AJ (1994) Semiconducting polymer diodes: large size, low-cost photodetectors with excellent visible-ultraviolet sensitivity. *Appl Phys Lett* 64:3422
25. Marks RN, Halls J JM, Bradley D DC, Friend RH, Holmes AB (1994) The photovoltaic response in poly(p-phenylene vinylene) thin-film devices. *J Phys Condens Matter* 6:1379
26. Sariciftci NS, Smilowitz L, Heeger AJ, Wudl F (1992) Photoinduced electron transfer from a conducting polymer to buckminsterfullerene. *Science* 258:1474
27. Sariciftci NS, Braun D, Zhang C, Srdanov VI, Heeger AJ, Stucky G, Wudl F (1993) Semiconducting polymer–buckminsterfullerene heterojunctions: diodes, photodiodes, and photovoltaic cells. *Appl Phys Lett* 62:585
Timus saratoni (Timoma va Timik karsinoma). Timoma va timik karsinoma timus bezining epitelial hujayralaridan rivojlanadigan kam uchraydigan o'smalardir. Timomalar odatda sekin o'sadi va ko'pincha yaxshi xulqli bo'ladi, ammo ba'zilari invaziv bo'lishi mumkin. Timik karsinomalar esa ko'proq malign xususiyatga ega bo'lib, tez o'sadi va metastaz berishi mumkin. Aniq sabablari to'liq o'r ganilmagan, ammo genetik omillar va immun tizimining buzilishi rol o'ynashi mumkin. Myastenia gravis kabi autoimmun kasalliklar bilan bog'liqligi mavjud. (Manbalar: Cleveland Clinic: Thymoma and Thymic Carcinoma; Cancer Research UK: Thymus Gland Cancer.)

Timus atrofiyasi (Timus involyutsiyasi) — bu bezning hajmi va funksiyasining kamayishi bo'lib, immun tizimining zaiflashishiga olib keladi. Involyutsiya yoshga bog'liq holda yoki turli xil omillar natijasida kelib chiqadi. Sabablari:

Yoshga bog'liq involyutsiya: insonlarda pubertat davridan keyin boshlanadi, qarish jarayonida tabiiy ravishda yuz beradi.

Stressga bog'liq involyutsiya: infeksiyalar, ochlik, gormonlar, dori vositalari ta'sirida yuzaga keladi.

-surunkali stress: glukokortikoidlar darajasining oshishi timotsitlarning apoptozini kuchaytiradi.

-infeksiyalar: masalan, gripp viruslari timus atrofiyasiga sabab bo'lishi mumkin.

-radiatsiya va kimyoterapiya: timus to'qimalariga zarar yetkazadi. (Manbalar: ScienceDirect Topics: Thymus Atrophy, Nature: Influenza-Induced Thymic Atrophy)

Involyutsyaning biokimyoviy mexanizmlari.

Yoshga bog'liq involyutsiya: FOXN1 transkripsion faktori ekspressiyasining kamayishi - timik epitelial hujayralarning differensiallanishi va proliferatsiyasi susayadi; Wnt4 signal yo'lining pasayishi - hujayra proliferatsiyasi kamayadi, apoptoz kuchayadi; Bcl-xL (antiapoptotik oqsil) darajasining pasayishi - timotsitlar va epitelial hujayralarning o'limi ortadi; Ektopik yog' to'qimalari

paydo bo‘ladi, bu timus arxitekturasi va funksiyasini buzadi. (Manba: Wei T. va boshqalar, *Molecular Medicine Reports*, 2015.)

Stressga bog‘liq involyutsiya: Glyukokortikoidlar (masalan, kortizol) darajasining oshishi - timotsitlarda apoptozni faollashtiradi; IL-7 sitokini darajasining pasayishi - T-hujayralar rivojlanishi susayadi; Cocaine kabi moddalar timik hujayralarning apoptozini kuchaytiradi va ektopik yog‘to‘qimalari rivojlanishiga olib keladi.(Manba: Unuma K. va boshqalar, *PLOS ONE*, 2022)

Involyutsyaning oqibatlari:

- naiv T-hujayralar ishlab chiqarilishi kamayadi - immunitet zaiflashadi.
- TCR repertuari torayadi yangi antigenlarga javob berish qobiliyati pasayadi.
- autoimmun kasalliklar va infeksiyalarga moyillik ortadi.

Timus giperplaziysi — bu bezning hajmi va hujayra sonining ortishi bo‘lib, ko‘pincha immun tizimining faollashuvi bilan bog‘liq. Turlari: Haqiqiy giperplaziya va limfofollikulyar giperplaziya. Haqiqiy giperplaziya - timik epitelial hujayralarning ko‘payishi bilan xarakterlanadi. Limfofollikulyar giperplaziya: limloid follikulalarning ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lib, autoimmune kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sabablari:

- autoimmun kasalliklar: myastenia gravis, Graves kasalligi.
- infeksiyalar: virusli yoki bakterial infeksiyalar.
- gormonlar: giperterioz holatlari.
- dori vositalari: kortikosteroidlar va kimyoterapiya preparatlari.

(Manbalar: NCBI Bookshelf: Thymic Hyperplasia, MedicineNet: Thymic Hyperplasia)

Timus gipoplaziysi — bu bezning yetarli darajada rivojlanmasligi bo‘lib, tug‘ma yoki ortirilgan bo‘lishi mumkin. Sabablari:

- genetik sindromlar: DiGeorge sindromi (22q11.2 delesiyasi), CHARGE sindromi.
- FOXN1 geni mutatsiyasi: timik epitelial hujayralarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.
- oziqlanish yetishmovchiligi: homiladorlik davrida yoki erta bolalikda.
- radiatsiya ta’siri: homiladorlik davrida yoki erta bolalikda. (Manbalar: Frontiers in Immunology: Causes of Human Thymic Hypoplasia, Wikipedia: Thymic Hypoplasia)

Timus apoptozi – bu hujayralarning genetik nazorat ostida o‘z-o‘zini yo‘q qilish jarayoni bo‘lib, timusda bu jarayon timotsitlar (T-limfotsitlar prekursorlari) va timik epitelial hujayralarda sodir bo‘ladi. Bu jarayon markaziy toleransiyani ta’minlaydi, ya’ni o‘z antigenlariga yuqori affinitetli T-hujayralarni yo‘q qiladi hamda timus involyutsiyasi (atrofiyasi) jarayonida asosiy rol o‘ynaydi. (Manba: Wikipedia, *Immunosenescence*)

**Xulosa.** Timus ko‘plab kasalliklarda markaziy nishon organ sifatida ishtirok etadi. Uning morofunksional o‘zgarishlari immun javobni shakllantirish va saqlash jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun timik salomatlikni saqlash, ayniqsa bolalik va o‘smirlik davrida, immunologik holatni barqaror ushlab turish uchun muhim omildir. Timik regeneratsiya, sirtuinlar va NAD<sup>+</sup> metabolizmini o‘rganish orqali qarishga qarshi strategiyalar ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek, genetik muvozanatni tiklovchi terapiyalar, timus transplantatsiyasi, va AIRE gen modulyatsiyasi asosida timik disfunksiya bilan bog‘liq autoimmune kasalliklar va immun yetishmovchiliklarni tuzatish istiqbollari mavjud. Timus salomatligini saqlab qolish yoki uni regeneratsiyalash yo’llarini aniqlash, ayniqsa bolalarda, immunologik profilaktika va davolashda muhim o‘rin tutadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Savino W., et al. The thymus is a common target in infectious diseases. PLoS Pathog. 2006;2(6):e62.
2. Gu J., Gong E., et al. Multiple organ infection and the pathogenesis of SARS. J Exp Med.

- 2005;202(3):415–424.
3. Nikolich-Zugich J. Thymic involution and immune reconstitution. *Trends Immunol.* 2008;29(7):366–373.
  4. Marx A., Pfister F., Schalke B. Autoimmunity and thymus histology in myasthenia gravis. *Autoimmun Rev.* 2013;12(9):875–881.
  5. Markert ML. Thymus transplantation for complete DiGeorge anomaly. *Immunol Res.* 2007;38(1-3):105–112.
  6. Notarangelo L. Primary immunodeficiencies. *J Allergy Clin Immunol.* 2010;125(2 Suppl 2):S182–194.
  7. Taub DD., Longo DL. Insights into thymic aging and regeneration. *Immunol Rev.* 2005;205:72–93.
  8. Gruver AL., Hudson LL., Sempowski GD. Immunosenescence of ageing. *J Pathol.* 2007;211(2):144–156.
  9. Palmer DB. The effect of age on thymic function. *Front Immunol.* 2013;4:316.
  10. Haynes BF, Sempowski GD. Impact of aging on the immune system: implications for immunotherapy. *Immunol Rev.* 2000;175:173–186.
  11. Aw D., Silva AB., Palmer DB. Immunosenescence: emerging challenges for an ageing population. *Immunology.* 2007;120(4):435–446.
  12. Youm YH, et al. The ketone metabolite  $\beta$ -hydroxybutyrate blocks NLRP3 inflammasome-mediated inflammatory disease. *Nat Med.* 2015;21(3):263–269.
  13. Goldberg GL, et al. Thymic epithelial cell differentiation and the control of thymus architecture and function. *Int J Dev Biol.* 2007;51(6-7):565–572.
  14. Jenkinson EJ, Anderson G. Fetal thymic organ culture. *Curr Opin Immunol.* 1994;6(2):293–297.
  15. Rossi SW, Jenkinson WE, Anderson G, Jenkinson EJ. Clonal analysis reveals a common progenitor for thymic cortical and medullary epithelium. *Nature.* 2006;441(7096):988–991.
  16. Yui MA, Rothenberg EV. Developmental gene networks: a triathlon on the course to T cell identity. *Nat Rev Immunol.* 2014;14(8):529–545.
  17. Rode I, et al. Foxn1 protein expression in the developing, aging, and regenerating thymus. *J Immunol.* 2015;195(2):567–575.

## INNOVATSIYON TEXNOLOGIYA YARDAMIDA FARMATSITA TALABALARIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYANI QO'LLASH METODIKASI

Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi (DSc)

**Annotatsiya.** Tibbiyat oliy ta'lif muassasalarida Farmatsiya talabalarga biokimyo fanini o'qitishda ilm-fanni o'rganish davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini o'qitish yordamida ilm-fan sohasidagi qiziqishlarini bilimlarga tayangan holda raqamli texnologiyani qo'llash metodikasini takomillashtirish.

**Kalit so'zlar:** raqami texnologiya, innovatsion texnologiyalar, virtual, virtual dastur, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish sikli, 3D formatli virtual ta'lif texnologiyalari tuzilmasi, virtual metod, virtual texnologiya.

### МЕТОДОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ К СТУДЕНТАМ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОГО ВУЗА С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация.** Совершенствование методики применения цифровых технологий к студентам фармацевтического вуза при изучении биохимии с использованием современных педагогических технологий для развития их интересов в области науки.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, инновационные технологии, виртуальный, виртуальная программа, цикл разработки инновационных технологий, структура 3D виртуальных образовательных технологий, виртуальный метод, виртуальная технология.

### METHODOLOGY OF APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGY TO PHARMACY STUDENTS WITH THE HELP OF INNOVATIVE TECHNOLOGY

**Abstract.** Improving the methodology of applying digital technology to pharmacy students in higher medical educational institutions during the study of biochemistry, using modern pedagogical technologies to develop their interests in the field of science.

**Keywords:** digital technology, innovative technologies, virtual, virtual program, innovative technology development cycle, structure of 3D virtual educational technologies, virtual method, virtual technology.

**Kirish.** Jahonda ta'lif muassasalarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanishi bilan pedagoglarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlar asosida o'qitish metodlarini ishlab chiqishini talab etadi. Zamon talabiga mos pedagoglar o'quv jarayonida ta'lif vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o'zgarishi, pedagogik faoliyatda o'qitish metodlarining takomillashuviga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi PQ-289-son qarorining 2 d) bandida “2024 yil 1 sentyabrga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalarining o'quv jarayoniga talabalarda mustaqil ta'lif olish, tizimli tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalarni joriy qilish” vazifasi belgilangan.

**Adabiyotlar taxlili.** O.Obidov, A.A.Jurayeva, G.Yu.Malikovalarning “Biologik kimyo” darsligini maqsadi talabalarga tirik organizmning kimyoviy tarkibi va molekulyar jarayonlari to'g'risidagi bilimlarni normal va patologik holatlardagi sifat-miqdoriy o'zgarishlarini o'zlashtirib, ularni o'z kasb faoliyatida to'g'ri talqin etishga o'rgatish jarayonida axborotlar bilan ishslash kompetentligi ta'lif jarayonida foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini va fanni yanada o'rganish

jarayonida qanchalik ahamiyatli ekanligini asoslab berishgan

Bugungi zamonaliv tibbiyot oliy ta’lim mussasalarida biokimyo fanini o‘qitishda talabalarda innovatsiyon texnologiyani rivojlantirish axborot va bilimlarni raqamli vositalardan foydalangan holda egallashi barchaga ma’lum. Shu sababli ham og‘zaki ma’lumotlarga qaraganda ko‘proq vizual ma’lumotlarga e’tibor qaratamiz. Aksariyat odamlar uchun televizor va mobil aloqa vositalari asosiy axborot manbai hisoblanadi. Vizual tasvirlar bilan tibbiyot oliy ta’lim mussasalarida endokrinologiya fanini o‘qitishda talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada esa olingan bilimlarning ko‘proq qismi bilimlarga, ma’lumotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda deyishimiz mumkin. Ko‘p holatlarda esa bilimlarni yoki axborotlarni aniq va ilmiy deb qarab bo‘lmaydi.

Ushbu didaktik vazifalarni amalga oshirish uchun Internet tarmog‘ida virtual ta’lim platformasini yaratish lozim. Uning tarkibida quyidagilar mujassamlashgan bo‘lishi zarur:

uslubiy – normativ (o‘quv rejasi, dastur);

axborot-ta’lim (elektron ko‘rinishdagi ma’ruzalar matni, elektron qisqa ma’ruzalar qaydlari, darslikning elektron matni, multimediali ilovalar, elektron ilmiy qo’llanmalar);


axborot – ko‘maklashuvchi (lug‘atlar, taqdimotlar);

amaliyotga yo‘naltirilgan (talabalarning mustaqil ishlashlari uchun vazifalar, virtual laboratoriya va amaliy ishlari, metodik ko‘rsatmalar va bosh.);

nazorat-diagnostika (o‘zini- o‘zi nazorat qilish uchun vazifalar);

monitoring qiluvchi funksiya (nazorat ishi savollari va vazifalari, kurs ishlari, referatlar mavzulari, test savollari).

Yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarning yechimi bir qator o‘ziga xos talab va sharoitlarga bog‘liq. Ya’ni, virtual ta’lim texnologiyalarini yaratishning didaktik, psixologik va psixofiziologik talab hamda tamoyillariga tayangan holda quyidagi virtual ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish lozim (1-rasmga qarang).



1-rasm. Biokimyo fanidan virtual ta’lim texnologiyalarining tashkiliy vositalari

Ushbu 1-rasmda ko‘rsatilgan virtual ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirishda ishchi jamoa turli xil mutaxassislardan tashkil topishi, ya’ni, biologiya, pedagogika va psixologiya fani professor-o‘qituvchilari dasturchi hamda dizayner bo‘lishi talab etiladi. Mazkur jamoa yordamida biokimyo fanidan talabalar uchun pedagogik va psixologik jihatdan to‘liq javob beruvchi virtual ta’lim texnologiyalarini yaratish imkoniyati tug‘iladi.

Shuning uchun virtual ta’limni loyihalashtirishda, ilmiy jihatdan asoslangan talablar, tamoyillar hamda yaratish bosqichlariga tayanish zarur hisoblanadi.

Yaratilayotgan virtual ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayoni samaradorligining oshirilishiga qaratilgan bo‘lib, faqat shu sohaga zarur bo‘lgan va talab etilgan qismini kompyuterlashtirish jarayoniga kiritish lozim. Zarur bo‘lgan qismlarda ma’lum bir sohaga yo‘naltirilishga alohida e’tibor

qaratish kerak bo‘lib, o‘quv ma’lumotni aynan belgilangan qismini virtual shaklga keltirishni talab etadi[5].

Bunga o‘quv ma’lumotni taqsimlash, ya’ni barcha berilgan matnda muhim qismlarini belgilab chiqish – modullarini (yoki bloklarini), qismlarini (yoki bo‘limlarini), boblarini (yoki mavzularini), paragraflarini va undan keyingi qismlarga ajratish lozim. Bu borada, A.Y.Uvarov elektron ta’lim resurslarini va virtual ta’lim texnologiyalarini yaratish, uni ta’lim tizimiga joriy etish uchun quyidagi bosqichlarni ishlab chiqqan [4]:

tahlil (talablarni o‘qitishning qay darajada nazorat qilinishi, o‘qitishning maqsadlari);


loyihalashtirish (rejaning tayyorlanishi, asosiy yechimlar tanlovi, ssenariy tuzish);

ishlab chiqish (reja, ssenariy);

qo’llash (o‘quv materiallaridan o‘quv jarayonida foydalanish);

baholash (o‘quv resursining natijalari baholanadi va elektron ta’lim resurslarining kamchiliklari aniqlanadi).

Bizning fikrimizcha, endokrinologiya fanidan zamon talablariga mos virtual ta’lim texnologiyalarini yaratish quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim (2-rasmga qarang):




2-rasm. Virtual ta’lim texnologiyalari tuzilmasi

Ushbu bosqich asosida o‘quv ma’lumotni tayyorlanishi, qabul qilishi va taqdim etish uchun zamonaviy o‘quv ilmiy kurslariga yo‘nalishni namoyon qiladi. Bu yerda, o‘quv faoliyatini yanada kengroq yoritilishini, tuzilishini oldindan bilish talab etiladi. Ko‘plab holatlarda virtual ta’lim texnologiyalari pedagogik talablarga amal qilmagan holda yaratilishi tufayli asosiy maqsadga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun virtual ta’lim texnologiyalari matnini shakllantirish vaqtida asosiy qismlarni belgilab, asosiy tushunchalarini ajratgan holda yaratish talab etiladi [7].

### Dasturlashtirilgan o‘qitish uchun topshiriqlar.

Biokimyo fani darslarida dasturlashtirilgan o‘qitish elementlari. Hozirgi vaqtda talabalarning idrok qilish faoliyatları va bilimlarini tekshirish maqsadida tibbiyot oliy ta’lim mussasalarida endokrinologiya fanini o‘qitishda talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini rivojlantirishdagi mustaqilligiga va o‘quv axborotlarini qabul qilish hamda qayta ishlashlarini tashkil qilishga yordam beruvchi dasturiy vositalarning didaktik ta’midotidan foydalaniadi.

Dasturlashtirilgan elementlarni tatbiq qilishda an'anaviy o'qitishni dasturlashtirilgan o'qitishga qarama-qarshi qo'yish, yangini deb an'anaviy qabul qilingan metodlardan voz kechish kerak emas. Har ikkala yo'nalish chambarchas bog'langan bo'lishi va bir-birini to'ldirishi zarur. O'qitish sifatini oshishiga yordam beruvchi talabalar bilimini faol nazorat qilishning yangi shakllarini ishlab chiqish endokrinologiya fanidan dasturlashtirilgan elementlardan foydalanishning boshlanishi bo'ldi, chunki muntazam nazoratning eski shakllari ko'pincha dars tuzilishini buzib, unumsiz fakt yo'qotilishiga olib kelib, o'qituvchilarda qiyinchiliklar tug'dirdi. Nazorat topshiriqlarni dasturlashtirish tamoyili talabalarning og'zaki javoblarini shartli ifodalar – raqam yoki chiziq bo'laklari ko'rinishidagi javoblar bilan almashtirishdan iboratdir. Ularning afzalligi shundaki, ular o'tilgan dars tur materialini har bir talaba tomonidan odatdagagi tekshirishdagiga qaraganda ko'p hajmda o'zlashtirish darajasini qisqa vaqt ichida aniqlashga imkon beradi. Tajriba bilimlarni hisobga olishning dasturlashtirilgan uslublaridan endokrinologiya fanidan talabalarning idrok qilish faoliyatlarini faollashtirish maqsadida foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Uning afzalligi yana shundaki, o'quv materialini o'zlashtirish darajasini hatto talabalarning o'zlari tushuntirishdan keyin dars vaqtida yoki keyinroq tekshirishlari mumkin (3-rasmga qarang).



3-rasm. Biokimyo fanini o'rganishdagi dasturlashtirilgan o'qitish uchun topshiriqlar majmuvi

**Zamonaviy innovatsion texnologik metodika.** R.A.Sabirova, N.M. Yuldashevlarining "Biokimyo" o'quv qo'llanmani 1-qismda biokimyo va molekulyar biologiyaning asosiy tamoyil bayon qilingan. Shuningdek, fundamental biokimyo tamoyillaridan tashqari, ba'zi patalogik holatlaming biokimyoviy asoslari ham berilganki, bu tibbiyot instituti talabalarini ushbu kasalliklaming klinik ko'rinishlari hamda biokimyoviy jarayonlaming buzilishining oqibatlari bilan tanishtirish imkonini beradi. Tavsiya etilayotgan darslik dinamik biokimyo masalalari, ya'ni moddalar almashinushi (metabolizm) va uni boshqaruv masalalariga bag'ishlangan. Shu bilan birlashtirilgan o'quv qo'llanmada tibbiyot oliy o'quv yurtlarida biokimyo fani o'qitish metodikasining umumiyligi masalalari, uning predmeti va metodlari, mazmuni va vazifalari hamda kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni keng yoritilgan. Shuningdek, umumiy biokimyo kursi bo'yicha talabalarning o'quv ishlarini uysushtirish, nazariy va metodik tayyorgarligini kuchaytirish masalalari batafsil bayon qilingan.

Raqamli ta'lrim muhitida biokimyo fanini o'qitishda kreativ kompetentligini rivojlantirish asosida mavjud fikrlar shuni ko'rsatadiki, tibbiyot oliy ta'linda sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ulardan samarali foydalanish talabalarni biokimyo faniga qiziqishi va faolligini rag'batlantirishga yordam beradi, hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro ta'sir va muloqotning turli shakllariga erishish imkonini beradi. Zounek (2009) Raqamli ta'lrim muhitida biokimyo fanini o'qitishda kreativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida qo'llab-quvvatlashni quyidagi bandlarda eslatib o'tadi(4-rasm):

Raqamli ta’lim muhitida biokimyo faniga doir g‘oyalar, tushunchalar hamda fikrlarini ifodalashda, talabalarni o‘zлari tomonidan multimedia ma’lumotlar bazasini ishlab chiqishda bilimlarni qurishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ishlaydi

Zamonaviy texnologiyalar biokimyo fanidagi bilimlarni tadqiq etishda axborot manbai sifatida qo‘llash mumkin, ular raqamli texnologiyalar orqali o‘rganish bilan qo‘llab-quvvatlanadi, masalan kerak ma’lumotlarni olishda, fikr, nuqtai nazar hamda dunyoqarashni solishtirish

Raqamli texnologiyalar o‘rganishni qo‘llab-quvvatlovchi biokimyo faniga doir bilimlarni yaratishi mumkin - real dunyo muammolari, vaziyatlar va kontekstlarni taqdim etish vasimulyasiya qilish

4-rasm. Raqamli ta’lim muhitida biokimyo fanini o‘qitishda kreativ kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari

Shuningdek, tibbiyat ta’lim muassasalarida biokimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish, samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar, dissertatsiyalar, monografiyalar tahlil qilindi.

Zamonaviy ta’limni amalga oshirishning yana bir zaruriy sharti o‘quv fanlari bo‘yicha axborot manbalari, shu jumladan, yangi axborot texnologiyalarining tez va qulay foydalanish imkonini beruvchi turlaridan har bir talaba va o‘qituvchi erkin foydalana oladigan sharoit yaratishdan iborat. Ya’ni, hozirda sifatli ta’lim berish uchun an’anaviy ikki tomon: o‘qituvchi talabaga zarur axborotlarni yetkazib turuvchi xizmatdan iborat faoliyatni tashkil qilish zarur. Bu yo‘nalish axborot texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy qilish yo‘nalishi deb nomlanadi. Shu axborotlarni talabalar tushuna oladigan mantiqiy shakllarda ifodalash talaba bilan o‘qituvchining verbal muloqotini tashkil qiladi.

Shuningdek, innovatsion jarayonlarning muhim xususiyati shundaki, ular ta’lim tizimidagi dolzarb vazifalarni samarali hal qilishga ko‘maklashishi kerak. Aksariyat hollarda bunga yetarli e’tibor berilmaydi, natijada yangiliklarning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratory - information in education a specific factor of the communication system in the form // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN:2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5, 2022. p. 92–95. <https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/614>
2. Mamadaliyeva Z.R. Methodology for determining the level of bilirubin in the blood in a biochemical analyzer in a Virtual laboratory method // International conference on advance research

in humanities, sciences and education. England. 2023.Vol.1, №1.p.20 <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/371>

3. Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyat oliy ta’lim muassasalarida localhost dasturi asosida biokimyo fanini virtual laboratoriyalardan foydalanib o‘qitish // The role of exact sciences the era of modern development. Nukus. Vol.1 №.1, 2023. p. 47-51. <https://uzresearchers.com/index.php/RESMD/article/view/765/703>

4. Мамадалиева З.Р. Виртуал лаборатория ишларидан ўкув сифатиниошириш элементи сифатида фойдаланиш. // “Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi” respublika ko‘p tarmoqli, ilmiy konferensiya. Andijan. №9, 2023. -Б. 108-111. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/28/45>

5. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratoriya usilida qonda xolesterin miqdorini biokimoviy analizatorda aniqlash // “Biologik kimyo fanining zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni-kecha, bugun va erta” respublika ilmiy-amaliy konferentsiya to‘plami. Buxoro, 2022. -б. 113-114.

6. Mamadaliyeva Z.R. Improving the quality of learning through virtual laboratory work use as element // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN: 2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5 2022. p. 84-86. <https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/612>

7. **Мамадалиева З.Р. Тиббиёт олий таълим ташкилотларида биокимё фанини виртуал лабораториялардан фойдаланиб булатли технологияларнинг тарқатиш моделлари методикаси // «Science and Education» scientific journal.** ISSN 2181-0842, Toshkent. SJIF(2023):3,848. vol.4 2023. -б. 1227-1233. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5196>

8. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratory - information in education a specific factor of the communication system in the form // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN:2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5, 2022. p. 92–95. <https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/614>

**TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TIBBIY BIOKIMYO FANINI  
MODULLI O'QITISH TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI  
Murtazayeva Nasiba Komiljonovna**

Toshkent davlat pedagogika uneversiteti mustakil tadkikotchisi

**Annotasiya.** Tibbiyoti yuqori texnologiyalar, aniq tashxis va samarali davolash usullariga asoslangan. Bunday tizimda ishlardigan shifokor yuqori kasbiy bilim, amaliyat ko'nikmalari va mustaqil tahlil qilish salohiyatiga ega bo'lishi zarur. Bunday kadrlarni tayyorlashda ta'lif texnologiyalarini isloq qilish,

**Kalit so'zlar:** modulli o'qitish texnologiyalar, klinik fikrlash, modul, elektron resurslar, innovasiya, Google Classroom.

**ЗНАЧЕНИЕ МОДУЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ  
БИОХИМИИ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ**

**Аннотация.** Подготовка таких высококвалифицированных кадров требует реформирования образовательных технологий, внедрения интерактивных методов и создания учебной среды, приближенной к практике. В данной статье рассматривается значение модернизации образовательных технологий в подготовке врачей в медицинских вузах и анализируются факторы, влияющие на этот процесс.

**Ключевые слова:** модульные образовательные технологии, клиническое мышление, модуль, электронные ресурсы, инновации, Google Classroom.

**THE IMPORTANCE OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGIES IN THE  
SUBJECT OF MEDICAL BIOCHEMISTRY AT MEDICAL HIGHER EDUCATION  
INSTITUTIONS**

**Abstract.** Modern medicine is based on high technologies, accurate diagnostics, and effective treatment methods. To work successfully in such a system, a physician must possess a high level of professional knowledge, practical skills, and the ability to analyze independently. In addition, the development of clinical thinking and the implementation of innovative approaches are essential for making correct decisions in complex clinical situations. The training of such highly qualified specialists requires the reform of educational technologies, the introduction of interactive methods, and the creation of a learning environment close to real clinical practice. This article examines the importance of modernizing educational technologies in the training of physicians in medical universities and analyzes the factors influencing this process.

**Keywords:** modular educational technologies, clinical thinking, module, electronic resources, innovations, Google Classroom.

Zamonaviy tibbiyot ta'lida talabalarni yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash uchun ta'lif jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fundamental fanlardan biri — tibbiy biokimyoni o'qitishda modulli o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanish bu fanni chuqur o'zlashtirishda, klinik fikrlashni shakllantirishda va mustaqil ta'limga intilishni kuchaytirishda muhim rol o'yndaydi.

Modulli o'qitish texnologiyasining nazariy asoslari.

Modulli o'qitish - bu ta'lif jarayonini ma'lum mavzular asosida yiriklashtirilgan, mantiqan yaxlit qismlarga (modullarga) ajratish, har bir modulda nazariy va amaliy bilimlar, mashg'ulotlar, testlar va mustaqil ishlarni kompleks ravishda birlashtirish asosida tashkil etiladi. Bu texnologiya

talabalarning mustaqil bilim olishini, mantiqiy fikrlashini va amaliyatga tayyorligini kuchaytiradi. Modulli o'qitish texnologiyasi ta'lif jarayonini tuzilgan, tuzilmali, maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil qilishni nazarda tutadi. Har bir modulda:

O'quv maqsadlari aniq belgilanadi.

Talabalarga mos materiallar taqdim etiladi.

Nozik tahlil va amaliy mashg'ulotlar o'rinn oladi.

Bilimni baholash usullari (test, keys, laboratoriya ishi va boshqalar) kiritiladi. Bu yondashuv Blum taksonomiyasi (Bloom's Taxonomy) asosida: bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlarini qamrab oladi.

Tibbiy biokimyoda modulli o'qitishning amaliy foydalari. Fanlararo bog'lanishni mustahkamlaydi. Biokimyo – fiziologiya, patologiya, farmakologiya va klinik fanlar bilan chambarchas bog'liq. Modul asosida ta'lifda bu bog'lanishlar yoritilib, fanning amaliyotdagi ahamiyati yorqin namoyon bo'ladi.

Kasbiy tafakkurni rivojlantiradi. Tibbiy holatlarni biokimyoviy tahlil qilish, laboratoriya natijalarini talqin qilish, diagnostika va shifokorlik qarorlarini qabul qilish jarayonlari o'quvchilarning klinik fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Mustaqil ta'lifni qo'llab-quvvatlaydi Elektron resurslar, Moodle, Google Classroom va boshqa platformalarda modul materiallarini joylash orqali talabalarning o'zlashtirish jarayoni samaradorligi ortadi.

Differensial yondashuv imkonini yaratadi. Talabalar o'z qobiliyati va qiziqishiga qarab modulni o'rganish sur'atini o'zlashtira oladi, bu esa individual yondashuvni ta'minlaydi.

Modulli o'qitishda zamonaviy vositalardan foydalanish. Interaktiv platforma va dasturlar: elektron darsliklar, biokimyoviy simulyatorlar, videoleksiyalar.

Multimedia vositalari: 3D-organlar, virtual laboratoriylar. Onlayn baholash tizimlari: real-time testlar, viktorinalar, taymer bilan onlayn nazorat ishlari.

Qiyinchiliklar va yechimlar:

tahsil oluvchilarning passivligi;

o'qituvchilarning yetarlicha tayyor emasligi;

moddiy-texnik baza murakkabligi.

Yechimlar:

o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etish;

ta'lif jarayoniga klinik shifokorlarni jalb qilish;

elektron ta'lif resurslarini yaratish va ommalashtirish.

Tibbiy biokimyoda modulli o'qitishning afzalliklari. Fanning yaxlit o'zlashtirilishi – biokimyo nazariy bilimlarining klinik faoliyat bilan bog'liqligini aniq ko'rsatishga imkon beradi.

Faol o'quv usullari – keys-stadi, test topshiriqlari, klinik vaziyatlarni tahlil qilish kabi yondashuvlar orqali o'quv jarayoni jonli va ta'sirli kechadi.

Talabalarda mustaqil izlanish qobiliyati shakllanadi – har bir moduldan so'ng talabalarga beriladigan topshiriqlar orqali izlanish, tahlil qilish, natija chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

Amaliy ko'nikmalarga e'tibor oshadi – biokimyoviy tahlillarni qo'llash, laboratoriya natijalarini baholash va tahlil qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Bilimni baholashda xolislik va aniqlik ta'minlanadi – modul yakunida test, yozma va amaliy imtihonlar o'tkazilishi bilimning qay darajada o'zlashtirilganini obyektiv baholashga yordam beradi.

**Xulosa.** Tibbiy biokimyo fanini modulli o'qitish texnologiyalari asosida tashkil etish talabalarda fanga nisbatan qiziqishni oshiradi, fanni yaxlit va chuqur o'zlashtirish, klinik ko'nikmalarni shakllantirish, mustaqil izlanuvchan mutaxassislarni yetishtirishda katta ahamiyatga

ega. Ularning kasbiy fikrlashini va amaliyotga tayyorgarligini kuchaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy tibbiyotning talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar yetishib chiqishiga zamin yaratadi. Shuning uchun ham, modulli o‘qitish texnologiyalarini tibbiyot ta’limida keng joriy etish — dolzarb va muhim vazifa hisoblanadi. Bu metodologiya zamonaviy tibbiyotning talablariga javob beradigan bilimli, salohiyatli va yuqori malakali shifokorlarni tayyorlashda muhim poydevor hisoblanadi.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Назаров Ш.Х. «Тиббий биокимё», Тошкент, 2021.
2. Байкулов А. К., Муртазаева Н. К., Тошбоев Ф. Н. Динамика влияния лактатдегидрогеназы при экспериментальном инфаркте миокарда //World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 244-251.Khan Academy – Biochemistry Modules (online resource).
3. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratory - information in education a specific factor of the communication system in the form // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN:2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5, 2022. p. 92–95. <https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/614>
4. Mamadaliyeva Z.R. Methodology for determining the level of bilirubin in the blood in a biochemical analyzer in a Virtual laboratory method // International conference on advance research in humanities, sciences and education. England. 2023.Vol.1,№1.p.20.<https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/371>
5. Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyot olyi ta’lim muassasalarida localhost dasturi asosida biokimyo fanini virtual laboratoriyalardan foydalanib o‘qitish // The role of exact sciences the era of modern development. Nukus. Vol.1 №.1, 2023. p. 47-51. <https://uzresearchers.com/index.php/RESMD/article/view/765/703>
6. Мамадалиева З.Р. Виртуал лаборатория ишларидан ўкув сифатинишириш элементи сифатида фойдаланиш. // “Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi” respublika ko‘p tarmoqli, ilmiy konferensiya. Andijan. №9, 2023. -Б. 108-111. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/28/45>
7. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratoriya usilida qonda xolesterin miqdorini biokimyoviy analizatorda aniqlash // “Biologik kimyo fanining zamonaviy tibbiyotdagি o‘rni-kecha, bugun va erta” respublika ilmiy-amaliy konferentsiya to‘plami. Buxoro, 2022. -б. 113-114.
8. Mamadaliyeva Z.R. Improving the quality of learning through virtual laboratory work use as element // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN: 2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5 2022. p. 84-86. <https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/612>
9. Мамадалиева З.Р. Тиббиёт олий таълим ташкилотларида биокимё фанини виртуал лабораториялардан фойдаланиб булатли технологияларнинг тарқатиш моделлари методикаси // “Science and Education” scientific journal. ISSN 2181-0842, Toshkent. SJIF(2023):3,848. vol.4 2023. -б. 1227-1233. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5196>

## AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB UGLEVODLAR ALMASHI- NUVI MAVZUSINI O'QITILISHINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidmurodova Zarifa Azamatovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, assistent

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali “Uglevodlar almashinuvi” mavzusini o‘qitishni takomillashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy raqamli vositalar, interaktiv ta’lim platformalari va vizualizatsiya usullari yordamida talabalarning mavzuga oid bilim va ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yo’llari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini integratsiya qilishning afzallikkleri va amaliy natijalari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** uglevodlar almashinuvi, axborot texnologiyalari, tibbiy ta’lim, interaktiv o‘qitish, raqamli vositalar

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ «ОБМЕН УГЛЕВОДОВ» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются возможности совершенствования преподавания темы «Обмен углеводов» с использованием информационных технологий. Представлены методы эффективного формирования знаний и навыков студентов с применением современных цифровых инструментов, интерактивных обучающих платформ и визуализации. Также проанализированы преимущества и практические результаты интеграции информационных технологий в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** обмен углеводов, информационные технологии, медицинское образование, интерактивное обучение, цифровые инструменты

## IMPROVING THE TEACHING OF THE TOPIC “CARBOHYDRATE METABOLISM” USING INFORMATION TECHNOLOGIES

**Abstract.** This article explores the possibilities of improving the teaching of the topic “Carbohydrate Metabolism” through the use of information technologies. It presents effective methods for developing students’ knowledge and skills using modern digital tools, interactive learning platforms, and visualization techniques. The advantages and practical outcomes of integrating information technologies into the educational process are also analyzed.

**Keywords:** carbohydrate metabolism, information technology, medical education, interactive learning, digital tools

**Kirish.** Axborot texnologiyalaridan foydalanib uglevodlar almashinuvi mavzusini o‘qitishni takomillashtirish biologiya va tibbiyot ta’limida samarali yondashuv bo‘lib, interaktiv va zamonaviy usullar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, mavzuni chuqur tushunish va bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar va axborot texnologiyalarning o‘qitish jarayonidagi ahamiyati, shu jumladan Croskerry va Norman va boshqalar asarlariga asoslangan diagnostik kompetensiya elementlari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi[1].

Uglevodlar almashinuvi biologiya va tibbiyot fanlarida muhim mavzu bo‘lib, u organizmdagi energiya ishlab chiqarish jarayonlari, glikoliz, krebs sikli va oksidativ fosforillanish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu mavzuni o‘qitishda an’anaviy usullar (masalan, darsliklar va ma’ruzalar) ko‘pincha talabalarda mavzuni to‘liq tushunish va vizualizatsiya qilishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Axborot texnologiyalari ushbu muammoni hal qilishda muhim vosita sifatida

xizmat qiladi, chunki ular o'quv jarayonini interaktiv, vizual va tizimli tashkil qilishda muxim hisoblaniadi[2,3].

Axborot texnologiyalaridan foydalanish uglevodlar almashinuvi kabi murakkab biologik mavzularni o'qitishda samarali yondashuv bo'lib, o'quv jarayonini yanada interaktiv va tushunarli qiladi. Masalan, interaktivlik orqali multimedia dasturlari va uch d animatsiyalar yordamida glikoliz jarayonining molekulyar bosqichlari vizual tarzda talabalarga taqdim etiladi, bu esa Krebs sikli kabi jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi. Moslashuvchanlik tufayli elektron ta'lim resurslari, masalan, interaktiv testlar, talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilib, ularning bilim darajasini aniqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi, bu diagnostik kompetensiyaning ma'lumot yig'ish elementiga mos keladi. Samaradorlik jihatidan kompyuter asosidagi virtual laboratoriylar talabalarga xavfsiz muhitda tajriba o'tkazish imkonini beradi, bu esa an'anaviy laboratoriya resurslariga ehtiyojni kamaytiradi. Nihoyat, kognitiv xatolarni minimallashtirish uchun axborot texnologiyalar yordamida taqdim etilgan aniq va tizimli ma'lumotlar talabalarning noto'g'ri tushunchalarini bar-taraf etadi, bu Croskerry tomonidan ta'kidlangan diagnostik xatolarni oldini olish strategiyasiga to'liq mos keladi. Masalan, virtual simulyatsiya orqali talaba glukoza parchalanishini sinab ko'rib, xato tushunchalarni guruh muhokamasida tuzatishi mumkin, bu esa bilimni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi[4].

**Tadqiqot davomida foydalanilgan metodlar.** Tadqiqot davomida turli xildagi axborot texnologiyalardan foydalanildi. Ushbu tadqiqotda "Uglevodlar almashinuvi" mavzusini o'qitishni axborot texnologiyalari yordamida takomillashtirish maqsadida bir nechta metodlar qo'llanildi, ular birlgilikda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Tahliliy metod yordamida mavzu tibbiy-biokimyoviy nuqtai nazardan o'rganilib, uning ta'limdagisi ahamiyati aniqlandi, bu esa o'quv dasturini tuzishda asos bo'ldi. Pedagogik tajriba doirasida maqsadli guruhlarda vositalari, jumladan, prezентatsiyalar, interaktiv simulyatorlar, videodarslar va onlayn test tizimlari joriy etilib, eksperimental o'qitish olib borildi. Taqqoslash va solishtirish metodi orqali an'anaviy usulda o'tilgan darslar bilan axborot texnologiyalari asosida o'tilgan darslarning samaradorligi solishtirildi, bu esa o'quv jarayonidagi farqlarni aniqlashga yordam berdi. So'rovnoma va testlar yordamida talabalarning mavzuni tushunish darjasini, qiziqishi va darsdagi faolligi baholandi, bu jarayon diagnostik kompetensiyaning ma'lumot yig'ish elementiga mos keldi. Nihoyat, statistik tahlil Excel va SPSS dasturlari yordamida olingan natijalarni tahlil qilib, axborot texnologiyaning ta'lim samaradorligiga ta'sirini raqamli ko'rsatkichlar asosida tasdiqladi. Masalan, interaktiv simulyatorlar yordamida o'qitilgan guruhlarda talabalarning glikoliz va Krebs siklini tushunish darjasini an'anaviy guruhga nisbatan yuqori bo'ldi, bu esa axborot texnologiyaning o'qitishdagi afzalliklarini ko'rsatdi[2].

**Natijalar.** Rajabov va boshqalarni ilmiy tadqiqotlarida axborot texnologiyalari vositalari uglevodlar almashinuvi mavzusini o'qitishni takomillashtirishda muhim rol o'yndi, chunki ular o'quv jarayonini vizual, interaktiv va tizimli qiladi. Masalan, multimedia dasturlari, jumladan, Bio-Man Biology platformasidagi animatsiyalar va videolar, glukoza parchalanishi yoki Krebs sikli kabi biokimyoviy jarayonlarni uch d formatda ko'rsatib, talabalarga mavzuni oson tushunish imkonini beradi[5].

Virtual laboratoriylar, masalan, Simulations yoki Labster texnologiyalari, talabalarga glikoliz yoki ferment faolligini virtual muhitda sinab ko'rish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa diagnostik kompetensiyaning texnologik vositalardan foydalanish elementini rivojlantiradi. Ma'lumotlar bazalari va elektron resurslar, xususan, PubChem va KEGG Pathway, uglevodlar almashinuvi bilan bog'liq molekulyar ma'lumotlarni taqdim etib, talabalarga mavzuni chuqur tahlil qilishda foydalaniladi. Suniy intellect asosida yaratilgan o'quv dasturlari, masalan, adaptiv test tizimlari,

talabalarning bilim darajasini baholashni osonlashtiradi. Onlayn platformalar, masalan, Moodle yoki Google Classroom, o'qituvchilarga dars materiallarini va testlarni boshqarish imkonini beradi, bu o'quv jarayonini tizimlashtiradi. Ushbu vositalar birgalikda ishlaganda, masalan, talaba virtual laboratoriyada glikolizni o'rganib, natijalarni biologic boshqa ma'lumotlar bazasi bilan solishtirib, adaptiv test orqali bilimini mustahkamlashi va Moodle platformasida muhokama qilishi mumkin, bu esa o'quv jarayonini yanada samarali qiladi[6].

Uglevodlar almashinuvi mavzusini o'qitishda virtual simulyatsiya orqali qo'llaniladigan yondashuv talabalarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkonini beradi, bu esa diagnostik kompetensiyaning asosiy elementlarini qamrab oladi. Masalan, ma'lumot yig'ish bosqichida talabalar virtual laboratoriyada glikoliz jarayonini simulyatsiya qilib, glukoza molekulasing ATP ishlab chiqarishdagi rolini o'rganadi. Analitik fikrlash doirasida ular turli sharoitlarda, masalan, kislorod yetishmasligi yoki ferment inhibisyasi holatlarida jarayonning qanday o'zgar ganini tahlil qiladi. Xatolarni minimallashtirish uchun simulyatsiya natijalari guruhda muhokama qilinib, talabalar noto'g'ri xulosalardan qochadi, bu Croskerry ta'kidlagan kognitiv xatolarni oldini olish strategiyasiga mos keladi. Nihoyat, texnologik vositalardan foydalanish sifatida 3D animatsiyalar va interaktiv diagrammalar Krebs siklidagi molekulyar o'zgarishlarni vizualizatsiya qiladi, bu esa talabalarga jarayonni chuqur tushunishga yordam beradi. Masalan, talaba virtual muhitda glikolizni sinab ko'rib, guruh muhokamasida natijalarni tahlil qiladi va 3D modellar orqali Krebs siklining bosqichlarini ko'z oldiga keltiradi, bu o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi[4,5].

Usmonov va boshqalarning tadqiqotlarida sun'iy intellekt asosidagi adaptiv test tizimlari uglevodlar almashinuvi mavzusini o'qitishda talabalarning bilim darajasini baholash va ularga moslashtirilgan vazifalar taklif qilish orqali o'quv jarayonini samarali qiladi. Masalan, Moodle yoki Kahoot platformalarida interaktiv testlar orqali talabalar glikoliz va Krebs sikli kabi asosiy tushunchalarni mustahkamlab, real vaqt rejimida o'z bilimlarini sinab ko'radi va xatolarini tahlil qiladi. Bu metod diagnostik kompetensiyaning ma'lumot yig'ish elementiga mos keladi, chunki adaptiv testlar talabalarning bilim darajasini aniqlab, noto'g'ri tushunchalarni aniqlash va tuzatishga yordam beradi. Amaliy misolda, talaba Kahoot platformasida uglevodlar almashinuvi bo'yicha viktorinada ishtirok etib, masalan, glukoza parchalanishi jarayonidagi xatolarini aniqlaydi va o'qituvchi yoki tizim tomonidan taqdim etilgan tushuntirishlar orqali bilimini to'ldiradi, bu esa mavzuni chuqur o'zlashtirishga imkon beradi[5].

Multimedia prezentsiyalar va videodarslar uglevodlar almashinuvi kabi murakkab mavzularni o'qitishda samarali vosita bo'lib, murakkab biokimyoiy jarayonlarni, masalan, glikolizni sodda va tushunarli tarzda taqdim etadi. Masalan, YouTube'dagi Amoeba Sisters yoki Khan Academy videolari talabalarga glikoza parchalanishini vizual tarzda o'rganish imkonini beradi, bu esa mavzuni tushunish darajasini oshiradi va xotirada saqlanishni yaxshilaydi. Bu metod diagnostik kompetensiyaning analitik fikrlash elementini rivojlantiradi, chunki talabalar vizual ma'lumotlarni tahlil qilib, jarayonlarni chuqur o'zlashtiradi. Amaliy misolda, o'qituvchi darsda Khan Academy'dan glikoliz bo'yicha videoni ko'rsatib, undan so'ng talabalarga savollar beradi va guruh muhokamasini tashkil qiladi, bu talabalarga jarayonning muhim jihatlarini muhokama qilib, bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi[3,4].

**Xulosa.** Uglevodlar almashinuvi mavzusini o'qitishda virtual simulyatsiyalar, interaktiv testlar, guruh muhokamalari, multimedia prezentsiyalar va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish kabi interaktiv metodlar talabalarning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Bu metodlar diagnostik kompetensiyaning asosiy elementlariga – ma'lumot yig'ish, analitik fikrlash, xatolar ni minimallashtirish va texnologik vositalardan foydalanishga asoslanadi. Masalan, talaba virtual

laboratoriyyada glikolizni sinab ko'rib, internetdagi ma'lumotlar bazasi orqali ma'lumotlarni tahlil qiladi, Kahoot'da test yozadi va guruhda natijalarni muhokama qiladi, bu esa mavzuni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Zamonaviy ilm-fanda biologiya va biokimyo fanlarini o'qitishda turli xildagi usullardan keng foydalaniladi. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv test tizimlari (Kahoot, Moodle) talabalarning bilim darajasini baholab, xatolarni minimallashtirishga yordam beradi (Croskerry, 2003). Onlayn platformalar (Google Classroom) guruh muhokamalarini tashkil qilib, hamkorlikdagi o'rghanishni ta'minlaydi, ma'lumotlar bazalari esa chuqur tahlil imkonini beradi (Usmanov, 2007). Ushbu metodlar birgalikda ishlaganda, masalan, talaba virtual simulyatsiyada glikolizni o'rganib, test orqali bilimini tekshiradi va guruhda muhokama qiladi, bu esa o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. O'zbekistonda ta'limni axborotlashtirish bo'yicha islohotlar (PQ-4851) ushbu usullarni keng joriy etish imkonini beradi, natijada uglevodlar almashinuv mavzusi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqur o'zlashtiriladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shmidt M.B. Kasbiy kompetentsiya tushunchasi va uning tibbiy ta'limdagi ahamiyati // Tibbiyotda Innovatsiyalar. – 2020. – №4. – B. 23–27.
2. Harden R.M., Crosby J.R. AMEE Guide No 20: The good teacher is more than a lecturer—the twelve roles of the teacher // Medical Teacher. – 2000. – Vol. 22, No 4. – P. 334–347.
3. Croskerry, P. (2003). “The Importance of Cognitive Errors in Diagnosis and Strategies to Minimize Them.” Academic Medicine.
4. Norman, G. R., et al. (2017). “The Etiology of Diagnostic Errors: A Framework for Analysis.” Medical Education.
5. Usmanov, A.I. (2007). Zamonaviy axborot texnologiyalari. Tashkent: Akademiya.
6. Rajabov, F.F., et al. (2024). “Raqamli axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi.” ResearchGate.

## TIBBIYOT XODIMLARINING DIAGNOSTIK KOMPETENTSIYALARINI RIVO-JLANTIRISHDA FANLARARO ALOQADORLIK

Xalimova Salomat Asrorovna

Samarqand davlat tibbiyat universiteti, Biologik kimyo kafedrasи assistenti

**Annotatsiya.** Zamonaviy ilm fanda bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda fanlararo aloqadorlikning o'rni juda katta. Diagnostik kompetensiyalarini rivojlantirishda turli xildagi yondashuvlardan keng o'rinda foydalaniladi. Umuman olganda bu kompitensiyanı rivojlanishida klinik, biologik, farmokologik va texnologik fanlararo integratsiyasi muxim hisoblanadi. Bunda integartsiya asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. Olib borilgan tadqiqotimizda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, amaliy mashg'ulotlar va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi o'quv uslublarining samaradorligi ortirish, axamiyatini ko'tarilish masalalari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** diagnostik kompetensiya, fanlararo integratsiya, tibbiy ta'lim, klinik fikrlash, biokimyo metodikasi, muammoga asoslangan ta'lim;

### МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ КОММУНИКАЦИИ В РАЗВИТИИ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ

**Аннотация.** В современной науке междисциплинарные связи играют важную роль в формировании диагностических компетенций будущих медицинских работников. Для развития диагностических навыков широко применяются различные подходы. В целом, в формировании данной компетенции важное значение имеет междисциплинарная интеграция клинических, биологических, фармакологических и технологических наук. В данной работе рассматриваются методические подходы, разработанные на основе интеграции. В ходе нашего исследования освещаются вопросы повышения эффективности и значимости учебных методов, основанных на современных образовательных технологиях, практических занятиях и компетентностном подходе.

**Ключевые слова:** диагностическая компетенция, междисциплинарная интеграция, медицинское образование, клиническое мышление, методика преподавания биохимии, проблемно-ориентированное обучение;

### INTERDISCIPLINARY COMMUNICATIONS IN THE DEVELOPMENT OF DIAGNOSTIC COMPETENCIES OF MEDICAL WORKERS

**Abstract.** In modern scientific research, interdisciplinary integration plays a significant role in the development of diagnostic competencies among future medical professionals. Various approaches are widely used to enhance these competencies. Overall, the integration of clinical, biological, pharmacological, and technological sciences is crucial in shaping diagnostic proficiency. This study examines methodological approaches developed through interdisciplinary integration. The research highlights the importance and effectiveness of modern educational technologies, practical training, and competency-based learning methods in improving the quality and impact of medical education.

**Keywords:** diagnostic competence, interdisciplinary integration, medical education, clinical thinking, biochemistry teaching methodology, problem-based learning;

**Kirish.** Hozirgi davrda tibbiy ta'limda fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuv tibbiyot xodimlarining kasbiy tayyorgarligida muhim o'rinn tutmoqda. Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimi

oldida turgan asosiy vazifalardan biri – yuqori malakali, kasbiy jihatdan yetuk, mustaqil qaror qabul qila oladigan tibbiyot xodimlarini tayyorlashdan iborat. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalgaga oshirish esa, birinchi navbatda, talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini, jumladan, diagnostik kompetentsiyasini shakllantirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Shunday qilib, diagnostik kompetentsiya – bu kasbiy vazifalarni to‘g‘ri baholash, aniqlik bilan kasallikni aniqlash va mos davolash rejasini tuzish ko‘nikmasidir. Bu esa faqat bitta fan emas, balki bir nechta tibbiy fanlarning uzviy bog‘liqligida shakllanadi. Diagnostik kompetentsiya – bu tibbiyot mutaxassisining kasallikni to‘g‘ri aniqlash, tahlil qilish, baholash va asosli tashxis qo‘yish bo‘yicha kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar jamlanmasi hisoblanadi [1]. Diagnostik kopmetensiyani samarali shakllantirish va rivojlantirishda hozirgi kunda integratsiyalashgan yondashuv alohida axamiyatga egadir. Bunday kompetentsiya keng qamrovli bo‘lib, o‘z ichiga klinik tafakkur, laborator-analitik fikrlash, farmakologik bilimlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish va zamonaviy tibbiy qurilmalardan samarali foydalanishni oladi [2].

Tibbiyot sohasidagi bilimlar faqat bir yo‘nalishdagi emas, balki turli sohalar – biokimyo, anatomiya, fiziologiya, patologik anatomiya, farmakologiya, klinik fanlar va tibbiy informatika bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi [3]. Shu boisdan tibbiy ta’limda fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonlari nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni chuqur o‘zlashtirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimi diagnostik kompetentsiyalarini rivojlantirishda yangi pedagogik va texnologik yondashuvlarni, jumladan, muammoga yo‘naltirilgan ta’lim, klinik holatlarni o‘rganish (case-study), simulyatsion o‘qitish, modulli tizim va reflektiv o‘rganish metodlarini keng tatbiq etishni taqozo etmoqda. Bo‘lajak mutaxasisisning tahlilliy fikrlash salohiyatini oshirishda fanlararo integratsiyani axaamiyati kattadir. Natijada talabada kasbiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay olish malakasi rivojlanadi[4]. Shuning uchun ham mazkur tadqiqotda fanlararo aloqadorlik asosida diagnostik kompetentsiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi va ularning amaliy samaradorligi o‘rganiladi. Zamonaviy tibbiy ta’limda “kompetentsiya” tushunchasi ta’lim oluvchilarining bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan murakkab integrallashgan tushuncha sifatida talqin qilinadi. Shu o‘rinda diagnostik kompetentsiya esa — bu tibbiy kasb egasining bemor holatini to‘g‘ri baholash, klinik simptomlarni aniqlash, tashxislash algoritmini qo‘llash, laborator va instrumental tekshiruv natijalarini tahlil qilish va asosli tashxis qo‘yish kabi faoliyatlar majmuasidir [1,2].

**Natijalar.** Diagnostik kompetentsiya professional klinik fikrlash, analitik mulohaza yuritish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, kommunikativ va reflektiv yondashuv kabi asosiy komponentlardan tashkil topgan. U nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy faoliyatga bevosita tatbiq etiladigan ko‘nikma va malakalarga asoslanadi. Tibbiy ta’limda bu kompetentsiya klinik fanlar (terapiya, xirurgiya, pediatriya), laborator tibbiyot, farmakologiya, anatomiya, fiziologiya va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi [3].

Tadqiqotda bir qancha metodlardan foydalanilib ishlar olib borildi. Nazariy-tahliliy metod yani teoritik analiz usulida ilmiy adabiyotlar taxlili qilinidi. Qolaversa, ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganish orqali diagnostik kompetentsiya va fanlararo integratsiya haqidagi ilmiy qarashlarni aniqlashda bu taxlilining o‘rni bor. Pedagogik tajriba usulidan ham foydalandik.Bunda tajriba guruhi (integratsiyalashgan o‘qituv metodikasi asosida o‘qitiladi), nazorat guruhi (an‘anaviy metod asosida o‘qitiladi), eksperimentdan oldin va keyin testlar orqali diagnostik kompetentsiya darajasi baholash mumkin bo‘ladi. Tadqiqotni nazorat va tajriba bilan solishtirishda va natijalarini taxlil qilishda statistic metodlardan foydalaniladi. Bundan tashqari zamonaviy metodlardan biri hisoblangan modellashtirish metodidan ham foydalanishimiz mumkin. Bunda integratsion va stimulatsion usullar asosida talabalar bilimlarini model sifatida ko‘rib rejalar ishlab chiqishimiz mumkin

bo‘ladi. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, tibbiy xizmat sifati va xavfsizligini oshirish bo‘yicha qo‘yilayotgan talablar, tibbiyat xodimlaridan chuqur kasbiy bilim, tahlil qilish ko‘nikmasi va diagnostik qarorlarni mustaqil qabul qilish kompetensiyasini talab etadi. Aynan shu nuqtai nazardan fanlararo integratsiya diagnostik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi[4,6].

Problem-Based Learning – muammoga asoslangan ta’lim integratsiyasi tibbiy ta’limda talablarni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda yoki klinik holatlarda mustaqil ravishda muammoni yechishga, taxlil qilishga, talabani izlanishga va xulosa chiqarishga davit etadigan metodlardan biri hisoblana-di. Bunda o‘rganish jarayonida diagnostic jarayon bilan o‘xshatiladi yani masalan kasalik simptom-lari, ularning taxlili, qanday holatdagi ehtimollar o‘rganiladi, tekshiruvlar o‘rganilib xulosa beriladi. Tibbiyat oliv ta’lim musassasalarida bu muammoga asoslanga ta’lim usuli qo‘llanilish doirasi ken-gaytirilishi kerak. Schmidt va Netherlands tomonidan tadqiqotlari shuni ko‘rsatdikki, fanlararo olingan bilimlarni birlashtirishda samarali hisoblanadi. Ayniqsa klinik, biokimyoviy va farmakologik asoslarni mustahkamlashda muxim axamiyatga ega. Talabalar diagnostik mantiqiy fikrlash va uzziy tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini yaxshiroq egallahsha yordam beradi[6].

Muammoga asoslangan o‘qitish (Problem-Based Learning – PBL) tibbiyat ta’limida bo‘lajak mutaxassislarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muammoga asoslangan modeli talabalarni ilgari o‘zlashtirgan bilimlarni faol-lashtirishga, ularni klinik holatlarga tadbiq etishga va mustaqil diagnostik qarorlar qabul qilishga undaydi [5,6].

Albanese va boshqalarni qilgan tadqiqotlar tahlil qilinganda talabalarni ko‘p o‘lchamli di-agnostik fikrlashga tayyorlaydi. Ayniqsa, anamnez yig‘ish, simptomlarni guruhlash, va differential diagnostika ko‘nikmalari muammoga asoslangan o‘qitish guruhida yuqori baholangan. Albanese va Mitchell (1993) o‘zlarining meta-tahlilida muammoga asoslangan talim modeli talabalarni real muammolarni aniqlash, tahlil qilish va echim topishga yo‘naltirganini ko‘rsatgan [2]. Shuning-dek, Azer (2009) gipertoniya klinik holati asosida olib borgan fanlararo PBL tajribasida talabalar fiziologiya, patologiya va farmakologik bilimlarni birlashtirib, klinik fikrlashda yuqori natijalarga erishganini qayd etgan [6].

Fanlararo integratsiya bu - bir nechta o‘quv fanlarining bilim va ko‘nikmalarini yagona o‘quv kontekstida uyg‘unlashtirishdir. Tibbiy ta’limda bu uslub klinik fanlar (terapiya, xirurgiya), fundamental fanlar (biokimyo, gistologiya, fiziologiya), va amaliy fanlar (farmakologiya, diagnostika) ni birgalikda o‘rganishni taqozo etadi. Fanlararo integratsiya deganda turli fanlar o‘rtasida mazmu-niy, metodologik yoki texnologik bog‘liqlikni shakllantirishni, ularning bir butun tarzda yaratish tushuniladi. Integratsiyalashgan ta’limda o‘quvchi yoki talabalar bir vaqtning o‘zida bir necha fan bo‘yicha bilimlarni uyg‘unlashtirib, real hayotiy muammolarni tahlil qilish va yechishda samaraliroq harakat qilishadi. Masalan biologiya va kimyo fanlari tibbiyat oliv ta’lim muassasalarida o‘qitilishida integratsiya asosida o‘qitishi organizmdagi biologik va kimyoviy jarayonlarni tushunishga yordam beradi. Informatika va tibbiy fanlar integratsiyasi esa organizmdagi kasaliklarni diagnostika qilish, erta tasxishlashda muxim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi[7].

Fanlararo integratsiyaning bir qancha turlari farqlanadi. Bunda mazmuniy integratsiyada anatomiya va fizoogiya fanlari bir mavzu doirasida o‘rgatilsa, o‘quvchiga umumbiologik fanlar asosida ma’lum mavzuni tushuntirish jarayoni amalga oshiriladi. Metodik integratsiya- turli xil fanlarni o‘qitishda uslublar uyg‘unligida o‘quvchi tahliliy fikrlash jarayonini rivojlantiradi. Bunda matematik modellashtirish va biologik tajribalardan keng o‘rinda foydalilanildi. Fanlararo loyihalari, multimedia va raqamli texnologiyalar yordamida texnologik integratsiyada amalga oshiriladi. Mas-alan, tibbiy axborot tizmlari loyihasini yaratishda bu uslubdan foydalilanildi[7,8].

Zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo integratsiya o‘quvchilarda chuqur tahliliy fikrlashni shakllantiradi. Ularni amaliy faoliyatga tayyorlash va ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida muxim axamiyat kasb etmoqda. Fanlararo yondashuv, eng avvalo, tizimli fikrlashni rivojlantiradi. Talabalar muammolarga faqat bitta fan doirasida emas, balki bir nechta fanlar nuqtai nazaridan yondashishni o‘rganadilar. Bu esa ularda kompleks, integratsiyalashgan tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirib, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish salohiyatini oshiradi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv, shuningdek, innovatsion faoliyatga tayyorlovchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, biotexnologiya, tibbiyotda sun’iy intellekt, farmakogenomika kabi ilg‘or yo‘nalishlar aynan biologiya, informatika, kimyo va matematikaning sintezi natijasida yuzaga kelmoqda. Shu sababli fanlararo bilimlar nafaqat nazariv jihatdan, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, fanlararo integratsiya amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Talabalar laboratoriya, dizayn, diagnostika, muhandislik yoki texnologik loyihalar da faol ishtirok etish orqali nazariv bilimlarini real hayotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularni mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Nihoyat, fanlararo yondashuv ilmiy-tadqiqot faoliyatini chuqurlashtirish va samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Murakkab ilmiy muammolarni hal qilishda biror bir fan doirasida qolib ketish cheklov bo‘lsa, fanlararo integratsiya bunday masalalarga kengroq, tizimli va chuqurroq yondashish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy ilm-fanning rivojlanishiga zamin yaratadi[6,8].

Bauer va boshq. tomonidan olib borilgan tadqiqotda tibbiyot va pedagogika yo‘nalishida gi talabalar o‘rtasida diagnostik faoliyatlar – ya’ni gipoteza yaratish, dalil yig‘ish, dalilni baholash va xulosa chiqarish bosqichlari o‘rganilgan. Simulyatsiyalangan klinik holatlar asosida 142 tibbiyot va 122 pedagogika talabasining yozma hisobotlari Epistemic Network Analysis (ENA) usuli orqali tahlil qilingan. Natijalar tibbiyot talabalari gipoteza tuzish va diagnostik xulosa chiqarishga urg‘u berishini, pedagogika talabalari esa dalil yig‘ish va ularni baholashga ko‘proq e’tibor berishini ko‘rsatgan. Bu esa har bir soha vakillari diagnostik faoliyatni turlicha tashkil etishini anglatadi[9].

Shuningdek, Gruber va boshq. diagnostik kompetentsiyani interprofessional (kros-funktional) darajada rivojlantirish bo‘yicha xalqaro ekspertlar konsensusiga tayangan holda 12 ta asosiy kompetentsiyani ishlab chiqqanlar. Bu kompetentsiyalar orasida gipoteza tuzish, reflektiv fikrlash, qo‘srimcha ekspert maslahatlaridan foydalanish, diagnostik xavfsizlikni ta’minlash, kognitiv xatolarni tushunish, kommunikatsion yondashuv va axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi muhim ko‘nikmalar ajralib turadi. Mazkur kompetentsiyalarni tibbiy, hamshiralik, farmatsiya va boshqa sohalarda bir xil asosda tatbiq qilish mumkinligi ta’kidlangan[8,9].

Xu va boshq. tomonidan ishlab chiqilgan va tibbiy ta’limda joriy etilgan eMedLearn platformasi asosidagi PBL tizimi diagnostik kompetentsiyalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan ilg‘or model sifatida maydonga chiqdi. Tadqiqotda boshqarilgan raqamli PBL muhitining samaradorligi empirik tahlil vositalari orqali baholangan bo‘lib, u amaliy va metodik jihatdan muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi. Zamonaviy tibbiy ta’limda diagnostik kompetentsiyalarni shakllantirish eng muhim maqsadlardandir. Klinik fikrlash, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, farqlash tashxisi, reflektiv tahlil kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammoga yo‘naltirilgan o‘qitish (Problem-Based Learning, PBL) metodikasi o‘zining samaradorligini ko‘rsatmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar yordamida integratsiyalashgan va boshqariladigan PBL muhitlari orqali talabalar bilimni amaliy diagnostik vaziyatlarga tatbiq etishni faol o‘zlashtiradilar [10].

**Xulosa.** Zamonaviy tibbiy ta’lim diagnostika sohasida xodimlarning nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini, balki keng qamrovli kognitiv, kommunikativ, reflektiv va tizimli yondashuv asosida shakllanadigan diagnostik kompetentsiyalarini rivojlantirishni dolzarb masala sifatida ilgari surmoqda. Ushbu kompetentsiyalarni samarali shakllantirish esa, o‘z navbatida, fanlararo aloqa-

dorlikka asoslangan ta’limiy yondashuvni talab etadi. Fanlararo integratsiyalashgan metodlar orqali diagnostik faoliyatni klinik bilimlar, analitik fikrlash, axborot texnologiyalari, biotibbiy etika va sog’liqni saqlash menejmenti bilan uyg‘un holda tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Masalan, Bauer va boshq. tadqiqotida klinik va pedagogik yo‘nalishdagi talabalarning diagnostik faoliyatlaridagi farqlar tahlil qilinib, har bir sohaga xos kompetentsiyalar asosida maxsus ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, Graber va hamkasblar tomonidan taklif etilgan interprofessional diagnostik kompetentsiyalar to‘plami diagnostika jarayoniga jalg etilgan barcha mutaxassislarning hamkorlikdagi ishlash madaniyatini shakllantirish uchun nazariy asos yaratadi. Xu va boshqalar tadqiqoti esa PBL (Problem-Based Learning) metodikasini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan holda, talabalar diagnostik kompetentsiyasini strukturali va reflektiv shaklda rivojlantirishda e’tiborga loyiq ilmiy yondashuvni taklif etadi. Bunday integratsiyalashgan tizimlar talabalarga o‘z fikrlash jarayonini ongli tahlil qilish, gipoteza asosida qaror qabul qilish, kross-funksional hamkorlikda ishlash va xatolardan o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, diagnostik kompetentsiyalarni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikka asoslangan ta’lim metodikasi:kompleks bilimlarni birlashtirishni; real klinik vaziyatlarda qaror qabul qilishni; kommunikatsion va reflektiv ko‘nikmalarни chuqurlashtirishni; xavfsiz, bemor markazli diagnostik muhitni shakllantirishni ta’mindaydi. Shu sababli, kelajak tibbiyot xodimlarining samarali diagnostik faoliyat yuritishi uchun fanlararo asosdagi o‘qitish nafaqat dolzarb, balki zarur metodik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim dasturlarini tubdan yangilash, o‘quv rejallarga integratsiyalashgan modullarni joriy qilish va interaktiv metodlardan keng foydalanishni talab etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shmidt M.B. Kasbiy kompetentsiya tushunchasi va uning tibbiy ta’limdagi ahamiyati // Tibbiyotda Innovatsiyalar. – 2020. – №4. – B. 23–27.
2. Harden R.M., Crosby J.R. AMEE Guide No 20: The good teacher is more than a lecturer—the twelve roles of the teacher // Medical Teacher. – 2000. – Vol. 22, No 4. – P. 334–347.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
4. Savelyeva N.V. Integratsion yondashuv orqali tibbiy ta’lim sifatini oshirish // Meditsinskiy vestnik. – 2021. – №6. – B. 45–48.
5. Qodirov B.S., Mamatov I.N. Klinik tafakkurni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni // Tibbiyotda ilm va tajriba. – 2020. – №2. – B. 44–48.
6. Schmidt HG. The process of problem-based learning: what works and why. *Medical Education*. 2011;45(8):792–806.
7. Drake, S. M., & Burns, R. C. (2004). Meeting Standards Through Integrated Curriculum. ASCD. Zamonaviy ta’lim standartlariga moslashtirilgan integratsion yondashuvlar tahlili.
8. Boix Mansilla, V. (2005). *Assessing Student Work at Disciplinary Crossroads. Change: The Magazine of Higher Learning*, 37(1), 14-21.
9. Graber ML, Olson APJ, Rencic J, Rusz D, Papa F, Croskerry P, Zierler B, Harkless G, Giuliano M, Schoenbaum S, Colford C, Cahill M. Competencies for improving diagnosis: an interprofessional framework for education and training in health care. *Diagnosis*. 2019;6(4):335–341.
10. Xu Y., Shao Y., Dong J., Shi S., Jiang C., Li Q. (2025). *Advancing Problem-Based Learning with Clinical Reasoning for Improved Differential Diagnosis in Medical Education*. CHI’25 conference proceedings.

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BADIY MATNLAR USTIDA  
ISHLASH ORQALI IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH**

**Atajonova Anorgul Jumaniyazovna**

Urganch davlat pedagogika institute “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”

kafedrasи mudiri, dotsent, [anorgulatajonova005@gmail.com](mailto:anorgulatajonova005@gmail.com)

**Otabayeva Xusniya Sharofiddin qizi,**

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi, [xusniyaotaboyeva7@gmail.com](mailto:xusniyaotaboyeva7@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan badiiy matnlar ustiда ishslash orqali ijodiy tafakkuri, tasavvuri, fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish usullari va uning ahamiyati xususida so‘z yuritiladi. Badiiy matnlarning o‘quvchilar tasavvuri va tafakkuri doirasini kengaytirish bilan birga dunyoqarashi va ijobjiy fazilatlarini ham oshirishdagi ahamiyati, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim jarayonida dars mashg‘ulotlariда o‘quvchilarning ijodiy fikrashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsa, dars jarayonida shunga oid didaktik o‘yinlar va topshiriqdan foydalanilsa, ijodiy ish usullari muntazam qo‘llanilsa, dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratilib, unda o‘quvchilarning ishtiろki ta’mirlansa, belgilangan maqsadga erishish mumkinligi yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** badiiy matn, tasavvur, ijodiy fikrlash, qobiliyat, usul, o‘quvchilar, faollik, dars, sharoit, ta’lim, o‘qish savodxonligi.

**РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ  
КЛАССОВ ПУТЕМ РАБОТЫ С ХУДОЖЕСТВЕННЫМИ ТЕКСТАМИ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются методы и их значение для дальнейшего развития творческого мышления, воображения, мыслительных способностей учащихся младших классов посредством работы с художественными текстами. Значение художественных текстов в повышении их мировоззренческих и позитивных качеств при расширении кругозора и мышления учащихся, а также при создании необходимых условий для творческого мышления учащихся на уроках начального образования, при использовании соответствующих дидактических игр и заданий в процессе урока, систематическом применении методов творческой работы, при создании проблемных ситуаций в процессе урока и обеспечении в нем участия учащихся, изложена обратная связь по поводу возможности достижения поставленной цели.

**Ключевые слова:** художественный текст, воображение, творческое мышление, способности, метод, учащиеся, активность, урок, условия, воспитание, грамотность чтения.

**DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN PRIMARY SCHOOL  
STUDENTS THROUGH WORKING ON LITERARY TEXTS**

**Abstract.** This article discusses the methods and importance of developing creative thinking, imagination, and reasoning skills in elementary school students through working with literary texts. It emphasizes that literary texts, by broadening students’ horizons and stimulating their imagination, play a crucial role in shaping their worldview and positive qualities. The article also highlights the importance of creating the necessary conditions for fostering creative thinking in elementary school lessons, utilizing didactic games and assignments, regularly employing methods of creative work, and creating problem situations in lessons with active student participation to achieve the set goals.

**Keywords:** literary text, imagination, creative thinking, abilities, methods, students, activity, lessons, conditions, education, reading literacy.

**Kirish.** Yurtimizda yosh avlodni mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish davlat darajasidagi masalaga aylangan. Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga yo‘naltirish muammosiga jahon pedagogika va psixologiya ilmida ham alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu jarayonning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va uning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi roli ham muhim ahamiyatga egadir. Shu boisdan ham o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqini boyitishda badiiy matnlarning, jumladan, hikoya, ertak, rivoyat, doston, masal janriga oid asarlarning o‘rni beqiyosdir.

**Adabiyotlar sharhi.** Respublikamizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish, badiiy matnlar ustida ishslash masalalari E. Yo‘ldosheva, A.Umarov, Yo.Qayumxo‘jayeva, B.G‘aniyeva, A.Abdullayev, G.Amanova kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘sligi olimlaridan S.I.Abakumova, A.B.Abdiyeva, L.I.Belenkaya, G.I. Bondarenkalarning ishlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy asar o‘qishga va tahlil qilishga tayyorlash, o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirish, ularda kitob o‘qish malaka-ko‘nikmalarini, madaniyatini rivojlantirishning o‘ziga xosligi masalalari yoritib berilgan. Yana shu bilan birgalikda badiiy asar o‘qishning foydali taraflari ham juda ko‘p, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy asar o‘qishni o‘rganishni boshlagan vaqtida badiiy asarga bo‘lgan muhabbat yuqori bo‘lishi uchun poydevor bo‘ladi. Bu jarayonlar esa o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi [7]. Ushbu tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni tushunish ko‘nikmlarining hosil qilinishi, o‘quvchilar yoshiga ko‘ra matnlarni guruhlash, tasniflash, turli didaktik o‘yinlar orqali tashkil qilinishi, ularda ijobjiy sifatlarni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirib, rivojlantirish, yoshiga nisbatan qabul qilish xususiyatlari o‘rganilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni o‘qish va tushunish kompetensiyalarini shakllantirish, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarda so‘z san’ati, lug‘at zaxirasini doimiy ravishda o‘stirib borish, so‘zning mohiyatini, matnlarda so‘zlarning tutgan o‘rnini anglash, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga oid texnologiyalarni ishlab chiqish zarurdir.

O‘qish savodxonligini rivojantirish uchun o‘quvchilarga beriladigan o‘yin-topshiriqlar murakkablik darajasiga ko‘ra, asosan quyidagi uch turga ajratiladi:

1. Qayta xotirlashga qaratilgan o‘yin-topshiriqlar (Qisqartirib so‘zlab berish, qahramonlarni ajratish, xulosani bayon etish) o‘quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo‘llashni yaratuvchanlik talab etilmaydi. Bunday o‘yin-topshiriqlarni bajarish o‘quvchiga katta murakkablik ham tug‘dirmaydi. Oldin o‘rganilgan mavzular va bo‘limlar yuzasidan muayyan bilimga ega bo‘lgan o‘quvchi bunday topshiriqlarni mustaqil bajarishi mumkin.

2. Qisman izlanishga oid o‘yin-topshiriqlar (Hikoya qahramonlariga munosabat bildirish, ularni ijobjiy yoki salbiy jihatlarini izohlash) o‘quvchidan ma’lum bir yordamga asoslangan holda ijodiy faoliyat ko‘rsatishni talab etadi. Agar o‘quvchi oldin egallagan bilimlarni yangi sharoitda tom ma’noda notanish sharoitda qo‘llashda o‘zida ishonch sezsa va uni bemalol uddalay olsa, topshiriqning qisman ijodiyligiga ehtiyoj qolmaydi. Topshiriq shartini bajarish uchun o‘quvchi tashqaridan (masalan, sinfdoshlaridan, o‘qituvchisidan, darslik va o‘quv qo‘llanmasidan, lug‘atlardan, ma’lumotnomalardan va hokazo) foydalansa, o‘z-o‘zidan ravshanki, topshiriq qisman izlanishli bo‘lib qoladi.

3. Ijodiy o‘yin-topshiriqlar (Hikoyani davom ettirish, yangi qahramon yoki syujet qo‘shish) oldin egallagan bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo‘llash demakdir. Shubhasiz, bu jarayon o‘qu-

vchidan ijodiylikni, izlanuvchanlikni talab etadi. O‘yin-topshiriqni bajarishda o‘quvchi faqat o‘zida mavjud ichki imkoniyatlarga tayanadi.

Matn ustida ishlashda o‘yinlar bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalarning boshqa aqliy hujum, grafik organayzerlar kabi turlaridan foydalanishning ham ahamiyati nihoyatda beqiyos [2]. Shu kabi o‘yin-topshiriqlar asosida darslar tashkil qilinishi o‘quvchilarda badiiy matnga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ko‘proq fikr yuritishga, matnni tahlil va xulosa qilishga undaydi. O‘z fikrini erkin tarzda bayon qilishni o‘rganadi. Boshlang‘ich ta’limda badiiy matnlar asosan, o‘qish savodxonligi darsliklarida ko‘p berilgan va mavzu yuzasidan turli xildagi qiziqarli topshiriqlar ham ajratilgan. Rebuslar, topishmoqlar, tez aytishlar, murakkablik darajasidagi so‘z o‘yinlari ham o‘quvchilarni o‘ziga qiziqtirib, tasavvurini kengaytirishda ahamiyatlidir.

Badiiy matn asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy tafakkurni shakllantirish maqsadida 1-sinf o‘qish savodxonligi darsida “Rahmdil qizcha” hikoyasi tahlil bosqichida “Sehrli so‘zlar” metodidan foydalanish mumkin. Bu metodni bajarish uchun o‘quvchilarga darsni boshida kichik kartochka qog‘ozlarga oddiy so‘zlar yoziladi va shu bilan birga rasmlar ham bo‘ladi. O‘yin boshlanishida kartochkalar yuzi pastga qaratib joylanadi. O‘quvchilar navbatma-navbat kartochkani olib, undagi so‘zni o‘qishga yoki rasmini tanib, aytishga harakat qiladi. Agar o‘quvchi so‘zni to‘g‘ri aytса, unga kichik mukofot (olqish, yulduzcha, stiker) beriladi. Agar o‘quvchi so‘z bilan gap tuzsa, unga ikki yulduzcha beriladi. Bu metod o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi:

O‘tilgan mavzu va undagi lug‘at so‘zlar mustahkamlanadi;

Darsni tahlil qilishga yordam beradi;

Darsdan muayyan natijalar kutish ya’ni badiiy matn vositasida ijodiy tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.

O‘qituvchiga bu metodimiz quyidagicha samaradorlikka erishishga yordam beradi:

O‘tilgan mavzu va unga tegishli lug‘at so‘zlar mustahkamlanadi;

O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishadi;

O‘quvchilarning javoblariga ko‘ra darsning yutuq va kamchilik tomonlarini tahlil qilishga hamda bo‘sliqlarni to‘ldirishga imkoniyat paydo bo‘ladi;

O‘quvchilarning dars jarayoniga bergen baholarini o‘rganish va ulardan tegishli xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi;

Dars jarayonini va o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajasini analiz-sintez qilishga yordam beradi.

2-sinfda D.Kamoljonovaning “Qo‘llaringiz qanaqa?” she’rini o‘rganishda o‘quvchilarning fazilatlar haqidagi dastlabki tushunchalarini aniqlash jarayonida insonlarga xos xususiyatlarni “Quyosh” metodi orqali aniqlash mumkin. Quyosh metodi – bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammolarni tahlil qilish va tushunchalarni vizual tarzda shakllantirishga yordam beradigan usullardan biri. Bu metod – grafik tasvir quyosh shakli asosida mavzularni chuqurroq o‘rganish va ularga bog‘liq tushunchalarni izohlashga yordam beradi. Bu metodda markaziy tushuncha (Quyosh) – o‘rganilayotgan asosiy mavzu yoki tushuncha qog‘ozning o‘rtasiga yoziladi. Nurlar (shu'lalari) – asosiy mavzuga bog‘liq bo‘lgan fikrlar, misollar, tushunchalar yoki savollar yoziladi. Tarmoqlanish, ya’ni har bir nur bo‘ylab qo‘sishimcha izohlar yoki qo‘sishimcha fikrlar qo‘shilishi orqali mavzu yoritiladi va mustahka-



mlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning guruhiy shaklida "Besh barmoq" metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu metodni 3-sinf O'qish savodxonligi (II qism) darsida "Chin do'st" hikoyasini mustahkamlash uchun qo'llash mumkin. (Bunda

o'quvchilar do'stlik haqida hikoya tuzishi lozim.) Bu metod amaliy metod hisoblanadi. Bunda o'quvchilardan berilgan rasmlardan foydalanib hikoya tuzishlari talab etiladi. Hikoya shunday bo'lishi kerakki, rasmlar mantiqli bir-biriga bog'liq ravishda tasvirlanishi lozim. Bu metodni sinfda qo'llaganimizda o'quvchilarga rasmdan foydalanib har bir barmoq yuzasiga hikoyani yozib, kerakli o'rinda rasmlarni shu joyga yopishtirishlari vazifa qilib beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkuri rivojlantirishning juftliklarda ishlash shaklida 4-sinf O'qish savodxonligi darsligida berilgan Azim Suyunning "Vatan yoshlari" she'rining mazmunini o'quvchilar partadoshlariga so'zlab berishlari zarur. Yoki "Qarg'a va paxta" ertagiga o'qituvchi tomonidan tayyorlangan topshiriqlar har bir partaga bittadan beriladi. Ikki o'quvchi o'zaro maslahatlashib topshiriqlarni bajaradi.

### Qarg'a va paxta

Savollar:

1-topshiriq. Berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang. To'g'ri gaplarning oldiga ✓, noto'g'ri gaplarning oldiga X belgisini qo'ying.

- Qarg'a insonlarning tilini tushunarkan.
- Bir kuni u bog'lar ustidan uchib ketayotgan emish.
- Qarg'a paxtakorlarning suhbatini eshitib qolibdi.
- Qarg'a tikuvchiga shu chigitdan ko'yak tikib berishini so'rabdi.
- Dehqon o'sha chigitni ekmbadi.
- Tikuvchi qarg'ani ip yigirib kelish uchun yana qaytarib yuboribdi.
- Keyin qarg'a to'quvchining oldiga bormasligini aytibdi.
- U gul bosuvchiga aytib, matoga rang-barang tasvirlar tushirtiribdi.
- Tikuvchi undan 5 kun muhlat so'rabdi.
- Qo'shni qushlar qarg'aga havas qilishibdi.
- Tikuvchi uning egniga mos chiroyli ko'yak tikib beribdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkuri rivojlantirishning invidual shaklida esa 4-sinf O'qish savodxonligi darsligida keltirilgan "Qanot qoqqan orzular" hikoyasi uchun tarqatmalari tayyorланади. Tayyorlangan kartochkalarga topshiriqlar yoziladi va har bir o'quvchiga bittadan kartochka tarqatiladi. O'quvchi topshiriqlarga o'zi mustaqil tarzda javob berishi kerak bo'ladi. 4-sinf O'qish savodxonligi darsligida keltirilgan "Qanot qoqqan orzular" hikoyasi uchun tarqatma (Tayyorlangan kartochkalarga topshiriqlar yoziladi va o'quvchilarga tarqatiladi)

1-topshiriq. Orzu haqida kichik hikoya yozing.

2-topshiriq. Hikoya asosida bo'sh o'rirlarni to'ldirib yozing.

Nusratjon ustozidan \_\_\_\_\_ tanlovi haqida eshitdi-yu halovatini yo'qotdi. Kim-san mashhur kulol \_\_\_\_\_ nabirasi bo'lsa-yu, tanlovda ishtiroy etmasa, uyat bo'ladi. \_\_\_\_\_ ikkovlari loy pishitishdi. \_\_\_\_\_ yasab olovda quritishdi, rang berishdi. Tayyor hushtakchalarni \_\_\_\_\_ solishdi. Birinchi soat tugagach \_\_\_\_\_ ustozi huzuriga oshiqdi. Shu payt uning \_\_\_\_\_ chalishib ketdi. Gurs etib polga yiqildi. U ko'zini ochganda



“\_\_\_\_\_” tepasida tirjayib turardi.

3-topshiriq. Hikoya mazmunini yorituvchi rasm chizing.

4-topshiriq. Do'stlik haqida beshta maqol aytинг.

5-topshiriq. Hikoyadagi voqealarga mos reja tuzing.

6-topshiriq. Hikoyaga o'xhash holat sizda ham bo'lganmi? Hayotingizda yuz bergan shunga o'xhash voqeani qisqacha matn qilib yozing.

7-topshiriq. Shaxmat haqida nimalarni bilasiz? Bilganlaringiz haqida aytинг.

8-topshiriq. Hikoya qahramonlari haqida fikringizni aytинг

Badiiy matn asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy tafakkurni shakllantirishning ja-moaviy, guruhiy, juftliklarda ishlash va individual shakllaridan foydalanilganda vaziyatlar va topshiriqlar alohida ahamiyatga ega, chunki ularga qarab ta'lim shaklining bironqa turida ish olib boriladi.

O'qish savodxonligida vaziyatlar: o'qish faoliyati muayyan vaziyatda bajariladigan maqsadli faoliyatlar turiga kiradi. Ko'pgina an'anaviy o'qish savodxonligini baholash dasturlarida ishtirok-chilarga umumiy mavzulariga oid qator bir-biriga bog'lanmagan matnlar beriladi. O'quvchilar har bir matnda bir necha bir-biriga bog'lanmagan savollarga javob berib, keyin boshqa topshiriq ustida fikr yuritadi. Bu vaqtda o'quvchilar keyingi topshiriqdagi matn savollariga javob bergach, oldinroq o'qigan matndagi ma'lumotlarni esdan chiqarganligi aniqlandi. Bu esa faqatgina tarqoq savollarga javob berishdan boshqa narsa emas. Aynan tanish muayyan vaziyatga (ssenariya) oid topshiriqlar asosida baholash tartibi o'quvchilarda topshiriqlar bilan ishlash va ular bajarayotgan mashg'ulotni haqqoniy baholash (anglash) imkonini berishi isbotlandi [2]. Ya'ni bu matnlarni bir-biridan farqlash, voqealar rivojini anglash, ketma-ketligini aniqlash bo'yicha topshiriqlar berish orqali o'quvchilarning bilish va tushunish darajasi aniqlanadi. O'quvchilarning ijodiy tafakkur qobiliyati, tasavvur qilish, o'z fikrlarini erkin bayon qila olish, bildirish ko'nikmlari shakllantiriladi.

Bunday ishni tashkil qilish nafaqat o'quvchilarning nutqini o'stirish, ijodiy tafakkurini shakllantirishni ta'minlaydi, balki ona tilini o'rganishga qiziqish, unga nisbatan hurmat va muhabbat uyg'otadi. Hozirgi davrda amaliyotda qo'llanilayotgan boshlang'ich sinf "Ona tili" va "O'qish savodxonligi" fani bo'yicha turli metodik qo'llanmalar va ularning multimediali ilovalari ham matn ustida ishlash orqali nutq o'stirishda o'qish va ona tili ta'limining uзвiyligini ta'minlash bo'yicha katta imkoniyatlar yaratildi.

Boshlang'ich adabiy ta'limda badiiy asar tahlilining muhim omillaridan biri uning o'quvchilarga hissiy ta'siridir. Kichik o'quvchilar muallifning asarda nazarda tutgan yetakchi fikrini tush-unibgina qolmay, uni hayajonlantirgan haqiqatlar, voqealarning tuyishlari, hayajonlanishlari, badiiy asar o'qish va uning ustida ishlashdan zavq ola bilishlari ma'naviyatlarining sog'lomlashuvinda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich adabiy ta'limdagi badiiy asarlar tahlilida asarning estetik qimmati, badiiy go'zalligiga ham alohida e'tibor qaratilishi, shu asnoda o'quvchilarning badiiy savodxonligi ham ta'minlanishi zarur [3]. Bu kabi tahlil, asar kompozitsiyasi, syujeti, undagi tasviriy vositalar o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi, go'zallikni his qilishni o'rgatadi. Savodini chiqarish bilan birga o'quvchiga ta'sir ko'rsata oladi. O'quvchi o'zini tahlil qila boshlaydi, qilgan xatolarini anglab, to'g'irlashga harakat qiladi. Eng asosiysi ezgulik qilishga, yaxshiliklarga havasi ortadi va yovuzlik, yomonliklardan nafratlanadi. Chunki ular sehrli-fantastik ruhdagi asarlarni ham jon-qulog'i bilan tinglab, o'qib o'rganadilar.

Avval, aytib o'tilganidek, badiiy adabiyotlar turli yoshdagagi kishilarga qaysi yosh davrida bo'lishidan qat'i nazar nutq, tasavvur va dunyoqarashni boyitish, tafakkurini kengaytirish, man-tiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, insonning ma'nан yuksalishiga, salohiyatini boyitishga xizmat qiladi [4]. Badiiy matnlar orqali o'quvchilar o'ziga juda ko'p xulosalarni, hayotiy tajribalarni,

muammoli va qiyin vaziyatlarda qanday yo'l tutishi lozimligini o'rgatadi. O'quvchilar yaxshilik, yomonlik, insoniy fazilatlar haqida tasavvur hosil qiladilar, yaxshilikka intilib, yomonlikdan qochish lozimligini anglab yetadilar.

Badiiy matndan shunchaki ma'lumot emas, balki yetakchi g'oya va uning badiiy ifodasini aniqlashda muhim vositadir. Shu bois “o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini (so'z boyligi, ijodiy tafakkur darajasini kengaytirish, ijtimoiy muloqot – yozma va og'zaki ifodali fikrlash mahoratini yuksaltirish, mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish) oshirish, matn turlarini farqlash (nazmiy, nasriy, ilmiy, badiiy, publisistik, grammatic, ma'rifiy, badiiy-ramziy, xat-hujjat, monologik, diologik)ga o'rgatish metodik zaruratdir”[10]. Boshlang'ich ta'linda matn ustida ishslash yo'llarini belgilashdan avval bu tushuncha anglatadigan ma'no, uning tuzilishi va tarkibiy qismlari haqidagi nazariy jihatlarini aniqlashtirib olish zarur. Umumta'lim maktablarida matn tuzishda, asosan, gap, xat boshi va muayyan kichik qismlar mavjud bo'lishiga e'tibor beriladi. Ular matn yaratish va shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi darsliklarda ham turli uslubdag'i matnlarga alohida e'tibor berilgan. Badiiy matnlar yakunida mustahkamlovchi savollar, rebus, topshiriq, topishmoqlar ham o'ren olgan. Shu bilan birga, matnda o'quvchilar uchun tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning izohi keltirilgan, izoli lug'at sifatida berilgan.

Badiiy matnlar ustida ishslashda dasturlashtirilgan dars turidan foydalanish ham ijobjiy samara beradi. Dasturlashtirilgan dars asosan maxsus dars asosida kompyuter yordamida amalga oshiriladi. Dasturlangan darslar oldindan tuzilgan loyihamar asosida amalga oshiriladi. U o'quv jarayoni boshqaruvini qulaylashtiradi. Bunday turdag'i darslarda pirovard natijalar oldindan rejalashtiriladi. Dasturlangan darsning qulayligi shundaki, unda o'quvchilarning o'qitish materiallarini o'zlashtirib olayotganligini doimiy, ketma-ket kuzatib, nazorat etib borishga imkonini beradi. Natijada, o'quvchilarda bilimga bo'lgan intilish saqlanib qoladi. Loyihalashtirilgan darslarning o'ziga xos tomonlari va afzalliklari quyidagilardan iborat:

1) O'quv materiallari alohida bo'laklarga bo'linadi. O'quv jarayoni ketma-ketliklarga bo'linadi, o'quv materiali ma'lum bo'laklarda fikrlab o'zlashtirishga moslashtiriladi.

2) O'zlashtiruvchining har bir harakati nazoratda bo'ladi. O'quvchilar vazifani bajarishi bilan o'zlashtirish uchun navbatdagi vazifani oladi va qunt bilan o'zlashtiradi. O'quvchilar noto'g'ri javob qilsa, unga darhol yordam ko'rsatiladi.

3) Darsda har bir o'quvchi uchun mustaqil ishslash imkoniyati yaratilib, materialni o'z imkoniyati darajasida o'zlashtiradi. O'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi, yordamchi, maslahatchisiga aylanadi va o'quvchilar bilan yakka ishslash imkoniyatiga ega bo'ladi [1].

Boshlang'ich ta'limga ona tili va o'qish savodxonligi darslarini nosatandart dars shakllaridan foydalanib tashkil etishning afzalliklari:

1. O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
2. O'z vaqtida o'quvchi-o'qituvchi – o'quvchilar o'rtasida samimiy aloqalar o'rnatiladi; O'qitish shakllari ta'limga jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi.(yakka, juft, guruh, katta guruhlar);
3. O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi; O'zaro axborot berish, olish, qayta ishslash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi.
4. O'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashish ko'nikmalari shakllanadi. O'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.
5. O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi.
6. O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobjiy fikr namoyon bo'ladi.
7. Har bir o'quvchining o'zi mustaqil fikr yuritishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

Shuningdek, o'qituvchi nostandart dars shakllaridan foydalanishda, didaktik qoidalarga ri-

oya qilishi talab etiladi. Bu kabi noan'anaviy dars turlaridan foydalanish o'quvchilarining darsga qiziqishi va o'zlashtirilishida muhim ahamiyatga egadir. Badiiy matnlarni o'zlashtirish, tushunish, tasavvur qilishni boshlang'ich sinf o'quvchilariga singdirib borish, ularni o'z sohasida ijodkor, ix-tirochi, iqtidorli bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnlar o'quvchilarining adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish, badiiy asarni tahlil qilishga tortish asnosida uning mazmuni, undagi yetakchi fikrlar ahamiyati ni ham anglab boradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda yuqoridagilar bilan birga, adabiy-badiiy tushunchalarini shakllantirishda, ijodiy tasavvuri va tafakkurini o'stirishda muhim ahamiyatga egadir. Badiiy tasvir vositalari, obrazlilik ham o'quvchilar xayolot dunyosini boyitishda ahamiyatlidir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining badiiy matn ustida ishlashlarida ijodiy yondashishlari muhimdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ro'ziyeva J.B, Ismailov M.K. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences - 2023. - 735. B.
2. Mamaraximova N.I. "Badiiy matn asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy tafakkurini shakllantirish metodikasi". Ilmiy-nazariy jurnal - 2025. –135 B.
3. Husanboyeva Q, Hazratqulov M, Jamoldinova Sh. "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi". T.: "Innovatsion-zoyo", 2020. – 380 B.
4. Muminova D.A. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi".- Toshkent, 2019. - 160. B.
5. Nurullayeva Sh. "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi". Ped.fan.nom. ... diss. Toshkent. - 2007. –180 B.
6. Ismatov S.R. "Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash orqali nutqni o'stirish metodik muammo sifatida" - Inter education&global study – 2024. – 75 B.
7. Butayorov M.X. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlar bilan tanishtirishda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari" - Inter education & global study - 2024. – 438. B.
8. Xalilova R.R. Ona tili o'qitish metodikasi. Buxoro: Fan va ta'lim. 2022.136 B.
9. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. "Adabiyot o'qitish metodikasi" «Shafoat nur fayz» - Toshkent - 2020. – 352 B.
10. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. –16 B.

**PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF  
O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING  
PEDAGOGIK AHAMIYATI (uzoq qishloq hududlari misolida)**

Xudoyberganov Doniyor Yangiboy o'g'li

Urganch davlat pedagogika instituti dotsent v.b.

**Yuldasheva Intizor Botirovna**, Urganch davlat pedagogika instituti magistri

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida uzoq qishloq hududlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish metodikasi tahlil qilinadi. Dastur mazmuni, maqsadlari va pedagogik ahamiyati ko'rib chiqilib, samarali yondashuvlar tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, o'qish savodxonligi, boshlang'ich sinf, baholash dasturi, qishloq hududlari, pedagogik metodlar.

**THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF IMPROVING PRIMARY SCHOOL  
STUDENTS' READING LITERACY BASED ON THE PIRLS INTERNATIONAL  
ASSESSMENT PROGRAM (A Case Study of Remote Rural Areas)**

**Abstract.** This article analyzes the methodology for improving reading literacy among primary school students in remote rural areas based on the PIRLS international assessment program. The content, objectives, and pedagogical significance of the program are examined, and effective approaches are recommended.

**Keywords:** PIRLS, reading literacy, primary school, assessment program, rural areas, pedagogical methods.

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ  
ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ  
МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ PIRLS**

(На примере отдалённых сельских районов)

**Аннотация.** В данной статье анализируется методика повышения читательской грамотности учащихся начальных классов в отдаленных сельских районах на основе международной программы оценки PIRLS. Рассмотрены содержание, цели и педагогическое значение программы, а также предложены эффективные подходы.

**Ключевые слова:** PIRLS, читательская грамотность, начальные классы, программа оценки, сельские районы, педагогические методы.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lif jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, uzoq qishloq hududlarida ta'lif sifati va o'qish savodxonligini oshirish masalasi dolzarbdir. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) — bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholovchi xalqaro tadqiqot dasturidir. Ushbu dast ur, dunyo miqyosida 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini solishtirishga qaratilgan va uning natijalari o'qish ta'limi sifatini baholashda muhim ahamiyatga ega. PIRLS dasturi, o'quvchilarning o'qish savodxonligini nafaqat bilim darajasida, balki matnni tahlil qilish, mantiqiy izlanish va o'z fikrini aniq ifodalash kabi qobiliyatlar bilan o'chaydi. Bu dastur ta'lif tizimi uchun o'qish savodxonligini yaxshilashga oid global tendensiyalarni belgilab beradi va ta'lif metodologiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

PIRLS dasturida ishtirok etish, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasini xalqaro miqyosda baholash imkoniyatini yaratadi. O‘zbekiston ham ushbu xalqaro baholash dasturida ishtirok etib, ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘ymoqda. Xalqaro baholash dasturlari natijalari asosida, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirishga qaratilgan metodikalarni takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta”lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi [1].

O‘zbekistonning uzoq qishloq hududlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishga qaratilgan metodika o‘rganilishi o‘ta muhimdir. Qishloq hududlarida o‘qish savodxonligi darajasi ko‘pincha shahar hududlariga nisbatan pastroq bo‘ladi. Bu holatning sabablari turli omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin: ta’lim resurslarining etishmasligi, o‘qituvchilar malakasining pastligi, o‘quv materiallarining nisbatan kamligi va boshqa ko‘plab omillar. Shuningdek, texnologiya va raqamli vositalarga nisbatan cheklangan imkoniyatlar ham qishloq hududlarida o‘quvchilarining o‘qish savodxonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Metodologiya.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish uchun samarali metodlarni ishlab chiqish, o‘qish ta’limini yangi talablar asosida takomillashtirish zarur. Ushbu metodologiya qishloq hududlarida ta’lim resurslarining cheklanganligini hisobga olib, o‘qish savodxonligini oshirishda innovatsion yondashuvlarni va an’anaviy metodlarni uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan. O‘zbekistonning uzoq qishloq hududlarida o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishda qo‘llaniladigan asosiy metodlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

3. Mamadaliyeva Z.R. Virtual laboratory - information in education a specific factor of the communication system in the form // Eurasian Scientific Herald journal. ISSN:2795-7365, Belgium. SJIF(2023):6.512. Vol.5, 2022. p. 92–95. <https://www.geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/614>
4. Mamadaliyeva Z.R. Methodology for determining the level of bilirubin in the blood in a biochemical analyzer in a Virtual laboratory method // International conference on advance research in humanities, sciences and education. England. 2023.Vol.1, №1.p.20<https://conferencea.org/index.php/confrenceas/article/view/371>
5. Mamadaliyeva Z.R. Tibbiyot oliv ta’lim muassasalarida localhost dasturi asosida biokimyo fanini virtual laboratoriyalardan foydalanib o‘qitish // The role of exact sciences the era of modern development. Nukus. Vol.1 №.1, 2023. p. 47-51.
6. National Academies of Sciences (2022). Science and Engineering in Virtual Laboratories. National Academies Press.
7. Smith, A. et al. (2023). Virtual labs in STEM education: A meta-analysis. Journal of Science Education and Technology, 32(1), 45–60.

## TALABALARDA PEDAGOGIK JARAYONDA REFLEKSIYA VA EMOTSIONAL MUVOZANATNI TA'MINLASH MASALALARI

Yakubova Shahnoza Erkinbayevna

Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi mudiri  
Jumanazarova Sarvinoz Ergash qizi, Pedagogika fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning pedagogik jarayondagi refleksiv faoliyati va emotsiyal muvozanatini shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Bundan tashqari talaba shaxsiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinib, ularni qo'llab-quvvatlash yo'llari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** refleksiya, emotsiyal muvozanat, stress, Aristotel, Jon Lokk, emotsiya, refleksiya turlari, metod, texnologiya, ijobiy fikrlash.

### ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РЕФЛЕКСИИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО РАВНОВЕСИЯ СТУДЕНТОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования рефлексивной активности и эмоциональной уравновешенности студентов в педагогическом процессе. Кроме того, анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на личность студента, и показаны способы их поддержки.

**Ключевые слова:** рефлексия, эмоциональное равновесие, стресс, Аристотель, Джон Локк, эмоция, типы рефлексии, метод, технология, позитивное мышление.

### ISSUES OF PROVIDING REFLECTION AND EMOTIONAL BALANCE IN STUDENTS' PEDAGOGICAL PROCESS

**Abstract.** This article discusses the theoretical and practical aspects of forming students' reflective activity and emotional balance in the pedagogical process. In addition, internal and external factors influencing the student's personality are analyzed and ways to support them are shown.

**Keywords:** reflection, emotional balance, stress, Aristotle, John Locke, emotion, types of reflection, method, technology, positive thinking.

**Kirish.** Bugungi kunda, ta'limga kuchli e'tibor qaratilayotgan bir davrda ushbu sohada innovatsion g'oyalar yaratish va pedagogik muhitni yaxshilash va yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida ko'plab imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Zamonaviy pedagogik jarayonning samaradorligi nafaqat bilim berish va ko'nikma hoslil qilish bilan, balki talabalarning ichki dunyosini anglash, ularning ruhiy holati va hissiy tajribalarini inobatga olish bilan chambarchas bog'liqidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, refleksiya va emotsiyal muvozanat talabalarning o'quv jarayonidagi faol ishtirokini, o'z-o'zini anglashini hamda psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Bugungi globallashuv va ma'lumotlar bosimi kuchaygan davrda talabalarning hissiy holati, ruhiy barqarorligi va o'z-o'zini anglash ehtiyoji ortib bormoqda. Shu sababli pedagogik jarayonda refleksiya va emotsiyal muvozanatni ta'minlash masalalarini chuqur o'rganish, samarali metod va yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlil va tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik jarayonda refleksiya va emotsiyal muvozanatni ta'minlash masalalari bugungi kunda pedagogika, psixologiya hamda ta'lim

texnologiyalari sohasi mutaxassislari e'tiborida bo'lib kelmoqda. Turli ilmiy manbalarda refleksiya o'quvchi va talabaning o'z bilimi, tajribasi va harakatlariga ongli tarzda baho berish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

O'zbekistonda ham bu masalaga doir tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N.S.Jo'raev, Y.Alixonova, Sh.E.Yakubova va boshqalar tomonidan talabalarning ichki faoliyatini faollashtirish, refleksiya asosida o'z-o'zini rivojlantirish metodlari ishlab chiqilgan [1].

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlar talabaning faolligi, mustaqil fikrlashi va o'z o'qishi-ga mas'uliyat bilan yondashishini ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayonda refleksiya, ya'ni shaxsning o'z faoliyatini tahlil qilishi, baholashi va takomillashtirishga yo'naltirilgan ichki mulohaza jarayoni ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, pedagogik jarayonda talabaning o'z o'quv faoliyati natijalarini anglashga va ularni baholashga qodir bo'lishi, uning kasbiy shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Refleksiya nafaqat bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, balki tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga ongli yondashuv va o'zini rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirishda ham zaruriy vositadir. Shu sababli, talabalarda reflektiv madaniyatni shakllantirish masalasi bugungi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda. Refleksiya tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib, "reflexio" – "ortga nazar" ma'nosini anglatadi, ya'ni insonning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlari yoki tajribalarini chuqur tahlil qilishi va ularga nisbatan o'z munosabatini shakllantirish jarayonidir. Mashhur yunon faylasufi Aristotelning fikricha, refleksiya "Tafakkurga yo'naltirilgan tafakkur" demakdir. Ingliz faylasufi Jon Lokkning ta'kidlashicha, "Refleksiya bu – ong o'z faoliyatini bo'ysundiradigan kuzatuvdir" <sup>1</sup>.

Refleksiyaning quyidagi turlari mavjud:

- *metakognitiv refleksiya* – o'z fikrlash jarayonini kuzatish va boshqarish;
- *affektiv refleksiya* – emotsiyalar va hissiyotlar ustida mulohaza yuritish;
- *kasbij refleksiya* – o'z pedagogik amaliyoti ustidan tahlil yuritish.

Pedagogik jarayonda talabalardagi refleksiya jarayoni – bu talabalar o'z ta'limiy faoliyati, bilim olish jarayoni, darsda ishtiroki, tushungan yoki tushunmagan jihatlari haqida mustaqil fikr yuritishi, tahlil qilishi va xulosalar chiqara olishi demakdir. Bunday reflektiv yondashuv talabaning o'z-o'zini rivojlantirishiga, mas'uliyatni his qilishiga va tanqidiy fikrlashiga xizmat qiladi.

*Emotsional muvozanat* – bu insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va ularni vaziyatga mos tarzda ifoda etish qobiliyatidir. U psixologik barqarorlik va ruhiy sog'lomlikning muhim ko'rsatkichidir. Emotsional muvozanatli inson har qanday holatda o'zini tutib tura oladi, emotsiya, ya'ni his-tuyg'ularini boshqara oladi hamda salbiy his-tuyg'ulari, jumladan, g'azab, xavotir, qo'rquvni nazorat qila oladi, stressga chidamli bo'ladi, ijobjiy munosabatlarni rivojlantira oladi va hissiy qarorlarni emas, mulohazali qarorlarni ustun qo'yadi<sup>2</sup>.

Talabalarda emotsional muvozanat – bu ularning o'qish, shaxsiy hayot va ijtimoiy munosabatlarda yuzaga keladigan hissiy holatlarni boshqara olish, stressli vaziyatlarga sog'lom munosabatta bo'lish va ichki barqarorlikni saqlab qolish qobiliyatidir. Talabalarda emotsional muvozanatning ahamiyati juda katta. Buni quyidagilarda ifodalash mumkin:

- o'qishdagi muvaffaqiyatga erishishda muhim, chunki emotsional barqarorlik diqqatni jamlash, sabr-toqatli bo'lish va murakkab topshiriqlarni bajarishga yordam beradi;
- stressga chidamlilik masalasida ahamiyatli, sababi shuki, imtihonlar, topshiriqlar va kundalilik hayotdagi bosimlar hissiy muvozanatli talaba uchun yengilroq kechadi;

<sup>1</sup> N.S.Jo'rayev. Psixologiya fanida refleksiya tushunchasi va uning ko'rinishlari. "Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. Toshkent - 2025. 12–15.


<sup>2</sup> Y.G.Alixonova. Hissiyotni boshqarish, psixologik muvozanat kaliti. "Modern Science and Research" international scientific journal 2025. 985–988.

- ijtimoiy munosabatlarda zarur, zeroki hissiy muvozanatli talabalar kursdoshlari, o'qituvchilar va yaqinlari bilan sog'lom munosabatlarni rivojlantira oladi;

- shaxsiy o'sishda ulkan ahamiyat kasb etadi, negaki hissiy muvozanat o'z-o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va hayotiy maqsadlarni belgilashga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash joizki, hamma insonda ham emotsiyalarni boshqarish ko'nikmasi mavjud emas. Bunga psixologik bilimlarning yetishmasligi yoki iroda sustligi sabab bo'lishi mumkin. Talabalarda emotsiional muvozanatning buzilishiga turli ichki va tashqi omillar sabab bo'ladi. Bu omillar ularning hissiy holatiga, o'zini tutishiga va o'qish jarayonidagi motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, emotsiional beqarorlikni keltirib chiqaruvchi sabablarga e'tibor qaratish, ularni erta aniqlash va bartaraf etish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Emotsional muvozanatni izdan chiqaruvchi omillar ta'lim jarayonida stress, haddan tashqari yuklama, o'z-o'zini baholashdagi noaniqlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi, muallim va tengdoshlar bilan bo'lgan ziddiyatli munosabatlar kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, oilaviy muammolar, moliyaviy qiyinchiliklar yoki kelajakdag'i mavhumlik ham talabalarda xavotir va tushkunlikni kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, axborot texnologiyalarining haddan tashqari ta'siri, ijtimoiy tarmoqlardagi bosim va taqqoslash hissi emotsiional zo'riqishni yanada kuchaytiradi. Bularning barchasi talabaning psixologik barqarorligiga salbiy ta'sir qilib, uning o'qishdagi faolligi, e'tibor jamlashi va ijtimoiy moslashuvchanligini pasaytiradi.

Shu bois, talabalarning emotsiional salomatligiga muntazam e'tibor qaratish, ularning psixologik holatini qo'llab-quvvatlash va zaruriy sharoitlarni yaratish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.



Emotsional muvozanatni shakllantirish yo'llari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. O'zini anglash – his-tuyg'ularning sababini tahlil qilish;
2. Stressni boshqarish – nafas olish mashqlari, meditatsiya, sport bilan shug'ullanish;
3. Vaqt ni to'g'ri boshqarish – haddan tashqari charchash hissiy charchoqqa olib keladi;
4. Ijobiy fikrlash – o'ziga ishonchni oshirish va salbiy fikrlarni kamaytirish;
5. Samarali muloqot – hissiyotlarni sog'lom tarzda ifoda etish va boshqalarni tinglash.

Pedagogik jarayonda talabalardagi emotsiional muvozanatni boshqarishda ijobiylilik, ya'ni pozitivlik muhim psixologik va tarbiyaviy omil sifatida e'tirof etiladi. Bugungi ta'limda nafaqat

bilim berish, balki talabani ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, emotsional barqarorlikni shakllantirish ham asosiy vazifalardan biridir. Darslarda o'zaro hurmat, iliq munosabat, qo'llab-quvvatlovchi fikrlar orqali yaratilgan ijobiy psixologik muhit talabaning o'zini xavfsiz, qadrlangan va o'ziga ishongan holda his qilishiga sabab bo'ladi. Bu holat esa emotsional muvozanatni saqlashga yordam beradi<sup>1</sup>.

Emotsional muvozanatni saqlovchi va ruhiyatga yaxshi ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab mashg'ulot turlari mavjud bo'lib, ular bilan doimiy ravishda shug'ullanish tavsiya etiladi. Jumladan, kundalik daftar tutish, ya'ni kun oxirida kun davomida qanday kechinmalarni boshdan kechirganlik, bior muammoga duch kelganda uni qay yo'l bilan hal qilganlik haqida qayd qilib borish. Yana shunga o'xshash usul, rejalashtirish daftari yuritish, ya'ni bunda kunni oldindan rejalashtirish va shu kun uchun ma'lum reja va maqsadlar qo'yib, kun davomida asosiy e'tiborni shularga qaratish orqali ortiqcha yuklanma va stress olmaslik. Bu daftarga nafaqat bajarilishi zarur bo'lgan ishlar ro'yxati yozilishi mumkin, balki hissiyotlarni yozish ham tavsiya qilinadi, masalan, men bugun tabassum qilib yuraman, arzimas narsalar mening kayfiyatimga ta'sir ko'rsata olmaydi, ishlarimni pozitivlik bilan hal qilaman tarzida. Yana meditatsiya ham hissiyotlarni nazorat qilishda yaxshi ta'sirga ega, chunki meditatsiya mashqlari ongni tozalaydi, salbiy fikrlardan uzoqlashtiradi va sokinlik baxsh etadi. Bundan tashqari, jismoniy harakatlar, ayniqsa yurish, yengil yugurish yoki yoga mashqlari ham emotsional barqarorlikka katta hissa qo'shadi. Shuningdek, rasm chizish, she'r yozish kabi ijodiy mashg'ulotlar yordamida inson o'z his-tug'ularini ifoda eta oladi, bu esa ichki yengillikka olib keladi.

Ochiq va samimiyl muloqot ham ruhiy muvozanatni saqlashda alohida ahamiyatga ega. Inson o'z kechinmalarini yaqinlariga, ishonchli do'stlariga yoki psixologga aytish orqali ichki bosimni yengillashtiradi. Bundan tashqari, tabiat qo'ynida sayr qilish, issiq choy ichib dam olish, yaxshi kitob o'qish yoki tinch musiqa eshitish ham inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu va bu kabi mashg'ulotlar insonning ichki olamini muvozanatda ushlab turishga yordam beradi, ruhiy barqarorlik va hayotdan qoniqish hissini mustahkamlaydi. Endi asosiy fokusni pedagogik jarayonga qaratadigan bo'lsak, ta'lim faoliyatida ham emotsional barqarorlikni ta'minlovchi turli xil usullar mavjud. Misol tariqasida, ijtimoiy psixologik muhitni yaratish, ya'ni pedagoglar tomonidan talabalarning ehtiyojlariga hurmat bilan yondashish, ularning fikrlarini tinglash, har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish, talabalarga o'zini tutish madaniyati, emotsiyalarni boshqarish yo'llarini o'rgatish. Bundan tashqari, zarurat bo'lganda ta'lim muassasasidagi psixologlar bilan individual va guruhiy mashg'ulotlar tashkillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik jarayonning samaradorligi nafaqat bilim berish va o'quv jarayonini tashkil etish darajasiga, balki undagi psixologik va emotsional muhitga ham bevosita bog'liqdir. Xususan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi emotsional muvozanatning mavjudligi ta'lim oluvchilarning motivatsiyasi, o'zini namoyon qilish darjasи, shaxsiy rivojanishi va ijtimoiy moslashuvi uchun muhim omil hisoblanadi. Emotsional muvozanat shaxsnинг o'z his-tug'ularini anglash, boshqarish, boshqa odamlarning hissiy holatlarini to'g'ri qabul qilish va muvofiqlashtira olish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Pedagogik jarayonda emotsional muvozanatning saqlanishi ikki tomonlama psixologik hamkorlikni talab qiladi. Bir tomonidan, o'qituvchi shaxsining emotsional barqarorligi, pedagogik empatiya darjasи va muloqot madaniyati talabaning hissiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkinci tomonidan, talabalar tomonidan ko'rsatiladigan hissiy javoblar, ularning ichki ruhiy holi ti va emotsional sezgirlingi o'qituvchining kasbiy faoliyatiga ham ta'sir etishi mumkin. O'qituvchi

<sup>1</sup> III.Э.Якубова. Прививать Студентам Идею Позитивизма. Посредством Духовного Наследия Восточных Учёных. "Miasto Przyszłości" международный онлайн журнал. Польша -2024. 587-590.

o‘z emotsiyalarini boshqara olgandagina, talabalar hissiy holatini sezib, mos pedagogik strategiyalarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday holatda, o‘zaro muloqot jarayoni tinch, do‘stona va ishonchli tarzda kechadi. Bundan tashqari, emotsiyal muvozanatni saqlashda ijobjiy muloqot muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi talabani faqat bilim oluvchi subyekt sifatida emas, balki emotsiyal holatga ega individual shaxs sifatida qabul qilishi zarur.

Emotsional ehtiyojlarga e’tibor berish, xolis yondashuv, ijobjiy baholash va hissiy qo‘llab-quvvatlash muhitni barqarorlashtiradi. Talaba o‘zini qadrlangan, tushunilgan va qo‘llab-quvvatlangan his qilganida, o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ichki motivatsiyasi kuchayadi.

Shuningdek, emotsiyal muvozanatni saqlashda dars jarayonining tashkil etilish uslublari ham muhimdir. Interaktiv yondashuvlar, o‘zaro fikr almashish, kichik guruhlarda ishslash, muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish, bularning barchasi talabalar o‘rtasidagi emotsiyal barqarorlikni mustahkamlab, o‘qituvchi bilan hissiy yaqinlikni kuchaytiradi. Yana bir muhim jihat – bu o‘qituvchining pedagogik faoliyatda o‘zining emotsiyal sog‘lig‘ini saqlay olishi. Agar o‘qituvchi zo‘riqish, charchoq yoki ruhiy beqarorlik holatida bo‘lsa, bu uning muloqot sifatiga va umuman ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, o‘qituvchilar uchun stressni boshqarish, professional refleksiya, o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ham pedagogik jarayonni emotsiyal jihatdan sog‘lom saqlashda muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi emotsiyal muvozanatning saqlanishi – bu kompleks, ikki tomonlama jarayon bo‘lib, u yuqori darajadagi hissiy sezuvchanlik, emotsiyal intellekt, muloqot madaniyati va ijobjiy psixologik muhitni talab etadi. Ushbu omillar uyg‘unlashgandagina ta’lim jarayoni samarali, barqaror va insonparvar bo‘la oladi.

**Muhokama va natijalar.** Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishga, balki talabaning shaxsiy rivojiga, psixologik barqarorligiga va ichki o‘zgarishlarga e’tibor qaratishni talab etadi. Bu jarayonda refleksiya va emotsiyal muvozanat pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismlariga aylanmoqda. Refleksiya talabaning o‘zini anglash, kasbiy yo‘nalishini baholash, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvini shakllantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, emotsiyal muvozanat talabaning stressga nisbatan bardoshini oshirish, o‘qish motivatsiyasini saqlash va ijtimoiy muhitga moslashishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, reflektiv faoliyatni muntazam qo‘llash talabalarning o‘z fikrini aniq ifoda etish, darsdagi faol ishtirok, hamkorlik va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Ammo bu ko‘nikmalar tabiiy ravishda shakllanmaydi, balki ular uchun muayyan sharoit va metodik yondashuv zarur.

Shuningdek, emotsiyal muvozanatni ta’minalashga qaratilgan treninglar, psixologik mashg‘ulotlar va muloqot muhitining ochiqligi orqali talabada o‘z emotsiyalarini anglash va boshqarish qobiliyati kuchayadi. Shu bois, refleksiya va emotsiyal muvozanatni rivojlantirishga yo‘naltilgan integrativ yondashuvlar o‘quv jarayonining sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

**Xulosa.** Pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda refleksiya va emotsiyal muvozanatni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bu ikki jihat o‘zaro uyg‘unlashganda, talabaning faqat bilim emas, balki o‘zini anglash, boshqalar bilan hamkorlik qilish va ichki barqarorlikni saqlash kabi kompetensiyalari rivojlanadi. Mazkur yondashuvni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish esa nafaqat individual yutuqlar, balki umumiylar ta’lim muhiti sifatining oshishiga xizmat qiladi. Shu bois reflektiv va emotsiyal jihatdan sog‘lom o‘quv muhitini shakllantirish zamonaviy ta’limda ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralishi zarur.

Hozirgi davr ta’lim jarayonida talabaning shaxsiy faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va ruhiy barqarorligini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik faoliyatda refleksiya va emotsiyal muvozanat tushunchalarining

uyg‘un qo‘llanilishi talabaning ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Reflektiv yondashuv orqali talaba nafaqat o‘z faoliyatini anglaydi, balki uni maqsadli tarzda boshqarishga ham intiladi. Bu jarayonda his-tuyg‘ularni idrok etish va boshqarish ko‘nikmalari esa ichki ijobiy psixologik holatni mustahkamlashga ko‘maklashadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, pedagogik jarayonda ushbu ikki omil o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lib, ular birgalikda o‘quv muhitini insonparvarlik ruhida tashkil etishga imkon yaratadi. Bu esa talabaning nafaqat bilim olishiga, balki o‘zini anglashiga, shaxsiy qarorlar qabul qilishiga va o‘z ustida izchil ishlashiga zamin hozirlaydi. Shu bois, ta’lim jarayonida refleksiya va emotsiyal muvozanatni ta’minalash masalalariga nazariy va amaliy jihatdan jiddiy e’tibor qaratish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.** N.S.Jo‘rayev. Psixologiya fanida refleksiya tushunchasi va uning ko‘rinishlari. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya. Ilmiy-amaliy konferensiya. O‘zbekiston. 4(4), 2025. 12–15.
- 2.** Y.Alixonova. Hissiyotni boshqarish, psixologik muvozanat kaliti. Modern Science and Research. International scientific journal. O‘zbekiston. 2025. 4(1), 985–988.
- 3.** III.Э.Якубова. Прививать Студентам Идею Позитивизма. Посредством Духовного Наследия Восточных Учёных. Miasto Przyszłości. Internatonal online journal. Польша 2024. 44, 587-590.

## INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOGNING RO'LI

Yakubova Shahnoza Erkinbayevna

Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasи mudiri  
Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi, Pedagogika fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lism jarayonida pedagogning o'rni va olib borishi lozim bo'lgan faoliyatlar haqida so'z boradi. Inklyuziv ta'lism jarayonida maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanishi va qobiliyatlarini namoyon qilishda pedagogning vazifalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lism, pedagog, vazifa, ijtimoiylashuv, harakat, muhit, resurs o'qituvchi, individual, faoliyat.

### РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** В статье рассматривается роль педагога в процессе инклюзивного образования и виды деятельности, которые он должен осуществлять. Раскрыты обязанности педагога по развитию и проявлению способностей ребенка с особыми потребностями в процессе инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, учитель, задача, социализация, действие, среда, ресурсный учитель, личность, деятельность.

### THE ROLE OF THE TEACHER IN INCLUSIVE EDUCATION

**Abstract.** The article discusses the role of the teacher in the process of inclusive education and the activities that he should carry out. The tasks of the teacher in the development and manifestation of the abilities of a child with special needs in the process of inclusive education are revealed.

**Keywords:** inclusive education, teacher, task, socialization, action, environment, resource teacher, individual, activity.

**Kirish.** Bugungi kunda zamon rivojlanishi bilan birgalikda ta'lism sohasiga, xususan, inklyuziv ta'limga ham katta e'tibor berilmoqda. Inklyuziv ta'liz-zamonaiviy jamiyatda har bir insonning ta'liz olish huquqiga ega bo'lishidir. Bugungi kunda bu ta'liz shakli insonparvarlik tamoyilalarining ajralmas qismiga aylandi. Bu ayniqsa, inklyuziv ta'liz sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Inklyuziv ta'liz-bu maxsus ehtiyojga ega bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladigan tizimdir. Yangi tahrirdagi "Ta'liz to'g'risidagi qonunning (2020-yil 23-sentabr) 5-moddasi qoidalariga asosan ta'liz olishda hamma teng huquqlidir<sup>1</sup>. Bundan anglashimiz mumkinki, inklyuziv ta'liz jamiyat uchun zarur bo'lgan ta'liz shaklidir va bu jarayonning eng muhim ishtirokchisi bu pedagog hisoblanadi. Aynan pedagog sinfdagi muhitni shakllantiradi, o'quvchilar o'rtasida tenglik, bag'rikenglik va hurmatni o'rgatadi. Inklyuziv ta'liz bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar bilan pedagoglar uзвиy bog'liq holda faoliyat olib borishlari lozim.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** Inklyuziv ta'lizni tashkil etishda eng asosiy vazifa bu pedagog zimmasida bo'ladi. Pedagog bu jarayonda faqat inklyuziv ta'lizdagи o'quvchi bilan uning psixologiyasi bilan emas, balki eng asosiysi ota-onalar psixologiyasini ham bilishi kerak. Inklyuziv ta'lizning maqsadlaridan biri ham o'quvchini ota-onasi bag'ridan uzoq bo'lmagan holda ta'liz olishlarini ta'minlashdir. Ota-onalar bilan muloqotni tog'ri yo'lga qo'yish, ular bilan faoliyat olib borish ham katta mas'uliyat talab qiladi. Ota-onasi bu davrda bolasining tengdosh-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ta'liz tog'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sen. O'RQ-637-son

laridan ajralishini va ba'zan bolasining kamchiliklarini qabul qilishni xohlamaydi. Bu jarayonda pedagog o'quvchi va ota-onalarning psixologiyasi pedagoglari bilan birligida inklyuziv ta'limga sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilar bilan ishlash rejasini tuzadi va ularni sinfga uyg'unlashtiradi. Maxsus pedagogika korreksion ta'limga olib boradi, mashg'ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlaydi. Alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik tibbiy yordam ko'rsatishni muvofiqlashtiradi. Boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiyligi mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlarni olib boradi. Zarur bo'lganda o'quvchilar bilan qo'shimcha yakka tartibda mashg'ulotlar tashkil qiladi.

Inklyuziv ta'limga tashkil etishda o'quvchi sog'ligi birinchi o'rinda turadi. Ularning psixologiyasi sinfdagi qolgan sog'lom o'quvchilar psixologiyasidan ajralib turadi. O'zini boshqa o'quvchilardan kam his qilish, tortinish, fikr bayon qila olmaslik kabi muammolar uchraydi. Pedagog esa barcha o'quvchilar qatori bu o'quvchilar imkoniyati va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga harakat qilishi lozim. Bu jarayonda, ayniqsa, boshlang'ich sinf davrida masxara qilish, kamsitish holatlari uchraydi. Bu holat bolaning psixologiyasiga salbiy ta'sir qiladi va o'quvchida muktabga borishni xohlamaslik, jamiyatdan ajralish, ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashish kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlarda pedagog sinf jamosida barchaga birdek e'tibor qaratishi va o'quvchilar o'rtasida adolatni ta'minlashi kerak.

**Tahlil va natijalar.** Inklyuziv ta'limga darslarni rejalashtirish va tashkil etishda N.M.Pasenkovning quyidagi kuzatilishi kerak bo'lgan maxsus didaktik tamoyillarga asoslanadi:

- pedagogik optimizm tamoyili;
- erta pedagogik yordam tamoyili;
- ta'limga tuzatuvchi va kompensatsiyasi tamoyili;
- ta'limga ijtimoiy moslashuv yo'nalishi tamoyili;
- tafakkur, til va muloqotni maxsus ta'limga vositasi sifatida rivojlantirish tamoyili;
- ta'limga va tarbiyada faoliyat yondashuv tamoyili;
- differensional va individual yondashuv tamoyili;
- maxsus pedagogik rahbarlik zarurligi tamoyili.<sup>1</sup>

Bu sanab o'tilgan tamoyillarni pedagog ta'limga jarayonida qo'llashi va imkoniyati cheklangan bolani bilim olishini va huquqlarini himoya qilishi zarur.

Pedagog ta'limga jarayonida metodika va turli xil metodlardan foydalanganda quyidagilarga amal qilishi lozim:

- metodikani o'quvchining yoshiga yoki uning hozirgi rivojlanish darjasiga muvofiqligiga;
- nuqson tuzilishiga;
- asta-sekin murakkablashadigan o'yin materiallarini tanlash;
- o'yin mazmuni va bolaning bilim tizimi o'rtasidagi bog'liqlik;
- darsning korreksion maqsadga muvofiqligiga;
- faoliyatni o'zgartirish tamoyilini hisobga olish;
- yorqin, ovozli o'yinchoqlar va qo'llanmalardan foydalanish;
- o'yinchoqlar va yordamchi vositalarning gigiyena talablariga muvofiqligini inobatga olish va xavfsizligini ta'minlash.

Inklyuziv ta'limga ishtirokchilari faqatgina pedagog va imkoniyati cheklangan o'quvchi emas, balki

- Sog'liqni saqlash tizimi;
- Xalq ta'limga tizimi;

<sup>1</sup> Пасенкова Н.М. Методические рекомендации для педагогических работников образовательных учреждений по организации работы с детьми, имеющими ограниченные возможности здоровья в условиях инклюзивного образования. -Ставрополь: СКИРО ПК и ПРО, 2012.-46 с.

- mahalla;
- maktab jamoasi;
- oila va sinfdoshlar jamosi kiradi.

Nogironligi bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvatlashning asosiy maqsadlari:

- bolaning rivojlanishida mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish;
- bolaga rivojlanish, tarbiyaviy va ijtimoiy dolzarb muammolarni hal qilishga yordam berish;
- individual ta'lif yo'nalişlarini ishlab chiqish;
- ta'lif dasturlarini psixologik qo'llab quvatlash.

Inklyuziv ta'lifni yanada samarali bo'lishi uchun dars jarayonlariga resurs o'qituvchi ham jalg qilinadi. Resurs o'qituvchi maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lif sharoitida o'qitish uchun yordam beruvchi, nogironligi bo'lgan o'quvchilarini sog'lom bolalar bilan birlashtirishda harakatlana olishi uchun yordam beradigan ta'limga aloqador shaxsdir.

Inklyuziv ta'lif jarayonida pedagog vazifalari deb quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin:

-Inkluziv ta'lif sharoitida har bir o'quvchining imkoniyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlar turlicha bo'ladi. Shu bois pedagog har bir bola uchun alohida yondashuv, metod va strategiyalarni tanlashi lozim. Bu esa o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, sabr-toqat va kreativlikni talab etadi.

-Inklyuziv muhitdagi o'quvchilar ko'pincha o'zini ajralgan yoki qabul qilinmagan his qilishlari mumkin. Bunday holatlarda pedagog ijobiy psixologik muhit yaratishi, o'quvchilar orasida do'stona munosabatlar shakllanishiga ko'maklashishi zarur. Pedagoglar ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'lishi, bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatib borishi va ularga zarur tavsiyalar berishi muhim. Bu ikki tomonlama hamkorlik bolaning ta'lifdagi muvaffaqiyatini oshiradi.

- O'qituvchi nafaqat dars jarayonida, balki o'quvchilar orasida ijtimoiy integratsiyani ta'minlashda ham faol bo'lishi lozim. Bu orqali nogironligi bor yoki boshqa ehtiyojli o'quvchilar jamoadan ajralmagan holda o'qish imkoniga ega bo'ladi.

- Maxsus o'quv rejalarini va metodikalarni ishlab chiqish;
- O'quvchilarining o'ziga xos qobiliyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirishga yo'naltirish;
- Differensial yondashuvdan foydalanish;
- Darsni har xil darajadagi o'quvchilar uchun tushunarli va qulay qilib tashkil etish;
- Vizual, eshitish, harakatli (kinaestetik) o'r ganish uslublarini birlashtirish;
- O'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish;
- Ijtimoiy moslashuv va tengdoshlari bilan munosabatlarni yaxshilash;
- Ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- Hamkorlik va muvofiqlashtirish;
- Defektolog, logoped, psixolog kabi mutaxassislar bilan birlashtirish;
- Inkluziv muhitni yaratish uchun maktab jamoasi bilan yaqin aloqada bo'lish;
- Doimiy o'z ustida ishslash;
- Inklyuziv ta'limga oid yangi metodika va yondashuvlarni o'r ganish;
- Malaka oshirish kurslarida qatnashish;
- Muammolar va ularni hal qilish yo'llari.

Afsuski, ko'plab ta'lif muassasalarida hali ham inkluziv ta'lifni to'laqonli joriy etish bilan bog'liq muammolar mavjud. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

- Malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi;
- Maxsus didaktik materiallarning kamligi;
- Infratuzilmaning mos emasligi (maxsus jihozlar yo'qligi);

- Jamiyatda hali ham mavjud bo‘lgan stereotiplar va kamsitish holatlari.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni ko‘rish lozim:

- O‘qituvchilar uchun maxsus reabilitatsion va inklyuziv metodikani o‘rgatuvchi kurslarni yo‘lga qo‘yish;

- Ta’lim muassasalarini zarur jihoz va materiallar bilan ta’minlash;

- Ijtimoiy ongni o‘zgartirish bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borish.

**Xulosa.** Inklyuziv ta’limda pedagogning roli – bu faqatgina bilim berish emas, balki har bir bolaning o‘quv muhitida o‘zini erkin, qadrlangan va muvaffaqiyatli his qilishiga sharoit yaratishdir. Bunday pedagog sabrli, empatiyali, moslashuvchan va innovatsion fikrlovchi bo‘lishi lozim. U faqat o‘qituvchi emas, balki mentor, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi va do‘sst sifatida maydonga chiqadi. U nafaqat dars o‘tadi, balki kelajak jamiyatining mehribon, teng huquqli fuqarolarini tarbiyalaydi. Shu sababli o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlash, ularni ruhiy va kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ta’lim islohoti uchun muhim yo‘nalishdir. Faqatgina kuchli va bag‘rikeng pedagoglar orqali biz chin ma’noda inklyuziv, adolatli va insonparvar ta’lim tizimini barpo eta olamiz.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim tog‘risida”gi Qonuni 2020-yil 23-sentyabr. O‘RQ-637-soni.  
<https://lex.uz/docs/5013007>
2. <https://doc4web.ru/russkiy-yazik/igrovie-tehnologii-kak-sredstva-razvitiya-detey-s-ovz.html>
3. Пасенкова Н.М. Методические рекомендации для педагогических работников образовательных учреждений по организации работы с детьми, имеющими ограниченное возможности здоровья в условиях инклюзивного образования. -Ставрополь: СКИРО ПК и ПРО, 2012.-46 с.
4. Erkinbaeva, Y. S. (2023). The role and importance of the positive worldviews of eastern scholars in strengthening the teacher-disciple tradition. International Journal of Advance Scientific Research, 3(06), 200-206.
5. Якубова, Ш. Э. (2024). Прививать Студентам Идею Позитивизма. Посредством Духовного Наследия Восточных Учёных. Miasto Przyszłości,

**INTERAKTIV DARSLAR ORQALI TALABALARING TADQIQOTCHILIK  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**  
**So‘dullayev Ziyoddin Yovqochovich**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola interaktiv darslar orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetensiylarini oshirishga bag‘ishlangan. Maqola interaktiv darslarning ta’rifi va maqsadlarini, tadqiqotchilik kompetensiylarining ahamiyatini va ularning asosiy komponentlarini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, maqlolada guruhiy muammolarni hal qilish, muntazam muvofiqlashtirish, interaktiv texnologiyalar va tajribalar kabi tadqiqotchilik kompetensiylarini rivojlantirish usullari batafsil tushuntiriladi. Xulosa qilib, maqola interaktiv ta’lim metodlarining o‘qituvchilarni tayyorlashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar:** yangilik, grammatik tuzilish, leksik birlik, fonetik o‘zgarishlar, boshlang‘ich ta’lim.

**DEVELOPING STUDENTS’ RESEARCH COMPETENCIES THROUGH  
INTERACTIVE LESSONS**

**Abstract.** This article is devoted to improving the research skills of future teachers through interactive lessons. The article examines the definition and objectives of interactive lessons, the importance of research skills and their key components. The article also explains in detail ways to develop research skills such as group problem solving, systematic coordination, interactive technologies and experiments. In conclusion, the article highlights the importance of interactive educational methods in teacher training.

**Key words:** innovation, grammatical structure, lexical unit, phonetic changes, primary education.

**РАЗВИТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ  
ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ УРОКОВ**

**Аннотация.** В данной статье освещаются проблемы преподавания иностранных языков в начальных классах. В частности, внедрение новых методов и урочных разработок в преподавании иностранных языков и одновременно внедрение педагогических технологий в учебный процесс, нетрадиционных методов обучения, инновационных подходов к преподаванию английского языка в средней школе. Речь идет о современных методах, пропагандируемых учителями за свободное мышление, глубину речи, отзывчивость, страсть к изучению языка и активное участие в занятиях.

**Ключевые слова:** инновация, грамматический строй, лексическая единица, фонетические изменения, начальное образование.

**Kirish.** Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — bilimli, fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qiluvchi va ilmiy asosda muammolarni hal qila oladigan mu-taxassislarini tayyorlashdan iborat. Shu munosabat bilan, oliy ta’lim muassasalarida interaktiv dars usullaridan keng foydalanish orqali talabalarni izlanishga yo‘naltirish, ularda tadqiqotchilik kompetensiylarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqotchilik kompetensiylarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqotchilik kompetensiylari nafaqat o‘qituvchilar uchun, balki talabalarning ta’lim sifatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilik

kompetensiyalari o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish va sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ta’lim jarayoni doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. An’anaviy o‘qitish uslublari o‘rniga, interaktiv dars metodlari o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida samarali muloqotni ta’milaydi. Ushbu maqolada interaktiv dars metodlarining mohiyati, afzalliklari va turli usullariga to‘xtalamiz.

Interaktiv darslar - bu o‘quv jarayonida o‘quvchilar faol ishtirok etadigan, muhokama, guruhiy ish va tajriba asosidagi o‘qitish metodlariga asoslangan darslardir. Ular talabalarning fikrlash va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv darslarning maqsadi o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifoda etish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishdir.[1]

Tadqiqotchilik kompetensiyalari o‘qituvchilarning ilmiy izlanish olib borish, ma’lumotlarni tahlil qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiyalar quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

**-Muammo aniqlash:** O‘quvchilarning o‘qituvchi sifatida qiyinchiliklarni aniqlash va ularni hal qilish qobiliyati.

**-Ma’lumot to‘plash:** Tadqiqot uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni izlash va yig‘ish kompetensiyalari.

**-Tahlil qilish:** Olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

**-Natijalarni taqdim etish:** Olingan bilimlarni samarali tarzda taqdim etish kompetensiyalari.

Interaktiv darslar orqali tadqiqotchilik kompetensiyalarini oshirishning bir necha usullarini ko‘rib chiqamiz[2]:

**Guruhiy muammolarni hal qilish:** O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish va ularga real hayotiy muammolarni taqdim etish orqali tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Har bir guruh muammoni hal qilish uchun tadqiqot olib boradi va natijalarni taqdim etadi.

**Muntazam muvofiqlashtirish:** O‘quvchilarning fikrlarini rivojlantirish uchun o‘qituvchilar muntazam muvofiqlashtirish va fikr almashish sessiyalarini o‘tkazishlari zarur. Bu o‘quvchilar o‘rtasida fikrlar almashinuvi va tadqiqot jarayonida yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

**Interaktiv texnologiyalar:** Darslarda interaktiv texnologiyalarni, masalan, onlayn so‘rovlar, elektron taqdimotlar va boshqa raqamli vositalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini oshirish mumkin. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifoda etish va ma’lumotlarni tezda yig‘ishlariga yordam beradi.

**Tajribalar va Izlanishlar:** O‘quvchilarga mustaqil tadqiqotlar va tajribalar o‘tkazishga imkon berish. Bu ularga amaliy tajriba orttirishga, yangi kompetensiyalarini o‘zlashtirishga va natijalarni tahlil qilishga yordam beradi.

Interaktiv darslar orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini oshirish, ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishiga, mustaqil fikrlashiga va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Kelajakda o‘qituvchilarni tayyorlashda interaktiv metodlarni keng qo‘llash, ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘ladi.

Interaktiv dars metodlari — bu o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida faol muloqot va hamkorlikni ta’milovchi o‘qitish usullari. Bu metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi, o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga, muammolarni hal qilishga va yaratishga imkon beradi.[3]

Interaktiv dars metodlarining bir nechta afzalliklarini ko‘rib chiqamiz:

**Faollik:** O‘quvchilar o‘z bilimlarini mustaqil ravishda qo‘llash va sinab ko‘rish imkoniyatiga

ega bo‘ladilar.

**O‘zaro muloqot:** O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot yaxshilanadi, bu esa dars jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi.

**Tanqidiy fikrlash:** O‘quvchilar muammolarni yechish jarayonida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

**Hamkorlik:** O‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlashni o‘rganadilar, bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshiradi.[4]

Interaktiv dars metodlari ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar ushbu metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning faolligini oshirishlari, ularning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. Natijada, o‘quvchilar bilimlarni faqat qabul qilibgina qolmay, balki ularni amaliyotda qo‘llashni ham o‘rganadilar. Bu esa kelajakda ularning muvaffaqiyatlari shaxslar bo‘lishiga yordam beradi.

Interaktiv darslar talabalarni nafaqat faollikka undaydi, balki ularni zamonaviy ilmiy izlanishlar yuritishga, mustaqil fikr ishlab chiqishga, tahlil qilishga va ilmiy xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Bu esa ularning kelajakda raqobatbardosh, malakali mutaxassis bo‘lib yetishishida muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv metodlar orqali shakllantirilgan tadqiqotchilik kompetensiyalari oliy ta’lim sifatini oshirish va innovatsion taraqqiyotga xizmat qiluvchi kadrlar yetishtirishda muhim omildir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1. Active Learning: A Best Practice Handbook for Educators** - Charles C. Bonwell va James A. Eison tomonidan yozilgan.
- 2. Teaching with Technology** - G. M. B. Inoue va R. W. Johnsonning maqolalari.
- 3. Khan Academy** - [khanacademy.org](https://www.khanacademy.org) - interaktiv o‘qitish usullarini qo‘llashga mo‘ljallangan platforma.
- 4. EDUCAUSE** - [educause.edu](https://www.educause.edu) - ta’lim texnologiyalari va interaktiv o‘qitish haqida ko‘plab resurslar.
- 5. Qodirov A. va boshqalar. “Pedagogik texnologiyalar”.** T.: Fan va texnologiya, 2020.

**YANGI O'ZBEKISTONDA PEDAGOGNING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR  
BILAN ISHLASH MAHORATINI OSHIRISH YO'LLARI**  
**Raximbayeva Gulyora Ulugbekovna**

Urganch shahar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida pedagoglarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari yoritiladi. Raqamli savodxonlik, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirish bo'yicha taklif va yondashuvlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, kompetensiya, innovatsion faoliyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, infratuzilma, onlayn dars, ma'lumotlar bazasi, elektron darslik.

**МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ ПО РАБОТЕ С ЦИФРОВЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**Аннотация.** В статье рассматриваются методы развития навыков работы учителей с цифровыми технологиями в условиях нового Узбекистана. Представлены предложения и подходы по повышению цифровой грамотности, эффективному использованию современных информационных технологий и готовности учителей к инновационной деятельности.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, компетентность, инновационная деятельность, информационно-коммуникационные технологии, Интернет, инфраструктура, онлайн-уроки, база данных, электронный учебник.

**METHODS OF IMPROVING TEACHER SKILLS IN WORKING WITH DIGITAL TECHNOLOGIES IN NEW UZBEKISTAN**

**Abstract.** This article discusses ways to develop teachers' skills in working with digital technologies in the conditions of New Uzbekistan. Proposals and approaches are presented to increase digital literacy, effective use of modern information technologies, and readiness of teachers for innovative activities.

**Keywords:** digital technologies, competence, innovative activities, information and communication technologies, Internet, infrastructure, online lessons, database, electronic book.

**Kirish.** Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida raqamli texnologiyalarni barcha sohalarga joriy etish, xususan, ta'lim tizimini raqamlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonining sifatini oshirish, interaktiv va individual yondashuvlarni ta'minlash imkonini beradi. Bunday sharoitda pedagogdan nafaqat zamonaviy vositalarni bilish, balki ularni didaktik maqsadga muvofiq holda samarali qo'llay olish mahorati talab etiladi. Shuning uchun pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni innovatsion texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridandir. Mazkur ishda aynan shu yo'nalishda mavjud muammolar, ularni bartaraf etish usullari hamda pedagogning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** So'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Sh.M.Imomova, F.F.Norova, N.D.Mirzahmedova, I.I.Raxmatov, Sh.I.Raxmatova singari tadqiqotchilar ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati, raqamli kompetensiyaning mazmuni hamda o'qituvchilarning raqamli savodxonligini shakllantirish usullari bo'yicha

muhim g'oyalarni ilgari surishgan. Xalqaro tajribada esa T.V.Potemkina ta'limda raqamli transformatsiyaning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan bo'slib, ular o'qituvchilarining raqamli ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish bo'yicha standartlarni izohlab bergan.

Pedagogning raqamli texnologiyalar bilan ishslash mahoratini oshirish bugungi ta'lim tizimida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli vositalarning dars jarayoniga kirib kelishi o'qituvchidan zamonaviy yondashuv, yangilikka ochiqlik va texnologiyalarni egallash qobiliyatini talab qiladi. Endilikda nafaqat an'anaviy dars uslublari, balki interaktiv, multimedya va masofaviy yondashuvlar ham pedagogik mahorat mezoniga aylangan. Pedagog raqamli savodxonlikka ega bo'lishi, ya'ni axborotni izlay olish, tahlil qilish, maqsadga muvofiq tarzda qo'llay olishni bilishi kerak. Bundan tashqari, elektron platformalarda ishslash, test va materiallar tayyorlash, onlayn darslar o'tish, video va grafik vositalardan foydalanish, virtual baholashni amalga oshirish ko'nikmalari ham zamon talabi hisoblanadi. Kundalik.com va hemis.com tizimi shular jumlasidandir. Bunday ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'qituvchilarga amaliy mashg'ulotlar, zamonaviy treninglar, raqamli texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish kurslari, ustoz-shogird asosidagi tajriba almashinuvi muhimdir. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni o'rganishda qulay infratuzilma, texnik jihozlar va uslubiy qo'llanmalar ham katta rol o'ynaydi.

Bugungi pedagogdan faqat texnik bilim emas, balki shu bilimlarni ta'limiy vazifalarga moslashtira olish, didaktik maqsadlarga xizmat qildira olish mahorati talab etiladi. Zero, raqamli texnologiyalar o'qituvchining emas, aynan o'quvchining o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Shunday ekan, raqamli transformatsiya jarayonida pedagog markaziy shaxs sifatida doimiy o'zgarish va o'sishga tayyor bo'lishi zarur. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish bugungi kunda nafaqat o'qituvchining shaxsiy ixtiyoriga bog'liq masala emas, balki ta'lim jarayonining sifatlari tashkil etilishi uchun zaruriy shartga aylanmoqda. Darsda zamonaviy texnologiyalarni qo'llay oladigan pedagog o'quvchilar uchun yanada qiziqarli, ochiq va tushunarli muhit yaratadi. Bu o'z navbatida fanlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi, o'quvchini faol subyektga aylantiradi.

Raqamli vositalar yordamida pedagog dars jarayonini soddalashtiradi, vaqt ni tejaydi, o'quvchilarining individual xususiyatlariga qarab yondashadi. Shuningdek, tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, tezkor baholash, interaktiv savol-javob kabi metodlar texnologiyalar bilan uyg'un holda ishlatilganda yanada samarali bo'ladi.

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) iboralari kundalik turmushda eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki hayotning qaysi sohasini olmaylik, qanday amallarni bajarmaylik, albatta, AKT bilan ish ko'ramiz. Zamonaviy AKT-dan foydalanish, axborot almashish, ularni uzatish, o'zlashtirish inson faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari juda keng tizim bo'lib, unga ma'lum bo'lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, internet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, bilimlar ombori kabilar misol bo'lishi mumkin. XXI asr – axborotlashtirish asrida ta'lim sohasiga elektron ta'limni joriy etish, har bir ta'lim muassasasida o'qitish va o'qish jarayonining, ta'lim muassasasi boshqarilishining, ta'lim muassasasi bo'linmalarining, ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.<sup>1</sup>

O'qituvchilarining raqamli mahoratini oshirishda ularga moslashtirilgan, bosqichma-bosqich o'rgatuvchi dasturlar zarur. Ko'pchilik pedagoglar yangi texnologiyalarni qo'rqib yoki noaniq yon-

<sup>1</sup> Sh.M.Imomova, F.F.Norova. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. "Miasto Przyszlosci" xalqaro onlayn jurnal. Polsha -2023. 47-49.

dashuv bilan qarshi oladi, bu esa o‘z vaqtida yo‘lga qo‘yilmagan o‘qitish tizimi natijasidir. Shu bois o‘qituvchilarni rag‘batlantirish, ularga real amaliy yordam berish, hatto eng sodda vositalardan boshlab o‘rgatish zarur hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat – o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan yondashuvi ham o‘qituvchining texnologiyalardan foydalana olish darajasi bilan bog‘liq. Chunki zamonaviy yoshlari raqamli dunyo vakillari sifatida interaktivlikka, tezkorlikka va vizual ta’sirga katta e’tibor qaratadilar. Ana shu ehtiyojlarga javob bera oladigan pedagog esa o‘z o‘quvchisiga yaqin bo‘ladi, zamon bilan hamnafas ta’lim beradi. Pedagogning raqamli vositalar bilan ishlash mahorati faqat darsni o‘tish bilan cheklanmasligi kerak. U o‘zining kasbiy faoliyatini rejalshtirish, tahlil qilish, monitoring yuritish, tajribasini elektron shaklda saqlash va taqdim etish kabi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, internet madaniyati, axborot xavfsizligi, raqamli etikaga oid bilimlar ham hozirgi zamon o‘qituvchisi uchun zarurdir.

Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta’lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyani o‘zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy xo‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko‘rsatishni, aqlii texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Ta’lim tizimi faoliyatida raqamlashtirishga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish osonlashmoqda. Bunda esa ta’lim tizimi vositalari rolini multimedya vositalari, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishi hammaga ma’lum. Masalan, televideniye orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo‘ladi.<sup>1</sup>

Pedagog kadrlarning raqamli texnologiyalar bilan ishlashga doir kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki raqamli texnologiyalar nafaqat ta’lim mazmuni va metodikasini yangilaydi, balki o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ham tubdan o‘zgartiradi. Shu bois Yangi O‘zbekiston sharoitida pedagoglarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash madaniyati va mahoratini oshirish ko‘p bosqichli, tizimli yondashuvni talab etadi. Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish usullarini quyidagi-cha izohlash mumkin:

1. Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish. Bu yo‘nalishda raqamli pedagogik texnologiyalar, masofaviy ta’lim platformalari, sun’iy intellekt elementlari bilan ishlash bo‘yicha modulli kurslar, interaktiv treninglar va amaliy mashg‘ulotlar asosida yangilangan

<sup>1</sup> N.D.Mirzahmedova. Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo‘llanilishi. “Oriental renaissance: innovative, educational,natural and social sciences scientific journal” respublika ilmiy jurnali. Toshkent-2022. 538-545.

o'quv dasturlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

2. Pedagogik faoliyatda raqamli vositalarning integratsiyasini yo'lga qo'yish. O'qituvchilar dars jarayonida raqamli taqdimotlar, elektron testlar, interaktiv ilovalar, virtual laboratoriylar va animatsion modellarni didaktik maqsadlarga muvofiq qo'llay olish malakasini egallashlari lozim.

3. O'zaro tajriba almashuv va mentorlik asosida o'rganish. Ilg'or pedagoglarning raqamli texnologiyalardagi tajribasini ommalashtirish, kasbiy jamoalarda tajriba almashuv muhitini shakllantirish orqali raqamli madaniyatni rivojlantirish samarali yo'llardan biridir.

4. Mustaqil raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish. O'qituvchilar uchun ochiq elektron platformalarda o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan imkoniyatlar kengaytirilishi zarur.

5. Pedagogik infratuzilmani zamonaviy texnika vositalari bilan boyitish. Dars jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish o'z navbatida ta'lim muassasalarining texnik ta'minoti, yuqori tezlikdagi internet, elektron kutubxonalar mavjudligiga ham bevosita bog'liqdir.

6. Motivatsion mexanizmlarni joriy etish. Pedagoglarning raqamli innovatsiyalarga ochiqligini oshirishda ularning kasbiy faoliyatidagi raqamli yutuqlarini e'tirof etish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish muhim omildir.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi o'qituvchilardan yangicha fikrlash, texnologik yangiliklarni egallash hamda ularni ta'limiy maqsadlarga moslashtira olish kompetensiyalarini talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar bilan ishlash mahorati nafaqat dars jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrashi, interaktivlik va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Pedagoglarning ushbu sohadagi salohiyatini oshirish uchun kompleks yondashuv muhim: malaka oshirish kurslari, amaliy treninglar, zamonaviy infratuzilma, metodik va huquqiy asoslar bilan birga, motivatsion omillar ham muvozanatda qo'llab-quvvatlanishi lozim.

G.V.Potemkinaning fikriga ko'ra, pedagogning raqamli kompetensiyalari ta'limning raqamli didaktik imkoniyatlari va resurslaridan foydalanish imkonini ham beradi. Raqamli didaktikani rivojlanishi uchun didaktik loyihalar va birgalikdagi ta'lim olish va yangi bilimlarni o'zlashtirishni ko'zda tutadi.<sup>1</sup>

Hozirgi pedagoglarda raqamli muhitda ishlash bilan birga to'plagan ma'lumotlarni interfaol ishlash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi kerak. O'qituvchilarning oldida hozir yangi kompetensiyalarni rivojlanishi vazifasi turibdi. Jamiyatni va iqtisodni rivojlanishi uchun ta'limni sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarib raqamli ta'lim kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak.<sup>2</sup>

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ta'lim tizimini raqamlashtirish ustuvor yo'naliшlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu o'zgarishlar pedagogik faoliyat mazmuni va shakl-shamoyilini tubdan yangilashni taqozo qilmoqda. Zamonaviy pedagog faqatgina bilim beruvchi emas, balki raqamli muhitda faoliyat yurita oladigan, texnologik vositalarni samarali qo'llay biladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Shu sababli, pedagoglarning raqamli texnologiyalar bilan ishlashga doir malakasini oshirish bugungi kunda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagog raqamli vositalar yordamida ta'lim mazmunini individuallashtirish, o'quvchilarning mustaqil o'zlashtirishini ta'minlash, differensial yondashuvni joriy etish imkoniga ega bo'ladi. Buning uchun pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni elektron resurslar, masofaviy ta'lim platformalari, multimedya texnologiyalari bilan ishlashga o'rgatish muhim hisoblanadi. Shu

<sup>1</sup> Потемкина Т.В. Зарубежный опыт разработки профиля цифровых компетенции учителя. Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. 2018. №2 с.25

<sup>2</sup> I.I.Raxmatov, Sh.I.Raxmatova. Raqamli ta'lim muhitida pedagoglarni samarali ishlashi uchun kompetensiyalarni shakllantirish. "Science and Education" Scientific Journal. 2023. 381-386

bilan birga, pedagoglar o‘z faoliyatida zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanib, elektron portfellar tuzish, baholashning raqamli shakllarini joriy etish, onlayn tahlil vositalaridan foydalanish kabi amaliy ko‘nikmalarni egallashi zarur.

Bugungi ta’lim jarayoni nafaqat texnik vositalarni egallashni, balki axborot madaniyati, axloqiy me’yorlar, raqamli xavfsizlik tamoyillariga rioya qilishni ham talab qiladi. Shuningdek, raqamli pedagogik kontentni mustaqil ishlab chiqish, innovatsion yondashuvlarni qo’llash, o‘z ustida domiy ishlash – raqamli kompetensiyaning ajralmas qismidir.

**Muhokama va natijalar.** Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim bosqichida raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda pedagoglarning raqamli savodxonligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalari va innovatsion metodik yondashuvlarni egalash hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunda ko‘plab pedagoglar raqamli texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan qiziqishlari yuqori bo‘lsa-da, ularni samarali qo’llashda metodik ko‘nikmalar yetarli emas. Bu holat, ayniqsa, masofaviy ta’lim, interaktiv platformalar, raqamli o‘quv kontenti yaratish, virtual laboratoriylar bilan ishlashda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

**Xulosa.** XXI asrda inson hayotining barcha jahbalarida raqamli texnologiyalar keng qo’llanilayotgani singari, ta’lim tizimi ham chuqur va jadal raqamlashtirish jarayonlariga yuz tutmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, raqamli infratuzilmani yaratish va pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish mahoratini oshirish dolzARB vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur tadqiqotda ushbu jarayonning mazmun-mohiyati, zaruriyati va amaliy yo‘nalishlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasini, balki raqamli tafakkur, media savodxonlik, masofaviy ta’lim platformalari bilan ishlash, o‘quvchilarning raqamli muhitda o‘rganish motivatsiyasini oshirish kabi murakkab ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston ta’limi uchun raqamli texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirgan, zamon talablariga mos innovatsion fikrlovchi pedagoglar tayyorlash eng muhim ustuvorliklardan biridir. Pedagogning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish - bu shunchaki texnik savodxonlik emas, balki ta’lim sifatini tubdan oshirish, o‘quvchining individual qobiliyatini raqamli muhitda rivojlantirish, xalqaro standartlarga mos ta’limni tashkil etishning strategik yo‘nalishidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Т.В.Потемкина. Зарубежный опыт разработки профиля цифровых компетенции учителя. Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. 2018.№2 с.25
2. Sh.M.Imomova, F.F.Norova. Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. “Miasto Przyszlosci” xalqaro jurnal. Polsha -2023. 47-49.
3. N.D.Mirzahmedova. Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo’llanilishi. “Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal” respublika ilmiy jurnali. Toshkent-2022. 538-545.
4. I.I.Raxmatov, Sh.I.Raxmatova. Raqamli ta’lim muhitida pedagoglarni samarali ishlashi uchun kompetensiyalarni shakllantirish. “Science and Education” Scientific Journal. 2023. 381-386

## OLIY TA'LIMDA KVANT MEXANIKASINI O'QITISHNING PEDAGOGIK MODELI XUSUSIYATLARI VA SAMARADORLIGI

Muxtarov Erkinjon Kobiljonovich

Andijon davlat universiteti, Umumiy fizikasi kafedrasи dotsenti

Zaynabidinov Sirojiddin Zaynabidinovich

Andijon davlat universiteti, Kondensirlangan muhitlar fizikasi kafedrasи professori, akademik,

[muxtarov77a@gmail.com](mailto:muxtarov77a@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada kvant mexanikasini o'qitishda uchraydigan metodik muammolar, ayniqsa, vodorodsimon atom modeli orqali nazariyani o'qitishdagi murakkabliklar tahlil qilinadi. Talabalarning mavzuni to'laqonli o'zlashtirishi uchun raqamli texnologiyalar asosida vizualizatsiya va modellashtirish vositalarini joriy etish taklif etiladi. Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan elektron o'quv dasturi yordamida kvant sonlariga bog'liq to'lqin funksiyalari, ehtimollik zichligi grafiklari va ularning fizik talqinlari namoyish etilgan. Ushbu vosita orqali talabalarning nazariy bilimlari chuqurlashtiriladi va ularning mustaqil tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Natijalar, raqamli texnologiyalardan foydalanish kvant mexanikasi kabi murakkab fanlarni o'rgatishda sezilarli yengilliklar yaratishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** kvant mexanikasi, vodorodsimon atom, raqamli texnologiyalar, to'lqin funksiyasi, ehtimollik zichligi, elektron ta'lif resursi, o'qitish metodikasi, o'quv jarayoni, Shredinger tenglamasi.

## ОСОБЕННОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ПРЕПОДАВАНИЯ КВАНТОВОЙ МЕХАНИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** В статье анализируются методические проблемы, возникающие при преподавании квантовой механики, в частности, сложности, связанные с объяснением модели атома водорода. Для полноценного усвоения темы студентами предлагается внедрение средств визуализации и моделирования на основе цифровых технологий. С помощью разработанной авторами электронной обучающей программы продемонстрированы волновые функции, графики плотности вероятности и их физическая интерпретация в зависимости от квантовых чисел. Этот инструмент способствует углублению теоретических знаний студентов и развитию их самостоятельных аналитических навыков. Полученные результаты показывают, что использование цифровых технологий значительно облегчает преподавание таких сложных дисциплин, как квантовая механика.

**Ключевые слова:** квантовая механика, водородоподобный атом, цифровые технологии, волновая функция, плотность вероятности, электронный образовательный ресурс, методика преподавания, учебный процесс, уравнение Шредингера.

## FEATURES AND EFFECTIVENESS OF THE PEDAGOGICAL MODEL FOR TEACHING QUANTUM MECHANICS IN HIGHER EDUCATION

**Abstract.** The article analyzes methodological challenges encountered in teaching quantum mechanics, particularly the complexities involved in explaining the hydrogen-like atom model. To ensure comprehensive understanding of the topic by students, the introduction of visualization and modeling tools based on digital technologies is proposed. Using the electronic educational program developed by the authors, wave functions, probability density graphs, and their physical interpretations depending on quantum numbers are demonstrated. This tool helps deepen stu-

dents' theoretical knowledge and enhance their independent analytical skills. The results show that the use of digital technologies significantly facilitates the teaching of complex subjects such as quantum mechanics.

**Key words:** quantum mechanics, hydrogen-like atom, digital technologies, wave function, probability density, electronic educational resource, teaching methodology, educational process, Schrodinger equation.

**Kirish.** Kvant mexanikasi - zamonaviy fizik fanlarning nazariy asosini tashkil etuvchi, ayni paytda o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan fanlardan biridir. Bu fan nafaqat matematik jihatdan yuqori darajada abstrakt, balki intuitiv tafakkurga zid bo‘lgan nazariy tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi. Aynan shu xususiyatlari tufayli uni o‘qitishda pedagogik va metodik yondashuvlarning roli beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, kvant fizikasi kursining boshlang‘ich bosqichlarida ko‘plab talabalar nazariy formulalar va fizik mazmun o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ayniqsa, to‘lqin funksiyasi, ehtimollik zichligi, kvant sonlari va energetik holatlarning fizik talqini singari tushunchalarni mustaqil idrok etish va ulardan amaliy foydalana olishda sust-kashlik kuzatiladi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish, ayniqsa tabiiy fanlarni o‘rgatishda, sezilarli ijobjiy samara bermoqda [7,8]. Vizualizatsiya, modellashtirish va interaktiv taqdimot vositalari orqali nazariy bilimlarni sezgi orqali qabul qilish imkoniyati kengaymoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kvant mexanikasining murakkab mavzularini o‘zlashtirishda grafik interfeyslar, animatsiyalar va sonli modellashtirish elementlari katta didaktik ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Klassik mexanika odatda talabalar uchun tushunarli bo‘lib, kundalik tajribamizga mos keladi. Biroq, kvant mexanikasiga o‘tilganda talabalar to‘lqin funksiyasi, ehtimollik talqini, energiyaning kvantlanishi va noaniqlik munosabati kabi mavhum tushunchalar bilan duch keladilar. Bu tushunchalar klassik fizik tafakkuridan keskin farq qiladi va o‘zlashtirishni murakkablashtiradi [3].

Kvant mexanikasida markaziy tushuncha to‘lqin funksiyasidir. Uning moduli kvadrati zarrachaning fazodagi ehtimoliy joylashuvini bildiradi. Bu ehtimollik taqsimotlari kvant sonlariga bog‘liq bo‘lib, ularni tahlil qilish uchun sferik koordinatalar, radial funksiyalar va sferik garmonikalarni tushunish talab etiladi.

Ushbu murakkab tushunchalarni samarali o‘rgatish uchun vizual vositalar - grafiklar, animatsiyalar va raqamli modellashtirishdan foydalanish muhimdir. Ayniqsa, ehtimollik zichligining grafik ko‘rinishlari va kvant holatlarning vizualizatsiyasi talabalar tushunchasini chuqurlashtiradi [1,2,4].

Mazkur nazariy asoslar tahliliga tayangan holda, kvant mexanikasining asosiy model tizimlaridan biri – bir elektronli markaziy simmetrik potensial maydonda harakatlanuvchi zarrachaning nazariy tahliliga o‘tamiz.

Kvant mexanikasida zarrachaning holatini tasvirlash uchun asosiy tenglama – stasionar Shredinger tenglamasi hisoblanadi [10]:

$$\hat{H}\psi(\vec{r}) = E\psi(\vec{r})$$

bu yerda:  $\hat{H}$  - Gamiltonian operatori,  $E$  - to‘lqin funksiyaga mos keluvchi energiya qiymati,  $\psi(\vec{r})$  - zarrachaning fazodagi to‘lqin funksiyasi.

Vodorod atomida elektron va yadro orasidagi o‘zaro ta’sir energiyasi:

$$U(r) = -\frac{e^2}{4\pi\varepsilon_0 r}$$

Bu markaziy potensial bo'lib, u faqatgina radius  $\vec{r}$  ga bog'liq.

Shredinger tenglamasiga

$$\psi_{n,l,m}(r, \theta, \varphi) = R_{n,l}(r) \cdot Y_l^m(\theta, \varphi)$$

ni qo'yib, burchak qismini ajratilsa, radial tenglama hosil bo'ladi:

$$\frac{d^2u}{dr^2} + \left[ \frac{2m}{\hbar^2} \left( E + \frac{e^2}{4\pi\varepsilon_0 r} \right) - \frac{l(l+1)}{r^2} \right] u(r) = 0$$

Bu yerda  $u(r)=rR(r)$  – modifikatsiyalangan radial funksiya,  $l$  – orbital kvant soni.

Asosiy holat:  $n=3$ ,  $l=0$  uchun radial to'lqin funksiyasi:

$$R_{30}(r) = \frac{2}{81\sqrt{3}a_0^3} \left[ 27 - 18\frac{r}{a_0} + 2 \cdot \left( \frac{r}{a_0} \right)^2 e^{-r/3a_0} \right]$$

Ehtimollik zichligi to'lqin funksiyasining moduli kvadratiga  $r^2$  ko'paytmasi orqali aniqlanadi:

$$\rho(r) = r^2 |R_{30}(r)|^2$$

Ushbu munosabatlarni tushunish muammolarni hal qilish uchun ham, kvant holatlarini raqamli simulyatsiya qilish uchun ham muhimdir. So'nggi tadqiqotlar kvant mexanikasi ta'limida to'lqin funktsiyalari, ehtimollik zichligi va energiya sathini vizualizatsiya qilish uchun raqamli texnologiyalar va kompyuter simulyatsiyalaridan foydalanish samaradorligini ta'kidlaydi [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda kvant mexanikasiningni o'qitish samaradorligini oshirish uchun nazariy tahlil, matematik modellashtirish va raqamli vizualizatsiyani birlashtirgan integratsiyalashgan metodologik yondashuv taklif etildi.

Metodologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- to'lqin funksiyasi va ehtimollik zichligi tushunchalarini o'zlashtirishdagi asosiy didaktik muammolarni tahlil qilish;
- Shredinger tenglamasining analitik va sonli yechimlarini o'rganish;
- vizualizatsiya va tahlil qilish imkonini beruvchi elektron o'quv modulini ishlab chiqish;
- interaktiv topshiriqlar orqali talabalarning tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Elektron modul Python dasturlash muhiti asosida ishlab chiqildi va unda to'lqin funktsiyalari, ehtimollik zichligi va radial taqsimotlarning grafigi va 3D vizualizatsiyasi avtomatik yaratiladi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Kvant mexanikasida vodorod atomi elektronining kvant holatini o'rganish talabalar uchun muhim, ammo murakkab mavzulardan biridir. Ushbu fan orqali talabalar energiya kvantlash, ehtimollik zichligi, kvant sonlari, radial va umumiy to'lqin funksiyalarning fizik ma'nosi kabi fundamental tushunchalarni o'zlashtiradilar. Biroq, bu tushunchalarning umumiy tuzilishi va matematik formulasi juda mavhum va ko'pincha klassik fikrlashga ziddir.

Xususan, Kulon potensiali uchun Shredinger tenglamasining yechimlari va ularning kvant sonlariga nisbatan murakkabligi ortib borishi talabalarning mavzuni tushunishlarini qiyinlashtiradi. Kvant sonlari ortib borishi bilan to'lqin funksiyalarining shakli ham, analitik shakli ham, ehtimollik zichligi ham geometrik va analitik murakkablashadi. Bu esa o'z navbatida talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, o'qitish jarayonida cheklangan o'qitish vaqtiga o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi faol hamkorlik imkoniyatlarini ka-

maytiradi.

Mavzuning murakkabligini hal qilish va talabalarga vizual va intuitiv vositalar orqali uning mazmunini o'zlashtirishga yordam berish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish samarali yechim bo'lib xizmat qiladi. Xususan, elektronning radial to'lqin funksiyasi, ehtimollik zichligi kabi fizik kattaliklarni interaktiv grafiklar va simulyatsiyalar orqali vizual tarzda ko'rsatish mavhum tushunchalarni moddiy tasvirlar bilan bog'lash imkonini beradi.

O'quv jarayonidagi yuqorida qayd etilgan muammolar va uslubiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda, mualliflar tomonidan vodorodsimon atomdagi elektronning kvant holatini modellashtirishga qaratilgan elektron o'quv dasturi ishlab chiqilgan [9]. Ushbu dastur talabalarga ma'lum kvant sonlari uchun to'lqin funksiyalarini hisoblash, ularning grafik shaklini ko'rish, ehtimollik zichligini tahlil qilish va berilgan oraliqda elektronni topish ehtimolini hisoblash imkonini beradi. Shu tariqa o'quv jarayoni chuqurroq tushunish, faol ishtirok etish, mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu ishlab chiqilgan dasturdan o'quv jarayonida amaliy foydalanish quyidagi misollarda ko'rsatilgan [6].

**1. Ehtimollik zichligining nol nuqtalarini tahlil qilish.**


$n=3, l=0$  kvant holati uchun radial ehtimollik zichligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\rho(r) = r^2 |R_{30}(r)|^2$$

Bu ifoda  $p(r)=0$  nuqtalarni aniqlash uchun tahlil qilindi. Analitik yechim shuni ko'rsatadiki, ehtimollik zichligi quyidagi nuqtalarda nolga aylanadi:

$$r_1=0, \quad r_2 \approx 1,90a_0, \quad r_3 \approx 7,0a_0, \quad r_4=\infty$$

Ushbu natijalar (1-rasm, A, B, C va D nuqtalari) radial ehtimollik zichligi grafigi bilan solishtirildi va to'liq mosligi aniqlandi. Bu, elektronni aynan shu radial masofalarda topilish ehtimolligi nolga teng ekanini tasdiqlaydi hamda to'lqin funksiyasidagi tugunlarning fizik ma'nosini yaqqol namoyon etadi. Xususan,  $r_2, r_3$  nuqtalardagi tugun ehtimollik zichligining lokal minimumi (nol qiymati) bo'lib, kvant holatining to'lqinsimon tuzilmasini aks ettiradi.



1-rasm. Vodorodsimon atomidagi elektronning  $n=3, l=0$  kvant holatdagi ehtimollik zichligi grafigi

**2. Ehtimollik zichligi maksimal qiymatga erishadigan nuqtalarni aniqlash.**

Kvant mexanikasida ehtimollik zichligi funksiyasi  $p(r)$  elektronning fazodagi taqsimotini tavsiflaydi.  $n=3, l=0$  kvant holati uchun ehtimollik zichligi  $p(r)$  maksimal qiymatga erishadigan radial masofa  $r_{max}$  aniqlandi. Bu qiymatni topish uchun radial ehtimollik zichligi funksiyasining hosilasi nolga tenglashtirildi va ekstremum shartlari tahlil qilindi:

$$\frac{d\rho(r)}{dr} = \frac{\partial}{\partial r} r^2 |R_{30}(r)|^2 = 0$$

Ushbu differensial tenglamaning yechimi kritik nuqtalarni beradi:

$$r_1 \approx 0,78a_0, \quad r_2 \approx 4,2a_0, \quad r_3 \approx 13a_0$$


Ushbu nazariy natijalar  $p(r)$  funksiyasining grafigi bilan solishtirildi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, ehtimollik zichligi  $r_1$ ,  $r_2$  va  $r_3$  nuqtalar (1-rasm, E, F va G nuqtalarning abssissalari) da maksimum qiymatlarga ega bo‘ladi. Bu nuqtalar elektronni yadroning ushbu masofalarida topilish ehtimolligi eng yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa kvant mexanikasida fazoviy taqsimotning statistik tabiatga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi.

**3.** Ehtimollik zichligi funksiyasining qiymatini aniqlash.

$r_1 \approx 0,78a_0$ ,  $r_2 \approx 4,2a_0$ ,  $r_3 \approx 13a_0$  nuqtalarda ehtimollik zichligi maksimal qiymatga erishishligi aniqlandi. Navbatda mazkur nuqtalarda  $p(r)$  ning qiymatlarini aniqlaymiz, hisob kitob murakkab ekanligi sababli faqat natijani keltiramiz:

$$p(r_1) \approx 2,8 \cdot 10^8, \quad p(r_2) \approx 7,25 \cdot 10^8, \quad p(r_3) \approx 1,9 \cdot 10^9$$

$r_1$ ,  $r_2$  va  $r_3$  ning sonli qiymatlari chizilgan grafikda kuzatilgan qiymatlar (1-rasm, E, F va G nuqtalarning ordinatalari) bilan juda yaqin mos keladi. Shunday qilib, analitik ifodalar asosida olingan nazariy natijalar grafik modellashtirish orqali olingan natijalar bilan to‘liq mos keladi, degan xulosa chiqarish mumkin. Bu esa matematik hisoblashlarning to‘g‘riligini va kvant mexanikasining qonuniyatlarini o‘quv jarayonida tushunish hamda vizualizatsiya qilishda raqamli simulyatsiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi.



2-rasm. Ehtimollik zichligi grafigi: a) elektronning  $n=1, l=0$  holati uhcun;

b) elektronning  $n=2, l=0$  holati;

Shuni ta’kidlash kerakki, vodorodsimon atomdagi elektronning ehtimollik zichligi taqsimoti kvant holatiga, ya’ni asosiy kvant soni  $n$  va orbital kvant soni  $l$  ga bog’liq. Elektronning  $n=3, l=0$  holatdagi ehtimollik zichligi grafigini (1-rasm), vodorod atomidagi elektronning  $n=1, l=0$  (2-rasm, a) va  $n=2, l=0$  holatdagi (2-rasm, b) ehtimollik zichligi grafiklari [2] bilan taqqoslash pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, ehtimollik zichligi taqsimotida:

- $n=1, l=0$  holatda bitta maksimal qiymatga ega bo‘lgan bitta o‘rkach mavjud;
- $n=2, l=0$  holatda ikkita o‘rkach kuzatiladi, ya’ni bitta tugun (nol qiymatga ega nuqta) mavjud;
- $n=3, l=0$  holatda esa uchta o‘rkach bo‘lib, ular orasida ikkita tugun nuqtasi mavjud.

Bu hodisa kvant mexanikasining umumiy qoidalariaga mos keladi: radial ehtimollik zichligi funksiyasi grafigidagi o‘rkachlar (maksimumlar) soni asosiy kvant soni  $n$  ga teng, tugunlar (nolga teng bo‘ladigan nuqtalar) soni esa  $n-l-1$  formulasi orqali aniqlanadi.


Shunday qilib, ehtimollik zichligi grafigidagi o'rakchlar soni elektronning kvant holatini xarakterlaydigan asosiy kvant soni  $n$  ga mos ravishda ortadi. Bu esa kvant mexanikasi qonuniyatlarini grafik tarzda tushunish va talabalarga samarali yetkazish uchun muhim didaktik vosita hisoblanadi.

4. Elektronni  $0 < r < 1,9a_0$  oraliqda topilish ehtimolligi ( $\omega_1$ ) ni aniqlash.

Elektronni radial masofa  $0 < r < 1,9a_0$  oraliqda joylashgan holda topilish ehtimolligi quyidagi integral orqali hisoblab chiqildi:

$$\omega_1 = \int_0^{1,9a_0} r^2 |R_{30}(r)|^2 dr$$

Ushbu integrallash jarayoni murakkabligi va vaqt talab qilishi sababli faqat yakuniy natija keltirildi:  $\omega_1 = 0,0642$ .



3-rasm. Elektronning  $n=3, l=0$  holat uchun ehtimollik zichligi grafigi.

Hisoblangan qiymat grafikda (3-rasm)  $S_1$  sohasi bilan alohida rangda ajratilgan holda tasvirlangan. Analitik natijaning grafik tasviri bilan yaqin mos kelishi hisob-kitoblarning to'g'riligini tasdiqlaydi va elektronning yadroga yaqin joylashgan bo'lish ehtimoli statistikasini aks ettiradi. Ushbu natija talabalarning kvant sistemalardagi fazoviy taqsimot haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Quyida talabalarni mavzu bo'yicha olgan bilimlarini nazorat qilish maqsadida savollar va masalalar keltirilgan.

1. Orbital bulut nima va u vodorod atomidagi elektronning to'lqin funksiyasi bilan qanday bog'liq?

2. Shredinger tenglamasini yechish orqali vodorod atomidagi elektron energiyasining qanday formulasi olinadi?

3. Vodorod atomidagi elektronning ehtimollik zichligi funksiyasi qanday bo'ladi va u to'lqin funksiyasidan qanday hosil qilinadi?

4. Vodorod atomining  $2p$  orbitaliga tegishli to'lqin funksiyasini yozing va uning shaklini tahlil qiling.

5.  $3s$  orbital uchun ehtimollik zichligi  $\rho(r) = r^2 |R_{30}(r)|^2$  funksiyasining hosilasini nolga tenglashtiring va ekstremum shartlarini tekshirib, maksimum nuqtalarini taqqoslang. Qaysi orbitalda elektron yadrodan uzoqroqda joylashish ehtimoli ko'proq?


7.  $n=3, l=0$  bo'lgan s-orbitalda nechta radial tugun mavjud? Tugunlarning fizik ma'nosi

nima?

8. Vodopodsimon atomning  $n=3$ ,  $l=1$  kvant sonlariga mos holati uchun radial ehtimollik zichligining grafigi ikki xil dastur yordamida qurilgan (4-rasm, a,b). Ushbu grafik asosida quyidagilar aniqlansin:

- ehtimollik zichligi nolga teng bo‘ladigan nuqtalar;
- ehtimollik zichligi maksimal bo‘lgan nuqtalar va ularning qiymatlari.

Hisoblangan natijalar grafikda ko‘rsatilgan qiymatlari bilan taqqoslab tahlil qilinsin.



4-rasm. Vododordsimon atomni  $n=3$ ,  $l=1$  holatining radial ehtimollik zichligi grafigi.

Mazkur savollar vodorod atomidagi elektronning to‘lqin funksiyasi bilan bog‘liq kvant mexanikasining asosiy jihatlarini qamrab oladi. Ular matematik va fizik tamoyillarga, orbital xususiyatlariga, energiya sathlariga hamda ehtimollik asosidagi talqinga oid bilimlarni tekshiradi.

**Xulosa.** Kvant mexanikasi kabi murakkab va abstrakt fanlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalar, xususan, interaktiv modellashtirish vositalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Simulyatsiyalar orqali talabalar elektron orbitallari shakli va ehtimollik zichligi taqsimotini bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularga nazariy tushunchalarni ongli ravishda o‘zlashtirishga ko‘maklashadi.

Raqamli modellarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalar kvant tizimlarining ehtimollik mohiyatini aniqroq tasavvur qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, muammoni turli nuqtai nazardan baholay olish kabi muhim ko‘nikmalarini rivojlantirib, zamonaviy ilmiy tafakkurga yo‘naltiradi.

Kvant mexanikasini o‘qitishda an’anaviy metodlar bilan bir qatorda grafik tasvirlar, matematik modellar va bosqichma-bosqich differensial hamda integral yondashuvlarga asoslangan raqamli modullardan foydalanish lozim. Bu uslubiy yondashuv talabalarda mavzuning mohiyatini chuqur anglash, kontseptual tushunchalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni sezish va nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorgarlikni shakllantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гребёнкин М. Ф., Лобова Л. П., Лазарев А. В. Визуализация электронной плотности атома водорода // Системный анализ в науке и образовании [электронный ресурс]. – 2010. – Вып. № 1. – Режим доступа: <https://sanse.ru/index.php/sanse/article/view/213>.
2. Hiroya Suno, Nobuaki Ohno. Virtual Hydrogen, a virtual reality education tool in physics and chemistry. Presented at the 27th International Conference on Knowledge-Based and Intelligent Information & Engineering Systems (KES 2023). Hosei University & University of Hyogo, Japan.
3. Иванов М.Г. Как понимать квантовую механику. – 2-е изд., исправленное и дополненное. – М: НИЦ «Регулярная и хаотическая динамика»; Институт компьютерных исследований,

2015. 552 c. (Ivanov, M.G. *How to Understand Quantum Mechanics*. 2nd ed., revised and supplemented. Moscow: Research Center “Regular and Chaotic Dynamics”; Institute for Computer Research, 2015. 552 p.)
4. Khilmanovich V.N. Specifics and effectiveness of a pedagogical model of teaching the basics of quantum mechanics in higher school // Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. 2014. №9-10. pp.137-140. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-i-effektivnost-pedagogicheskoy-modeli-prepodavaniya-osnov-kvantovoy-mekhaniki-v-vysshey-shkole.pdf>
5. Konishi K., Pafutti G. Quantum Mechanics. A New Introduction. – Oxford University Press, 2009. 778 p.
6. Muxtarov E.K. Kvant mehanikasidan mashqlar, tavsify masalalar va ularning yechimlari. Nukus: Ilmiy-ma’rifiy adabiyotlar nashriyoti, 2023. – B.196. (Mukhtarov, E.K. *Exercises in Quantum Mechanics: Descriptive Problems and Their Solutions*. Nukus: Scientific and Educational Literature Publishing House, 2023. 196 p.)
7. Mukhtarov E.K. Methodology of teaching the topic “Spherically symmetric potential well” using digital technologies in the course of quantum mechanics // American Journal of Social and Humanitarian Research. 2025. Vol. 6, Issue 7. pp. 1778-1786. <https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/3792>
8. Потапов А. А. Компьютерное моделирование электронного строения атома водорода и водородоподобных структур // Бутлеровские сообщения. – 2011. – Т. 28, № 17. – С. 1–10. <https://butlerov.com/files/reports/2005/vol7/1/1-10.pdf>
9. Трофименко В.Е. Microsoft Visual Studio. Учебный курс. – М.: Диалектика, 2021. – 320 с. – ISBN 978-5-8459-2434-8. (Trofimenko, V.E. *Microsoft Visual Studio: Training Course*. Moscow: Dialektika, 2021. 320 p. ISBN 978-5-8459-2434-8.)
10. Zettili N. Quantum mechanics: concepts and applications. USA: Wiley, 2001. 649 p.

## MUNDARIJA

### Pedagogika

|  |    |
|--|----|
| <b>МАHMUDOVA NAZOKAT OTABEK QIZI, YAMGIROVA GULSHIRIN TIRKASHOVNA, SA'DULLAYEVA NILUFAR JAVLON QIZI</b>                              | 4  |
| Kompleks sonlarning trigonometrik shakli: nazariya va amaliyotda qo'llanishlari  |    |
| <b>RO'ZIBOYEVA FOTIMA QUDRAT QIZI</b>  | 8  |
| Umumta'lim maktablaridagi futbol sport to'garagi mashg'ulotlarini samaradorligini oshirishda umumiy jismoniy tayyorgarlikning o'rni  |    |
| <b>QURBONBAYEVA MAFTUNA G'AYRAT QIZI</b>   | 13 |
| Yosh futbolchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati  |    |
| <b>YAMGIROVA GULSHIRIN TIRKASHOVNA, SAIDOV MURODBEK ULUGBEK O'G'LI, SOBIROVA IRODA ULUG'BEK QIZI, AXUNOVA RAYHON O'KTAMBOYEVNA</b>   | 18 |
| Fazoda tekislikning turli tenglamalari mavzusini o'qitishda zamonaviy dasturlar orqali yondashuv                                     |    |
| <b>ISKANDAROVA ZARNIGOR G'AYRAT QIZI, BOTIROVA XURSHIDA DAVRONBEK QIZI, XUJAMOV ELYOR JUMANAZAROVICH</b>                             | 25 |
| Ko'p o'zgaruvchili ba'zi Diofant tenglamalari haqida   |    |
| <b>КАЛАНДАРОВ САРДАР ИБРАГИМОВИЧ, КЕНЖАЕВА КОМИЛА УЛУТБЕК КИЗИ</b>   | 30 |
| Свободное обучение и сотрудничество: педагогическая система Селестена Френе  |    |
| <b>EGAMBERGANOVA DILNOZA DAVRONBEKOVNA</b>   | 40 |
| Murabbiyning o'quvchilarini jismonan rivojlantirish metodologiyasi bilan integrativ uyg'unligi                                       |    |
| <b>KARIMOV HABIBULLA QADAMBAYEVICH</b>   | 45 |
| Gender yondashuvi asosida bitiruvchi sinf o'quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish pedagogik zaruriyat sifatida |    |
| <b>ZEBUNISO NURTAYEVA MURODALI QIZI</b>  | 50 |
| Ta'limda raqamli texnologiyaning o'rni   |    |
| <b>BARATALIYEVA NASIBA МАHMADAMINOVNA</b>  | 56 |
| Servis ta'limida kreativlikni rivojlantirishning metodik yondashuvlari: amaliy model va samaradorlik tahlili                         |    |
| <b>ЮСУПОВ ФИРНАФАС, ШАРИФБОЕВА РОЗА БАХОДИРОВНА, ТАХИРОВА ГУЛЬХАЙО САРДОРБЕКОВНА</b>   | 62 |
| Роль инновационных технологий в организации самостоятельной работы студентов   |    |
| <b>ALIMOV POLVONNAZIR UMIDBEK O'G'LI</b>   | 69 |
| Cognitive approaches to the study of English phraseology   |    |
| <b>SAPAYEV RUZMAT RADJAPOVICH</b>  | 76 |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiyasida axloqiy tarbiya o'rni  |    |
| <b>SAPORBOYEV MIRZABEK SHAVKAT O'G'LI</b>  | 80 |
| Yakka kurash sport turlarida shikastlanishlarning oldini olish va oqibatlarini tahlil etishga qaratilgan ilmiy uslublari             |    |
| <b>ISXAKOV XUSNIDDIN MIRQUNDUZOVICH</b>  | 85 |
| Ta'lim sifatini oshirishda loyihalarni boshqarish tizimi   |    |

|   |     |
|---|-----|
| <b>ABDIRIMOVA SHOXSANAM XUDAYBERGANOVNA</b><br>Ludomaniya xulq atvorini pedagogik korreksiyalash texnologiyalari  | 91  |
| <b>RUSTAMOVA BARNO</b><br>Depressiya va tashvish buzilishlarining shakllanishida ijtimoiy omillarning roli  | 96  |
| <b>UBAYDOVA VAZIRA ERKINOVNA</b><br>Ta'lim klasterida o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini naqshbandiya ta'limoti asosida takomillashtirish metodikasi   | 101 |
| <b>MATYOQUBOV H.SH., PAYZULLAYEVA X.R., RO'ZIMATOVA S.R.</b><br>Organik fotovoltaika sohasidagi rivojlanishlar, polimer quyosh yacheyskalari istiqbollari   | 105 |
| <b>SAFARBAYEVA MOHIRA ZAFARBEK QIZI</b><br>Akselogik yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida konfliktlarni bar-taraf qilish kompetentligini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari | 111 |
| <b>РАШИДОВ АЗИЗБЕК УЛУТБЕКОВИЧ</b><br>Средства и методы тренировки шахматистов: формирование аналитического подхода в подготовке спортсменов высокой квалификации   | 116 |
| <b>SH.X.KELDIYOROVA</b><br>Turli xil kasalliklarda timusda sodir bo'ladigan morfofunksional-patologik o'zgarishlar  | 123 |
| <b>MAMADALIYEVA ZARINA RAXMAT QIZI</b><br>Innovatsyon texnologiya yardamida farmatsita talabalariga raqamli texnologiyani qo'llash metodikasi   | 128 |
| <b>MURTAZAYEVA NASIBA KOMILJONOVNA</b><br>Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiy biokimyo fanini modulli o'qitish texnologiyalarining ahamiyati   | 134 |
| <b>SAIDMURODOVA ZARIFA AZAMATOVNA</b><br>Axborot texnologiyalaridan foydalanib uglevodlar almashinuvi mavzusini o'qitilishini takomillashtirish   | 137 |
| <b>XALIMOVA SALOMAT ASROROVNA</b><br>Tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetentsiyalarini rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik   | 141 |
| <b>ATAJONOVA ANORGUL JUMANIYAZOVNA, OTABAYEVA XUSNIYA</b><br>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy matnlar ustida ishlash orqali ijodiy tafakkurini rivojlantirish  | 146 |
| <b>XUDOYBERGANOV DONIYOR, YULDASHEVA INTIZOR BOTIROVNA</b><br>Pirls xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishning pedagogik ahamiyati (uzoq qishloq hududlari misolida)                  | 153 |
| <b>М. У. ДЖАЛИЛОВ</b><br>Сахарный диабет: современные методы лечения и перспективы терапии  | 157 |
| <b>ЯКУБОВА ШАХНОЗА ЭРКИНБАЕВНА, ИБРАГИМОВА СУРАЙЁ</b><br>Личностно-ориентированный подход как фактор повышения эффективности самостоятельной учебной деятельности студентов   | 160 |
| <b>ХАЛИКОВ КАХОР МИРЗАЕВИЧ</b><br>Совершенствование методики обучения биохимии студентов с помощью программных средств  | 166 |

|   |     |
|---|-----|
| <b>YAKUBOVA SHAHNOZA ERKINBAYEVNA,<br/>JUMANAZAROVA SARVINOZ ERGASH QIZI</b><br>Talabalarda pedagogik jarayonda refleksiya va emotsiyal muvozanatni ta'minlash masalalari         | 171 |
| <b>YAKUBOVA SHAHNOZA ERKINBAYEVNA,<br/>OTANAZAROVA MEHRINISO ABDUSHARIF QIZI</b><br>Inklyuziv ta'limda pedagogning ro'li  | 177 |
| <b>SO'DULLAYEV ZIYODDIN YOVQOCHOVICH</b><br>Interaktiv darslar orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish  | 181 |
| <b>RAXIMBAYEVA GULYORA ULUGBEKOVNA</b><br>Yangi o'zbekistonda pedagogning raqamli texnologiyalar bilan ishslash mahoratini oshirish yo'llari                                      | 184 |
| <b>MUXTAROV ERKINJON KOBILJONOVICH, ZAYNABIDINOV SIROJID-DIN ZAYNABIDINOVICH</b><br>Oliy ta'limda kvant mexanikasini o'qitishning pedagogik modeli xususiyatlari va samaradorligi | 189 |

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**URGENCH STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE**

**Bulletin of the Urgench state pedagogical institute  
(scientific-theoretical and methodical journal)  
№3, 2025**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**Вестник Ургенчского государственного педагогического  
института  
(научно-теоретический, методический журнал)  
№3, 2025**

**Mas'ul kotib – D.Abdullayev  
Muharrirlar – T.Absalamov  
Sahifalovchi – J.Sa'dullayev**

**220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy.**